

ISSN 2181-9580

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
**ILMIY AXBOROTLARI**  
ILMIY-NAZARIY JURNALI

**НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК**  
ТАШКЕНТСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО  
ПЕДАГОГИЧЕСКОГО УНИВЕРСИТЕТА

**SCIENTIFIC BULLETIN**  
OF THE TASHKENT  
STATE PEDAGOGICAL UNIVERSITY

**2021**

***1-son***

**Jurnal Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan  
2014-yil 30-iyulda № 02-00175 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

<b>MUNDARIJA</b>	
<b>Umarov A.Y.</b> Oliy ta'lim muassasalarida ijtimoiy hamkorlik asosida pedagogik kadrlarni tayyorlash	4
<b>Shodmonova Sh.S.</b> Test shakllari orqali yoshlarni kognitivlik darajasini aniqlashga yo'naltirilgan pedagogik omillar	12
<b>Jo'rayev M.Q.</b> Oliy ta'lim muassasalarining elektr energetika yo'nalishi talabalariga elektr mashinalari fanini hozirgi kunda o'qitish tahlili	19
<b>Bagbekova L.K.</b> Rang modellari va grafik formatlar kompyuter grafikasining asosiy bo'g'ini sifatida	23
<b>Komilova Z.M.</b> Ta'lim jarayonida axborot madaniyatini shakllantirish	29
<b>Сайдалиева Ф.Х., Абдувалиева Д.Н.</b> Совершенствование методической подготовки учителей математики в контексте модернизации системы образования	35
<b>Jo'rayeva B.A.</b> Texnika yo'nalishi bakalavrlarining kimyoviy texnologik kompetensiyalarini rivojlantirishdagi yondashuvlar	42
<b>Rustamov S.SH.</b> Oliy ta'lim muassasalarida energetika mutaxassislariga elektr yuritma asoslari fanini o'qitishning innovatsion axborot texnologiyalari	48
<b>Kuychiyeva M.A.</b> Tabiiy fanlar o'qituvchilarining kompetentligi va kasbiy layoqatini rivojlantirish masalalari	53
<b>Saydaxmetova SH.R.</b> Organik kimyo fanini o'qitishda muammo va yechimlar	58
<b>Алимова Ф.А., Искандаров О.Ю.</b> Квест технология в обучении химии	64
<b>Movlonova S.A.</b> Azotli yuqori molekulyar birikmalar bo'limini o'qitishda differensial yondashuv asosida pedagogik texnologiyalarning qo'llanilishi	72
<b>Mamatqulova M.V.</b> Bo'lajak o'qituvchilarni sifatli tayyorlashning zaruriy sharti sifatida ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish	77
<b>Mambetova L.M.</b> 6-sinf o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishda matn ustida ishlashning ahamiyati	83
<b>Namazbayeva L.Z.</b> Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida, ilm-fan va tabiat rivojlanish markazida tajriba va eksperiment uslubidan foydalanishni yanada takomillashtirish	88
<b>Orazimbetov Y.K.</b> Xalq pedagogikasi - yoshlarni vatanparvarlikka tarbiyalashda asosiy manba	94
<b>Kadirova Y.B.</b> O'quvchilarda fuqarolik savodxonligini rivojlantirish imkoniyatlari	106
<b>Tursunov SH.R.</b> Talabalarda vatanparvarlik ruhini shakllantirishning nazariy asoslari	111

<b>Xasanov A.A.</b> Nofilologik yo‘nalishlarda kasbiy-pedagogik tayyorlash jarayonida chet tili vositalari bilan bo‘lajak o‘qituvchining muloqot kompetensiyasini rivojlantirish	116
<b>Karimova D.A. Abdullaeva I.</b> Musiqa madaniyati darslarida o‘quvchilarni estetik tarbiyasini yuksaltirishda o‘zbek professional raqsi asoschilari bilan tanishtirishning ahamiyati.	122
<b>Bulatov S.S., Saipova M.S., Panayeva M.M.</b> Pahlavon Mahmud maqbarasidagi bezaklarning tarixiy-ijodiy mazmunini o‘quvchilarga yetkazish	133
<b>Qodirova A.B.</b> Al-Hakim at -Termiziy asarlarida psixologik qarashlarning ilmiy mazmuni va so‘fiylik nazariyasi bo‘yicha tahlili	139
<b>Abdug‘aniyev O.T.</b> Talabalarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik imkoniyatlari	145
<b>Nasirov A.N.</b> “Qaydasan Moriko” qissasida shaxs fojiasi talqini	153
<b>Djurakulova E.S.</b> “Qo‘rg‘onlangan oy” romanida shaxs fojiasi talqini	157
<b>Sobirov N.</b> Sozandalik mahoratini rivojlantirish tamoyillari	162
<b>Rahmonova Z.</b> Navoiy ijodining individual talqini (professor Bahodir Sarimsoqov ilmiy tadqiqotlari misolida)	167
<b>Saydaliyeva N.F.</b> Xitoy tili o‘qitishning zamonaviy metodikalari	173
<b>Yariyeva Z.Sh.</b> Integration of language skills as a prerequisite for teaching foreign language vocabulary	186
<b>Yusupova N.A.</b> Bo‘lajak tarix fani o‘qituvchilarining shaxsiy-pedagogik sifatlarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	196
<b>Turamuratov U.U.</b> Ta‘lim tizimi uchun psixolog kadrlar tayorlashning dual ta‘lim texnologiyalarining samaradorligi xususida	199
<b>Turaxonov A.E.</b> Talabalarda kasbiy mas‘uliyat shakllanishini ro‘yobga chiqarish imkoniyatlari	203
<b>Hojiboev I.I.</b> Malaka oshirish jarayonida kurs tinglovchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish masalasi	209
<b>Abdunazarova Z. Sh.</b> Oliy ta‘lim muassasalari talabalarining reproduktiv salomatlikka oid bilimlarini rivojlantirish omillari	216
<b>Ravshanov L.U.</b> Mudofaa tizimidagi rahbar kadrlar imijini o‘rganishning metodologik imkoniyatlari	221
<b>Rasulov J.S.</b> Mantiqiy fikrlash shakllanishini o‘rganishning ilmiy – amaliy imkoniyatlari	227
<b>Do‘sanov E.A.</b> Virtual olam ta‘sirini o‘rganishning psixologik masalalari	232
<b>Xolmatov M.A.</b> Diniy bag‘rikenglik ijtimoiy-psixologik fenomen sifatida	237

## **OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA IJTIMOIV HAMKORLIK ASOSIDA PEDAGOGIK KADRLARNI TAYYORLASH**

**Umarov A.Y. - Toshkent davlat pedagogika universiteti rektori**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarining kadr iste'molchilari (ta'lim tashkilotlari, malaka oshirish va qayta tayyorlash tarmoq markazlari, yoxud institutlari) va boshqa tashkilotlar bilan pedagogik kadrlarni samarali tayyorlash va mintaqada pedagogik ta'limni barqaror rivojlantirishning o'zaro manfaatli, konstruktiv va uzoq muddatli istiqbol tizimini ta'minlash masalalari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** pedagogik ta'lim, kasbga tayyorlash, ijtimoiy hamkorlik, tashqi va ichki o'zaro hamkorlik, ta'lim muhiti, ta'lim subyektlari.

## **ПОДГОТОВКА ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КАДРОВ В ВЫСШИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ НА ОСНОВЕ СОЦИАЛЬНОГО ПАРТНЕРСТВА**

**Умаров А.Ю. - Ректор Ташкентского государственного  
педагогического университета**

**Аннотация.** В статье раскрываются вопросы обеспечения долгосрочной перспективы системы конструктивного и устойчивого развития педагогического образования и взаимовыгодного сотрудничества региональных высших учебных заведений (учебных заведений, центров или институтов повышения квалификации) и других организаций в эффективной подготовке педагогических кадров.

**Ключевые слова:** педагогическое образование, профессиональная подготовка, социальное партнерство, внешнее и внутреннее сотрудничество, образовательная среда, субъекты образования.

## **TRAINING OF TEACHING STAFF IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS ON THE BASIS OF SOCIAL PARTNERSHIP**

**Umarov A.Y. - Rector of Tashkent state pedagogical university**

**Annotation.** This article discusses the mutually beneficial, constructive and mutually beneficial development of pedagogical training in the region and the effective development of pedagogical staff with consumers of higher education

institutions (educational institutions, training centers or institutes of advanced training and retraining) and other organizations.

**Key words:** pedagogical education, vocational training, social cooperation, external and internal cooperation, educational environment, subjects of education.

Milliy o‘quv dasturida ifodalangan maktab ta’limi sifatiga qo‘yiladigan talablarning takomillashishi, oliy ta’lim muassasalarida pedagogik kadrlarni tayyorlashni tashkil qilish, fan dasturlari mazmunini yangilash va texnologiyalarini takomillashtirish pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirish asosida zaruriyatini belgilaydi. Mavjud holatda abituriyentlarni tanlab olish, oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish, ishga joylashish - joylashtirish, kasbga yo‘naltirish bo‘yicha tizimli ishlarni amalga oshirish sifatini oshiradi.

Hozirgi kunda, pedagogika ta’lim sohasi ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklarida kadrlar tayyorlash oliy ta’lim muassasalarining ko‘p tarmoqli va ko‘p elementli tizimi orqali amalga oshirilmoqda. Ushbu ta’lim muassasalarining maqsadi tayyorlanayotgan pedagog kadrlarning kasbiy malaka talablari va ta’lim jarayoni subyektlari hamda uning natijasini iste’molchilarining sa’y-harakatlarini birlashtirish, ya’ni zaraiya va amaliyot uyg‘unligini ta’minlash orqali ta’lim bozorida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashdan iborat. Kadr tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari va kadr iste’molchilarining hamkorlikda bu maqsadni amalga oshirishi mavjud muammolarni amalda hal etish imkonini beradi.

Bir tomondan, ijtimoiy hamkorlikka biz kadrlar tayyorlashning professional ta’lim sohasidagi davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirishning eng samarali yo‘li sifatida qaraymiz. Bu oliy ta’lim muassasalarining mehnat bozori subyektlari va institutlari, davlat, viloyat va mahalliy hokimiyat organlari, jamoatchilik tashkilotlari bilan o‘zaro integratsiya qilinishi alohida o‘rin tutib, ushbu jarayonning barcha ishtirokchilarining manfaatlarini muvofiqlashtirishdan iborat. Ikkinchi tomondan, ta’lim sohasidagi ijtimoiy hamkorlik turli ta’lim muassasalari, kadr iste’molchilari, kasaba uyushmalari, jamoatchilik tashkilotlari, davlat va nodavlat tashkilotlari o‘rtasidagi memorondumlar, kelishuv shartnomalari, bitimlar, kontraktlar va boshq. asosida mamlakatning (mintaqaning) kadrlar salohiyatini (potensialini) oshirish, ijtimoiy faol shaxsni shakllantirish, jamiyatning iqtisodiy, madaniy va ilmiy taraqqiyotini oshirish maqsadida amalga oshiriladigan munosabatlar majmui bilan tavsiflanadi.

Demak, kasbga yo‘naltirilgan pedagogik ta’lim sohasida ijtimoiy hamkorlik - bo‘lajak ish beruvchilar (kadr iste’molchilari), oliy ta’lim muassasalari va boshqa tashkilotlar vakillari hamkorlarning mintaqada ta’limning barqaror rivojlanishi yo‘lidagi sa’y-harakatlarini birlashtirish maqsadida ilm-fan rivoji yo‘lidagi o‘zaro

foydali manfaatlariga, (moddiy, moliyaviy, intellektual) resurslarni to'plash, birgalikda ishlab rivojlantirilgan va zaruriy meyoriy huquqiy bazasi mavjud qoidalar va kelishuvlarga rioya qilish asosida o'zaro foydali, konstruktiv va uzoq muddatga mo'ljallangan strategik rejalar jamlanmasidir.

Umuman olganda, oliy pedagogik ta'limni ijtimoiy hamkorlik asosida rivojlantirish istiqbollari bir qator asosiy omillarga bog'liq. Ular qatoriga quyidagilar kiritiladi:

- ta'lim sohasida va xususan, ta'limning boshqa barcha ijtimoiy sohalarga nisbatan ilgari (oldinroq) rivojlanishini rivojlantirishga qaratilishi lozim bo'lgan oliy pedagogik ta'lim sohasidagi davlat siyosati;

- davlat va munitsipal hukumat organlari, tijorat strukturalarining resurslarini jalb qilish va tajriba-eksperimental pedagogik maydonlarni tashkil qilgan holda pedagogika va psixologiya sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini keng miqyosda amalga oshirishni nazarda tutadigan oliy pedagogik ta'limni rivojlantirishning ilmiy konsepsiyasining mavjudligi;

- davlat, ijtimoiy va individual ehtiyojlarni qondirish maqsadida oliy ta'lim muassasalarining faoliyatini ijtimoiy nazoratining faol xizmatini shakllantirish, pedagog xodimlar maqsadli tayyorlashning ijtimoiy buyurtmasini tahlil qilish asosida ularni reytingini aniqlash mezonlari mavjudligi.

Bizning fikrimizcha, oliy pedagogik ta'lim sohasida ijtimoiy hamkorlik bir necha darajada amalga oshirilishi mumkin, ya'ni:

oliy ta'lim tizimining o'zida - ushbu kasbiy hamjamiyatning turli ijtimoiy guruhlari yoki alohida ta'lim muassasalari o'rtasida;

oliy pedagogik ta'lim tizimi xodimlarining boshqa kasbiy pedagogik guruhlar vakillari bilan o'zaro faoliyati doirasida;

ijtimoiy hayotning fuqarolik jamiyatini shakllanishiga muayyan hissa qo'shadigan ta'lim sohasi - oliy kasbiy ta'lim tizimidir.

Ijtimoiy hamkorlikning dastlabki ikki darajasi oliy pedagogik ta'lim tizimida o'zining ehtiyojlari va talablaridan kelib chiqadi va uning tarkibiga ta'lim sohasida ijtimoiy-mehnat munosabatlari, o'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi munosabatlar, ota-onalar hamjamiyati va professor-o'qituvchilar tarkibi, ta'lim muassasasi va vasiylik kengashi orasidagi munosabatlar kiradi. Universitet majmualari va boshqa o'quv-ta'lim strukturalarini yaratishni taqozo etadi. Uchinchi daraja mutaxassislar tayyorlash bo'yicha davlat buyurtmasini amalga oshirish maqsadida jamiyatda oliy kasbiy ta'lim tizimining yangi ijtimoiy ahamiyatga molik funksiyalarini o'zgartirish, loyihalashtirish, aprobatsiya qilish va o'rnatish imkonini beradi. «Bunday ijtimoiy buyurtmani amalga oshirish- amaldagi pedagogik ta'lim tizimini tubdan o'zgartirishni talab qiladi» [6].

Oliy pedagogik ta'lim sohasidagi asosiy ijtimoiy hamkorlar:

O‘zbekiston respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, O‘zbekiston respublikasi xalq ta’limi vazirligi, O‘zbekiston respublikasi innovatsion rivojlanish vazirligi, maktabgacha ta’lim vazirligi, ta’lim tizimi xodimlari kasaba uyushmasi, rektorlar kengashi, pedagogika sohasida muvofiqlashtiruvchi kengash, ta’limning yo‘nalishlar va mutaxassisliklari bo‘yicha o‘quv-metodik kengash kabi samarali amal qilayotgan jamoatchilik kengashlari, milliy pedagogik assotsiatsiyasi va boshqalar;

ta’lim tizimini boshqarish organlari va ta’lim tizimi xodimlari kasaba uyushmasining mintaqaviy qo‘mitalari, jamoatchilik uyushmalari va boshqalar;

tuman, shahar darajasida – tuman (shahar) ta’lim bo‘limlari va tegishli kasaba uyushmasining tuman (shahar) qo‘mitasi va ta’lim muassasalarining pedagogik jamoalari;

ta’lim muassasasi darajasida – uning ma’muriyati va kasaba uyushma qo‘mitalari, boshqa jamoatchilik strukturalari.

Oliy pedagogik ta’lim har bir inson va umuman jamiyat taraqqiyoti uchun bag‘oyat bebaho ahamiyatga ega. Boshqa omillar bilan birgalikda ta’lim ijtimoiy o‘zgarishlar uchun kuchli katalizator vazifasini bajaradi. Bu o‘z navbatida oliy pedagogik ta’limning hududlarda ijtimoiy hamkorlik munosabatlari rivojlantirishdagi rolini tushunish uchun muhimdir. Aynan shu sababdan, oliy ta’lim muassasalari ma’muriyati siyosatini belgilaydigan asosiy tushuncha ehtimoliy ish beruvchilar, oliy ta’lim muassasalari, hukumat va boshqa tashkilotlarning organlarning o‘zaro foydali, konstruktiv va uzoq muddatga mo‘ljallangan, ushbu ijtimoiy hamkorlarning oliy pedagogik ta’lim sohasidagi umumiy manfaatlari va ehtiyojlariga, barqaror rivojlanish yo‘lidagi sa’y-harakatlarni birlashtirish maqsadida resurslarning to‘plashga, zarur meyoriy-huquqiy bazasiga ega birgalikda rivojlantirilgan qoidalar va kelishuvlarga rioya qilishga asoslangan o‘zaro faoliyati tizimi asosida quriladigan dunyoqarashning, mafkuraning o‘ziga xos turi deb talqin qilinadigan «ijtimoiy hamkorlik» bo‘lishi zarur. Bo‘lajak pedagoglarni ijtimoiy hamkorlik asosida kasbga samarali tayyorlash oliy ta’lim muassasalarining rolini mintaqaning rivojlanish ishlarida oshirishni va uning turli-tuman ijtimoiy subyektlar bilan oliy pedagogik ta’limning rivojlanish an‘analarini hisobga olgan holda har tomonlama o‘zaro faoliyatini taqozo etadi.

Pedagogik kadrlarni ijtimoiy hamkorlik doirasida kasbga tayyorlashni tashqi va ichki o‘zaro munosabatlar nuqtayi nazaridan o‘rganish mumkin.

Toshkent davlat pedagogika universitetining turli fanlar bilan tashqi o‘zaro faoliyati ikki yo‘nalishda amalga oshiriladi:

uzluksiz pedagogik ta’lim sohasida - o‘rta pedagogik ta’lim bilan shug‘ullunadigan Toshkent shahridagi pedagogika kolleji va Toshkent shahar va Toshkent viloyati hududida yaratilgan pedagogik maktablar; pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutlari bilan;

Toshkent shahri va Toshkent viloyati hududida bo‘lajak pedagog-talabalarni kasbga tayyorlashda ishtirok etuvchi va tashkiliy-boshqaruv, xo‘jalik, madaniy-dam olish, ma‘rifiy, ilmiy-tadqiqot, o‘quv-metodik, axborot va shu kabi ijtimoiy-foydali faoliyatni amalga oshiruvchi muassasalar bilan.

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti muddatli shartnoma va kelishuvlar imzolagan tashkilotlar va muassasalar bilan o‘zaro tashqi aloqalar olib boradi. Ular qatoriga mulkchilik shaklidan qat‘iy nazar axborot, ta‘lim, madaniy dam olish, huquqni muhofaza qilish, ijtimoiy va boshqa tashkilotlar va muassasalar (davlat va munisipal hokimiyat organlari, Toshkent viloyati ta‘lim va ilm-fan vazirligi, shahar va viloyatning tumanlar ta‘lim boshqarmalari va bo‘limlari, jamoatchilik tashkilotlari va uyushmalari) kiradi. Hukumat organlari bilan ishlashda universitet ikki tomonlama foydali hamkorlik strategiyasini tanladi. So‘nggi yillarda universitet va universitet majmuasi strukturalari shahar va viloyat ma‘muriyati bilan kasbiy pedagogik ta‘limni rivojlantirish, ta‘lim va tarbiyani rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishga bag‘ishlangan bir qator qo‘shma ilmiy-uslubiy seminarlar o‘tkazdi.

Toshkent davlat pedagogika universiteti olimlari Toshkent viloyatining dolzarb ijtimoiy-pedagogik muammolarini yechishda ishtirok etsa, ikkinchi tomondan – universitetning ta‘lim muassasalari, jamoatchilik kengashlari va ilmiy tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorligi o‘zining potensialini kengaytirish imkonini berdi.

Universitet va Toshkent viloyatining xalq ta‘limi boshqarmasi o‘rtasidagi hamkorlik munosabatlari ilmiy-pedagogik, ta‘limdan tashqari tarbiya faoliyati sohasida;

viloyatning ta‘lim sohasida amal qiladigan muassasalarning kadrlarining malakasini oshirish sohasida;

Toshkent viloyatini maqsadli ravishda zamonaviy ta‘lim muassasalarida samarali ishlay oladigan malakali pedagogik kadrlar bilan ta‘minlash uchun uzoq muddatli shartnomalar asosida quriladi.

Universitet va Toshkent viloyatining ta‘lim va fan sohasida hamkorlik faoliyatini:

ta‘lim uchun amaliy kadrlar tayyorlash;

ta‘limda ilmiy va amaliy tadqiqotlarni bajarish va qo‘shma pedagogik loyihalarni amalga oshirish;

ilmiy-uslubiy konferensiyalar, seminarlar o‘tkazish;

Toshkent viloyati o‘qituvchilari uchun davra suhbatlari, ko‘ngillilar harakatini tashkil qilish; faoliyatning asosiy turlarini rejalashtirish va natijalari haqida ma‘lumot almashish kabi sohalarda amalga oshirmoqda. Toshkent davlat pedagogika universiteti ko‘p yillar davomida viloyat o‘qituvchi va tarbiyachilari uchun o‘quv fanlari yo‘nalishlari bo‘yicha yagona metodik kun tashkil etib kelmoqda.



Toshkent pedagogika kolleji o'рта professional ta'lim muassasasi bo'lib, «Maktabgacha ta'lim», «Tarbiyachi», «Tarbiya yordamchisi», «Kutubxonashunoslik», «Jismoniy tarbiya yo'riqchisi» yo'nalishlari bo'yicha ta'limni amalga oshirib keladi. Pedagogika ta'limi yo'nalishlari bo'yicha uzluksiz pedagogik kadrlar tayyorlash dasturini amalga oshirish davomida, universitet va kollej tegishli yo'nalishdagi o'рта pedagogik ta'lim asosida muvofiqlashtirilgan dasturlarda o'qituvchi kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'ygan. Ushbu hamkorlik doirasida kadrlar tayyorlashni ikki bosqichli shaklda amalga oshiriladi: birinchi bosqich kollejda, ikkinchisi - universitetda. Ta'lim mazmuni biri ikkinchisining mantiqiy davomi bo'lgan o'quv reja va dasturlarga asoslangan bo'lib, uning asosida «Pedagogik ta'lim» yo'nalishi bo'yicha uzluksiz kasbiy ta'lim rejasi ishlab chiqilgan.

Viloyatning xalq ta'limi boshqarmalari bilan hamkorlikda, Toshkent davlat pedagogika universiteti ta'lim tizimining rahbar va pedagogik xodimlarining qayta tayyorlash va malakasini oshirish ishlarini, ta'lim muassasalarda o'quv jarayonini psixologik-pedagogik va ilmiy-metodik ta'minotini yo'lga qo'ygan. Bundan tashqari, asosiy o'quv dasturining mintaqaviy komponenti strukturasi va mazmunini ishlab chiqish, yoxud boshqa ishlarni ham ushbu ta'lim muassasasi amalga oshiradi. Jamoatchilik tashkilotlari va kengashlari universitetning mintaqadagi nufuzini kengaytirish va viloyat aholisi uchun qulay ta'lim muhitini shakllantirishga ko'maklashadi. Bir necha yildan buyon fizika-matematika fakultetida kompyuter savodxonligi kurslari va yoshi katta pedagog xodimlar o'rtasida kompyuter savodxonligi bo'yicha tanlovlar o'tkazib kelinmoqda.

Ijtimoiy hamkorlik asosida kasbiy tayyorlash, kasbiy ta'limni amalga oshirish universitetning ichki ta'lim makonida ham amalga oshirilmoqda. Buning uchun quyidagi o'zaro hamkorlik shakllari qo'llanilmoqda: kasbga tayyorlashning mazmunini tezkor isloh qilish imkonini beruvchi malaka talablarini hisobga olgan holda akademik fanlar mazmunini birgalikda loyihalash, kafedralar muhokamalarida, turli muammolarga bag'ishlangan qo'shma seminarlarda, ilmiy-amaliy va metodik anjumanlarda innovatsion texnologiyalarni joriy qilish imkonini beruvchi muntazam muhokamalar o'tkazish; litsey va pedagogik sinflar o'quvchilari hamda talabalar uchun o'quv kurslari mazmunini optimal o'zlashtirish imkonini beruvchi qo'shma o'quv va o'quv-metodik qo'llanmalarni nashr qilish; (o'quvchilar va talabalar uchun) umumiy o'quv va ishlab chiqarish amaliyotlarini, tijorat o'yinlari, muammoli seminarlar, ijodiy faollikni, tadqiqotchilik xislatlarini rivojlantirish, kasbiy faoliyatga yaqinlashtirilgan faoliyatda olingan bilimlarni mustahkamlash va mashq qilish; universitet o'qituvchilari o'tkazadigan, talabalarning raqobatbardosh kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni olishga bo'lgan qiziqishini oshiradigan oraliq reyting nazorati.

Ijtimoiy hamkorlik asosida ichki o‘zaro faoliyatni amalga oshirishning obyektlari talabalar hisoblanadi. Universitetning yagona struktura sifatida qaraladigan tarkibiga kiruvchi o‘qituvchilari va bo‘limlari (fakultetlar, tarbiyaviy ishlar boshqarmasi, pedagogik litsey, psixologik xizmat, bitiruvchilarni kasbga yo‘naltirish va ishga joylashtirishga ko‘maklashish markazi, pedagogika, psixologiya kafedralari, boshqa ixtisoslashgan kafedralar) ta‘lim faoliyatining ichki o‘zaro faoliyatni amalga oshiruvchi subyektlari hisoblanadi.

Pedagogika sohasidagi ta‘lim yo‘nalishlari va ixtisosliklarida kasbiy tayyorgarlik talabalarni amaliy tayyorlash asosida rivojlantiriladi, tarbiya qilinadi. Amaliyotning har bir turi muayyan fanlarga asoslangan bo‘lib, kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish va mustahkamlashni nazarda tutadi. Nazariy va amaliy tayyorlash jihatdan bitiruvchilarni pedagogning malaka talablarini bajarishga, ularga javob berishga maksimal darajada yaqinlashtirishi lozim. Ijtimoiy hamkorliklik asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy ta‘limning- kasbga tayyorlashning ajratib ko‘rsatilgan tashqi va ichki jihatlari quyidagi bloklarni o‘z ichiga oladi: tashkiliy (pedagogik kasbiy ta‘lim va ijtimoiy hamkorlikning dunyoqarash asoslarini, mafkurasini belgilaydigan asosiy, fundamental g‘oyalarini va ustuvor qadriyatlar majmuini aks ettiradi), strukturaviy (pedagoglarni kasbiy tayyorlashga jalb qilingan turli subyektlar hamkorligining ichki va tashqi strukturasi) va mazmuni (o‘qitish shakllari, metodlari, vositalari).

Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, oliy ta‘lim muassasalarida pedagoglarni tayyorlash jarayonida ta‘lim subyektlarining ichki va tashqi hamkorlikdagi o‘zaro faoliyatlarini amalga oshirish, bo‘lajak pedagoglarni ijtimoiy hamkorlik asosida kasbga tayyorlashdan iboratdir. Bayon qilingan, tavsiflangan tashqi va ichki jihatlarni ta‘minlash texnologik asos sifatida qaraladi. Shunday qilib, pedagoglarni ijtimoiy hamkorlik asosida tayyorlash ijtimoiy buyurtmani amalga oshirishning sharti, ya‘ni ta‘lim sohasining bo‘lajak professionalining bilimlar, malakalar va ko‘nikmalari majmuining yuqori sifatini ta‘minlashga xizmat qiladi.

### **Adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi PQ-4963-son “Xalq ta‘limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil, 31-dekabrda 832-son “Umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida «Zamonaviy maktab» talablari asosida loyihalarni ishlab chiqish, kelishish hamda qurilish-montaj ishlarini nazorat qilish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-martdagi 141-son “Ijod maktablari va ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi PQ-4623-sonli “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarori.

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-iyundagi 472-son “Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarori.

6. Бандаревская Е.В. Педагогическое образование – фундамент строительства будущего // Высшее образование в России. 2014. № 1. С. 74-80.

7. Гайнуллина Ф.И. Становление системы социального партнерства в Республике Татарстан (политологический анализ): Автореф. дисс... докт. полит. наук., М.; 1999. 56с.

8. Кадагин В.В., Шукшина Т.И. Педагогический вуз как базовый центр подготовки учителя // Высшее образование в России. 2013. № 4. С. 60-68.

9. Залялова А.Г. Региональная модель подготовки педагогических кадров в условиях образовательного кластера. Диссертация кандидата педагогических наук. Казань 2010. 223 с.

10. Вайндорф-Сысоева М.Е. Многоуровневая подготовка педагогических кадров к профессиональной деятельности в условиях цифрового обучения. Диссертация доктора педагогических наук. Москва 2019. 461 с.

11. Лейфа А.В., Сергиенко Ю.П. Подготовка педагогических кадров в вузе на основе социального партнерства // Высшее образование в России. 2016.№ 1(197), 114-120 б.

12. Кайгородова О.В. Развитие процессов интеграции образовательных учреждений в системе педагогического образования. Диссертация кандидата педагогических наук. Калининград 2009. 201 с.

13. Muslimov N.A. Kasb ta’limi o‘qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy metodik asoslari: diss. p.f.d.: 2007. 315-b.

14. Хен Д. Педагогика и технология – применение телекоммуникации в образовании // Информатика и образование. Международный спец выпуск, 1996. -с.43-49.

15. Шопохович В.Ф. Информационные технологии обучения: дидактические основы, проблемы разработки и использования. -М.: МГПУ, 2005. -С. 128.

## **TEST SHAKLLARI ORQALI YOSHLARNI KOGNITIVLIK DARAJASINI ANIQLASHGA YO‘NALTIRILGAN PEDAGOGIK OMILLAR**

**Sh.S.Shodmonova**  
**Nizomiy nomidagi TDPU professori**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada test shakllari orqali yoshlarni kognitivlik darajasini aniqlashga yo‘naltirilgan pedagogik omillar va ularning o‘ziga xos xususiyatlar haqidagi ilg‘or qarashlar yoritib berilgan.

**Tayanch tushunchalar.** Ta‘lim, tarbiya, test, test shakllari, uslubiy ko‘rsatmalar, kognitivlik intellektual faoliyat, xolis baholash, Test sinovlari, test topshiriqlari, ta‘lim sifati, reyting, metodik seminarlar, maslahatlar, ekspert-testologlar

Ma‘lumki, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markaziga yuklatilgan asosiy vazifalardan biri “Respublika ta‘lim muassasalariga o‘qishga qabul qilishda test sinovi orqali tanlab olish, kadrlar tayyorlash sifati va o‘quv jarayoni samaradorligini xolis baholanishini nazorat qilish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish” hisoblanadi. Davlat test markazi ta‘lim muassasalariga o‘qishga qabul qilishda o‘tkaziladigan test sinovlari materiallarini tayyorlash uchun olimlar, yetakchi pedagog mutaxassislarni jalb etish huquqiga ega bo‘lib, ularni o‘qitish va malakasini oshirish vazifasini ham bajaradi.

DTMning “Test sinovlari texnologiyalarini rivojlantirish” bo‘limi xodimlari tomonidan har yili, muntazam ravishda, tashkilotlar tavsiya etgan mutaxassis-ekspertlar uchun test sinovlari topshiriqlarini ishlab chiqish va ularni ekspertiza qilish bo‘yicha uslubiy seminar mashg‘ulotlari olib boriladi. Shuningdek mazkur mavzu yuzasidan mavjud muammolar o‘rganiladi, va bartaraf etiladi, maslahatlar berilib ular uslubiy ko‘rsatmalar bilan ta‘minlanadi. Ammo, to‘laqonli, ilmiy asoslangan test topshiriqlarini ishlab chiqish uchun metodik seminarlar, maslahatlar, ekspert-testologlar uchun test tuzish va ishlab chiqish bo‘yicha eslatmalar yetarli bor ammo yetarli emas.

Abituriyentlar test sinovlari uchun test topshiriqlarini ishlab chiqish va ularni ekspertiza qilish bo‘yicha ekspertlar bilan olib borilgan uslubiy ishlar ayrim fanlardan ko‘pchilik o‘qituvchilarning zamonaviy testologiya asoslari bo‘yicha bilimlari yetarli emasligini ko‘rsatdi. Ko‘pchilik pedagoglar test – bu savollar va ularga berilgan javoblar ro‘yxatidan iborat, testni yaratish hech qanday maxsus bilim talab qilmaydi, deb mushohada yuritadilar.

Ta‘lim sohasidagi test sinovi – bu testdan o‘tuvchilarning ma‘lum o‘quv fanlari yoki ta‘lim dasturlari bo‘yicha tayyorgarligi darajasini xolis baholash usulidir.

Shuningdek, test topshiriqlarini bajarish intellektual faoliyat bo‘lib, u chegaralangan vaqtda va nazorat qilinadigan sharoitlarda amalga oshiriladi bu borada xorijiy tajribalarga tayanish ham ushbu yondashuvni samaradorligini oshirishda ijobiy natija beradi. Test sinovlari natijalarining xolisligi, birinchi navbatda, test topshiriqlarining sifatiga bog‘liq, shuning uchun topshiriqlarni ishlab chiqishda zamonaviy testologiya fani nazariyasi va amaliyoti oid orttirilgan tajribalarga asoslanish va mavjud talablarni inobatga olish zarur.

Yuqoridagi fikr-mulohazalar ta‘lim muassasalari reytinglarini tashkil etish va aniqlash usullari turli-tuman bo‘lib, davlatlarning ta‘lim tizimlari va oliy ta‘limni baholash usullari bilan bevosita bog‘liqdir degan fikrni ifodaylaydi. Hozirgi kunda bir qator xorijiy davlatlar, jumladan Amerika Qo‘shma Shtatlari, Buyuk Britaniya, Germaniya, Polsha, Niderlandiya, Ispaniya, Yaponiya, Xitoy, Rossiya, Ukraina kabi davlatlar ta‘lim muassasalari reytingini aniqlash va qo‘llash bo‘yicha boy tajribaga ega. Ulardagi mavjud reyting tizimlari turli yondoshuvlar asosida ta‘lim tizimlari xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan.

AQShda reytinglar o‘tkazishda uch guruh sifat ko‘rsatkichlari ishlatiladi: talabalar muvaffaqiyati, o‘qituvchilar tarkibi erishgan yutuqlari va OTMning akademik imkoniyatlari. Ushbu ko‘rsatkichlarni reyting ko‘rinishiga o‘tkazishda vaznlash va jamlash usuli qo‘llaniladi.

Buyuk Britaniyada reytingni ommaviy axborot vositalari statistik manbalardan olingan ma‘lumotlarga asoslanib aniqlaydi. Ko‘rsatkichlar orasida ilmiy ishlarga ham e‘tibor qaratilgan. Ta‘lim muassasasi haqidagi kadrlar iste‘molchilari fikrlari asosiy ko‘rsatkichlardan biri sifatida qabul qilinadi.

Germaniya reyting tizimi birinchi navbatda maktab bitiruvchilari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, bunda mutaxassisliklar reytingi aniqlanadi. Natijada, universitetlar yaxshi, o‘rta va yomon guruhlarga bo‘linadi. Reyting bo‘yicha qaror qabul qilishda asosan universitetlar va ular joylashgan shaharlar haqida ma‘lumotlar, talabalar kontingenti, kurslar va o‘qitish bo‘yicha asosiy ma‘lumotlar, ishga joylashish, mehnat bozori hamda professor-o‘qituvchilar va talabalar fikrlari hisobga olinadi.

Polshada OTMlar reytingi ularning xususiyatlarini hisobga olgan holda alohida olib boriladi (umumuniversitetlar reytingi, xususiy universitetlar reytingi, ijodiy universitetlar reytingi). Reytingda o‘tgan yil reytingi natijalari ham ma‘lum bir vazn bilan hisobga olinadi. Xususiy universitetlar reytingi bevosita universitetda olingan hamda ish beruvchilar va o‘qituvchilar orasida o‘tkazilgan so‘rovnomalar asosida aniqlanadi.

Yaponiyada universitetlar reytingi asosan 3 ta yo‘nalish bo‘yicha olib boriladi: ta‘lim faoliyati, ilmiy tadqiqot faoliyati va rivojlanishga qo‘shilgan hissa. So‘nggi vaqtlarda talabalardan o‘tkazilgan so‘rovnomalar ham keng qo‘llanilmoqda.

Rossiya Federatsiyasida OTMlarning reytingini aniqlash 2001 yildan buyon amalga oshirilmoqda. Hozirgi kunda reytingning 2 modeli, ya‘ni ta‘lim vazirligi

reytingi va ommaviy axborot vositalari reytingi mavjud. Birinchi modelda reyting ekspertlar fikri va statistik ma'lumotlarga asoslangan, ammo ish beruvchilar fikri kamroq hisobga olinadi. Ikkinchi model nisbatan mustaqil, ammo yetarli darajada ilmiy asosga ega emas. Ushbu ikki modelning ijobiy tomonlarini hisobga olish maqsadida nodavlat reyting Agentligi tashkil etilgan. Reytingni tuzish uchun ijtimoiy so'rovnomalar va ekspert baholash, bitiruvchilar sifatini ish beruvchilar tomonidan baholash, OTMni va uning ta'lim dasturlarini bitiruvchilar tomonidan baholash natijalari ishlatiladi. Shuningdek, ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklar bo'yicha ham ta'lim dasturlari reyting aniqlanadi. To'plangan ma'lumotlar ayrim mezonlarga ajratilib, ularni vaznlash, jamlash va umumiy mezonni aniqlash uchun ilmiy asosga ega uslubiyat qo'llanilgan.

O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tishi, jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi jarayonlarining jadallashganligi, jahondagi mavqei va obro'-e'tiborining mustahkamlanib borishi, zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi, ta'lim tizimining globallasuvi oliy ta'lim sifatini yanada oshirish va takomillashtirishni taqozo etadi.

Ma'lumki, mamlakatimiz ta'lim xizmati iste'molchilari - o'quvchi va talabalarga sifatli ta'lim berish O'zbekiston Respublikasi ta'lim to'g'risidagi qonunchilik bilan kafolatlangan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi (DTM) tarkibida tashkil etilgan "Kadrlar tayyorlash sifatini nazorat qilish, pedagog kadrlar va ta'lim muassasalari attestatsiyasi boshkarmasi" vazifalari qatoriga ta'lim muassasalari reytingini belgilash ham yuklatilgan. Bu borada DTM tomonidan ma'lum ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Oliy ta'lim muassasalari reytingini belgilashda ularning attestatsiya jarayonida to'plagan ballarini asos qilib olish tajribasi ko'llanilib kelinmoqda.

Shuni unutmasligimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bevosita bog'liqdir. Buning uchun har qaysi ota-ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko'rishi zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustakil va innovatsion fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli faoliyat yuritadigan, barkamol shaxs sifatida voyaga yetkazish - ta'lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim, deb qabul kilishimiz kerak. Bu esa ta'lim va tarbiya samaradorligini oshirishni uyg'un holda olib borishni talab etadi. Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi, bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi degan fikr yoki yondashuvlar o'z-o'zidan kelib chiqmaganligini, uning mazmunida chuqur falsafiy qarash mavjudligini asoslaydi.

Test topshiriqlari bilan bog'liq masalalarni yoritishda va ularni tadbiq etishda ko'p ma'nolilik va noaniqlikka yo'l qo'yib bo'lmaydi. AQShda test topshiriqlarini tuzuvchilar guruhiga muayyan bir o'quv fani bo'yicha tajribali pedagog va ruhshunosdan tashqari adabiy muharrir ham kiritilishi an'anaga aylangan. Test

topshiriqlari bilan bog‘liq jarayonlarni samarali tashkil etish va testlarni tuzish hamda ulardan pedagogik amaliyotda foydalanishda quyidagi omillarni inobatga olish, ushbu jarayonni samaradorligini quyidagilar bilan belgilaydi.

**Variativlik-o‘quv materialidagi ma’lum bir mavzuni o‘zlashtirishni nazorat qilish uchun mantiqiy fikr bayoni, sintaktik tuzilishi, morfologik belgilari yoki murakkablik darajasiga ko‘ra turlicha bo‘lgan, lekin bitta o‘quv materialiga tegishli test savollari tuzish mumkin.** Bu bir o‘quv maqsadiga erishish yo‘lida topshiriqlar turkumini yaratish imkonini beradi (invariant testlar).

**Vaqtning qat’iy belgilanganligi bunda testda o‘ylash uchun 2 daqiqadan ortiq vaqt talab etiladigan savollar bo‘lmasligi lozimligi yoritiladi.**

**Variativlik-o‘quv materialidagi ma’lum bir mavzuni o‘zlashtirishni nazorat qilish uchun mantiqiy fikr bayoni, sintaktik tuzilishi, morfologik belgilari yoki murakkablik darajasiga ko‘ra turlicha bo‘lgan, lekin bitta o‘quv materialiga tegishli test savollari tuzish mumkin.** Bu bir o‘quv maqsadiga erishish yo‘lida topshiriqlar turkumini yaratish imkonini beradi (invariant testlar).

**Murakkablik me‘yori (yaroqliligi).** Test topshiriqlari pedagogik jihatdan samarali bo‘lishi uchun, ular oddiy axborot berib qolmasligi, javobi ochiqdan-ochiq ayon bo‘lmasligi lozim.

**Materialning ahamiyatliligi-test savollariga o‘quv materialining eng muhim, asosiy qismlarini kiritish lozim.** Testda topshiriqlar soni odatda cheklangan bo‘ladi. Binobarin, to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘yilayotgan masalada barcha mavzular to‘liq qamrab olinmagan bo‘lishi mumkin.

**Samaradorlik (kumulyativlik).** Test topshiriqlarining borgan sari murakkablashib borishini nazarda tutadi.

**Sotsiologik testlar** — shaxsning ijtimoiy tomonlarini o‘rganadi va aniqlaydi.  
**Sinergetika** – o‘zini o‘zi tashkil etish, global evolyusiya, «xaos orqali tartib»ning vujudga kelishi va hokazolar bilan bog‘lanuvchi hozirgi zamon o‘zini o‘zi tashkil etish nazariyasi

**Til ravonligi, aniqligi va bir ma’noiligi.** Test topshiriqlarida ko‘p ma’nolilik va noaniqlikka yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. AQShda test topshiriqlarini tuzuvchilar guruxiga muayyan bir o‘quv fani bo‘yicha tajribali pedagog va ruhshunosdan tashqari adabiy muharrir ham kiritilishi an’anaga aylangan.

**To‘g‘ri javobda qo‘shimcha belgilarning mavjud bo‘lmasligi.** Test tuzishda tajribasiz kishi tushunarli bo‘lsin, degan maqsadda to‘g‘ri javobni boshqa javoblarga nisbatan kengroq va batafsilroq bayon qiladi. Talabalar bu farqni tez anglab oladilar va javobni ana shu belgiga qarab aniqlab olmasliklari lozim.

**To‘kislik va uyg‘unlik-testdagi topshiriqlarning umumiy soni mavzu va qismlarga nisbatan muvofiq taqsimlanishi ahamiyatli.** Bu talab test rejasini ishlab chiqishda amalga oshirilishi lozim.

**O‘quv maqsadiga muvofiqligi**-test topshiriqlarining mazmuni aniqlashtirilgan (identifikatsiyalangan) o‘quv maqsadlariga muvofiq bo‘lishi lozim. Har bir test savoli ma’lum bir o‘quv maqsadining ro‘yobga chiqishini ta’minlashi zarur.

**O‘zlashtirish darajasiga ko‘ra tabaqalanganligi.** O‘quv materialining ma’lum bir tarkibiy qismiga oid o‘zlashtirish darajasi turlicha (bilish, eslab qolganini tasvirlash, samarador bilimlar va ijodiy fikrlash) bo‘lgan test topshiriqlarini tuzish lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Tolipova J.O. Pedagogik kvalimetriya. O‘quv qo‘llanma.-T.:TDPU.2016 b.
2. Shodmonova Sh.S. va boshqalar. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. -T: “Fan va texnologiya”, 2019. 234b.
3. Sh.Shodmonova. Qiyosiy pedagogika. qo‘llanma. // Ilm ZIYO Zakovat -T.2021.-165b
4. Avanesov V.S. Kompozitsiya testovyx zadaniy. Moskva, 2002.
5. Vremennyye gosudarstvennyye trebovaniya k minimumu sodernaniya professionalnoy obrazovatelnoy programmy i urovnyu podgotovki lis pri poluchenii dopolnitelnoy kvalifikatsii "Testolog (spesialist v oblasti pedagogicheskix izmereniy)". Ministerstvo obrazovaniya Rossiyskoy Federatsii. Moskva, 2000.-14 s.
7. Testologiya bo‘yicha ruscha-o‘zbekcha, o‘zbekcha-ruscha izohli terminologik lug‘at-minimum/T.f.d. B.M.Ismoilovning umumiy tahriri ostida. T.: DTM, 2005.-136 b.

**BILINGVAL INFORMATIKA FANINI LOYIHALASHTIRISH**

**Absalomov T.T. – Jizzax davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi.**

**Annotatsiya.** Maqolada bo‘lajak informatika o‘qituvchisini tayyorlashda bilingval ta’lim asosida elektron o‘qitish vositalaridan foydalanish imkoniyatlari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, elektron ta’limiy resurslardan foydalanib interfaol o‘qitishning E-learning, on-line forum va vebinarlardan foydalanish imkoniyatlari ochib berilgan. Bilingval ta’lim elementlari bilan informatika fanini o‘qitish tajribasiga tayanib, dars jarayoni loyihalashtiriladi, uning ahamiyati tavsiflanadi va fanni intensivlashtiradigan bunday o‘quv fanlarini loyihalashtirishda maslahatlar berildi.

**Kalit so‘zlar:** informatika, bilingval ta’lim, lingvistika, innovatsiya, internet, faollik, elektron ta’lim, o‘qitish vositalari, o‘quv materiallari.

**ПРОЕКТИРОВАНИЕ БИЛИНГВИЗМА ПО ИНФОРМАТИКЕ**

**Абсаломов Т.Т. - старший преподаватель Джизакского государственного педагогического института.**

**Аннотация.** В статье рассмотрены возможности использования электронных средств обучения на базе билингвального обучения при



подготовке будущего учителя информатики. Также раскрыты возможности интерактивного обучения с использованием электронных образовательных ресурсов с использованием электронного обучения, онлайн-форумов и вебинаров. Опираясь на опыт преподавания информатики с элементами билингвального обучения, проектируется процесс урока, описывается его значение и даются советы по проектированию таких учебных предметов, которые интенсифицируют предмет.

**Ключевые слова:** информатика, билингвальное образование, лингвистика, инновация, интернет, активность, электронное обучение, средства обучения, учебные материалы.

## **DEVELOPMENT OF BILINGUALISM IN COMPUTER SCIENCE**

**Absalomov T.T. - Senior Lecturer at the Jizzakh State Pedagogical Institute.**

**Annotation.** The article discusses the possibilities of using electronic teaching aids based on bilingual education in the preparation of a future computer science teacher. The possibilities of interactive learning using electronic educational resources using e-learning, online forums and webinars are also disclosed. Based on the experience of teaching computer science with elements of bilingual education, the lesson process is designed, its meaning is described and advice is given on the design of such educational subjects that intensify the subject.

**Key words:** informatics, bilingual education, linguistics, innovation, internet, activity, e-learning, teaching aids, teaching materials.

Bugungi kunda ingliz tilini oddiy o'rganish va to'liq professional muloqot qilishda maxsus fanlar bo'yicha adabiyotlarni o'qish, Internet-resurslaridan foydalanish yetarlicha deb bo'lmaydi. Buning sababi shundaki, talabalar ingliz tilida fan sohalari bo'yicha ma'lum bilim bloklarini shakllantira olmaydilar. Ingliz tili alohida fan sifatida ta'limning qolgan qismidan ajralib turadi. Tilni bilish kundalik hayotdagi ingliz tili doirasidan tashqarida bo'lgan mavzularda ravon gaplashishga hali imkon bermayapti. Bu terminologiya umumiy qabul qilingan leksik konstruksiyalarni, yangi sharoitdagi so'z boyligini bilmaslik tufayli yuz beradi. Bilingval ta'lim yordamida o'quvchilarda fanlar bo'yicha bilim bloklarini shakllantirish orqali bunday bo'shliqlarni bartaraf qilish mumkin. Bilingval ta'limning afzalligi tilni boshqa o'quv fani bilan birlashtirishdadir [1, 215-b].

Ko'pgina ingliz tilida so'zlashmaydigan mamlakatlarda o'quv fanlarini o'qitish ingliz tilida olib boriladi, ingliz tilidagi o'quv adabiyotlari moslashtirilmagan holda o'qitiladi, bu ham bilingval ta'lim elementi hisoblanadi. Masalan, Turin politexnika

universitetida (O‘zbekiston), Tallin politexnika institutida (Estoniya), shuningdek, Shvetsiyadagi ko‘plab texnik kollejlarda amalga oshiriladi. Bunday holatlarda fanlar to‘liq ingliz tilida (asosan fanga oid bo‘lmagan intensiv fanlar: marketing, menejment, xodimlarni boshqarish) yoki qisman ingliz tilida olib boriladi; barcha holatlarda talabalar maxsus atamalar lug‘ati bilan ta‘minlanadi.

Mamlakatimizda ingliz tili maqomini ko‘tarishning yangi bosqichi xorijiy tillarni chuqur o‘rganadigan maktablarda va oliy o‘quv yurtlarining tilshunoslik fakultetlarida bilingval ta‘lim elementlarini joriy etish bo‘ldi. Odatda, bu o‘rganilayotgan til mamlakatlarining biznes kursi, mamlakatshunoslik va adabiyotidir. O‘zbekistonda bilingval ta‘limning dolzarbligi aloqa, ta‘lim, ish bilan ta‘minlash va turizm sohalarida xalqaro darajaga o‘tishi bilan bog‘liqdir. Bugungi kunda ingliz tili kundalik muloqot vositasi sifatida emas, balki bilim va kasbiy faoliyat vositasi sifatida tobora ko‘proq talab qilinmoqda. Bilingval ta‘lim talabalarga professional muloqot vositasi sifatida amaliy sohalarida chet tilini bilish darajasini oshirish uchun maqbul shart-sharoitlarni yaratishga imkon beradi. Shu bilan birga, o‘rganilayotgan fan bo‘yicha ona tilida va o‘rganilayotgan tillarda ma‘lum miqdordagi bilimlar shakllanmoqda, bu esa har ikkala tilda ham o‘rganilayotgan fanni erkin bilishga imkon beradi.

Ilmiy intensiv fanlar bo‘yicha bilingval o‘quv fanlarini ishlab chiqish va amalga oshirish bir qator sabablarga ko‘ra ma‘lum qiyinchiliklarga duch kelmoqda va hozirgi kunga qadar ushbu kurslar keng tarqalmagan. Bu borada G‘arbda «Computer science» deb nomlangan «Informatika» fanini o‘qitish alohida qiziqish uyg‘otmoqda. Hozirda ingliz tilida o‘qitish uchun ushbu fan eng muhim mavzulardan biri bo‘lishiga qaramay, bilingval ta‘limda informatika o‘qitilmaydi. Ushbu sohada ingliz tilini bilish - fanni o‘zlashtirish samaradorligini va quyidagi sabablarga ko‘ra olingan bilimlardan foydalanish imkoniyatlarini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

1. Shaxsiy kompyuter uchun zamonaviy dasturlarning aksariyati dastlab ingliz tilida chiqarilgan va ularning ba‘zilari faqat ruslashtirilgan. Shuni ta‘kidlash kerakki, O‘zbekistonda faoliyat yuritadigan xorijiy kompaniyalar ko‘pincha dasturiy ta‘minotning ruslashtirilmagan versiyasidan foydalanadilar va masalan, Shimoliy Evropada mamlakatlarda dasturlar deyarli hech qachon mahalliyashtirilmagan.

2. Dasturiy ta‘minot va texnik vositalardan foydalanish bo‘yicha qo‘llanmalar ko‘pincha faqat ingliz tilida bo‘lib, ushbu adabiyotni o‘qiy olmaslik uni o‘rganish jarayonini jiddiy ravishda murakkablashtiradi.

3. Ayrim atamalar inglizcha bo‘lib, mutaxassislar tomonidan rus tilida ham keng qo‘llaniladi.

4. Aloqa sohasida Internetdan foydalanish nafaqat ingliz tilini, balki kompyuter so‘zlanmalarini, shu jumladan kompyuter yozishmalarida tez-tez ishlatiladigan qisqartmalarni ham bilishni talab qiladi. Internetdagi aksariyat saytlar, shuningdek

ushbu saytlardagi konferensiyalar (forumlar), dasturiy ta'minot ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash xizmatlari faqat ingliz tilida mavjud.

5. Ishga joylashishda ariza beruvchidan ko'pincha Word, Excel, Power Point kabi dasturlarni bilishi talab qilinadi. Ushbu dasturlardan ingliz va rus tillarini bilish bilan birgalikda foydalanish qobiliyati har qanday talabga keyingi ish joyida afzallik beradi.

Shunday qilib, Informatika fani bo'yicha bilingval o'quv fanini tayyorlash muammosi juda istiqbolli bo'lib tuyuladi, ammo u bir qator muammolarni hal qilishni ham talab qiladi.

Ilmiy va nazariy ma'noda, bilingval informatika o'quv fanini loyihalashda quyidagi didaktik vazifalarni hal qilish zarur: bilingval ta'lim metodidan foydalanish sharti bilan bilimlarni o'zlashtirish qonuniyatlarini aniqlash, ta'lim mazmuni hajmi va tuzilishini aniqlash. Ushbu bosqichda yana bir muammo paydo bo'ladi, ya'ni o'quv adabiyotini tanlash.

Informatika fani bo'yicha lingvist o'quvchilarning bilingval ta'lim jarayonida, masalan, Windows XP, Microsoft Word muhitida matnli hujjatlarni tayyorlash texnologiyasi, Microsoft Excel muhitida ma'lumotlarni avtomatlashtirilgan tarzda qayta ishlash, Internetda qidirish ko'nikmalarini o'qitish jarayonida ularning keyingi professional munosabatlarida eng ko'p talab qilinadigan fanlarni kiritish maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, Microsoft Power Pointda taqdimotlarni, Accessda ma'lumotlar bazasi texnologiyasini va Internet-saytlarni yaratish asoslarini kiritish mumkin. O'quv fanida dasturlash, algoritmlashtirish, hisoblash tizimlari asoslarini kiritishni nazarda tutmaydi, chunki bu bilimlar kelajakdagi faoliyatini chet tili bilan bog'lashni rejalashtirayotgan odamlar uchun foydasizdir. Bu mavzularni o'quv fanidan tashqarida, fikrlash doirasini kengaytirish uchun o'zbek yoki rus tilida o'rganish kifoyadir.

O'zbekiston davlat jahon tillar universiteti ingliz tilini o'rganadigan tilshunoslik va madaniyatlararo aloqa fakulteti talabalariga bilingval ta'lim elementlari bilan informatika fanini o'qitish tajribasi bizga bunday kursni tayyorlashda va uni o'qitish jarayonida taqdim etilishi kerak bo'lgan quyidagi shartlarni shakllantirishga imkon beradi.

1. Fanlar o'zbek tilida va ingliz tilida o'qitiladigan bloklarga bo'linishi kerak.
2. Talabalarga darsning barcha mazmunini qamrab oladigan uy materiallari o'zbek tilida ham, ingliz tilida ham taqdim etilishi kerak.
3. Maxsus tarjimai bilan odatdagi atamalar va so'zlarning ro'yxatini shakllantirish kerak.
4. Ko'rgazmali material ingliz tilida ishlab chiqilishi kerak va dars davomida terminlarning tarjimalari va eng murakkab lingvistik tuzilmalar berilishi kerak.

5. Amaliy va laboratoriya ishlari uchun topshiriqlar va joriy nazorat testlari ingliz tilida tayyorlanadi va darslarning o‘zi o‘zbek tilida olib boriladi.

6. Kerakli so‘z boyligini aniqlash uchun o‘quv jarayonida qo‘llaniladigan maxsus adabiyotlar asosida chastota lug‘atini tayyorlash talab etiladi.

Kompyuter bo‘yicha adabiyotlarining uslubiy va leksik xususiyatlari bevosita fanni o‘rganish mavzusi emas, balki har bir o‘quv mashg‘ulotining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Kompyuterga ta’luqli adabiyotlarini to‘g‘ri tushunish bilingval informatika ta’limining maqsadlaridan biridir. Kompyuter texnik vositalarni ishlatish va dasturiy ta’minotdan foydalanish qoidalari va asoslari to‘g‘risidagi texnik adabiyotlar, kompyuter texnikasining texnik hujjatlari, kompyuter uskunalarni ishlatish bo‘yicha ko‘rsatmalarni o‘z ichiga oladi. Kompyuter adabiyotlari tarjimasi, har qanday ixtisoslashtirilgan texnik adabiyotlar tarjimasi singari, o‘ziga xos uslubiy va leksik xususiyatlarga ega.

Kompyuterga oid adabiyotlarini tarjima qilish asoslarini o‘zlashtirish uchun quyidagilar kerak:

- odatda kompyuter matnlarida muhokama qilinadigan jarayonlarni to‘g‘ri tushunish uchun zarur bo‘lgan informatika bo‘yicha bilimlar blokini o‘zlashtirish;
- kompyuter terminologiyasi asoslarini bilish;
- kundalik muloqotda va kompyuter sharoitida turli ma’nolarga ega bo‘lishi mumkin bo‘lgan so‘zlarni (maxsus so‘zlar) farqlashni o‘rganish;
- ingliz va o‘zbek tillarining o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, so‘zma-so‘z tarjimasi to‘g‘ri tarjimasidan farq qiladigan so‘zlarning murakkab guruhlarini to‘g‘ri tushunishni va tarjima qilishni o‘rganish.

O‘quvchilar kompyuter matnlarini o‘qish paytida va ularni tarjima qilish jarayonida duch keladigan ingliz tilidagi kompyuterga oid adabiyotlarining eng muhim leksik va uslubiy xususiyatlariga kompyuter atamalari, kompyuter adabiyotlarida ishlatiladigan qisqartmalar va atributli ketma-ketliklarni o‘z ichiga oladi. Kompyuterga ta’luqli adabiyotida atamalarni tarjima qilishning turli xil usullari - kalkirovka, transkripsiya (transliteratsiya) va tavsiflovchi tarjimalar mavjuddir. Ikki komponentli terminlarni izlash usuli bilan tarjima qilishda va ko‘pkomponentli terminlarni tarjima qilishda alohida qiyinchiliklar paydo bo‘ladi [2, 426-b].

Leksik tizimlar nuqtayi nazaridan kompyuter matnlarini tarjima qilishning asosiy farq qiluvchi xususiyatlarini so‘zlar tartibini o‘zgartirish, ekspatik inkor, antonimik tarjima va ruxsat etilgan kamchiliklardan foydalanish tarjimasi deb atash kerak.

Nazariy materiallarni o‘rganish jarayonida ingliz tilidagi kompyuter adabiyotlarini tarjima qilishning barcha bu xususiyatlarini dars jarayonida ko‘rib chiqish zarur. Bu qo‘shimcha o‘qish vaqtini talab qilsada, talabalar tomonidan ushbu

materialni o'zlashtirish ancha dinamik bo'lib, u fanning mazmuni bilan chambarchas bog'liqdir [3, 316-b].

Talabalarga minimal terminologik lug'at, shuningdek kompyuter adabiyotlarining chastotali lug'ati taklif etiladi, bu so'z boyligini boyitishni juda osonlashtiradi.

Bilingval informatika fani uchun kompyuter matnlarini tushunish qobiliyatini joriy va yakuniy nazorat qilish uchun dars rejaları va nazorat materiallarini ishlab chiqish, shuningdek dasturlar bilan ishlash qobiliyatini tekshirish uchun nazorat materiallarini ishlab chiqish kerak.

Zamonaviy bazaviy o'quv dasturlari ko'pchilik o'quvchilar va talabalar uchun o'qish va ishlarida foydali bo'ladigan bilim va ko'nikmalarni egallashni nazarda tutmaydi. Ularda kompyuterni ishlatish, dasturlash asoslarini o'rgatish usullari asosiy o'rinni egallaydi. Informatika bo'yicha asosiy o'quv dasturlari mazmunining majburiy minimumiga axborot, uning uzatilishi, qayta ishlanishi va saqlanishi, shaxsiy kompyuter qurilmasi, multimedia dasturlari, algoritmlar va dasturlash bilan ishlash asoslari haqida tushuncha kiradi.

Windows operatsion tizimi bilan ishlash, xususan hozirda O'zbekistonda Windows 10 tizimining eng ommabop versiyasi, Word muhitida matnli hujjatlar bilan ishlash, Excel muhitidagi jadvallar bilan ishlash kabi muhim mavzularga yetarli vaqt va e'tibor berilmagan, Windows 10 tizimi va Microsoft Office paketining dasturlari tarjimonlar va tilshunoslarning ishi uchun bilishi zarur bo'lgan dasturiy vositadir. Aynan ushbu mutaxassislik sohalari uchun ingliz tilida professional muloqot qobiliyatlari talab qilinadi.

Shunday qilib, maktab o'quvchilari va talabalarga informatika bo'yicha bilingval ta'lim jarayonida Windows 10, MS Word, MS Excel mavzulariga alohida e'tibor berilishi kerak. Bilingval informatika o'quv fani asosiy informatika fanini takrorlamaydigan, balki shaxsiy kompyuterni qo'llashning eng zarur sohalari bo'yicha talabalarning bilimlarini maksimal darajada oshiradigan va bilingval ta'limning asosiy maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda o'quvchilarning ona tili va o'rganayotgan tillarida ushbu mavzu bo'yicha tushunchalarini shakllantiradigan tarzda ishlab chiqilishi kerak. Bundan tashqari, fanda Microsoft Power Pointda taqdimotlarni yaratish va Access muhitida ma'lumotlar bazasi texnologiyasi, Internetda qidirish qobiliyatlari va Internet-saytlarni yaratish asoslarini o'rgatish mumkin.

Kelajakdagi informatika o'qituvchisining bilingval fan kompetensiyasini shakllantirishning pedagogik jarayoni, boshqa har qanday faoliyat jarayoni singari, ancha uzoq va shubhasiz o'z rivojlanish dinamikasiga egadir. Chet tilni o'qitishda muvaffaqiyatli foydalanish vositasi sifatida va bilingval informatika bilimlarini rivojlantirishning sharti - bu talabaning asosiy kommunikativ kompetensiyasini va

informatika fanida ma'lum darajada fikrlash darajasini shakllantirishdan iboratdir. "Common European Framework of Reference" hujjatida tasvirlangan talabalarning chet tili bo'yicha kompetensiya darajalari bosqichlarni aniqlash uchun asos bo'lib olingan[4, 144-b].

Bilingval ta'limning alohida ahamiyati uning falsafiy va pedagogik asoslarida yotadi: mavjud bo'lgan stereotiplarni rad etish, qadriyatlar va g'oyalarning sayyoraviy almashinuviga intilish, madaniyatlararo muloqotni shakllantirish. Bilingval ta'lim - ta'lim olish vositasi bo'lib, tashqi dunyo bilan o'zaro aloqada bo'lgan shaxsni shakllantirish jarayoni hisoblanadi [5, 172-b].

Bilingval informatika fanida darslarni nazariy va amaliy mashg'ulotlarga ajratish nazarda tutiladi. Nazariy va amaliy mashg'ulotlar teng nisbatda olib boriladi deb taxmin qilinadi, ammo o'qituvchi tinglovchilarning xususiyatlarini va mavzudagi ilmiy yutuq darajasini hisobga olgan holda darsni rejalashtirishda o'z-o'zidan o'zgartirish kiritishi mumkin. Standart nazariy mashg'ulotlar ingliz tilida so'zlashadigan terminologiyasi parallel ravishda tematik ma'ruza o'qish (ona tilida), mustaqil o'rganish uchun topshiriq (ingliz tilida uyda o'qish uchun materialning bir qismi) va terminologiya hamda ma'ruza materiallari bo'yicha bilimlarni nazorat qilishdan iborat bo'lishi kerak. Amaliy mashg'ulotlarda talabalarga mashqlar taklif etiladi, unda ularni amalga oshirish tizimi bosqichma-bosqich tavsiflanadi. O'qituvchi olingan natijalarni tekshiradi, yo'l qo'yilgan xatolarni aniqlaydi va mashqlarni qanday bajarish kerakligini tushuntiradi.

Tadqiqotlar natijasida amaliy va nazariy mashg'ulotlar, talabalar va o'qituvchilar uchun tavsiyalar, shu jumladan bilingval informatika fani ishlab chiqildi va sinovdan o'tkazildi. Ishlab chiqilgan bilingval o'quv dasturidan oliy o'quv yurtlarining lingvistik fakultetlarida va chet tilini chuqur o'rganadigan maktablarda foydalanish mumkin. Loyihalashtirilgan o'quv dasturi juda ko'p leksik va uslubiy tuzilmalar va o'ziga xos terminologiyalar (matematika, fizika, kimyo, tibbiyot) bilan ajralib turadigan fanni talab qiladigan fanlarni rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Tajriba shuni ko'rsatadiki, bunday fanlarni bilingval o'qitish talabalarning qiziqishini va faolligini sezilarli darajada oshiradi, bu esa ushbu fanlarni ikkala tilda muvaffaqiyatli o'zlashtirishga katta hissa qo'shadi.

### **Adabiyotlar**

1. Алиев Р., Каже Н. Билингвальное образование. Теория и практика. Рига: Retorika A, 2005. 215 с.
2. Климзо Б.Н. Ремесло технического переводчика. Об английском языке, переводе и переводчиках научно-технической литературы. М.: Валент, 2006. 426 с.

**OLIY TA'LIM MUASSASALARINING ELEKTR ENERGETIKA  
YO'NALISHI TALABALARIGA ELEKTR MASHINALARI FANINI  
HOZIRGI KUNDAGI O'QITISH TAHLILI**

**Jo'rayev M.Q.** - Buxoro muhandislik-texnologiya instituti "Elektr mexanikasi va texnologiyalari" kafedrsi assistenti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada elektr energetika to'g'risida talabalarni o'qitishdagi muammolari haqida so'z boradi. Jamiyatda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashda har bir talabada alohida e'tibor talab etadi. Bunga yechim qilib har darsni yangi innovatsion texnologiyalar orqali o'tish maqsadga muvofiqdir.

**Kalit so'zlar:** innovatsiya, aksioma, fazo, normativ, dolzarb, obyektiv, subyektiv, islohot.

**АНАЛИЗ СОВРЕМЕННОГО ПРЕПОДАВАНИЯ ЭЛЕКТРОТЕХНИКИ  
СТУДЕНТАМ НАПРАВЛЕНИЯ ЭЛЕКТРИЧЕСКОЙ ЭНЕРГЕТИКИ  
ВЫСШИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ**

**Джораев М.К.** - Ассистент кафедры «Электромеханика и технология»  
Бухарского инженерно-технологического института

**Аннотация.** В статье рассматриваются проблемы обучения студентов электричеству. При воспитании конкурентоспособных кадров в обществе каждый студент требует особого внимания. Чтобы решить эту проблему, желательно проводить каждый урок с использованием новых инновационных технологий.

**Ключевые слова:** инновация, аксиома, пространство, нормативное, актуальный, объективный, субъективный, реформа.

**ANALYSIS OF CURRENT TEACHING OF ELECTRICAL ENGINEERING  
FOR STUDENTS OF HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS OF  
ELECTRICITY**

**Jorayev M.K.** - Assistant of the Department of «Electrical Mechanics and Technology» Bukhara Institute of Engineering and Technology.

**Annotation:** This article discusses the problems of teaching students about electricity. Every student needs special attention in the preparation of competitive

personnel in the society. The solution is to teach each lesson using new innovative technologies.

**Key words:** innovation, axiom, space, normative, current, objective, subjective, reform.

Bugungi kunda ijtimoiy hayotni barcha sohalarini, jumladan, ta'lim tizimini ham tubdan takomillashtirish ehtiyoji va talabining ortib borayotganligini hayotning o'zi ko'rsatib turibdi. Ushbu ehtiyoj va talabdan kelib chiqqan holda, ta'lim tizimidagi munosabatlarni tartibga soluvchi bir qator normativ–huquqiy hujjatlar qabul qilinmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi qonuni 2020-yil 23-sentyabr kuni qabul qilingan bo'lib, uning maqsadi, mazmuni va vazifasi ta'lim tizimidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Ta'lim islohotidan ko'zlangan bosh maqsad – ta'lim oluvchilar shaxsini komil inson sifatida shakllanishiga obyektiv va subyektiv shart-sharoitlar yaratishdir. Bo'lajak elektr energetika mutaxassislarini zamon talablari darajasiga mos ravishda tayyorlash uchun ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish bugungi dolzarb vazifalardan hisoblanadi [1].

1970-1980-yillarda AQSHda pedagogik texnologiyalar oqimi paydo bo'ldi va tezda barcha ilg'or kapitalistik davlatlarni qamrab oldi. Bu harakat YUNESKO tomonidan qo'llab-quvvatlandi va bu sohada ilg'or pedagogik tajriba Bolgariya, Vengriya, Polsha, Rossiya kabi davlatlar pedagoglarini ham qiziqtirib qoldi. Zamonaviy ta'lim texnologiyasida tarixiy ta'lim metodlaridan foydalanishning qanday ahamiyati bor.

“O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora - tadbirlari to'g'risi”dagi 2020-yil 6-noyabrda PF-6108 farmonida - So'nggi yillarda mamlakatda ta'lim-tarbiya tizimining sifati va samaradorligini oshirish, bog'cha tarbiyalanuvchilari, o'quvchi va talaba yoshlarda zamonaviy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, ta'lim tizimlari hamda ilm-fan sohasi o'rtasida yaqin hamkorlik va integratsiyasini, ta'limning uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda [2].

Shu bilan birga, milliy ta'lim-tarbiya tizimining amaldagi holati uni zamon talablari asosida modernizatsiya qilish, yoshlarni yuksak bilim-ma'rifat egalari, jismoniy va ma'naviy sog'lom insonlar etib tarbiyalash, ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog xodimlari nufuzini oshirish, ularning samarali faoliyat yuritishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish bo'yicha izchil chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab etmoqda.

Hozirgi kunda pedagogik adabiyot, ta'lim muammolariga oid ma'ruzalar, rasmiy hujjatlarda “yangi pedagogik texnologiya”, “ilg'or pedagogik texnologiya”, “zamonaviy pedagogik texnologiya” iboralari keng qo'llanilmoqda. Aynan tizimli



yondashuv pedagogik texnologiya asosida o'qitishni boshqa yondashuvlardan farqlovchi asosiy belgi hisoblanadi. Ta'lim maqsadlari, uning mazmuni, o'qitish va ta'lim berish metodlari, nazorat va natijalarni baholashni o'zaro aloqada va bir-biri bilan bog'liqlikda loyihalash ko'pincha an'anaviy o'quv jarayonida yetishmaydigan narsalardir. Masalan, ko'p hollarda ta'lim, asosan, axborotni eslab qolishga yo'naltirilgan, ta'lim oluvchining bo'lajak faoliyati esa muayyan ishlarni bajarish yoki tashkiliy, boshqaruv va kasbiy qarorlarni qabul qilish bilan bog'liq bo'ladi. Boshqa misol: o'quv yurtlaridan birida ta'lim oluvchilar bilimlarini nazorat qilish metodini ma'muriyat barcha fanlar uchun bir xilda, ularni har birining xususiyatlarini hisobga olmay asossiz belgilagan. Afsuski, hozirgi kunda bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin.

Pedagoglarning ish amaliyotida ba'zida texnologik qurilgan o'qitish metodlari emas, balki foydali bo'lsada allaqachon o'zlashtirilganlar "pedagogik texnologiya" tushunchasi bilan belgilanadi. Aslini olganda, pedagogik texnologiya -bu o'qitishga o'ziga xos bo'lgan yangicha (innovatsiya) yondashuvidir. U pedagogikadagi ijtimoiy-muhandislik tafakkurining ifodalanishi, texnokratik ilmiy ongning pedagogika sohasiga ko'chirilgan tasviri, ta'lim jarayonining muayyan standartlashuvi hisoblanadi. O'qituvchilar, talaba va o'quvchilar jamoasida o'zaro yordam, hamkorlik va ijodiy muhitni yaratishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'rni beqiyos hisoblanadi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonini har tomonlama mukammal loyihalashtirish, aniq maqsadlar qo'yish va ularga kafolatlangan holda erishish, rejalashtirilgan natijalarni amalga oshirish imkonini beruvchi uzviy bog'langan komponentlar yig'indisi deb hisoblandi. Ushbu qoidadan kelib chiqqan holda har bir o'qitiladigan mavzuga keng qamrovli loyiha ishlab chiqish bilan bir qatorda, o'quv-metodik majmua tayyorlash yo'lga qo'yildi. "Elektr mashinalari" fani majmuasining tarkibiga qo'shimcha mavzuga daxldor bo'lgan barcha axborotlar, tarqatma materiallar, ma'lumotnomalar, manbalar, ulardan foydalanish metodikasi kiritildi. Pedagogik texnologiya deganda, texnologik (ishlab chiqarishdagi) yondashuvlarga aynan o'xshash bo'lgan ta'limda qo'yilgan maqsadlarga erishish kafolatlangan (yakuniy natijani olish) ta'lim jarayoni tushuniladi. Bunday ta'lim jarayoni texnologiyalashtirilgan deyiladi. Texnologiyalashtirilgan ta'lim jarayoni o'qituvchi shaxsiga bog'liq bo'lmagan, faqat o'quvchi (talaba)ning shaxsi, ehtiyojlari, talablari va xislatlariga asoslangan ta'lim jarayonidir. O'quvchi (talaba) ta'lim jarayoni markazida turadi. Bunda darsni kim olib borayapti (tajribali o'qituvchimi yoki yosh o'qituvchimi) qat'iy nazar, ko'zlangan yakuniy natija (maqsadga ko'ra)ga erishish kafolatlanishi lozim. Ta'limda o'qituvchi faqat ijrochi vazifasini bajaradi.

Bu yondashuv asosida yotuvchi asosiy g'oya: pedagogik texnologiyalarni loyihalash va yaratish didaktik aksiomalar tizimi talablariga tayanishi kerak. Muallifning fikricha, pedagogika fani azal-azaldan aksiomalardan foydalanib keladi. Ma'lumki, isbot talab qilinmaydigan holat aksioma deyiladi. Bunday holatlarni pedagogik jarayonda ko'plab uchratish mumkin: sinf-dars tizimi, 80 minutlik dars, mavzuli reja va boshqa. Keyingi yillarda biz ta'lim fazosini standartlashtirish jarayonining guvohi bo'layapmiz. Bu ish ancha murakkab va bajaruvchilar uchun kutilmagan holat bo'ldi.

Ta'lim standartlarining yuzaga kelishi mavjud vaziyatni birmuncha qiyinlashtirib yubordi, chunki standartning bajarilishini kafolatlaydigan va pedagogik amaliyotga joriy etiladigan texnologiyalar ishlab chiqilmagan edi. Har bir o'quvchi (talaba) ta'lim standarti darajasiga erishishi uchun o'quv yurtlaridagi mavjud an'anaviy metodikalar o'rniga yangi pedagogik qurollar zarur bo'ladi. O'quv jarayoni loyihasini texnologiya darajasiga chiqarish va bu loyiha uchun joriy etilishi o'qituvchini yuqori malakali mutaxassisga aylantirish bilan birgalikda o'rganuvchining mavqeyini ham kuchaytiradi va ijodiy hamkorlikning yangi ufqlarini ochadi. Endi o'qituvchi loyiha muallifi bo'lib oladi, bu esa yangi vazifadir.

Shaxsning rivojlanish dasturi aslida har bir insonga tug'ma holda beriladi, biroq uni amalga oshirish, afsuski, hozirgi ta'lim tizimida qaralmagan. Mana, nima uchun dunyoda qiynalغانlar va jinoyatchilar mavjud. Shu boisdan, bolaning shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tizimiga kirishishi, uni ixtisosli kasbga tayyorlashning boshlanishi bo'lishi kerak va barcha o'quv dasturlari mazmuni ma'lum faoliyat turining ijodkorini tarbiyalash masalasiga bo'ysunishi kerak[3].

Elektr mashinalari fanini o'qitishda har bir dasturda berilgan mavzuni yangi zamon talablari ya'ni "innovatsion texnologiyalar" orqali didaktik olib borish zarur. Chunki talabada aytilgan fikrlarni tasuvvur qila olishi uchun kichik detallargacha yozib emas, ko'rsatib berish maqsadga muvofiqdir. Bunga sabab har yil biz tayyorlayotgan kadrlarimiz bilan bog'liq 50 dan ortiq ko'ngilsiz voqealar yuz beradi bularning aksaryati ishchi xodimning hayotdan ko'z yumishi bilan tugaydi. Mana shunaqa ko'ngilsizliklarni oldini talabaga yaxshiroq yetkazib uni ishlab chiqarish jarayonida nima kutayotganligini yangi pedagogik texnologiyalar orqali uqtirish lozim. Buning uchun bizga "keys stadi" metodi qo'l keladi. Bu metodni qo'llashda muammo qo'yiladi va talabar shu muammoni yyechish atrofida javob izlaydi, dars ikki tomonlama ishlashga o'rgatadi. Birinchisi yechimga borish yo'li, ikkinchisi to'g'ri yechimidagi muammolar. Shunaqa vaziyatda talaba mustaqil harakat qilib belgilangan marrani kesib o'tadi.

Kelajakda uni kutib turgan kichik ishlab chiqarishdagi muammolarni yyechishda kichik debocha bo'lib xizmat qila oladi. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, har bir talaba bu bizni ertangi kunimiz, kelejagimiz, bunyodkorimiz

hisoblanadi ularni to‘g‘ri tarbiyalash juda mashaqqatli. Bu mashaqqatni yengib, talabani ishlab chiqarish jarayonlariga tayyorlashimizga xizmat qiladigan vositalardan, ya‘ni yangi pedagogik texnologiyalardan to‘g‘ri foydalanishimiz zarur.

### **Adabiyotlar**

1. L.A.Nematov “Bo‘lajak elektr energetika mutaxassislarini tayyorlashda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish yo‘nalishlari”. Toshkent 2020. 4-S, 269- b.
2. M.Maxmudova. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat fanidan ma‘ruzalar matni, Samarqand – 2015, 25- b.
3. Azizxujaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. T.: Cho‘lpon. 2013 – 200-bet.
4. Xakimova M.F. Pedagogik texnologiyalar. O‘quv qo‘llanma. T.TDIU, 2013.
5. Jo‘rayev M.Q. Dunyoda yadro energetikasi taraqqiyoti rivojlanishini amaliy ahamiyatining innovatsion texnologiyalardagi bosqichlari.Maqola №12(79) soni 1. (dekabr, 2020).
6. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonuni [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
7. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 6-noyabr “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta‘lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora –tadbirlari to‘g‘risi”dagi PF-6108 farmonida [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

## **RANG MODELLARI VA GRAFIK FORMATLAR KOMPYUTER GRAFIKASINING ASOSIY BO‘G‘INI SIFATIDA**

**Bagbekova L.K.**- Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada rang va rang modeli tushunchasi, kompyuter grafikasida rang modeli va grafik formatlarning ahamiyati, grafik dasturlarida yaratilgan obyektlarni chiroyli, ko‘rinishli va haqiqiyga yaqin qilib ko‘rishda rang modellarini o‘rni, rang modeli haqida asosiy tavsiyalar, grafik dasturlarda yaratilayotgan tasvir rangini qanday tanlanishi haqida umumiy ma‘lumotlar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** rang, rang modeli, rang tizimi, rang toni, rang chuqurligi, grafika, grafik format, grafik dastur, kompyuter grafikasi, rastrli grafika, vektorli grafika, obyekt, to‘yinganlik, yorqinlik.

## **ЦВЕТОВЫЕ МОДЕЛИ И ГРАФИЧЕСКИЕ ФОРМАТЫ КАК ГЛАВНОЕ ЗВЕНО КОМПЬЮТЕРНОЙ ГРАФИКИ**

**Багбекова Л.К.- преподаватель Ташкентского государственного педагогического университета**

**Аннотация.** В этой статье представлена концепция цвета и цветовой модели, значение цветовой модели и графических форматов в компьютерной графике, роль цветковых моделей в создании красивых, видимых и реалистичных объектов, созданных в графических программах, основные рекомендации по цветовой модели, общая информация о том, как выбрать цвет изображения.

**Ключевые слова:** цвет, цветковая модель, цветковая система, цветковой тон, глубина цвета, графика, графический формат, графическое программное обеспечение, компьютерная графика, растровая графика, векторная графика, объект, насыщенность, яркость.

## **COLOR MODELS AND GRAPHIC FORMATS AS THE MAIN LINK OF COMPUTER GRAPHICS**

**Bagbekova L.K.- the teacher of Tashkent State Pedagogical University after  
named Nizami**

**Anotation.** In this article, the concept of color and color model, the importance of color model and graphic formats in computer graphics, the role of color models in making objects created in graphics programs beautiful, visible and realistic, basic recommendations about color model, general information on how to choose an image color is provided.


**Key words:** color, color model, color system, color tone, color depth, graphics, graphics format, graphics program, computer graphics, raster graphics, vector graphics, object, saturation, brightness.

Bugungi kunda axborot texnologiyalari sohasining eng zamonaviy yo'nalishlaridan biri hisoblangan kompyuter grafikasi ham hayotimizning barcha jabhalariga kirib keldi va turli sohalarning ajralmas bo'lagi bo'lib qoldi, hamda hozirgi kunda aniq bir soha sifatida o'rganilib kelinmoqda. Bu sohadagi izlanishlar jadallik bilan rivojlanib, ko'plab ijobiy natijalarga erishilmoqda.

Kompyuter grafikasida rang katta ahamiyatga ega. Chunki kompyuter grafik dasturlarida yaratilgan obyektlarni chiroyli, ko‘rinishli va haqiqiyga yaqin qilib ko‘rishda, albatta rang muhim rol o‘ynaydi.

Rang modeli - bu rang tizimidagi ranglarni tasvirlash usuli bo‘lib, ular vazifalari va imkoniyatlariga ko‘ra turlicha ko‘rinishda bo‘ladi. Masalan,

1. **RGB** rang modelining nomi **Red** - qizil, **Green** – yashil va **Blue** – ko‘k ranglarning bosh xarflaridan olingan bo‘lib, ushbu ranglarni aralashtirish natijasida turli hil boshqa ranglar hosil qilinishi mumkin. Bu rang modelining tashkil etuvchilari 0 dan 255 gacha qiymat qabul qilishlari mumkin. Shu qiymatlar qo‘shilishidan turlicha ranglar paydo bo‘ladi. RGB-dagi tasvirlar monitor ekranida namoyish qilish uchun ishlatiladi. Siz RGB tasvirlarini televizorlarda va kompyuter monitorlarida tez-tez ko‘rasiz. Ushbu rejimdan faqat yorug‘lik chiqaradigan qurilmalar foydalanishi mumkin.



2. **CMYK** rang modeli tipografik bosib chiqarish uchun yaratilgan va ishlatiladi. Bu turdagi rang modelida ranglar moviy (**Cyan**), pushti (**Magenta**) va sariq (**Yellow**) ranglar aralashmasidan paydo bo‘ladi. Ularning to‘liq aralashmasidan qora (**black**) rang hosil bo‘ladi. Qora (black) so‘zida birinchi harfi qora va ko‘k so‘zlarini bosh harfi bo‘lganligi sababli chalkashtirmaslik uchun K ohirgi harfi ishlatiladi. Shuning uchun bu rang modeli CMYK deyiladi.



Ushbu ranglar jurnallarda, kitoblarda va risolalarda to‘liq rangli badiiy asarlarni ko‘paytirishda ishlatiladi. Bu rang modelining tashkil etuvchilari 0 dan 100 gacha qiymat qabul qilishlari mumkin. Shu qiymatlar qo‘shilishidan turlicha ranglar paydo bo‘ladi.

Masalan, daftar yuziga bironta tasvir tushirmoqchi bo‘lsak uni kompyuterda tayyorlashda biz RGB modelidan foydalanamiz. Xuddi shu tasvirni bosmaxonada bosib chiqarish uchun tayyorlayotganda esa shu tasvir CMYK modelida tasvirlanadi.

3. **HSB(HSV) rang modeli.** Model to‘yinganlik va qiymatni anglatib, nomi unga asos bo‘lgan uch komponentning bosh xarflaridan olingan: rang toni;




**Hue** - rang toni – 0 dan 360 gradusgacha diapazondagi burchak kattaligi bilan tavsiflanadi. Konusning chetida 0 dan 360 darajagacha aylanish. 0 daraja qizil, 120 daraja yashil va 240 daraja ko‘k.

**Saturation** - to‘yinganlik rangning tozalik darajasidir. U kul rangning boshqa rangga nisbati bilan aniqlanadi. Kul rang uchun 0% dan (rangsiz) to‘liq sof rang uchun 100% gacha. 0% konusning markazi va tashqi aylanasi 100%.


Rangning yorqinligi **Brightness** 0 dan 100 gacha o'zgarishi mumkin. 0% to'liq qorong'i, 100% to'liq yorug'lik. Bu erda 0% konusning pastki qismi va 100% yuqori qismidir.

Bu tushunish uchun eng oson rang modelidir, ammo ushbu rang modelida ranglar qamrovi RGB modeliga qaraganda ancha kamroq. Rang qiymati doira markazidan boshlab vektor sifatida tanlanadi. Vektor yo'nalishi daraja bilan belgilanadi va ranglar quyilishini aniqlaydi. Vektor uzunligi ranglarning to'yinganligini aniqlaydi.



HSB rang modelining kamchiligi RGB rang modeliga asoslanganligi. Chunki qog'ozga chop etilishi uchun CMYK rang modeliga, monitorda namoyish qilish uchun RGB rang modeliga o'zgartiriladi.

4.



**LAB rangli modeli.** Lab rang modeli tasvirning yorqinligi, kontrasti va rangiga alohida ta'sir ko'rsatishga imkon beradi. Tasvirlarga ishlov berishni sezilarli darajada tezlashtiradi. **L** – yoritish. Bu yorqinlik va intensivlik tushunchalarining kombinatsiyasi.

**A** – yashil rangdan binafsha ranggacha rang sxemasi.

**B** – ko'kdan sariq ranggacha ranglar.

Ya'ni, bu modelda ikkita ko'rsatkich rangni aniqlaydi va bitta ko'rsatkich uning yoritilishini belgilaydi.

LAB - bu ikkala RGB va CMYK ranglarini, shuningdek kulrang (ya'ni oq-qora) rangni o'z ichiga oladi.

Ko'pincha tasvir sifatini yaxshilash va rasmlarni boshqa ranglar oralig'idan boshqasiga o'tkazish uchun foydalaniladi.

Yaratilayotgan tasvir rangini qanday tanlashimiz juda muhim jarayon hisoblanadi. Chunki tasvirning asosiy ko'rinishi bu rang. Keling, quyida asosiy ranglarning vazifalari va xususiyatlarini logotiplar misolida ko'rib chiqamiz.

Bu rang kuch, ehtiros va buyuklikni anglatadi.

Ushbu sezgi xususiyatlari mahsulotning kuchli tomonlarini ko'rsatishga yordam beradi. Reklama bozorida bu rang juda haridorbop sanaladi. Chunki, odamni o'ziga jalb qila oladigan rang sanaladi.



Sariq rangdan iliqlik, ijodkorlik, qiziqarli va ijobiy o'zgarishlarni tasvirlovchi rang turi. Ushbu logotip rangi bayram, quvonch va baxt hissini yaratadi.



Shuning uchun uni tadbirlarni tashkil etish, bolalar mollari, shirinliklarni sotish reklamalarida ishlatish tavsiya etiladi.



Ko'k rang odatda sovuq ranglar guruhiga kiruvchi rang hisoblanadi. Bu rangni osmon soyasiga qiyoslab, tinchlanishga, dam olishga, g'ayratni sovutishga va ishga moslashishga qodir deyiladi. Bundan tashqari, sovuq ohanglar xavfsizlik va xotirjamlikni anglatadi. Bu ko'k logotiplarni tibbiy, yuridik va bank xizmatlarini ko'rsatadigan kompaniyalar uchun eng yaxshi variantga aylantiradi.

Ushbu rang qizil va sariq ranglarni aralashtirish natijasida hosil bo'ladi. Olovli apelsin rangi qizil rangga qaraganda yumshoqroq, qulayroq va xotirjamroq. Ushbu rang uying harorati va qulayligini anglatadi. Bunday uyushmalar tufayli to'q sariq rang ko'pincha kafelarda, mebel do'konlarida, novvoyxonalarda va boshqalarda ishlatiladi.




Yashil rangdagi uyushmalar: sog'lom turmush tarzi, tabiat, tabiiylik, sport va osoyishtalik. Bu faollik va dam olishga undaydi. Yashil rang muvozanat, uyg'unlik va osoyishtalikni, shifo va sog'likni anglatadi. Ushbu rang ayniqsa tibbiyot, kosmetologiya va ekologik mahsulotlarni sotish sohasida ishlaydigan kompaniyalar uchun juda mos keladi.

Aristokratlar va qirol zodagonlari, sehr va ma'naviyatning rangi. Qizil singari, binafsha rang kuch va quvvat bilan bog'liq. Moviy kabi, bu rang sovuq ranglar guruhiga mansub hisoblanadi. Bu rang donolik, maxfiy bilim, hurmat, ishonchning ramzi. Binafsha timsollardan odatda ko'chmas mulk kompaniyalari va yirik tashkilotlar foydalanadilar.



Masalan, qora rang nafislik, hashamat, munosib sifat bilan bog'liq. Va oq rang soddaligi va halolligini aks ettiradi. Bu fazilatlar ushbu logotip rangini tanlaydigan ko'plab brendlar uchun kalit hisoblanadi.

Kompyuter qurilmalarida yaratilgan har qanday axborot ma'lum bir format bilan saqlanadi. Ya'ni bu hujjatning qaysi dasturda yaratilganini bildiradi. Shuningdek, grafik formatlar ham mavjud bo'lib, ular **GIF, JPEG, PNG, TIF, BMP** va shu kabilar.



**GIF (Graphics Interchange Format)** grafik formati – tarmoqdagi eng keng tarqalgan grafik format. Tarmoqdagi rangli tasvirlar va fonlarning ko'p qismi gif formati fayllari hisoblanadi. Shu bilan birga, gif formatlar harakatlantirish mumkin bo'lgan tasvirlar bo'lib, ularni o'zimiz foydalanadigan telefonimizda ham ko'rishimiz mumkin. Bu formatda tasvir hajmi o'zgarganda tasvir sifatiga ta'sir qilmaydi. Bu formada oddiy diagrammalar, shakllar, logotiplar va multfilm tarzidagi rasmlarga harakatlar o'rnatish orqali chiroyli animatsiyalar qilish mumkin.



**JPEG (Joint Photographic Experts Group)** grafik formati ko'p rangli tasvir fayllarini tarmoqda ishlatish uchun mo'ljallangan bo'lib, foydalanish darajasi bo'yicha ikkinchi o'rinda turuvchi grafik format hisoblanadi. Ko'pincha bu format qisqartirilgan holda JPG deb yuritiladi. Bu formatdagi tasvirlar rastrli grafika bilan ishlaydi va katta joyni egallaydi. U minglab ranglarning palitrasiga ega, agar tasvir hajmi o'zgarsa tasvir sifatiga ham ta'sir qiladi.



**PNG (Portable Network Graphics)** grafik format Веб- sahifalarda tasvir va grafiklarni joylashtirish uchun maxsus yaratilgan bo'lib, o'zida 16 million rang qamroviga ega format turi.

PNG fayllari JPG fayllariga nisbatan kattaroq, ammo hajmi o'zgarganda ham sifatini o'zgartirmaydigan format turi hisoblanadi. Bu format gif va jpg formatlarning afzallik tomonlarini o'zida mujassamlashtirgan. Shuning uchun ham bu formatdagi tasvirlar yuqori sifatga ega hisoblanadi.



**TIFF (Tagged Image File Format)** - bu rastrli grafik tasvirlarni saqlash formati. TIFF yuqori rangli chuqurlikdagi rasmlarni saqlash uchun mashhur format sanaladi. U skanerlash, faks orqali yuborish, matnni aniqlash, bosib chiqarish uchun ishlatiladi.



**BMP** grafik formati Windows operatsion tizimi uchun Microsoft firmasi tomonidan ishlab chiqilgan. U sodda tuzilishdagi tasvirlarni ifodalaydi va uncha katta bo'lmagan grafiklarni namoyish etish uchun xizmat qiladi. Ushbu grafik format interfeyslarda keng qo'llaniladi. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, kompyuter grafikasida yaratilgan tasvirlarga rang berish muhim jarayon hisoblanadi. Chunki tasvir har tomonlama mukammal yaratilgan bo'lmasin, unga to'g'ri va mos rang tanlanmasa, tasvir o'z ko'rinishini bermasligi aniq. Shunday ekan, tasvir qaysi



dasturiy vositada yaratilishidan qat'iy nazar, rang qanchalik to'g'ri tanlansa shunchalik yuqori sifatga ega tasvir hosil bo'ladi.

### **Adabiyotlar**

1. T.Rixsiboyev, X.Rixsiboyeva, S.Tursunov Kompyuter grafikasi//Darslik// Toshkent: "Tafakkur qanoti", 2018. -304-b
2. Distance education system as a new form of teaching International Scientific Journal Theoretical & Applied Science № 09 (89) 2020 12-14
3. <https://www.wigglepixel.nl/en/blog/what-are-color-models/>
4. <https://turbologo.ru/blog/podbor-cveta-logo/>
5. <http://library.ziyonet.uz/uploads/books/634149/55d55ae50259a.pdf>
6. <http://library.ziyonet.uz/ru/book/download/39203>

## **TA'LIM JARAYONIDA AXBOROT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH**

### **Komilova Z.M.- Toshkent davlat pedagogika universiteti izlanuvchisi**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada shaxs axborot madaniyatini shakllantirishda pedagogik jarayonlarda ko'zlangan natijalarga erishish uchun o'qituvchining kasbiy kompetentligi qay darajada rivojlangan bo'lishi, jamiyatda axborot ta'limini modernizatsiya qilish zaruratini yaratish tamoyillari, uning asosiy maqsadi, axborot asosida shaxsning hayotga tayyorgarligini shakllantirish, doimiy o'zgaruvchan, tobora o'zaro bog'lanib borayotgan axborot muhitida insonning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi zarurligi yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** shaxsning axborot madaniyati, bilim olish usuli, ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiya, o'qituvchining kasbiy komponenti.

## **ФОРМИРОВАНИЕ ИНФОРМАЦИОННОЙ КУЛЬТУРЫ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ**

### **Комилова З.М. - Научный сотрудник Ташкентского государственного педагогического университета**

**Аннотация.** Зависимость учителя от уровня профессиональной компетентности в достижении желаемых результатов в педагогическом процессе по формированию информационной культуры личности. Развивающееся информационное общество порождает необходимость модернизации образования, основной целью которого является формирование

индивидуальной готовности к жизни на основе информации, успешная социализация человека в постоянно меняющейся, все более взаимосвязанной информационной среде.

**Ключевые слова:** информационная культура личности, метод усвоения, инновационные педагогические технологии в образовательном процессе, профессиональная составляющая учителя.

## **FORMATION OF INFORMATION CULTURE IN THE EDUCATIONAL PROCESS**

**Komilova Z.M. - Scientific employe of Tashkent State Pedagogical University**

**Annotation.** The development of the information society, which depends on the level of professional competence of the teacher in achieving the desired results in the pedagogical process for the formation of an information culture of the individual, creates the need to modernize education. Its main purpose is to form an individual's readiness for life on the basis of information, successful socialization of a person in a constantly changing, increasingly interconnected information environment.

**Key words:** information culture of the person, method of acquisition, innovative pedagogical technology in the educational process, the professional component of the teacher.

Ta'lim – kelajakdagi muvaffaqiyatlar kaliti ekan, uning mahsuli bo'lgan bugungi o'quvchi kelajakda huquqiy – demokratik jamiyat a'zosi sifatida, bu jamiyat hayotida to'laqonli ishtirok eta olishi, zamonning bozor iqtisodiyoti qo'yayotgan talabalariga to'la javob bera olishi kerak. Axborot oqimi keskin ortgan, turli yangiliklar hayotimizga shitob bilan kirib kelayotgan davrda mustaqil tanqidiy fikrlash ko'nikmalariga ega bo'lgan, yangilikni o'rganishga doim tayyor bo'lgan, hamkorlikdan cho'chimaydigan, muloqotga erkin kirisha oladigan shaxsni tarbiyalash ta'lim – tarbiya jarayoninig asosiy maqsadi bo'lishi kerak va bu borada ta'limda yangi texnologiyalarning qo'llanishiga yo'l ochilishi maqsadga erishish yo'lidagi to'g'ri qadamdir [1].

Manbalardan o'tgan asrning oltmishinchi yillaridan Angliya, Germaniya, Yaponiya, AQSH kabi taraqqiy etgan davlatlarning ta'lim muassasalari o'quv rejalariga, bolalarni kundalik hayotga tayyorlash maqsadida pul ishlab topish, uni saqlash, mol-mulk yig'ish, daromadli biznes, tejamkorlik, vaqtni foydali sarflash, irodani mustahkamlash, sog'likka e'tibor berish, foydali kasbni tanlash va iqtisodiy bilim berish maqsadiga yo'naltirilgan «iqtisodiy pedagogika» fani kiritildi. Ushbu fan uchun alohida o'quv dasturi va uslubiy tavsiyalar yaratilgani ma'lum. Amerikalik

mutaxassislar bolalarga kichik yoshdan, ya'ni boshlang'ich sinfdanoq ilk iqtisodiy tushunchalarni berib borish kerakligi, ular o'zlari uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari, gigiyenik vositalar, kiyim-kechak hamda boshqa shu kabi vositalarni tanlash, sotib olish, ulardan foydalanishni bilishi muhim deb hisoblaydilar va bunga maktabni mas'ul deb biladilar.

Bolalarga ular to'g'risida nafaqat ma'lumot berish, balki ularda kelgusida asqotadigan bilimlar (tejamkorlik, mas'uliyatlilik, intizom va ehtiyotkorlik)ni tarbiyalash kerakligini ta'kidlaydilar. Nemis bolalarida yoshlikdan berilgan vazifalarni bajarishga mas'uliyatli yondashish, kunni rejalashtirish, ovqatlanish, sport mashg'ulotlari, mehnat, o'yin faoliyatini tashkil etishda vaqtni to'g'ri taqsimlash, kun tartibiga qattiq rioya qilish malakalari va mehnatsevarlik fazilatlarini tarbiyalanadi. Umuman, taraqqiy etgan barcha kapitalistik davlatlar iqtisodiy ta'lim-tarbiyasining maqsad va vazifalari bolalarda mehnat qilish, shu asosda iqtisodiy manfaatdorlikka erishish ko'nikmalarini rivojlantirish, intizomlilik, ishbilarmonlik, bosiqlik, punktuallik, mas'uliyatlilik va omilkorlik malakalarini o'stirishga qaratilgan [2].

Ta'lim oluvchilar rivojlanishining yuqori darajasiga faqat rivojlantiruvchi ta'lim orqali erishish mumkin, bunda ta'lim oluvchilar bilimlarnigina o'zlashtirib qolmay, balki bilim olish usullarini ham o'zlashtiradi. Bilim olish usuli bu - subyektiv bilish vositalari bo'lib, ularsiz ta'lim oluvchilarning ijodiy faoliyati amalga oshmaydi. Rivojlantiruvchi tizimda bilimlar ta'lim oluvchilarning faol mustaqil bilish faoliyati jarayonida olinadi, o'qituvchining asosiy vazifasi, ta'lim oluvchilarga ularning bu bilimlarga bo'lgan ehtiyoji va faolliklariga bog'liq bo'lmagan holda tayyor bilimlarni uzatishdan iborat bo'lgan an'anaviy tizimdan farqli, ta'lim oluvchi faoliyatini boshqarishdan iborat bo'ladi.

Ta'lim-tarbiya sifatini oshirishning asosiy omili o'qituvchi va ta'lim oluvchining ta'lim jarayonidagi va tadqiqot ishlaridagi o'zaro munosabati, o'zaro aloqasidir. O'qituvchi faqat axborot uzatuvchi emas, balki tashkilotchi, rahbar, maslahatchi bo'lishi, ilmiy metodlar bilan qurollanib, ta'lim jarayoni qonuniyatlari va mexanizmlarini chuqur anglab, uni boshqarishi lozim [3].

Ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiya tushunchasi bilan noan'anaviy pedagogik texnologiya tushunchalari sinonim sifatida qo'llanmoqda. Chunki endi ta'lim jarayonida o'qituvchilardan an'anaga aylanib ketgan ma'ruzani o'qib berish, tayyor yodlab, mohiyatini tushuntirmasdan o'qitish holatlaridan voz kechib, dars jarayoniga yangi, noan'anaviy g'oyalar asosida dars o'tishi talab qilinmoqda. Hozirda dars jarayonida modulli, munozarali, hamkorlikda o'qitish, tabaqalashtirilgan ta'lim, didaktik o'yin texnologiyasi kabi ilg'or pedagogik texnologiya turlari imkoniyatiga katta baho berilmoqda. Didaktik o'yin texnologiyasi har bir fanda, har bir sinfdan yaxshi natija beradi [4].

Ta'lim muassasalari o'qituvchilarining funksional vazifalaridan biri pedagogik jarayonlarda maqsadga erishish uchun ta'lim jarayoni subyekti sifatida o'quvchilarning faoliyatini muvofiqlashtirish va faolligini oshirishdan iborat bo'lib, ular o'z navbatida o'zini-o'zi, o'z faoliyatini, bir so'z bilan aytganda ta'lim-tarbiya jarayonini boshqaradilar. Mazkur faoliyat o'z navbatida o'qituvchilar va o'quvchilarning do'stona munosabatlariga asoslangan o'zaro hamkorlikdagi boshqaruv faoliyatini ifodalaydi.

Pedagogik jarayonlarda ko'zlangan natijalarga erishishda mazkur jarayonning samaradorligi o'qituvchining kasbiy kompetentligi darajasiga bog'liq bo'ladi. Demak, o'qituvchining ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishi va boshqarish yo'nalishida zaruriy tushunchalarni egallashi, yosh davrlar psixologiyasini yaxshi bilishi, boy va yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lishi, ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tatbiq eta olishi, tegishli ma'lumoti va kasbiy tajribaga ega bo'lishi uning kasbiy kompetentligini rivojlanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi [5].

Oliy o'quv yurtlarida kadrlar tayyorlash, ta'lim tizimini isloh qilishning jahonda tan olingan, tajribada isbotlangan 4 ta modeli mavjud. Bular AQSH, Fransiya, Germaniya va Yaponiya mamlakatlarining modellaridir. Ular garchi, umumiy qoida va yo'nalishlar bo'yicha bir biriga yaqin bo'lsada, lekin mavjud mamlakatlarning hozirgi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy holati, milliy xususiyatlari hamda fuqarolarning yashash sharoitidan kelib chiqib, farq qiladi.

Masalan, Yaponiya ta'lim tizimida «Oila» omiliga katta e'tibor berilgan. Amerika yoki Fransiyada esa mahalliy sharoitdan kelib chiqqan holda pullik maktablar joriy etilgan. Lekin ayrim mamlakatlarda o'zini oqlagan va samara bergan modellarni o'zga davlatlar uchun to'g'ridan to'g'ri qo'llab yoki tatbiq etib bo'lmaydi [6].

Hozirgi kunda butun dunyoda ijtimoiy taraqqiyotda axborot texnologiyalari muhim rol o'ynamoqda va millatning (davlatning) axborot madaniyatining umumiy darajasi uning jahon hamjamiyatidagi ijtimoiy-iqtisodiy o'rnini belgilaydi. Axborotning eng muhim universal kategoriyalar toifasiga o'tishi inson faoliyatining barcha turlari - ta'lim, tadqiqot va ishlab chiqarish uchun axborot resurslariga bo'lgan obyektiv ehtiyojni aks ettiradi. Zamonaviy sharoitlarda axborot materiya (modda) va energiya kabi kategoriyalar bilan birga mustaqil narsa sifatida ham qaraladi.

Axborot madaniyati organik ravishda jamiyat hayotining real negizi, asosiga kirib, unga yangi sifat baxsh etadi. U ko'plab o'rnashib qolgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy aqidalarning o'zgarishiga olib keladi va insonning hayot tarziga sifat jihatidan yangi xususiyatlarni kiritadi.

O.I.Tarasovning fikriga ko'ra, axborot madaniyati tushunchasi XX asrning ikkinchi yarmida kompyuter texnologiyalari va axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi munosabati bilan shakllandi.

S.M.Olenevning fikriga ko'ra, axborot madaniyati tushunchasi hayvonot dunyosiga xos bo'lgan vaziyat signaliga rasmiy munosabatning mutlaqo insonga xos bo'lgan mazmunli tarzda o'zgartirish vaqtida (davrida) paydo bo'ldi. Mazmunli birliklarining almashinuvi tilning rivojlanishi uchun asos bo'lib xizmat qildi. Yozuv paydo bo'lishidan oldin tilning rivojlanishi og'zaki (verbal) metodlarning keng doirasini (gammasini) vujudga keltirdi, ma'no va matn bilan muomala madaniyatini yuzaga keltirdi. Axborot madaniyatini shakllantirishda keyingi bosqich og'zaki axborot madaniyatining barcha xilma-xilligini o'z ichiga olgan yozma bosqich deb qarash mumkin.

Insoniyatning axborot madaniyatini turli davrlarda axborot inqirozlari larzaga keltirgan. O'ta jiddiy miqdoriy axborot inqirozlaridan biri yozuvning (alifboning) paydo bo'lishiga olib keldi. Bilimlarni saqlashning og'zaki usullari tobora miqdori, hajmi oshib borayotgan axborotning xavfsizligini va uni moddiy axborot tashuvchida qayd qilib qo'yishni ta'minlay olmasligi tufayli madaniyatining yangi davri - hujjatlar bilan ishlash davrini yuzaga keldi. Uning tarkibiga hujjatlar bilan ishlash madaniyatini kiradi: qayd qilingan bilimni (chiqarib) olish, axborotni kodlash va qayd qilib qo'yish; dokumentografik qidirish madaniyati. Axborot bilan ishlash osonlashdi, fikrlash tarzi o'zgardi, biroq axborot madaniyatining og'zaki shakllari nafaqat o'z ma'nosini yo'qotmadi, balki yozma o'zaro aloqalar tizimi bilan ham boyitildi.

Yana bir (navbatdagi) axborot inqirozi axborot tashuvchi vositalarini sifat va miqdor jihatdan o'zgartirgan va bir qator axborot jarayonlarini avtomatlashtirgan kompyuter texnologiyalarining paydo bo'lishiga olib keldi. Rivojlanayotgan axborot jamiyatining o'zi ta'limni modernizatsiya qilish zaruratini yaratadi, uning asosiy maqsadi axborot asosida shaxsning hayotga tayyorligini shakllantirish, doimiy o'zgaruvchan, tobora o'zaro bog'lanib borayotgan axborot muhitida insonning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvidan iborat.

Axborotning eng muhim universal kategoriyalar toifasiga o'tishi inson faoliyatining barcha turlari - ta'lim, ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarish uchun axborot resurslariga bo'lgan obyektiv ehtiyojni anglatadi. Zamonaviy kompyuter texnologiyalari asosida axborot resurslarini amalga oshirish barcha bilim sohalari uchun keng imkoniyatlar ochadi. Axborot va axborot texnologiyalari zamonaviy jamiyatning ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishida asosiy omilga aylanmoqda. Axborotning inson hayotidagi fundamental (asosiy) rolini tushunish (anglash), muammolarni axborot va bilimlardan foydalanishga asoslangan holda hal etish - bularning barchasi ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida o'z aksini topishi lozim.

Axborot iste'molchilarini tayyorlashdagi tajribasidan kelib chiqqan holda S. Gilyarovskiy ta'kidlaganidek: «Zamonaviy mutaxassislar uchun axborot muammosi

o'zining barcha turli-tuman jihatlarini bilan kasbiy dunyoqarashning muhim tarkibiy qismiga aylanishi kerak. Ular semantik axborotning, jarayonlarning tuzilishi va asosiy xususiyatlarini, axborotni qidirish va qayta ishlashning zamonaviy tizimlarini va axborot tizimlarining turlarini bilishlari kerak. Talabalarni bu bilimlardan mashg'ulotlar jarayonida va keyingi faoliyatda foydalanishga o'rgatish muhim ahamiyatga ega». Demak, jamiyatda axborotning rolini oshirishning obyektiv jarayoni bilan bog'liq holda axborot iste'molchilarini tayyorlash muammosi dolzarb muammoga aylanadi.

«Axborot madaniyati» tushunchasining talqiniga ikkinchi - kulturologik yondashuvdan foydalanilganda uning mazmuni kengayadi, bu esa qonuniy, tabiiy holatdir. Bu nuqtayi nazardan, axborot madaniyati axborotlashgan jamiyatda inson hayotiy fioliyatining bir yo'li (tarzi) sifatida qaraladi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, axborot jamiyatida axborot qonuniyatlari va axborot bilan o'zaro faoliyat vositalari haqidagi bilimlar axborotlashtirish (informatizatsiya) davrining asosi va metodologiyasiga aylanadi. Axborot madaniyati - kutubxona yoki kompyuter tarmog'ida «adashib» qolmaslik uchun har kimga kerak bo'lgan asosiy amaliy bilimlar majmui emas. Axborot oqimlari bo'ysunuvchi va obyektiv ravishda amal qiluvchi qonuniyatga muvofiq axborot muqarrar ravishda qarib (eskirib) boradi. Ma'lumki, o'rta hisobda 5-10 yil o'tgach, ta'lim muassasasida olingan bilimlar eskirib qoladi. Yaqin o'tmishda inson madaniy qadriyatlarini dunyosi asrlar davomida o'zgarmay kelgan, va shu tariqa ko'p avlodlar uchun taraqqiyot, rivojlanish yo'nalishini belgilab kelgan. Binobarin, axborot madaniyatini shakllantirish jarayonining maqsadi bilimlarning dialogik tabiati, o'zgaruvchanligi va ochiqligi haqida tasavvur (tushuncha) berishdir.

Axborot madaniyati - mutaxassislarining axborot bilan ishlash usullari va texnologiyasini, axborotni qidirish, uzatish, qayta ishlash va tahlil qilish ko'nikmalarini o'zlashtirganlik darajasini bildiradi. Shaxsning axborot madaniyatini dunyoqarash tekisligida shakllantirish sodir bo'layotgan hodisalarning mohiyatini anglash, jamiyatda axborot tarqatish qonunlari va qonuniyatlarini bilish, uning shaxs va shaxslar guruhlariga ta'siri, axborotning jamiyatdagi madaniyat kontekstidagi o'rni haqida nazariy jihatdan tushunib yetish.

Axborotning madaniyatdagi qiymatini o'rganishda, axborot insoniyat o'z tarixi davomida to'plagan barcha bilimlarning mavjud bo'lish shakli deb hisoblashimiz mumkin. Bilim va axborot o'rtasidagi farq faqat har qanday bilimning axborotlilikidan, axborot esa fikrlash, tizimlashtirish va umumlashtirishni kiritishni talab qiladigan har doim bilim uchun manba material ekanligidan iborat.

Axborot madaniyatini shakllantirish axborot tarqatish uchun shaxsiy javobgarlikni tarbiyalash, shuningdek, shaxsda axborot ishlab chiqarish va iste'mol qilish madaniyatini ishlab chiqish, rivojlantirishni (tarbiyalashni) nazarda tutib, ma'naviy-axloqiy tekislikda o'rganilishi (qaralishi) mumkin. Bu muammo bizning davrimizda ayniqsa keskinlik kasb etib, kuchli hissiy (emotsional) zaryadni tashuvchi axborotning shaxsga ta'siri uning foydasiga ham, zarariga ham olib kelishi mumkin.

Barcha yuqorida bayon qilingan fikr, mulohaza, nuqtayi nazarlarga xulosa qilib, biz axborot madaniyatini shakllantirish deganda pedagogik faoliyat subyekti maxsus yaratadigan ichki omillar va tashqi shart-sharoitlarning o'zaro faoliyatidan determinatsiya qilingan (belgilangan), qadriyat oriyentatsiyalari va nuqtayi nazarlarining gumanizatsiyasiga, axborot muhitida bilish, o'zaro faoliyat, o'zaro munosabatlar, faoliyat olib borishga, axborot asosida turmush tarzini o'zlashtirishga, axborotni madaniyat obyekti sifatida yaratish, saqlash, qayta ishlash, tarqatish va iste'mol qilishga qaratilgan shaxs o'zgarishlarining sun'iy-tabiiy jarayoni deb tushunamiz.

### **Adabiyotlar**

1. Boshlang'ich sinfda interfaol metodlardan foydalanish Azizova Q., Toshkent davlat pedagogika universiteti, Zamonaviy, uzluksiz ta'lim muammolari 27- aprel, 2018- yil.

2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida iqtisodiy tasavvurlar shakllantirishni ilmiy-nazariy asoslari Artikbayeva S. Zamonaviy, uzluksiz ta'lim muammolari 27- aprel, 2018- yil.

3. Rivojlantiruvchi ta'lim - matematika o'qituvchisining metodik tayyorgarligini takomillashtirish omili Artikbayeva Z., Toshkent davlat pedagogika universiteti Zamonaviy, uzluksiz ta'lim muammolari 27- aprel, 2018- yil.

4. Ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari Asranova F., Jaloliddinova M., ADU Zamonaviy, uzluksiz ta'lim muammolari 27- aprel, 2018- yil.

5. O'qituvchining kasbiy kompetentligini rivojlantirish omillari Bakiyeva M.K., ADU Zamonaviy, uzluksiz ta'lim muammolari 27-aprel, 2018-yil.

6. "Ta'lim sifati menejmenti" yo'nalishi bo'yicha qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi 2-kichik guruh ishtirokchilarining loyiha ishi mavzu: ta'lim sifatini ta'minlash jarayonlariga ilg'or xorijiy tajribalar, xalqaro standartlar va modullarni tatbiq etish.

## **СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ УЧИТЕЛЕЙ МАТЕМАТИКИ В КОНТЕКСТЕ МОДЕРНИЗАЦИИ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ**

**Сайдалиева Ф.Х. - доцент Ташкентского государственного  
педагогического университета**

**Абдувалиева Д.Н. - преподаватель Ташкентского государственного  
педагогического университета, PhD**

**Аннотация.** Данная статья посвящена совершенствованию методики преподавания лекционных, практических и лабораторных занятий по методике преподавания математики на основе интерактивных методов в условиях

модернизации образования. Авторы умело используют инновационные технологии в обучении с целью повышения методической подготовки будущих преподавателей математики.

**Ключевые слова:** инновационные технологии, новации, научно-исследовательские методы, кластер, метод «Бумеранг»

## **TA'LIM TIZIMINI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA MATEMATIKA O'QITUVCHILARINING METODIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH**

**Saydaliyeva F.X. - Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti**  
**Abduvaliyeva D.N. - Toshkent davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi**

**Annotatsiya.** Ushbu maqola ta'limni modernizatsiyalash sharoitida matematika o'qitish metodikasi fanidan nazariy, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish metodikasini interfaol uslublar asosida takomillashtirish orqali bo'lg'usi matematika o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini oshirishga qaratilgandir. Mualliflar bo'lajak matematika o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini oshirish maqsadida o'qitishda innovatsion texnologiyalardan mohirlik bilan foydalanadilar.

**Kalit so'zlar:** innovatsion texnologiyalar, novatsiya, ilmiy-izlanish metodlari, klaster, "Bumerang" metodi

## **IMPROVEMENT OF METHODOLOGICAL TRAINING OF TEACHERS OF MATHEMATICS IN THE CONTEXT OF MODERNIZATION OF THE EDUCATION SYSTEM**

**Saidaliyeva F. X. - associate Professor of Tashkent State Pedagogical University**  
**Abduvaliyeva D.N. - teacher of Tashkent State Pedagogical University**

**Annotation.** This article is devoted to the improvement of the teaching methodology of lectures, practical and laboratory classes on the methodology of teaching mathematics on the basis of interactive methods in the context of modernization of education. The authors skillfully use innovative technologies in teaching in order to improve the methodological training of future teachers of mathematics.

**Key words:** innovative technologies, innovations, scientific research methods, the cluster, method of «boomerang»

В речи Президента Республики Узбекистан Мирзиёева Шавката Миромоновича, посвященной 25-летию Конституции Республики Узбекистан, подчеркивается «Результативность проводимых в нашей стране реформ зависит от воспитания, высоко идейных, самостоятельно мыслящих, способных брать



ответственность за судьбу и будущее нашей Отчизны, молодых кадров». Существование конкурентных отношений в сфере производства обуславливает действие фактора конкуренции и на рынке труда, что предусматривает повышение требований к профессиональной подготовке кадров. Резкое ускорение процесса обновления знаний, возникновение новых технологий, непрерывное техническое развитие общества требует от специалистов не только качественных знаний, но и высокой профессиональной мобильности, умение самостоятельно ориентироваться в обширной научно-технической и экономической информации, постоянно пополнять и обновлять свои профессиональные знания.

Таким образом, высшее учебное заведение в процессе обучения должно обеспечивать условие для формирования личности, каждый вузовский курс призван внести свой вклад в реализацию общих требований высшего образования. При этом в педагогических вузах особая роль принадлежит наряду с фундаментальными теоретическими курсами, в том числе и педагогическим курсам. Курс «методики преподавания математики» является важным компонентом в подготовке будущих преподавателей математики, ведь от их методической подготовки, от их способности владеть спектром инновационных технологий в процессе обучения зависит их будущая профессиональная деятельность. Поэтому в процессе преподавания курса методики преподавания математики, кроме того, как знакомить их с различными методами обучения математики, мы должны дать им возможность воочию убедиться в применении современных технологий внедряя в процесс обучения новации и интерактивные методы обучения.

Человек, его гармоничное развитие и благосостояние являются главной целью и движущей силой реализуемых в республике преобразований. Известно, что развитие любого государства зависит от его интеллектуального потенциала. Интеллектуальный потенциал общества – это совокупность кадров обладающих высокими человеческими качествами, глубокими знаниями, самостоятельным мышлением, способным обеспечить развитие государства на современном уровне отвечающим требованиям международного стандарта.

Существование конкурентных отношений в сфере производства обуславливает действие фактора конкуренции и на рынке труда, что предусматривает повышение требований к профессиональной подготовке кадров. Резкое ускорение процесса обновления знаний, возникновение новых технологий, непрерывное техническое развитие общества требует от специалистов не только качественных знаний, но и высокой профессиональной мобильности, умение самостоятельно ориентироваться в обширной научно-технической и экономической информации, постоянно пополнять и обновлять свои профессиональные знания.

Организация инновационной среды обучения, обеспечение процесса образования, отвечающего требованиям мировых стандартов, является

неотъемлемой частью выполнения задач поставленными перед системой образования в современных условиях модернизации.

Предмет Методики преподавания математики играет важную роль в выполнении важных задач в профессиональной подготовке будущих учителей математики. Поэтому в процессе преподавания данного предмета мы должны использовать инновационные технологии с целью повышения методической подготовки студентов.

Ниже приведем пример проведения лекционного занятия по курсу МПМ на тему: «Методика преподавания научно-исследовательских методов обучения математике». Лекционное занятие проведено на основе интерактивного метода «работа с текстовым материалом» и «разбивкой на кластеры».

Студентам раздаётся текст, где подробно описаны виды научно-исследовательских методов обучения математике, после ознакомления с текстом, преподаватель путем наводящих вопросов раскрывает суть данной темы, в обсуждении вопроса принимает участие вся группа.


Нами использовалась технология работы с текстом и включала в себя следующее:

1. Чтение текста с карандашом в руках.
2. По мере чтения необходимо делать специальные заметки в тексте.
  - + то, что уже знаю;
  - то, что не знал;
  - ? то, что хочу узнать.
3. После прочтения текста заполняется таблица:

	Понятие	То, есть уже знал	То, что не знал	То, что хочу узнать подробнее
		+	-	?
1.	Способы получения знаний математиками			
2.	Понятие научных методов математического исследования			
3.	Виды научных исследовательских методов			
4.	Наблюдение			
5.	Опыт			
6.	Сравнение			
7.	Анализ			
8.	Синтез			
9.	Обобщение			
10.	Специализация			

11.	Абстрагирование			
12.	Конкретизация			

После обсуждения 1 вопроса на доске при помощи студентов составляется класстер.



Ниже мы приведем пример практического занятия проведенного на основе метода «Бумеранг».

**Проект практического занятия по модулю на основе метода  
«Бумеранг»**

	Технологическая карта
Тема занятия	Научные методы и исследования математики
Цели и задачи	<p>Образовательные: Формирование умений использовать научно-исследовательские методы в преподавании математики.</p> <p>Воспитательные: Воспитание педагогических качеств.</p> <p>Развивающие: Развитие методических способностей</p>
Содержание учебного занятия	Знать определения научных методов исследования математики, уметь различать их, способность применять методы научного познания в процессе преподавания, доказательства теорем, решении геометрических и математических задач
Технологии проведения занятий	<p>Метод: Бумеранг</p> <p>Форма: практическое занятие</p> <p>Средства: дидактические, вопросы в конвертах</p> <p>Контроль: устный опрос, наблюдение, самоконтроль</p> <p>Оценка: поощрение, 5 бальная система</p>
Ожидаемые результаты	<p>Преподаватель:</p> <p>Формирует навыки использования научно-исследовательских методов в обучении математики: в доказательстве теорем, в решении математических задач на основе интерактивных методов</p> <p>Студент:</p> <p>Знает определение научно-исследовательских методов, умело использует их в решении задач, изучении теоретического материала</p>
Планы на будущее	<p>Преподаватель:</p> <p>Использует инновационные технологии при ведении занятия по МПМ</p> <p>Студент:</p> <p>Использует полученные знания в период педагогической практики, во время своей профессиональной деятельности</p>
Выводы	Использование интерактивных методов на уроках МПМ повышает качество подготовки будущих учителей

Группа делится на малые группы: в группе 21 человек по 7 человек, получается 3 группы, каждая группа получает задание.

1 группа  
7 студентов

2 группа  
7 студентов

3 группа  
7 студентов

1. Задание для первой группы:

а) дать определение научно-исследовательским методам наблюдение и опыт.

б) уметь применять данный метод в решении задачи: докажите теорему Пифагора.

в) привести пример использования данного метода в теории.

2. Задание для 2 группы:

а) дать определение научно-исследовательскому методу, анализу и синтезу;

б) уметь применять данный метод в решении задачи: докажите, что диагонали ромба перпендикулярны;

в) привести пример использования данного метода в доказательстве теорем.

3. Задание для 3 группы

а) дать определение научно-исследовательскому методу сравнения;

б) уметь применять данный пример в решении задачи: дан квадрат со стороной 10 см и круг с диаметром 10 см;

в) найдите площадь данных фигур и сравните их.

После того как группы осваивают своё задание, вновь создаётся группа уже по 3 человека, получается 7 групп по 3.

1

2

3

4

5

6

7

В каждой группе есть представитель разных групп, которые освоили свои темы, и каждый из представителей группы рассказывает и учит однокурсников по изученной в своей группе теме, то есть учат друг друга, после того как освоят весь материал состоящий из 3 заданий, члены вновь созданных групп возвращаются в прежние группы и получается так, что студенты научив друг друга освоят весь материал. Вся группы по окончании занятия сдаёт тест, по результатам теста можно судить о результатах и эффективности метода «Бумеранг».

**Бумеранг** – это способ усвоения содержания педагогического процесса во время воспитательной работы с объектом. «Объясняя детям, сама начала понимать», - призналась одна учительница в анекдоте. В данной ситуации она неосознанно призналась в применении метода бумеранга. «Учи других, и сам научишься», - гласит русская пословица. Метод бумеранга, по-другому, – это

способ воздействия на воспитанника путем постановки его в положение учителя.

В национальной программе подготовки кадров поставлена задача воспитания самостоятельности мышления подрастающего поколения и развития конкурентоспособных кадров. Решение данной задачи во многом достигается применением интерактивных методов обучения. Многие основные методические инновации связаны сегодня с применением интерактивных методов обучения.

Тенденция математизации всех отраслей человеческой деятельности, характерная для нашего времени, значительно повысила роль математических знаний, как средство применения в различных областях науки, техники, производства и как элемент общей культуры человека. В связи с этим особую значимость имеют проблемы повышения качества подготовки педагогических кадров.

### **Литература**

1. Н.С.Антонов, В.А.Гусев. «Современные проблемы методики преподавания математики», Москва. «Просвещение», 1985 г.
2. Ф.Х.Сайдалиева. «Методика развития геометрических умений и навыков учащихся общеобразовательных школ». Ташкент, 2016 г.
3. А.Ю.Бакирова, Ф.Х.Сайдалиева. «Методика преподавания математики». Учебное пособие, Ташкент, 2008 г.
4. Yunusova D.I. Matematika o'qitishning zamonaviy texnologiyalari, darslik; T.Fan va texnologiya, 2011.

## **TEXNIKA YO'NALISHI BAKALAVRLARINING KIMYOVIY TEKNOLOGIK KOMPETENSIYLARINI RIVOJLANTIRISHDAGI YONDASHUVLAR**

**Jo'rayeva B. A. - Toshkent kimyo-texnologiya instituti assistenti**

**Annotatsiya.** Ushbu maqola texnika yo'nalishi bakalavrlarining kimyoviy texnologik kompetensiyalarini rivojlantirishdagi yondashuvlari haqida bo'lib, unda kimyo-texnologiya instituti talabalarida kimyoviy kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish ustida olib borilgan ilmiy va amaliy tadqiqotlar tahlil qilingan. Kimyoviy kompetensiyalarini rivojlantirishda "elektron ta'lim" ning o'rni haqida to'xtalib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** kimyoviy kompetensiyalar, texnologik kompetensiyalar, elektron ta'lim, AKT, ta'lim konsepsiyasi.

## **ПОДХОДЫ К РАЗВИТИЮ ХИМИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ БАКАЛАВРОВ ТЕХНИЧЕСКОГО НАПРАВЛЕНИЯ**

**Джураева Б. А. - Ассистент Ташкентского химико-технологического института**

**Аннотация.** В статье рассматриваются подходы к развитию химико-технологических компетенций бакалавров технических наук, анализируются научно-практические исследования по формированию и развитию химических компетенций у студентов химико-технологического института. Обсуждалась роль «электронного обучения» в развитии химических компетенций.

**Ключевые слова:** химические компетенции, технологические компетенции, электронное обучение, ИКТ, образовательные концепции.

## **APPROACHES TO DEVELOPMENT OF CHEMICAL TECHNOLOGICAL COMPETENCIES OF BACHELORS OF TECHNICAL DIRECTION**

**Juraeva B. A. - Assistant at the Tashkent Institute of Chemical Technology**

**Annotation.** This article is about the approaches to the development of chemical technological competencies of bachelors of technical sciences, which analyzes the scientific and practical research conducted on the formation and development of chemical competencies among students of the Institute of Chemical Technology. The role of "e-learning" in the development of chemical competencies was discussed.

**Key words:** chemical competence, technological competence, e-learning, ICT, educational concepts.

Hozirgi kunda mahalliy sanoatning innovatsion rivojlanishini ta'minlash uchun oliy ta'lim tizimi yuqori malakali kadrlar tayyorlashga yo'naltirilgan. Oliy ta'limni modernizatsiya qilishning asosiy tendensiyalari - bu fundamentalizatsiya, kasbiy yo'nalishni kuchaytirish, insonparvarlashtirish, axborotlashtirish. Shu bilan birga, mamlakatimizda 2019-yilning oktyabrida O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilindi. Ushbu hujjatga intellektual taraqqiyotni jadallashtirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish hamda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadida fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish singari vazifalar asos qilib olindi. Konsepsiya mazmuni mamlakatimiz

oliy ta'lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini aks ettiradi. Unda oliy o'quv yurtlarida qamrov darajasini kengaytirish hamda ta'lim sifatini oshirish, raqamli texnologiyalar va ta'lim platformalarini joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish, innovatsion tuzilmalarni shakllantirish, ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish, xalqaro e'tirofga erishish hamda boshqa ko'plab aniq yo'nalishlar belgilab berilgan. Bularning barchasi ta'lim jarayonini yangi sifat bosqichiga ko'tarish uchun xizmat qiladi [1].

Texnika yo'nalishidagi oliy o'quv yurtlarining boshlang'ich bosqichlarida texnik va texnologik yo'nalishlar bakalavrlarini tayyorlash dasturlarida nazarda tutilgan fundamental tabiiy fanlar mazmunini o'zlashtirish kelajakdagi kasbiy faoliyatida muhandislar uchun innovatsion texnik va texnologik yechimlar uchun zarur shartlardan biri bo'lib hisoblanadi.

Kimyoviy fanlar har doim bo'lajak muhandislarni kasbiy tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bir tomondan, kimyoviy fanlar bo'yicha mashg'ulotlar zamonaviy muhandisning tabiiy fanlar bo'yicha dunyoqarashining muhim tarkibiy qismi sifatida dunyoning kimyoviy dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan bo'lsa, boshqa tomondan, kimyoviy kompetensiya uning kasbiy bilimni oshirishga qaratilgan bo'ladi. Shunday qilib, masalan, muhandis-texnolog, rudalarni, konsentratlarni kompleks qayta ishlash bo'yicha texnologik jarayonlarning samaradorligini baholashi uchun, xomashyo, yoqilg'i, reaktivlar, xomashyoning kimyoviy tarkibini hisobga olgan holda, bu jarayonda boradigan fizikaviy va kimyoviy qonuniyatlarni hisobga olib, shu bilan birga jarayonda amalga oshadigan hisob-kitoblarni amalga oshirib, miqdorini aniqlashni talab qiladigan kimyoviy reagentlarni tanlash bilan bog'liq bo'lgan muammolar majmuasini hal qilishi kerak bo'ladi.

Texnik va texnologik muammolarning jahon bozoridagi kuchli raqobatlashuvi, ilmiy texnik bilimlarning tez yangilanishi, inson faoliyatining barcha sohalarini axborotlashtirish muhandislik ta'limini amalga oshirish uchun, shu jumladan, bakalavrlarni texnik va texnologik sohalarda fundamental kimyoviy tayyorlashni, jamiyat va ta'limning asosiy rivojlanish tendensiyalariga mos keladigan, yangicha yondashuv qilishni taqozo etmoqda.

Bugungi kunda oliy o'quv yurtlarida bakalavrlarni fundamental kimyoviy fanlarni o'qitishda yuzaga kelayotgan muhim muammolardan biri, ular orasida abituriyentlarning tabiiy fanlar bo'yicha maktabdagi tayyorgarligining yetarli darajada emasligi, muhandislik kasblarining «obro'si» ning pasayishi va intellektual ko'nikmalarni shakllantirishning past darajada ekanligi va kimyoviy bilimlarni egallash uchun talabalarni motivatsiya qilish yetarlicha emasligi bo'lib xisoblanadi [2,3].



Shu bois, tadqiqotning maqsadi texnika yoʻnalishidagi bakalavrlarining kimyoviy kompetensiyasi shakllantirishning samaradorligini aniqlash hisoblanadi.

Ushbu muammolarni oʻrganishda mavjud adabiyotlarni tahlil qilishdan kelib chiqadiki, kelajakdagi kimyo oʻqituvchilarining kimyoviy kompetensiyasini shakllantirish hamda rivojlantirish tizimini loyihalash uchun ekologik yondashuv (Yu.Yu. Gavronskaya) [4], axborot-faoliyat yondashuvi (Vostrikova N.M.) [5] ishlatilgan; shifokorlarni tayyorlash tizimida - integral-modulli yondashuv (T.N. Litvinova, T.G. Yudina) [6]; farmatsevtlarning kimyoviy kompetensiyasini rivojlantirish uchun - muammoli-integratsion yondashuv, «kollej - texnik universitet» tizimida bakalavrlarni tayyorlash uchun - tizimli-aksiologik yondashuv (N.N.Dvulichanskaya) [7] va boshqalar tomonidan oʻrganishgan.

Yuqorida aytib oʻtilgan ishlarda keltirilgan «kimyoviy kompetensiya» tushunchasini tahlil qilish natijalariga koʻra, texnik va texnologik yoʻnalishlar bakalavrlarining kimyoviy bilimlari tushunchasi ostida, biz kimyoviy bilimlarni qoʻllashga tayyorligi va qobiliyatini tushunamiz, maxsus fanlarni rivojlantirishda, shuningdek, kelajakdagi kasbiy faoliyatdagi muhandislik muammolarini hal qilishda koʻnikmalar hosil qilishi tushuniladi. Kimyoviy kompetensiyaning asoslari institutning birinchi bosqich bakalavrlarni fundamental kimyoviy tayyorlash jarayonida yaratiladi, uni yanada rivojlantirish maxsus fanlarni oʻzlashtirish jarayonida va magistraturada oʻqish jarayonida amalga oshiriladi.

Bakalavrning kelajakdagi kasbiy faoliyatini [3] hisobga olgan holda, shuningdek, ish beruvchilar oʻrtasida oʻtkazilgan soʻrov natijalarini hisobga olgan holda bakalavrlarning kimyoviy kompetensiyasining kognitiv tarkibiy qismiga quyidagilar kiradi.

- uslubiy bilimlar - umumiy ilmiy atamalar, ilmiy bilish usullari (kuzatish, tushuntirish, oʻlchash), umumiy mantiqiy operatsiyalarni oʻtkazish qoidalari (tasniflash, taqqoslash, umumlashtirish, farazni sinash), faoliyat usullari, jarayonlar;

- fundamental kimyoviy tushunchalar - kimyoviy va fizik-kimyoviy hodisalar, kimyoviy element, modda, tuzilish, kimyoviy reaksiya, kimyoviy tenglama, modda miqdori, eruvchanligi, konsentratsiyasi, elektrod potentsiali, issiqlik jarayonlari va boshqalar;

- fundamental kimyoviy nazariyalar, qonunlar, prinsiplar - atom tuzilishi nazariyasi va davriylik haqidagi taʼlimot, kimyoviy bogʻlanish nazariyasi, modda tuzilishi nazariyasi, stehiometrik qonunlar, eritmalar nazariyasi, kimyoviy jarayonlar nazariyasi (termodinamik qonunlar) , termokimyoning asosiy qonuni, kimyoviy kinetikaning asosiy qonuni, Le-Chatelye prinsipi va x.).

Operatsion-faoliyat komponentiga quyidagilar kiradi:

- uslubiy ko'nikmalar - umumiy mantiqiy operatsiyalardan, faoliyat usullaridan foydalanish, eksperimentni rejalashtirish va o'tkazish, kimyoviy mavzu bo'yicha bilim vositasi sifatida;

- asosiy operatsiyalar - moddalarning formulalarini, kimyoviy reaksiyalar tenglamalarini tuzish; kimyoviy formula bo'yicha, reaksiya tenglamasiga muvofiq hisob-kitoblar; ko'rsatmalarga muvofiq kimyoviy tajribani o'tkazish, uning natijalarini talqin qilish, xulosalar shakllantirish;

- asosiy usullar - kimyoviy moddalarni aniqlash, olish usullari, kislota-asos, birikmalarning oksidlanish-qaytarilish xususiyatlarini bashorat qilish va isbotlash usullari, termodinamik va kinetik usullar.

Motivasion komponent sifatida kimyoviy fanlarga qiziqish darajasini, kimyoviy bilim va ko'nikmalarning kelajakdagi kasbiy faoliyatidagi rolini tushunishni ko'rsatadi. Refleksiv-baholovchi komponent kimyoviy bilimlarni, ko'nikmalarni shakllantirishda o'zini o'zi baholash ko'nikmalarida, kimyoviy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish jarayonida qiyinchiliklarni yengish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarda namoyon bo'ladi.

Axborotlashtirish kabi kasb-hunar ta'limi rivojlanishining bunday tendensiyasi sharoitida va shuningdek, texnik va texnologik yo'nalishlar bakalavrlarining kimyoviy kompetensiyasini rivojlantirish tizimini loyihalashtirish uchun kompetensiya tarkibiy qismlari faoliyatida shakllanishini hisobga olgan holda bizning nuqtayi nazarimiz, axborot-faoliyat yondashuvi muhim ahamiyatga ega. Axborot-faoliyat yondashuvining qoidalaridan biri bu o'quv jarayonida zamonaviy AKT imkoniyatlaridan faol foydalanish [5].

Bugungi kunda AKT bilan bog'liq eng muhim pedagogik hodisa elektron ta'limdir, uni amalga oshirish keng miqyosda qo'llab-quvvatlanmoqda.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamkorligidagi "O'zbekiston Respublikasida "Elektron ta'lim" milliy tarmog'ini yaratish" loyihasi asosida joriy yilda barcha oliy ta'lim maskanlari, "Iste'dod" jamg'armasi, ilmiy-ma'rifiy muassasalar yagona "Elektron ta'lim" tarmog'iga ulandi.

Hozirgi kunga kelib mazkur korporativ tarmoqqa barcha oliy ta'lim muassasalari birlashgan, har bir o'quv dargohida multimediali auditoriyalar tashkil etilgan. Mazkur tarmoq o'quv jarayonini tashkil etish hamda ta'lim maskanlarida ma'lumot almashinuvini yanada takomillashtirish, audio, video anjuman-aloqa usulidan foydalangan holda masofadan turib on-layn rejimida turli tadbirlar o'tkazish, keyinchalik ularni ta'lim yoki tadqiqot maqsadlarida ishlatish uchun yozib olishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Kasbiy ta'lim uchun, elektron ta'lim sohasidagi mutaxassislarning fikriga ko'ra, aralash ta'limning texnologiyalari va modellari istiqbolli hisoblanadi.

Kimyoviy kompetensiya tarkibiy qismlarini shakllantirish darajalarini baholashning diagnostik vositalariga kelsak, bilim komponentining shakllanishi test topshiriqlari, amaliyotga yo‘naltirilgan hisoblash vazifalari, oraliq va yakuniy testlar, hisobotlarni himoya qilishda bakalavrning javoblarini tahlil qilish yordamida baholandi.

Tadqiqot texnika yo‘nalishi bakalavrlarining kimyoviy kompetensiyasini rivojlantirish uchun atrof-muhitni loyihalashda axborot-faoliyat yondashuvini qo‘llash maqsadga muvofiq degan xulosaga kelish imkonini berdi. Shu bilan birga, elektron ta‘lim kurslarini rivojlantirish va zamonaviy ta‘lim texnologiyalarini, shu jumladan aralash ta‘lim modellarini tanlash alohida ahamiyatga ega. Aralashirilgan ta‘limning axborot-faol ta‘lim muhiti bakalavrlarga individual bilim yo‘lini tanlash, ularning bilim faolligini oshirish orqali kimyoviy kompetensiyani rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

### **Adabiyotlar**

1. Sayt materiallari: <https://xs.uz/uzkr/post/talim-tizimi-islohotlari-ozbekistonda-yangi-ujgonish-davri-pojdevorini-yaratadi>
2. SH.I.Mustafakulov. Ta‘lim sifatini yuksaltirishda «elektron ta‘lim» tarmog‘ining imkoniyatlari. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 4, may, 2012
3. Tojiboeva D., Yo‘ldoshev A. Mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodikasi. Darslik. – Toshkent, “Aloqachi”, 2009.
4. Ю.Ю. Гавронская, А. В. Мызникова. Изучение эффективности методики организации самостоятельной работы по химии первокурсников военно-медицинского вуза на основе компенсационного подхода. Известия РГПУ им. А. И. Герцена. 2018. № 190, стр.124-132.
5. Vostrikova, N. M. Modernization of a laboratory chemical workshop for future bachelor-metallurgists on the basis of an information-activity approach [Текст] / N. M. Vostrikova, E. D. Kravtsova, N. P. Bezrukova // Chernye Metally. 2019. № 3. С. 70-75.
6. Т.Н.Литвинова, Т.Г.Юдина. Подготовка студентов медицинского вуза по химии – необходимое условие качественного образования будущего врача. Известия Самарского научного центра Российской академии наук, т. 12, №3(2), 2010. С.347-351.
7. Двучичанская Н.Н. Бакалавриат в техническом университете: проблемы и пути их решения. Высшее образование в России. 2018, №3, с.96-101.

**OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA ENERGETIKA MUTAXASSISLARIGA  
ELEKTR YURITMA ASOSLARI FANINI O'QITISHNING INNOVATSION  
AXBOROT TEXNOLOGIYALARI**

**Rustamov S.Sh. - Buxoro muhandislik-texnologiya instituti doktoranti**

**Annotatsiya.** Bugungi kunda ta'lim jarayoniga yangi axborot texnologiyalarining kirib kelishi jadallashmoqda va bu ta'lim jarayonini yanada sifatli tashkil etilishiga ta'sir ko'rsatayotgani ko'zga tashlanmoqda. Shuning uchun ham Elektr yuritma asoslarini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish, ta'lim samaradorligini oshirish uchun tinimsiz izlanish, bugungi kunning ehtiyojiga aylandi.

**Kalit so'zlar:** didaktik, innovatsion, Elektr yuritma, metodika, energiya, mafkura, AKT, YaPT, texnologik.

**ИННОВАЦИОННЫЕ ИНФОРМАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ  
ОБУЧЕНИЯ ОСНОВАМ ЭЛЕКТРИЧЕСКОГО ПРИВОДА ДЛЯ  
СПЕЦИАЛИСТОВ ЭНЕРГЕТИКИ В ВУЗАХ**

**Рустамов С.Ш.-Докторант Бухарского инженерно-технологического  
института**

**Аннотация.** Сегодня внедрение новых информационных технологий в образовательный процесс ускоряется, и это отражается на повышении качества учебного процесса. Поэтому внедрение в учебный процесс современных педагогических технологий при обучении основам электрического привода, постоянный поиск повышения эффективности обучения стали необходимостью сегодня.

**Ключевые слова:** дидактический, инновационный, Электропривод, энергия, методика, идеология, ИКТ, НПТ, технологический.

**INNOVATIVE INFORMATION TECHNOLOGIES OF TEACHING THE  
FUNDAMENTALS OF ELECTRICAL ENGINEERING FOR ENERGY  
SPECIALISTS IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS**

**Rustamov S.Sh. - Doctoral student, Bukhara Institute of Engineering and  
Technology**

**Annotation.** Today, the penetration of new information technologies into the educational process is accelerated, and it is noticeable that this affects the more

qualitative Organization of the educational process. Therefore, the introduction of modern pedagogical technologies into the educational process, the tireless search for increasing the effectiveness of education, in the teaching of the fundamentals of electrical conduction, has become the need of today.

**Key words:** didactic, innovative, electric drive, energy, methodology, ideology, ICT, NPT, technological.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan buyon ulkan islohotlar va taraqqiyot bosqichini bosib o‘tdi. Ushbu taraqqiyot va bunyodkorlik yo‘lida barkamol avlodning o‘rni juda katta. Mamlakatimiz rivoji taraqqiyotining asosi ta‘lim tizimining sifatli va mukammalligi bilan ham bog‘liq. Shu bois Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini tubdan takomillashtirish, ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash, shuningdek, 2017 — 2021- yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni izchil amalga oshirish yo‘lga qo‘yildi.

Ta‘lim muassasalarida ta‘lim jarayoni sifatini ko‘rsatib beruvchi ilg‘or, har tomonlama ilmiy – metodik jihatdan asoslab berilgan uslublarning – yangi pedagogik texnologiyalarning maqsadi - Respublikamizning ta‘lim muassasalarida faoliyat ko‘rsatayotgan yosh istiqbolli pedagog kadrlarga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o‘rgatish, pedagogika va texnika fanlariga oid bilimlarini yanada mustahkamlash va olgan bilimlarini o‘quv tarbiya jarayonida qo‘llay olishga o‘rgatish, shuningdek, ularga pedagogik mahorat sirlarini ochib berishdan iborat.


O‘quv jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash va ulardan unumli natija olib bilish pedagogdan katta salohiyat hamda mahorat talab etadi. Bo‘lajak injener texnolog mutaxassislarini zamon talablari darajasiga mos qilib tayyorlash uchun ta‘lim jarayoniga yangi innovatsion pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish bugungi kunda dolzarb vazifalardan biri bo‘lib hisoblanadi. Shuning uchun ham elektr yuritma asoslari fanini talabalarga ochib berishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan keng foydalanish zarur.

Mamlakatimizda ishlab chiqariladigan elektr energiyaning 60 % ni elektr yuritmalar istemol qiladi. Shuni hisobga olgan holda yuritmalardagi isroflarni kamaytirib, energiya tejamkor ish rejimlarda ishlatsak hatto 0.001 % energiya tejasak ham juda katta iqtisodiy samaradorlikka erishgan bo‘lamiz. Bo‘lajak energetiklarda elektr yuritma asoslari fanini yoritishda yangi statistik ma‘lumotlar va energiyadan oqilona foydalanish usullarini innovatsion axborot texnologiyalari bilan chambarchas bo‘g‘lasak maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki bugungi kunda axborot ko‘lami juda kengayib bormoqda. Agar o‘qituvchi o‘z ustida ishlamasa, o‘rgangan bilimlari yetarli bo‘lmay qoladi. Ta‘limda elektr yuritmalarning kundalik hayotdagi keskin

voqealar bilan bog‘lab o‘tilsa, turli innovatsion texnologiyalardan foydalanilsa, dars didaktik jihatdan maqsadli bo‘ladi. O‘qituvchi talabalarga innovatsion usullardan foydalanib, fanlar aro bog‘langan holda texnologik bilimlar bilan darsni to‘ldirishi hozirgi kun talabi hisoblanadi. Ta‘lim metodlarnig o‘ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o‘quvchi-talabalarning birgalikda faoliyat ko‘rsatishi orqali amalga oshiriladi. Bunday pedogogik hamkorlik jarayoni o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lb, ularga quyidagilar kiradi:

- O‘quvchi-talabaning dars davomida befarq bo‘lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etishi;
- O‘quvchi-talabalarni o‘quv jarayonida bilimga bo‘lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo‘lishini ta‘minlashi;
- O‘quvchi-talabaning bilimga bo‘lgan qiziqishini mustaqil ravishda har-bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirishi;
- Pedogok va o‘quvchi-talabaning hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkillanishi.

Har bir dars, mavzu, o‘quv predmetining o‘ziga xos texnologiyasi bor, ya’ni o‘quv jarayonidagi pedogogik texnologiya bu yakka tartibdagi jarayon bo‘lib, u o‘quvchi-talabaning ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo‘naltirilgan, oldindan loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogk jarayondir. Ushbu fikrimizni chizma holatida quyidagicha ifodalash mumkin :



Yuqoridagi chizmadan ko‘rinib turibdiki, maqsadni amalga oshishi va kafolatlangan natijaga erishish, o‘qituvchi, ham o‘quvchining hamkorlikdagi faoliyati

hamda ular qo‘ygan maqsad, tanlangan mazmun, metod, shakl, vositaga, ya’ni texnologiyaga bog‘liq.

O‘qituvchi va o‘quvchi talabaniing maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tamonning asosiy maqsadi aniq: natijaga erishishga qaratilgan, bunda o‘quvchi talabalarning bilim saviyasi, guruh xarakteri, sharoitga qarab ishlatiladigan texnologiya tanlanadi, masalan, natijaga erishish uchun balkim kompyuter bilan ishlash lozimdir, balkim film, tarqatma material, chizma va plakatlar, turli adabiyotlar, axborot texnologiyasi kerak bo‘ladi, bular o‘qituvchi va o‘quvchi-talabaga bog‘liq.

Innovatsiya - (inglizcha) yangilik kiritish, yangilik degan ma’noni ifodalaydi, texnologiya esa yunoncha “texnos” - san’at, mahorat va “logos” - fan so‘zlaridan olinib innovatsion texnologiya ta’lim-tarbiya shakllari, metodlari va usullariga yangicha yondoshish degan ma’noni bildiradi. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatiga yangilik, o‘zgarishlar kiritishdir. Innovatsion texnologiyalardan foydalanishda o‘qituvchiga quyidagi bilimlarni bilish taqazo etiladi:

- AKT bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakaga ega bo‘lish;
- YaPT (yangi pedagogik texnologiya) bo‘yicha xorijiy tajribalardan xabardor bo‘lish;
- Ta’lim jarayonini tashkil etishda didaktik o‘yinlardan, interfaol usullardan foydalanish mahorati;
- Ilg‘or pedagogik texnologiya bo‘yicha bilimlarni o‘zlashtirib borish;
- Bilimlarni ko‘nikma va malakalarga aylantirish texnologiyasi shakllangan bo‘lishi;
- Dars jarayonida harakatli o‘yinlardan unumli foydalana bilishi;
- Imkoni bo‘lsa darsni internet tarmog‘iga bog‘lab o‘ta bilishi;
- O‘z ustida tinmay ishlashi, har sohaga oid yangiliklarni kuzatib borishi va boshqalar.

O‘qituvchi innovatsion texnologiyalarga asoslanib darsni tashkil etar ekan, turli texnik vositalardan ham (kompyuter, proyektor, elektron doska va hokazo) foydalanishi mumkin. O‘qituvchining faoliyatida innovatsiyalar qanchalik ko‘p bo‘lsa, mazmun shunchalik oshadi. Elektr yuritma asoslarini yoritib berishda innovatsion texnologiyalar va interfaol metodlar haqidagi tasavvurlar barqaror va mukammal shaklga ega emasligini ham e’tirof etish kerak. Har bir o‘qituvchi ta’limga individual tarzda yangilik kiritishi mumkin. “Innovatsion texnologiyalar o‘qituvchi o‘z faoliyatidan qoniqmaslikdan kelib chiqadi”, - degan edi mashhur pedagog A. Nikolskaya.

Innovatsion texnologiyalardan asosiy maqsad o‘qituvchi va talaba mushtarakligiga erishish, o‘quvchilarni fanga qiziqtirish, ta’limga bo‘lgan

munosabatni o'zgartirish, o'rganilgan bilimlarni ijtimoiy sharoitlarda qo'llay olish ko'nikmasiga ega bo'lish, AKT va didaktik materiallarni mavzu bilan uyg'unlashtirish kabilarni keltirish mumkin.

Umumkasbiy fanlarni yoritishda o'quv videofilmi yordamida ham o'quv materialining asosiy joylarini ajratib ko'rsatish va talabalar e'tiborini shunga jalb etish, jarayonlarni tabiiy vaqt izchilligida emas, balki ular xarakterini tushunish uchun eng qulay tarzda ko'rib chiqish mumkin. O'quv videofilmi bevosita kuzatib bo'lmaydigan hodisalarni: ko'zga ko'rinmaydigan darajada mayda zarracha va detallarni, har-xil materiallarning ichki tuzilishini, uzoqlashgan narsalarni, juda tez va juda sekin sodir bo'ladigan hodisalarni ko'rsatishga imkon beradi. Harakatda juda ham qisqa vaqt davom etadigan voqea va hodisalarni kino vositalari yordamida sekinlashtirilgan sur'atda namoyish qilish (bu hol o'zgarishning barcha fazalarini ko'zdan kechirishga imkon beradi) va aksincha, bir necha soat, kun yoki oy mobaynida sodir bo'ladiganlarni esa ekranda bir necha sekund yoki minut ichida ko'rsatish mumkin. Ovozli filmni idrok etishda ko'z ham, quloq ham faol ishtirok etadi. Ko'rish va eshitish organlariga bir vaqtda ta'sir etishi o'quv videofilmini o'qitishning boshqa vositalaridan ajratib turadi va muhim didaktik vazifalarni hal qilishga imkon beradi.

Xulosa qilib aytganda, Elektr yuritma asoslarini o'qitishda innovatsion texnologiya - bu ilmiy izlanishlar ishlanmalar yaratish, tajriba - sinov ishlari olib borish yoki boshqa fan-texnika yutuqlaridan foydalangan holda talabalarga yangi bilim berishdan iboratdir. Energetika fanlarida innovatsion texnologiyalardan foydalalanish kelajakda elektr energiyasidan samarali va oqilona foydalanish ussularini yoritib berishda yangi yo'l ochib beradi. Darslarni tashkil etishda interfaol metodlardan foydalanishda o'qituvchi eng maqbul usulni ozi tanlashi lozim, Chunki interfaol usullar orqali ta'lim samaradorligi oshadi, o'qituvchi va talaba o'rtasida o'zaro hamkorlik; talabalarda erkin ijodiy fikrlash ko'nikmalari rivojlanadi va shakllanadi. Bu innovatsion yondashuvda talaba shaxsi ta'limda markaziy figuraga aylanadi. O'qitishda noan'anaviy shakllardan interfaol usullarni 3 guruhga ajratish mumkin: o'qitishda hamkorlik, modellashtirish, o'rganishning tadqiqot modeli.



### **Adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli



islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-son Qarori.

2. Hasanboev J., Hasanboeva O., To'raqulov X.A, Haydarov M., Pedagogika fanidan izohli lug'at. T-2008-y.

3. Havasxon Shokirova, Ta'limda innovatsion texnologiyalarning o'rni, Toshkent «Yangi asr avlodi» 2013.

4. Ismailova Zuxra Koraboyevna, Maxsudov Po'latjon Maxsudovich, Ergashev Oyber Karimovich, Matkarimov Kamoliddin Jo'raboyevich. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi (o'quv qo'llanma).

5. Azizxujaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. T.: Cho'lpon. 2013. – 200- bet.

6. Xakimova M.F. Pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma. T.TDIU., 2013.

7. L.A.Nematov "Bo'lajak elektr energetika mutaxassislarini tayyorlashda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish yo'nalishlari" Toshkent 2020. 4-son 269-bet.

8. R. A.Mavlonova M.Arabova ,G' Saloxiddinova "Pedagogik texnologiya" T-2008.

9. O.O. Hoshimov, S.S. Saidahmedov Elektr yuritma asoslari. Kasb-hunar kollejlari uchun darslik. Ikkinchi nashri. Toshkent «Talqin».

10. Rustamov S.Sh., Jo'rayev M.Q., Muzaffarov F.F., DC motors reasons for failure. Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal Vol. 10, Issue 4. India-2020. 759-765-b.

## **TABIIY FANLAR O'QITUVCHILARINING KOMPETENTLIGI VA KASBIY LAYOQATINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI**

**Kuychiyeva M. A. - Andijon viloyati XTXQTMO hududiy markazi, aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrasi, biologiya fani o'qituvchisi.**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada tabiiy fanlar o'qituvchilarining kompetentligi, ta'lim jarayonida ularni rivojlantirish yo'llari hamda kompetensiyaviy yondashuv, o'z navbatida o'qitishning yangi interfaol shakllari, uslublarini egallash yuzasidan fikrlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** kompetentlik, tayanch kompetensiya, kommunikativ, kasbiy layoqat

**ВОПРОСЫ РАЗВИТИЯ КОМПЕТЕНТНОСТИ И  
ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПРИГОДНОСТИ УЧИТЕЛЕЙ  
ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУК**

**Куйчиева М. А. - Андижанский областной центр МККК, кафедра методов точных и естественных наук, учитель биологии.**

**Аннотация.** В статье рассматриваются компетенции учителей естественных наук, способы их развития в учебном процессе и компетентностный подход, а также, усвоение новых интерактивных форм и методов обучения.

**Ключевые слова:** компетентность, базовая компетенция, коммуникативная, профессиональная пригодность.

**QUESTIONS OF DEVELOPMENT OF COMPETENCE AND  
PROFESSIONAL SUITABILITY OF TEACHERS OF NATURAL SCIENCES**

**Kuychiyeva M. A. - Andijan regional center of ICRC, department of Methods of Exact and Natural Sciences, biology teacher**

**Annotation.** This article discusses the competence of science teachers, ways to develop them in the educational process and the competency approach, which in turn leads to the acquisition of new interactive forms and methods of teaching.

**Key words:** competence, basic competence, communicative, professional suitability

Keyingi yillarda ta'lim sohasidagi islohotlar tufayli keng qamrovli yangilanish jarayonlari amalga oshayotgan hozirgi bosqichda tabiiy va aniq fanlarni o'qitilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Boshlang'ich ta'limdan so'ng, o'quvchilarni u yoki bu fanga yo'naltirish tabiiy va aniq fanlar o'qituvchilari oldida katta vazifalar va mas'uliyatni yuklaydi.

Dunyo miqyosida ta'lim barqaror taraqqiyotni ta'minlovchi asosiy omil sifatida e'tirof etilib, YUNESKO tomonidan 2030-yilgacha belgilangan xalqaro ta'lim konsepsiyasida "butun hayot davomida sifatli ta'lim olishga imkoniyat yaratish" [1] dolzarb vazifa sifatida belgilandi. Bugungi kunda maktablarda ta'lim sifati, unda faoliyat olib borayotgan o'qituvchilarning qanday bilimga egaligi, ya'ni kasbiy kompetent kadr ekanligiga bog'liq.

Ta'lim-tarbiya jarayonida darsning qanday bo'lishi, uning mazmunini boyitish va yangi texnologiyalarni qo'llay olish ko'p holatlarda o'qituvchi kompetentligi va ijodkorligiga bog'liq bo'ladi. O'quvchilarni fanlarga bo'lgan qiziqishlarini oshirishda, ayniqsa, ularning zaruriy bilimlarni puxta egallashida, o'qituvchining

kompetensiyaviy yondashuvi asosiy hisoblanadi. Qachonki, o'qituvchi o'z sohasiga kompetent yondoshmagina, o'quvchilarda dastlab tayanch, keyin esa, fanlarga oid kompetensiyalar shakllanib boradi. Bunday ta'lim texnologiyasi o'quvchilarning egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini o'z shaxsiy hayotida amaliy qo'llay olishini ta'minlaydi.

Bo'lajak biologiya fani o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish, pedagogning kasbiy layoqatligini tarbiyalash fenomenini tatbiq qilish bir qator olimlarning ishlarida o'z ifodasini topgan. Bu mualliflar kasbiy kompetentlik, layoqatlilik – ishonchlilik sifatleri bilan birgalikda o'qituvchining kasbiy-individual hodisa sifatida pedagogik madaniyatini tavsiflaydi degan fikrni ilgari surganlar.

Kasbiy kompetentlik tashxisi kasbiy shakllanishning mohiyatli xarakteristikalariga diagnostik, kommunikativlik, boshqaruv va proektiv o'quv guruhlarini kiritish lozim.

Pedagogning bilish faoliyati ko'p jihatdan o'rganilayotgan narsaning murakkabligi, dinamikasi, nostandartligi, ijtimoiy hodisalarni ajratib turadigan chegaralarning ta'siri, ularni izlash, noaniqlik bilan belgilanadi.

O'qituvchining kasbiy kompetentligi – pedagog faoliyatida kasbiy kompetentlik muhim jihatlardan biri bo'lib, pedagogning faqatgina kasb va kasbiy faoliyatni amalga oshirish bilan bog'liq barcha ehtiyoj, qobiliyat, mahorat, bilish va qiziqishni ifodalaydi.

Buning uchun u :

- Ijodiy izlanishlar jarayonni boshqarishga moyil bo'lishi;
- Ijodiy izlanishning samaradorligi o'qituvchining pedagogik - psixologik va nazariy tayyorgarligiga bog'liq bo'lishini esda tutish lozim.

Zamonaviy talablardan kelib chiqqan holda o'qituvchi kompetentligini rivojlantirishni quyidagi asosiy yo'nalishlarini belgilash mumkin:

1. Uslubiy birlashma, ijodiy guruhlarda faoliyat yuritish;
2. Tadqiqotchilik faoliyati;
3. Innovatsion faoliyat, yangi pedagogik texnologiyalarni o'rganish;
4. Pedagogik musobaqa va tadbirlarda faol ishtirok etish;
5. O'z pedagogik tajribasini ommalashtirib borishi;
6. AKTlardan foydalanish va h. k.

Ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning tayanch, jumladan, kommunikativ; axborotlar bilan ishlash; shaxs sifatida o'z ustida ishlash va malakasini oshirish; ijtimoiy faol fuqorolik, umummadaniy kompetensiyalarni; matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lishlik kompetensiyalarini tarkib toptirishda, axborotlar tizimidan to'g'ri foydalanishlik shaxs sifatida o'zini ustida ishlash, halollik, to'g'rilik, ijtimoiy jihatdan faol bo'lishlik, bo'layotgan voqea,

hodisalarga munosabat bildirish, umummadaniy merosni o'rganish, tahlil qilish, fan va texnika yutuqlaridan xabardor bo'lishlik kabi xususiyatlar bilan birga o'quvchi xarakterini to'g'ri shakllanishi muhim hisoblanadi.

Tabiiy va aniq fanlarga oid mavzularni o'qitishda imkon qadar darsni testlarga, hayotiy masalalarga, ayniqsa, aqliy fikrlashga bog'lanishi o'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirish imkonini beradi. Yuqorida keltirilgan tayanch kompetensiyalar o'ziga xos maxsus vazifalarga ega bo'lib, ular o'quvchilarda muayyan ko'nikma va malakalarni shakllantirishga yordam beradi.

Tabiiy fanlarni o'qitishda quyi sinflarda tayanch kompetensiyalarni shakllanishiga, ilmiylik va ketma-ketlikka e'tibor qaratisa, fanga oid kompetensiyaviy tushunchalar, asosan, yuqori sinflarda beriladi. Biologiya fanlarida esa, tirik organizmlar ustida kuzatishlar va tajribalar o'tkaza olishlik, mustaqil xulosa chiqarish kabi xususiyatlarga asoslanib, sog'lom turmush tarzi va ekologik kompetensiya shakllantiriladi. Bunda standart va nostandart o'quv topshiriqlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Ushbu jarayonni tushunish uchun 1-jadvalni keltirish mumkin.


Kompetensiyaviy yondashuv nuqtayi nazaridan qaraganda, ta'lim jarayonini mohiyati – o'quvchilarning kelajakda turli hayotiy vaziyatlar va faoliyat sohalarida duch keladigan muammolarni o'z tajribasi asosida mustaqil yyechish layoqatini shakllantirishdan iboratdir.

Tabiiy fanlar bo'yicha kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan bilimlarni berishda o'qituvchidan kasbiy bilim, metodik yondashuv va ijodkorlik, yangi texnologiyalarni qo'llab, zamonaviy fikr yuritishlik, o'z pedagogik faoliyatga baho berish, pedagogik mahorati va kasbiy malakasini doimo oshirib borishlik talab etiladi.

O'qituvchi faoliyatida kasbiy kompetensiya va pedagogik mahorat asosiy rolni o'ynab, uning tarkibiga mutaxassislik bo'yicha bilim, pedagogik qobiliyat, texnologiyani qo'llay olishlik, ijodkorlik (kreativlik), novatorlik-moderatorlik, standart va nostandart o'quv topshiriqlaridan foydalanishlik kabi o'qituvchi uchun zaruru bo'lgan xususiyatlar kiradi. Bunda, albatta, tanlangan metodni xususiyatlarini hisobga olish lozim.

Ta'lim-tarbiya ishida samaradorlikka, sifat ko'rsatkich olingan bilim, ko'nikma va malakalarni hayotda qo'llay olishlikka erishish birdan amalga oshmaydi. Buning uchun, avvalo, ta'limning mazmunini tushunish va o'quv dasturlarini ta'lim jarayoniga tatbiq etib, uning sifat ko'rsatkichlarini oshirish, o'qituvchining kasbiy nufuzini oshirish zarurati tug'ilmoqda.

**O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan bog'lanishlar**



Bu biz o'qituvchilar oldida turgan asosiy vazifadir. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, hozirgi ta'lim jarayonida ko'proq o'qituvchilar o'z kasbiy kompetentligini rivojlantirib borishi nafaqat uning o'z pedagogik faoliyati va mahoratini tahlil qila olishi, o'z ustida muntazam ravishda ishlashiga, xuddi shunday ta'lim jarayonida ijobiy va ijodiy muhitning yaratilishiga ham bog'liq. Ta'lim muassasasida mazkur muhitning yo'lga qo'yilishi o'qituvchining kasbiy kompetentligining oshib borishiga bu esa o'z navbatida muassasa faoliyati samaradorligini ta'minlanishiga asos bo'ladi.

**Adabiyotlar**

1. Incheon declaration/Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (World Education Forum, 19-22 may, Incheon, Republic of Korea)

2. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To‘rayev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari – Toshkent, 2015.

3. Shaxmurova G., Rahmatov U., Xo‘janazarov O‘., Tog‘ayeva G. “Biologiya fanini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar” moduli bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua. Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi xalq ta‘lim xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi, Toshkent, 2018-y.

4. Васильева М.З. Методика преподавания биологии: учебно-методический комплекс. – Горно-Алтайск: РИО ГАГУ, 2008.

5. Андреева, Н.Д. Методика обучения биологии в современной школе : учебник и практикум для бакалавриата и магистратуры / 2-э изд., испр. и доп. — М. : Издательство Юрайт, 2017. — 294 с.

6. Yo‘ldoshev J., Hasanov S. Pedagogik texnologiyalar. – T.: “Moliya-iqtisod” nashriyoti, 2009.

7. Ziyomuxammadov B. Pedagogik mahorat asoslari. T.: TIB-KITOB, 2009.

## **ORGANIK KIMYO FANINI O‘QITISHDA MUAMMO VA YECHIMLAR**

**Saydaxmetova Sh.R. - Toshkent davlat pedagogika universiteti katta o‘qituvchisi**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada uzluksiz ta‘lim tizimida organik kimyo fanidan laboratoriya mashg‘ulotlari o‘qitishning muammolari va ularni bartaraf etish masalalari yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** uzluksiz ta‘lim, organik kimyo, pandemiya, laboratoriya mashg‘ulotlari, ta‘lim texnologiyalari, ilmiy kompetensiya, izohlash metodi, fanlararo integratsiya.

## **ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ В ОБУЧЕНИИ ОРГАНИЧЕСКОЙ ХИМИИ**

**Сайдахметова Ш. Р. - Старший преподаватель Ташкентского государственного педагогического университета**

**Аннотация.** В статье рассматриваются проблемы проведения лабораторных занятий по органической химии в системе непрерывного образования и пути их решения.

**Ключевые слова:** непрерывное образование, органическая химия, пандемия, лабораторные занятия, образовательные технологии, научная компетенция, методы интерпретации, междисциплинарная интеграция.

**PROBLEMS AND SOLUTIONS IN TEACHING ORGANIC CHEMISTRY** Saydaxmetova Sh.R. - Senior Lecturer Tashkent State Pedagogical University

**Annotation.** This article discusses the problems of solving problems of teaching laboratory classes in organic chemistry in the system of continuing education and their solutions.

**Key words:** continuing education, organic chemistry, pandemic, laboratory work, educational technologies, scientific competence, methods of interpretation, interdisciplinary integration

“Kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzluksiz ta‘lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2020-yil 12-avgust, PQ-4805-sonli O‘zbekiston Respublikasi prezidentining qarori-bugungi kun talabi yosh avlodni yetuk intellektual bilimga ega qilib tarbiyalashda muhim dasturulamal bo‘lib xizmat qiladi. Bunda bir qator masalalarga urg‘u berilgan.

Mamlakatimizda kimyo va biologiya fanlarini rivojlantirish, ushbu yo‘nalishlarda ta‘lim sifati va ilm-fan natijadorligini oshirish[1] “Ilm, ma‘rifat va raqamli iqtisodiyot yili” Davlat dasturining ustuvor vazifalari qatorida belgilangan.

“Zero, o‘g‘il-qizlarimizni kimyo va biologiya fanlari bo‘yicha chuqur o‘qitish hududlarda yangi-yangi ishlab chiqarish korxonalarini barpo etish, yuqori qo‘shilgan qiymat yaratadigan farmasevtika, neft, gaz, kimyo, tog‘-kon, oziq-ovqat sanoati tarmoqlarini jadal rivojlantirishga turtki beradi, pirovardida xalqimiz turmush sharoiti va daromadlarini oshirishga puxta zamin hozirlaydi”[2]deyilgan. Shuningdek, o‘rta maxsus, professional, oliy ta‘lim, ilmiy-tadqiqot muassasalari hamda sohadagi ishlab chiqarish korxonalarini o‘rtasida kadrlar tayyorlash va ilm-fan natijalaridan foydalanish borasida uzviy bog‘liqlik, samarali muloqot va hamkorlik yo‘lga qo‘yilishini ta‘minlash, kimyo va biologiya fanlari bo‘yicha ta‘lim sifatini tubdan oshirish, umumta‘lim maktablarida ushbu fanlarni o‘qitishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish, ta‘lim muassasalarini zamonaviy laboratoriyalar, darsliklar va boshqa o‘quv jihozlari bilan ta‘minlash, ushbu yo‘nalishlarga malakali o‘qituvchi-murabbiylarni jalb etish, kadrlar tayyorlash va ilm-fan natijalaridan foydalanishda ta‘lim, ilm-fan va ishlab chiqarish sohalari o‘rtasida o‘zaro yaqin muloqot va hamkorlikni yo‘lga qo‘yish davlat ta‘lim siyosatining yorqin ifodasi desak mubolag‘a

bo'lmaydi. Hozirgi globallashuv davrida bo'lajak kimyo fani o'qituvchilari egallashi kerak bo'lgan bilim, ko'nikma, malakalari davlat standartlariga va xalqaro ta'lim standartlariga mos kelishi, egallangan bilimlarini amalda qo'llash uchun mos metodlar ishlab chiqilishi lozimdir. Mavjud darsliklarni ko'rib chiqish yangi avlod darsliklarini yozish, xalqaro baholash dasturlari haqida ma'lumotga ega bo'lish. Bilimlarni nazorat qilish hamda baholashning afzal usullarini amaliyotga joriy qilish imkoniyatiga ega bo'lgan, kompyuter va axborot texnologiyalarini mukammal egallagan kadrlarni tayyorlash asosiy maqsad qilib belgilangan.

Organik kimyo laboratoriya darslarida mavzudan kelib chiqib, idishlarni yig'ish, tanlash va reaktivlardan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish, hisobotlarni rasmiylashtirish aniq natija olishda ilmiy yondashish muhim hisoblanadi. Yuqori samaradorlikka ega bo'lgan o'qitish texnologiyalarini ta'lim jarayoniga qo'llash, dars mashg'ulotlarini hayot bilan bog'lash, fanlararo integratsiyani ochib berish, organik moddalarning tuzilish formulasi, izomerlari, nomlanishi, olinishi, fizikaviy va kimyoviy xossalarni o'rganish[7], amaliy ahamiyatini, qo'llanilishini o'rganishda muammoli metodlarni qo'llash, "Pinboard", "Klaster", "Taqqoslash jadvali", "BBBx", "Venn diagrammasi", "Baliq skeleti", "Nilufar guli", "Piramida", "Zinama-zina", "Qanday?", "Nima uchun?" kabi pedagogik texnologiyalarni qo'llab, dars ishlanmalari yaratilib kelinmoqda. Uzluksiz ta'lim jarayonida pedagogik faoliyat hayotda yuzaga keladigan har qanday vaziyatda kasbiy, shaxsiy o'sishga olib keladi.


O'qituvchiga xos bo'lgan muhim sifatlardan biri bu uning ijodiy kreativligidir. Har doim biror narsani o'ylab topishga intilish o'quvchilarni ham shunga undash malakasi rivojlanadi. Uzluksiz ravishda mashg'ulotlarda, ijodiy guruhlarda va yakka tartibda mustaqil ishlash orqali interfaol usulda ishlash ko'nikmasi shakllanadi. Har bir mavzu uchun mashq va misollar tizimini yaratish, nazorat olib borish uchun testlar, savollar, o'quv loyihalari ishlab chiqish talabalarning darsga o'zgacha ma'suliyat bilan yondashishga olib borilgan laboratoriya tajribalari orqali xulosalar chiqarib ularni ilmiy izohlash va o'zaro bilimlar, g'oyalar, fikrlar almashish jarayoni vujudga keladi. Dars jarayonida birorta ham talabalar chetda qolmaydi va har bir talabaning fikr-mulohazalarini ochiq-oydin bildirish imkoniyati dars jarayonida samimiylikni ta'minlaydi, qiziqishni orttiradi, do'stona munosabat shakllanadi va nihoyat o'z fikrini teran bildirish qobiliyati, nutq madaniyati shakllanadi.

Laboratoriya mashg'ulotlarini namoyish qilish faqat visual demonstratsion amalga oshiriladi. *Izohlash metodi*-hodisalarning mohiyatini o'rganishda, talabalarni nazariy umumlashtirishlar bilan tanishtirishda qo'llaniladi. Masalan, organik kimyo laboratoriya tajribalaridagi reaksiyalarning borish jarayoni sabablarini bayon etish va boshqalar. Bunda ayrim faktlar va tushunchalar orasidagi bog'lanishlar ochib beriladi. Organik birikmalarning xususiyatlari va ular bo'ysunadigan qonuniyatlar bilan tanishtirish, farmakologiya, biokimyo fanlari bilan bog'lash talabalarga haqiqiy




dunyoni organik ravishda hal qilish strategiyasini taqdim etish muammolarini, ayniqsa, hayot fanlari bilan bog'liq bo'lgan narsalarni, ulardan foydalana olish, tahlil qilish, tushunish va hal qilishning har tomonlama qobiliyatlarini oshirish, talabalarda ilmiy uslubni qadrlashni rivojlantirish va o'qish qobiliyatlari rivojlantirish muhimdir [4]. Izohlashda asosiy narsa – ravonlik va aniqlikdir. U bayon qilishning mantiqiy ketma – ketligini saqlash, o'quvchilarga ma'lum bo'lgan bilimlarga yondashish, terminlarning tushunarli bo'lishi, doskaga to'g'ri yozish, tushunarli misollar keltirish kabilar orqali amalga oshadi. Takomillashtirishirilgan an'anaviy o'qitish metodlari - ma'ruza, hikoya, tushuntirish – o'quv materialni og'zaki bayon qilish usuli hisoblanadi [5]. Odatda bu usullar namoyish, video usul, ko'rgazma usullari bilan qo'shilgan holda olib boriladi. Ular talablarning bilimini o'zlashtirib, esda qolish va tushunishga qaratilgan retseptiv faoliyatini ta'minlab beradi va o'qituvchi tomonidan tayyor holda bayon etiladi.

O'tkazilgan pedogogik tajriba-sinov ishlari natijalariga ko'ra fanni qiziqtirishda, o'zlashtirishda ijobiy natijaga ega bo'lindi. Bundan tashqari mavzulashtirilgan testlar-iSpring Suite 8 dasturi asosida tuzilib, o'zlashtirilgan bilimlarni baholashda qo'llanilmoqda. Kompyuter



yordamida onlayn taqdimotlar va elektron o'quv kurslarini yaratuvchi zamonaviy dasturlardan biri iSpring Suite dasturlar to'plamidir. iSpring Suite dasturlar paketiga iSpring Pro, iSpring QuizMaker, iSpring Kinetics jamlangan. Bu dasturlardan iSpring QuizMaker dasturi audio, video fayllar, tasvir va formulalar yordamida interaktiv testlar va anketalar yaratadi. Interaktiv testlarni iSpring QuizMaker dasturi yordamida tuzish uchun kompyuterga iSpring Suite dasturi bilan Adobe Flash (operatsion tizim razryadiga ko'ra 32 va 64 bitli) dasturi o'rnatilishi talab etiladi [8]. Organik kimyo fanini o'qitishda darslarning qiziqarli olib borilishi uchun Interaktiv testlarni iSpring QuizMaker dasturi yordamida tarmoqlangan testlar yaratish imkoniyati (adaptatsiyalashtirilgan testlarni yaratish) imkoniyatidan; ikki, uch, to'rt yoki besh javobli yopiq test topshiriqlari, ulardan biri to'g'ri, ikkitasi haqiqatga yaqinroq turidagi topshiriqlari; bir necha to'g'ri javobli yopiq test topshiriqlari; ochiq test topshiriqlari; o'xshashlikni aniqlashga yo'naltirilgan topshiriqlar; to'g'ri ketma-ketlikni aniqlashga mo'ljallangan topshiriqlarni yaratish imkoniyatidan foydalanildi.

Organik kimyo laboratoriya darslarida tajribalar bajarishda ilmiylikni oshirish hamda talabalarni fanning ilmiy yangiliklaridan doimiy boxabar qilish orqali ilmiy kompetentlikni shakllantirish, ilmiy–amaliy anjumanlarda faol qatnashishlariga erishish muhimdir [6].



SARS-CoV-2, ya'ni COVID-19 pandemiyasi global miqyosda qator ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklarni keltirib chiqardi, sport va madaniy tadbirlar keyinga qoldirilishi yoki bekor qilinishiga sababchi bo'ldi, dori-darmon, elektronika

mollari hamda oziq-ovqat mahsulotlari yetishmovchiligi yuzaga kelishi haqida xavotirlarga sabab bo'ldi. Kamida 115 davlatda universitet va maktablar yoppasiga yoki ayrim hududlarda yopildi. Bu choralar 950 milliondan oshiq talaba faoliyatiga ta'sir ko'rsatdi. O'zbekistonda bu jarayonning ijobiy jihatlari bilan birgalikda salbiy tomonlari ham ko'zga tashlanib qoldi: internet butun O'zbekiston bo'ylab bir meyorda ishlamasligi; aksariyat ta'lim oluvchilarda masofaviy o'qish uchun texnik vositalarning (kompyuter, notebook, gadjetlarning) mavjud emasligi. Shubhasiz, bunday holat ta'lim sifatiga salbiy ta'sir etmasdan qolmadi, texnik nosozliklar va boshqa omillar o'quv jarayonida uzilishlarga olib keldi [9]. Yangi tizim, yangi ta'lim olish muhitida kamchiliklar bo'lishi tabiiy. Masofaviy ta'lim ayni paytda kelajak uchun eksperiment vazifasini o'tamoqda, desak adashmaymiz. Masofaviy ta'limning yutuqlaridan biri, fikrimcha, talabalar bilan muloqotning xilma xilligidir. Bunda talaba aytmoqchi bo'lgan javobini matn, audio yoki video shakllarda bayon etish imkoniga ega bo'ladi, talabalar mustaqil ishlash, o'rganish, izlanish ko'nikmalari shakllanayotganligi masofaviy ta'limni ijobiy tomonlari deb ko'rsatish mumkin.

Oliy ta'lim muassasalari platformalarida Moodle tizimi shakllantirilgan bo'lib har bir oliy ta'lim muassasalarida bir nechta 100 Gb. hajmda minglab videodarslar yaratildi o'qituvchilar masofaviy ta'lim berish (Moodle), onlayn rejimda, turli platformalarda, ZOOM) ma'ruza o'tish va videodarslar yozish (Bandicam, OBS-studio) ko'nikmalariga ega bo'lishdi. Bu esa aksariyat oliy ta'lim muassasalari tomonidan videodarslardan iborat ulkan media platforma yaratish uchun manbaviy asosdir;

-onlayn tarzdagi dars vaqtining o'zida internetdagi mavzuga aloqador web-resurslarga havola qilish orqali virtual interfaollik ta'minlandi;

-professor-o'qituvchilarga ijod, izlanish imkoniyati – erkinlik berilganligi (odatiy ta'lim jarayonida professor-o'qituvchi qog'ozbozlikdan bo'shamayotgan edi);

- yana bir muhim jihati, har bir professor-o'qituvchiga fanni o'zlashtirishni baholashdagi barcha to'siqlar olib tashlanganligi;

- zamonaviy dasturlardan foydalangan holda onlayn darslarni (onlayn rejimda videomuloqot) tashkil etilayotganligi;

Respublika oliy ta'lim muassasalarining xorijiy universitetlar bilan hamkorligi faollashdi. Bir qator oliygohlar jahonning yetakchi o'quv dargohlari bilan onlayn konferensiya, vebinarlar uyushtirildi, masofaviy ta'lim imkoniyatlari kengligi yaqqol sezildi. Professor-o'qituvchilarga hamda talabalarga yangi bilimlarni o'rganish davri bo'lmoqda. Axborot texnologiyalari yordamida yerni kosmik zondlash orqali ekin maydonlari, vegetatsiya jarayoni, yerning meliorativ holati va minerallasuv miqdorini o'rganish mumkin. Bu agrotexnik tadbirlarni aniq belgilab, hosildorlikni 25-30 foizgacha oshirish imkonini beradi. Fan va texnologiyalarning jadal taraqqiyoti sababli milliy axborotlar hajmi keskin oshayotgan bugungi kunda o'quv jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va ommalashtirish dolzarb masaladir. Bugungi kun butunjahon pandemiya iskanjasida o'qitishning maqbul yechimini topish oliy o'quv yurtlarida o'qitish uslubining yangi davri boshlanganligini va bu davr tezlik bilan hal qilinishi muhim bo'lgan bir qancha muammolarni keltirib chiqarganligi sir emas. "Yangi yilda yurtimizdagi 30 ta yetakchi oliygohga o'quv dasturlarini ishlab

chiqish, qabul kvotasi va moliyaviy masalalarni mustaqil hal qilish huquqi beriladi [9]." Bu ham oliy o'quv yurti boshqaruv tizimini mukammallashtirish o'z reytingini oshirish yo'lidagi boshlang'ich qadam hisoblanadi.



Organik kimyo fanining boshqa fanlar

bog'liqlik grafigi.

Biz ham oliy ta'limda organik kimyo laboratoriya darslarini o'qitish borasida izlanishlar olib bormoqdamiz. Bunda fanlararo integrativ yondashuv hamda o'rganilgan bilimlarni amalda qo'llash bo'yicha ishlanmalar yaratilmoqda.

Organik kimyo laboratoriya mashg'ulotini o'qitishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etish maqsadida mavzular bo'yicha videodarslar (Bandicam, XRecorder) tayyorlandi va dars jarayonlariga tatbiq qilinib kelinmoqda. O'quv jarayonining nazariy qismini to'liq bo'lmasada, qisman (ta'lim yo'nalishlarining o'ziga xosligini hisobga olgan holda) onlayn formatga o'tkazsa bo'ladi. Shu bois, hozirgi davrda onlayn va offlayn ta'limni birgalikda olib borish ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlaydigan eng maqbul yo'ldir deb hisoblab kelinmoqda.

### **Adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-avgustdagi “Kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzluksiz ta’lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4805-son Qarori
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 martdagi “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” gi PF-5953-son Farmoni
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020 yil 29 dekabrda Oliy Majlisga murojaatnomasi
4. Mirkomilov Sh.M., Omonov X., Raxmatullayev N.G‘. Kimyo o‘qitish metodikasi darslik T.: —Moliya iqtisod. 2013. 318-b.
5. Ferah G. Al-Salihi1, Amina H. Ahmad Alobaidi Problem based learning (PBL) in Organic Chemistry MEDICAL EDUCATION Iraq IJMS 2018;1(2): 64-70.
6. Saydaxmetova Sh.R. Organik kimyoga oid tajribalarni o‘rganish metodikasini takomillashtirish. Proceedings of Global Technovation- An International Multidisciplinary Conference Hosted from Samsun, Turkey. <https://conferencepublication.com> October 31st , 2020. 97-100 p.
7. Sh.R.Saydaxmetova, A.G‘.Maxsumov. “Organik kimyo”. O‘quv qo‘llanma. “Ilm ziyo zakovat” –Toshkent: 2020-y.280 b.
8. [http://www.uuoidata.org/course/eng/e103/14,15-lecture\\_Multimedia.pdf](http://www.uuoidata.org/course/eng/e103/14,15-lecture_Multimedia.pdf)
9. <https://review.uz/oz/post/foydali-karantin-covid-19-pandemiyasi-oliy-talim-tizimini-qanday-o‘zgartiradi>

### **КВЕСТ ТЕХНОЛОГИЯ В ОБУЧЕНИИ ХИМИИ**

**Алимова Ф.А. - кандидат педагогических наук, доцент Ташкентского государственного педагогического университета**

**Искандаров А.Ю. - доцент Ташкентского государственного педагогического университета**

**Аннотация.** Проблема развития новых подходов в системе обучения современной высшей и общеобразовательной школы требует применения ранее неиспользовавшихся технологий обучения. В данной статье рассмотрена квест-технология обучения при изучении химии. Образовательный квест - педагогическая технология, включающая в себя набор проблемных заданий с элементами ролевой игры, для выполнения которых требуются какие-либо ресурсы, и в первую очередь ресурсы Интернета. Предложен вариант проведения урока химии с использованием квест-технологии, при изучении темы: «Кислоты и их свойства». Использование данной методики может

значительно разнообразить учебный процесс, сделать его более интересным, реализующим межпредметные связи в обучении химии.

**Ключевые слова:** методика преподавания, химия, квест-технология, образовательный квест, Интернет-ресурсы, учебное познание, кислоты, соляная кислота, серная кислота.

## **KIMYO FANLARINI O‘QITISHDA KVEST TEXNOLOGIYASI**

**Alimova F.A. - Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti,  
pedagogika fanlari nomzodi**

**Iskandarov A.Y. - Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti**

**Annotatsiya.** Zamonaviy oliy ta’lim va umumta’lim o‘quv tizimida yangi yondashuvlarni ishlab chiqish muammosi ilgari qo‘llanilmagan ta’lim texnologiyalaridan foydalanishni talab qiladi. Ushbu maqolada kimyoni o‘qitishda kvest-texnologiyasini qo‘llanilishi ko‘rib chiqilgan. Ta’lim kvesti – bu rolli o‘yining elementlari bilan muammoli vazifalar to‘plamini o‘z ichiga olgan, uni amalga oshirish uchun har qanday manbalar va birinchi navbatda Internet-resurslarni talab qiladigan pedagogik texnologiya. “Kislotalar va ularning xossalari” mavzusini o‘rganishda kvest-texnologiyasini qo‘llanilishi ko‘rsatilgan. Ushbu metoddan foydalanish o‘quv jarayonini sezilarli darajada uni yanada qiziqarli qilish, kimyoni o‘rganishda fanlararo aloqalarni rivojlantirishga yordam beradi.

**Kalit so‘zlar:** o‘qitish metodikasi, kimyo, kvest-texnologiya, ta’limiy kvest, Internet resurslari, bilish faoliyati, kislota, xlorid kislota, sulfat kislotasi.

## **QUEST TECHNOLOGY IN TEACHING CHEMISTRY**

**Alimova F.A. - Tashkent State Pedagogical University Candidate of Pedagogical  
Sciences, Associate Professor.**

**Iskandarov A.Y. - Associate Professor of Tashkent State Pedagogical University  
named after Nizami**

**Annotation.** The problem of developing new approaches in the educational system of modern higher and general education schools requires the use of previously unused teaching technologies. This article discusses the quest - teaching technology in the study of chemistry. An educational quest is a pedagogical technology that includes a set of problematic tasks with elements of a role-playing game, for the implementation of which any resources are required, and primarily Internet resources. A variant of the lesson of conducting a lesson in chemistry, using quest technology,

when studying the topic: «Acids and their properties» is proposed. The use of this technique can significantly diversify the educational process; make it more interesting, realizing intersubject connections in teaching chemistry.

**Key words:** teaching methods, chemistry, quest - technology, educational quest, Internet resources, educational knowledge, acids, hydrochloric acid, sulfuric acid.

Развитие информационных и коммуникативных технологий оказывает колоссальное влияние на изменения происходящие в современном образовании. Информационно-образовательная среда современных детей не ограничивается рамками учебного материала образовательных областей в школе и дополнительным образованием [6; с-8-11]. Согласно Концепции развития системы народного образования Узбекистана до 2030 года, Указа Президента Республики Узбекистан Ш.М.Мирзиёева, система народного образования должна развиваться на основании следующих приоритетных направлений, в частности: качественное обновление содержания системы непрерывного образования, совершенствование методики обучения, поэтапное внедрение принципов индивидуализации учебно-воспитательного процесса; внедрение ИКТ и инновационных проектов в сферу народного образования [2].

В связи с этим, всё большее значение приобретает способность педагога ориентироваться в информационных потоках, ведь научить своих учеников умению быстро находить полезную информацию, проводить её анализ и уметь использовать в своей деятельности, принимать решения, обладать творческим отношением к учебной деятельности становится настоящей педагогической проблемой. Развитие интерактивных методов в образовании привело к тому, что в современном обучении меняется взаимодействие педагога и учащегося: активность педагога уступает место активности обучаемых, а задачей становится создание условий для инициативы к обучению. Учащийся становится полноправным участником образовательного процесса, его опыт служит основным источником учебного познания [8; с-6-9].

Одной из основных задач современного педагога является предоставление возможности творческого переосмысления и систематизации приобретенных знаний и навыков, а также их практического применения, возможность реализации способностей обучающихся. В арсенале учителя много технологий, помогающих в реализации этой задачи. Одной из них является технология образовательных квестов.

Квест (англ. Quest) - «поиск, предмет поисков, поиск приключений». В мифологии и литературе понятие «квест» изначально обозначало один из способов построения сюжета - путешествие персонажей к определенной цели

через преодоление трудностей. Впервые термин «квест» в качестве образовательной технологии был предложен летом 1995 года Берни Доджем (Bernie Dodge), профессором образовательных технологий Университета Сан-Диего (США).

Ученый разрабатывал инновационные приложения Internet для интеграции в учебный процесс при преподавании различных учебных предметов на разных уровнях обучения. Квестом он назвал сайт, содержащий проблемное задание и предполагающий самостоятельный поиск информации в сети Интернет [8; с-25-28].

Сегодня квест-игра становится образовательной технологией, недооценивать которую в современном мире просто нельзя. Образование в информационном обществе приобретает новое качество благодаря наличию информационных и коммуникативных технологий, информационного пространства, которые создают возможности для каждого ребёнка получать информацию в том объёме, который необходим ему для саморазвития и самосовершенствования, формируя, таким образом, и уровень исследовательской активности учащегося [5; с-14-18].

Квест-это развлекательная игра, приключение для команды из нескольких человек в специально подготовленном помещении, пространстве.

Образовательный квест – педагогическая технология, включающая в себя набор проблемных заданий с элементами ролевой игры, для выполнения которых требуются какие-либо ресурсы, и в первую очередь ресурсы Интернета. Разрабатываются квесты для максимальной интеграции Интернета в различные учебные предметы на разных уровнях обучения в учебном процессе. Они могут охватывать отдельную проблему, учебный предмет, тему, также могут быть и межпредметными. Квесты можно использовать для работы с обучающимися, родителями, коллегами [1; с-43-47].

В квесте, как правило, есть определенная цель, задача игроков заключается в том, чтобы применить логику, смекалку, творческую инициативу, активность, самостоятельность, умение работать в команде, проявлять аналитические и коммуникативные способности. В каждом квесте есть элемент обучения, которое происходит ненавязчиво для школьников. Но самое главное – это настоящая командная игра, объединяющая школьников, помогая проявить лидерские качества. В игре этого жанра всегда предполагается выполнение нескольких заданий, в которых надо что-то разыскать – предмет, подсказку.

Игра проходит в условиях дефицита времени. Когда дети тесно общаются друг с другом, то начинают лучше понимать своих сверстников, вместе находят выход из сложившейся ситуации, вместе радоваться успеху и победе.

Командные конкурсы для детей сближают их, помогают лучше понять друг друга, рожают чувство ответственности за всех членов команды [3; с-5-30].

Особый интерес при обучении химии представляют «живые» квесты, направленные на выполнение определённого проблемного задания, реализующего воспитательно-образовательные цели, с элементами сюжета, ролевой игры, связанного с поиском мест, объектов, людей, информации. При этом для достижения цели могут быть использованы ресурсы территории, в границах которой происходит перемещение, информационные ресурсы.

Удачным является использование на занятиях квест-проектов. Обучающийся в процессе работы над таким квест-проектом постигает реальные процессы, проживает конкретные ситуации, приобщается к проникновению вглубь явлений, конструированию новых процессов, объектов. С точки зрения информационной деятельности при работе над квест-проектом его участнику требуются навыки поиска, анализа информации, умения хранить, передавать, сравнивать и на основе сравнения синтезировать новую информацию [4; с-709-712].

Предлагаем вариант урока химии, с использованием квест-технологии, при изучении темы: «Кислоты и их свойства».

На организационном этапе учитель приглашает учащихся на урок-квест. Знакомим с планом предстоящей работы. Работать учащиеся должны в командах, что позволит сформировать навыки эффективного общения, совместной деятельности и сотрудничества. На уроке каждый из учащихся имеет возможность почувствовать, что означает быть членом одной команды [7; с-145-150].

Учащимся предлагается вспомнить, что такое квест.

**Квест** (от английского quest – поиск приключений) – это игра на испытание эрудированности, начитанности и умение работать в одной команде.

*Все участники урока-квеста заранее делятся на 4 команды.*

*Правила игры - квест (коротко проецируются на доске)*

-все учащиеся – сплоченная, дружная команда. Учащимся необходимо доказать, что они умные, сообразительные, эрудированные в вопросах, касающихся определения, классификации и названий основных классов неорганических веществ.

-все участники должны принимать активное участие в игре.

-в команде при обсуждении задания не ссориться, выслушивать друг друга, принимать взвешенное решение.

-ответы своих соперников выслушивать внимательно, не перебивать, не смеяться.



На основном этапе урока учащиеся выполняют теоретические и практические задания, получают подсказки, для выполнения итогового задания.

### **Пример, теоретическое задание 1.**

Напишите уравнения возможных реакций:

- 1 команда. Фосфорная кислота + оксид калия;
- 2 команда. Соляная кислота + оксид серы (VI);
- 3 команда. Серная кислота + оксид алюминия;
- 4 команда. Азотная кислота + гидроксид железа (III);

### **Теоретическое задание 2**

Запишите уравнения реакций, происходящих согласно схеме:

- 1 команда.  $\text{AgNO}_3 + ? \rightarrow \text{Ag}_3\text{PO}_4^- + ?$
- 2 команда.  $? + \text{Li}_2\text{CO}_3 \rightarrow ? + \text{CO}_2 + \text{H}_2\text{O}$
- 3 команда.  $\text{BaBr}_2 + ? \rightarrow \text{BaSO}_4^- + ?$
- 4 команда.  $\text{Al}_2\text{O}_3 + ? \rightarrow \text{AlCl}_3 + ?$

### **Теоретическое задание 3.**

С какими из перечисленных веществ будет реагировать оксид магния, оксид азота (V), оксид цинка, гидроксид калия, гидроксид алюминия, бромоводородная кислота, карбонат бария, нитрат магния, нитрат серебра, сульфат свинца (II), магний, серебро?

- 1 команда. Соляная кислота
- 2 команда. Серная кислота
- 3 команда. Азотная кислота
- 4 команда. Фосфорная кислота

### **Пример задания практического этапа**

Задание для первой команды.

В 1-ю пробирку с соляной кислотой добавьте каплю фенолфталеина. Перемешайте стеклянной палочкой. Результаты наблюдений запишите в таблицу. Во 2-ю пробирку с соляной кислотой добавьте каплю метилоранжа. Перемешайте стеклянной палочкой. Результаты наблюдений запишите в таблицу.

Задание для второй команды.

В 1-ю пробирку положите 1 гранулу цинка и прилейте соляную кислоту. Что вы наблюдаете? Напишите молекулярное уравнение проделанной реакции. Во 2-ю пробирку положите 1 гранулу меди и прилейте соляную кислоту. Что вы наблюдаете? Напишите молекулярное уравнение проделанной реакции.

Задание для третьей команды.

В пробирку налейте 2 мл серной кислоты и прибавьте несколько капель хлорида бария. Что вы наблюдаете? Напишите молекулярное и ионные уравнения проделанной реакции. Слейте растворы сульфата меди (II) и азотной

кислоты. Что вы наблюдаете? Напишите молекулярное и ионные уравнения проделанной реакции.

Задание для четвёртой команды.

В три пробирки налейте раствор хлорида магния. В первую пробирку прилейте раствор фосфата калия, во вторую сульфида натрия, в третью – нитрата калия. Что вы наблюдаете? Составьте уравнения реакции идущих до конца в молекулярном, ионном и сокращённом виде.

**Пример заданий для творческого этапа.**

1 команда. Придумайте (сочините) мини-рассказ теме «Кислоты»,

2 команда. Придумайте (сочините) сказку по теме «Кислоты»,

3 команда. Придумайте (сочините) мини-кроссворд на 5 слов по теме «Кислоты»,

4 команда. Составить Синквейн по теме «Кислоты».

На этапе подведения итогов учащимся необходимо составить формулы тех соединений, которые будут использованы в творческих заданиях, дать им названия, определить по классификации класс, к которому они относятся. Все команды достигли основной цели – обобщили знания о кислотах, их классификации, свойствах, научились работать в команде, доброжелательно относиться друг к другу.

За каждое задание учащиеся получали квест-жетоны: красные – 5 баллов, синие – 4 балла, зелёные – 3. Учащимся предлагалось подсчитать сумму заработанных баллов.

В заключение хотелось бы дать несколько методических рекомендаций для педагогов по подготовке квест- занятия:

- подготовить интересное выступление;
- сформулировать интересное задание;
- составить план работы;
- составить список информационных ресурсов.

Обучающийся в свою очередь:

- выбирает роль;
- составляет план поиска ресурсов;
- исследует информационные ресурсы;
- готовит отчет.

Использование на занятиях квест-технологии способствует формированию у обучающихся информационных компетенций, знаний и умений, способствующих информационной деятельности, воспитывают самоуважение и эмоционально-положительное отношение к себе, целеустремлённость и настойчивость в достижении целей, предполагают максимальную самостоятельность творчества учащихся.

## Литература

1. Андреева М. В. Технологии веб-квест в формировании коммуникативной и социокультурной компетенции//Информационно-коммуникационные технологии в обучении иностранным языкам. Тезисы докладов I Международной научно-практической конференции. М., 2004 г., с.43-47
2. Мирзиёев Ш.М. Концепция развития системы народного образования до 2030 г. Национальная база данных законодательства ([www.lex.uz](http://www.lex.uz)), 29 апреля 2019 г.
3. Николаева Н. В. Образовательные квест-проекты как метод и средство развития навыков информационной деятельности учащихся//Вопросы Интернет-образования. 2002 г., № 7. – с 25-30.
4. Чудакова, А.О. Перспектива интерактивного метода «квест» в профессиональной подготовке студентов психолого-педагогического факультета [Текст] // А.О. Чудакова, С.О. Щелина // Молодой ученый. – 2014 г. - № 21. - с. 709-712.
5. Осяк С.А., Султанбекова С.С., Захарова Т.В., Яковлева Е.Н., Лобанова О.Б., Плеханова Е.М. Образовательный квест – современная интерактивная технология // Современные проблемы науки и образования. – 2015. – № 1-2.; с.14-18
6. Писнова, О. Ю. Квест-игра как технология интерактивного обучения при формировании исследовательской активности учащихся // Инновационные педагогические технологии : материалы IX Междунар. науч. конф.- Казань : Молодой ученый, 2019 г. -с. 8-11.
7. Полат Е.С., Бухаркина М.Ю., Моисеева М.В., Петров А.Е. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования / Учеб. пособие для студ. пед. вузов и системы повыш. квалиф. пед. кадров / под ред. Е. С. Полат – М.: Издательский центр «Академия», 2001,- 240 стр.
8. Шаматонова Г. Л. Интернет-технологии в современном образовательном процессе: учебно-методическое пособие / Г. Л. Шаматонова, А. А. Власова, Ю. Н. Зарубина; Яросл. гос. ун-т им. П. Г. Демидова. — Ярославль: ЯрГУ, 2017. - 40 с.

**AZOTLI YUQORI MOLEKULYAR BIRIKMALAR BO‘LIMINI  
O‘QITISHDA DIFFERENSIAL YONDASHUV ASOSIDA PEDAGOGIK  
TEXNOLOGIYALARINING QO‘LLANILISHI**

**Movlonova S. A. – Toshkent davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada nisbatan qiyin o‘zlashtiriladigan mavzu oqsillar, nuklein kislotalar, polimerlar mavzularini o‘qitishda pedagogik texnologiyalarni qo‘llash bayon etilgan. «Zakovatli zukko» metodi talabalarda tezkor fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish, shuningdek, ularning tafakkur tezliklarini aniqlashga yordam beradi. “Venn diagrammasi”- grafik ko‘rinishda bo‘lib olingan natijalarni umumlashtirib, differensial yondashuv asosida o‘qitish jarayonida bilim darajalari bir-biridan farq qiluvchi guruhlar alohida topshiriqlar tuzilgan.

**Kalit so‘zlar:** oqsillar, peptid bog‘, polimerlar, denaturatsiya, riboza, dezoksiriboza, sifat reaksiya, zakovatli zukko, organik kimyo, qiyin o‘zlashtiriladigan mavzu.

**ДИФФЕРЕНЦИАЛЬНЫЙ ПОДХОД К ПРИМЕНЕНИЮ  
ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ ИЗУЧЕНИИ ГЛАВЫ  
«АЗОТСОДЕРЖАЩИЕ ВЫСОКОМОЛЕКУЛЯРНЫЕ СОЕДИНЕНИЯ»**

**Мовлонова С. А. – преподаватель Ташкентского государственного педагогического университета**

**Аннотация.** В статье описывается использование педагогических технологий в преподавании относительно сложных тем, таких как белки, нуклеиновые кислоты, полимеры. «Интеллектуальный» метод помогает студентам развить навыки быстрого мышления, а также определить скорость своего мышления. «Диаграмма Венна» - используется при анализе и исследовании двух и более предметов, на основе дифференцированного подхода были созданы отдельные задания для групп с разным уровнем знаний в процессе обучения.

**Ключевые слова:** белки, пептидные связи, полимеры, денатурация, рибоза, дезоксирибоза, качественная реакция, интеллектуальный, органическая химия, сложная тема.

**DIFFERENTIAL APPROACH TO APPLICATION OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGICAL PROCEEDINGS CHAPTER «NITROGEN-CONTAINING HIGH-MOLECULAR COMPOUNDS»**

**Movlonova S. A.** teacher of TSPU named after Nizami

**Annotations.** This article describes the use of pedagogical technologies in the teaching of relatively difficult topics such as proteins, nucleic acids, and polymers. The "smart" method helps students to develop quick thinking skills, as well as to determine their thinking speed. Venn diagram is a graphical summary of the results, based on a differential approach to individual tasks for groups with different levels of knowledge in the teaching process.

**Key words:** proteins, peptide bonds, polymers, denaturation, ribose, deoxyribose, qualitative reaction, intellectual, organic chemistry, a difficult topic to master.

O‘zbekiston Respublikasining Ta’lim to‘g‘risidagi Qonunining yangi tahriri 2020-yil 23-sentabrda qabul qilindi. Unda avvalgi qonun doirasida ta’lim olish shakllarining tasnifi kengaytirildi, ishlab chiqarishdan ajralgan (kunduzgi) va ajralmagan holda (sirtqi, kechki, masofaviy) kabi yangiliklar qayd etildi[1].

Nazariy ta’lim tashkiloti negizida, amaliy ta’lim oluvchining ish joyida olib boriladigan dual ta’lim, oilada ta’lim olish va mustaqil ta’lim olish; organik kimyo fanini o‘qitishda DTSning malaka va talablarini, unda belgilangan bilim, ko‘nikma va malaka talablarni egallash va uni amalda qo‘llay olish hozirgi kunning muhim sohalaridan biridir. O‘qituvchi faoliyati davomida uchraydigan turli yo‘nalishdagi qiyinchiliklarni yengishda, ya’ni yakka tartibda, hamkorlikda, juftlikda va guruhlarda ishlash kabi texnologiya va metodlardan foydalanish jarayonida talabani shaxs sifatida shakllanib borishida tayanch vazifani oldiga maqsad qiladi. Organik kimyo fanida kimyoviy bilimlarni egallashda o‘qituvchi interfaol metodlardan mavzuga oid tushunarli va maqsadni oxirigacha sodda qilib o‘rgatish, fanni o‘rgatishda metodlarni o‘rinli tanlay bilishi muhim hisoblanadi. O‘qituvchi interfaol metodlardan, avvalo, oddiydan murakkabga o‘tish nazariyasiga amal qilgan holda foydalanishi zarur.

Ushbu nazariyaga asosan dars jarayonida qo‘llanilayotgan metodlar organik kimyo fanini o‘qitish jarayonida bir qancha qiyinchiliklar yuzaga keltiradi.

Organik kimyo fanining oqsillar, nuklein kislotalar va polimerlar mavzularini o‘qitish jarayonida differensial yondashuvni joriy etish bilim darajasi turlicha bo‘lgan talabalarning bilim darajasini kengayida katta ahamiyatga ega. Mazkur mavzuni o‘qitish jarayonida differensial yondashuv asosida savol-javoblar qilish muhim ahamiyatga ega.

«Zakovatli zukko» metodi - mavjud bilimlarni puxta o‘zlashtirishda talabalarni fikrlash, tafakkur yuritish layoqatlariga egaliklari muhim ahamiyatga ega, «Zakovatli zukko» metodi talabalarda tezkor fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish, shuningdek, ularning tafakkur tezliklarini aniqlashga yordam beradi. Metod o‘z xohishlariga ko‘ra shaxsiy imkoniyatlarini sinab ko‘rish istagi bo‘lgan talabalar uchun qulay sharoit yaratadi. Ular o‘qituvchi tomonidan berilgan savollarga qisqa muddatlarda to‘g‘ri va aniq javob qaytara olishlari zarur. Savollarning murakkablik darajasiga ko‘ra har bir savolga qaytarilgan to‘g‘ri javob uchun ballar belgilanadi. Yakuniy ballarning o‘rtacha arifmetik qiymatini topish asosida talabalarning tafakkur tezligi aniqlanadi. Ballar belgilanishi talabalarning shaxsiy imkoniyatlari to‘g‘risida aniq tasavvurga ega bo‘lishlarini ta‘minlaydi. Metod talabalar bilan yakka tartibda, guruhli va ommaviy ishlashda birdek qo‘llanilishi mumkin.

«Zakovatli zukko» metodi uchun tayyorlangan savollar:

### **A guruh (Ijodiy guruh)**

1. Peptid bog‘ nima?

(Bir aminokislotaning karboksil guruhi ikkinchi aminokislotaning amino guruhi bilan o‘zaro reaksiyaga kirishi natijasida hosil bo‘ladigan bog‘ peptid bog‘ deyiladi)

2. Oqsillarning birlamchi strukturasi nimalardan iborat? (Peptid bo-larning hosil bo‘lishi)

3. Oqsillarning o‘z nativ holatini yo‘qotishi nima? (Denaturatsiya)

B guruh (Izlanish)

4. Oqsillarga xos sifat reaksiyalariga nimalar kiradi?

(Ksantoprotein, Ningidgin, Biurit reaksiyalari)

5. Oqsillarning himoya funksiyasi nima?

(Tabiiy va sun‘iy immunitetlarning antitellalarining asosini oqsillar tashkil etadi)

6. Almashinadigan aminokislotalarga qaysi aminokislotalar kiradi?

(gliin, alanin, glutamin kislota, asparagin kislota, serin, sistin, sistein, tirozin, prolin, oksiprolin, arginin)[5].

### **C guruh (Reproduktiv)**

7. Ksantoprotein reaksiyasining mohiyati nimada? (Oqsillar nitrat kislota ta‘sirida sarg‘ayadi, keyin unga ammiak ta‘sir ettirilsa, sariq rang pushti rangga aylanadi. Bu oqsillardagi aromatik xalqaning mavjudligini ko‘rsatadi.)

8. Gemogloblin nima? (Murakkab oqsil sanalgan xromoproteyidlar vakili gemogloblin. U kislorod tashish vazifasini bajaradi.)

9. Oltingugurt tutgan aminokislotalarni aniqlash maqsadida qaysi reaksiya qo‘llanadi? (Foli reaksiyasi. Bu reaksiyada ishqoriy muhitda qo‘rg‘oshin tuzlari ta‘sirida qora rangli qo‘rg‘oshin sulfid PbS hosil bo‘ladi)

«T- chizmalar» usuli. T-chizma munozara vaqtida qo‘shaloq javoblar (ha/yo‘q, tarafdor/qarshi, ijobiy/salbiy) yoki taqqoslash, zid javoblarni yozish uchun universal grafik organayzer hisoblanadi [2].

Masalan, Polimer moddalar va ularning ishlatilishi haqida ma’lumot beriladi. Talabalar T- chizmani chizib, uning chap tomoniga polimer mahsulotlarning ijobiy tomonlarini berilgan vaqt davomida aks ettirishadi. So‘ngra shuncha vaqt ichida bu fikrga qarshi bo‘lgan fikrlarni, ya’ni Polimer moddalarning salbiy tomonlarini ko‘rsatib o‘tishadi. Buni quyidagi shaklda berish mumkin:

Polimer moddalarning ijobiy va salbiy tomonlari :

Ijobiy	Salbiy

Mazkur metod qo‘llanganda A (ijodiy), B (izlanish) va S (reproduktiv) guruhlar o‘z bilim darajasidan kelib chiqqan holda mavzu yuzasidan bilimlarini ifodalaydilar. O‘qituvchi fikrlarni umumlashtirgan holda umumiy xulosa qiladi.

Ijobiy	Salbiy
Yengil, qayishqoq, arzon, qulay, tashqi ta’sirlarga chidamli, issiqlikni yaxshi o‘tkazadi, korroziyaga chidamli, estetik jihatidan chiroyli	Ranglash uchun ishlatiladigan sintetik ranglar, masalan Sr, Cr elementlaridan hosil qilingan ranglar zaharli. Turli aminoantraxin va azoranglovchi birikmalar jigar, buyrak va markaziy asab sistemasining normal ishlash faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Chiqindi mahsulot sifatida atrof - muhitga ta’sir qiladi [3]

“Venn digrammasi”- grafik ko‘rinishda bo‘lib olingan natijalarni umumlashtirib ulardan bir butun xulosa chiqarishga ikki va undan ortiq predmetni tahlil qilish va o‘rganishda qo‘llaniladi. Diagramma ikki va undan ortiq aylanani kesishmasidan hosil bo‘ladi. “Venn diagrammasi”ni amalga oshirish bosqichlari:


1-bosqich. O‘quvchilar (sheriklari bilan) ikki doirani to‘ldiradilar. Har bir doiraga ikki tushuncha e’tiborli tomonlari sanab o‘tiladi.

2-bosqich. O‘quvchilarni kichik guruhlariga(4-5 kishidan iborat) birlashtirib diagrammalarni taqqoslaymiz va to‘ldiramiz.


3-bosqich. Kichik guruh o‘quvchilariga bu tushunchalarning umumiy xossalarni aniqlashni taklif etamiz.

4-bosqich. Biror bir guruh vakili har bir tushunchaning o‘ziga xos tomonlarini o‘qiydi. Boshqalar zarurat bo‘lganda uni javobini to‘ldiradi.

5-bosqich. Boshqa guruh vakili ikki tushunchani birlashtiruvchi(umumiy) xususiyatlarini o‘qiydi. Boshqalar zarurat paydo bo‘lganda bu javobni to‘ldiradilar.[6]



Talabalarga Venn diagrammasini to'ldirish uchun vaqt beriladi. DNK va RNK ning farqli va o'xshashlik tomonlarini yozib to'ldirishadi



Differensial yondashuv asosida o'qitishda talabalarning mavzuga nisbatan qiziqishini oshirish maqsadida bir necha pedagogik metodlarning qo'llanilishi katta ahamiyatga ega. Turli bilim darajasiga ega talabalar mazkur mavzuni o'qish jarayonida o'z bilim darajasiga mos topshiriqlar orqali bilimlarini yanada oshirishlari mumkin.

### Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi O'QRQ-637-son Qonun hujjatlari ma'lumotlar milliy bazasi. 23.09.2020.
2. H.T.Omonov, N.X.Xo'jayev, S.A.Madyarova, E.U.Eshchonov "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat". T.-"Iqtisod-Moliya", 2009- yil.
3. A.Abdusamatov, Organik kimyo. Toshkent: "O'qituvchi", 2002.-242-bet.
4. Z.Sobirov, Organik kimyo. Toshkent: "O'zbekiston" 1999-y, 374-bet
5. Abdugaffor Mutalibov, Organik kimyo. Toshkent: «Gafur Gulom», 2018-y, 160-bet
6. Sh.X.Shomurotova, Sh.B.Farmonova, N.I.Kamolova, S.A.Movlonova. Improving the Methodology of Teaching the role of metals in Biochemical Processes using Pedagogical Texnologies . Engineering a Management Test. Volume 83. May-June 2020. P:-26638-26645.



## **BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI SIFATLI TAYYORLASHNING ZARURIY SHARTI SIFATIDA IJODIY QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH**

**Mamatqulova M.V. - Qo‘qon davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o‘qituvchi professiogrammasi, uning mustaqil va ijodiy fikrlashning eng muhim komponentlaridan biri ekanligi, pedagogika va psixologiya sohasidagi mutaxasislarning pedagogik mahorati, pedagogik qobiliyat va pedagogik ijodning mohiyati, mazmuni to‘g‘risidagi fikrlari to‘liq va aniq ochib berilgan. Bo‘lajak o‘qituvchilarning sifatli tayyorlashning zaruriy sharti sifatida ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish usullari va nazariy asoslari yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** professionalizm, professiogramma, pedagogik mahorat, pedagogik qobiliyat, pedagogik ijod, dinamizm, intuitiv, konstruktiv, kommunikativ, emotsional, kreativlik, kompetentlik, intellektual.

## **ФОРМИРОВАНИЕ ТВОРЧЕСКИХ ТАЛАНТОВ КАК НЕОБХОДИМОЕ УСЛОВИЕ КАЧЕСТВЕННОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ**

**Маматкулова М.В.- Преподаватель Кокандского государственного педагогического института**

**Аннотация.** В данной статье рассматривается профессия учителя, одним из важнейших компонентов которой является самостоятельное творческое мышление, полно и наглядно раскрываются взгляды специалистов в области педагогики и психологии на педагогическую деятельность, педагогические способности, а также на сущность и содержание педагогического творчества. Выделены методы и теоретические основы формирования творческих способностей, как необходимое условие качественной подготовки будущих учителей.

**Ключевые слова:** профессионализм, профессия, педагогическое мастерство, педагогические способности, педагогическое творчество, динамизм, интуитивный, конструктивный, коммуникативный, эмоциональный, креативность, компетентность, интеллектуальный.

## **FORMATION OF CREATIVE TALENTS AS A NECESSARY CONDITION OF QUALITATIVE TRAINING OF FUTURE TEACHERS.**

**Mamatkulov M.V. - Lecturer at the Kokand State Pedagogical Institute.**

**Annotation.** This article fully and clearly reveals the views of the teacher profession, one of the most important components of independent and creative thinking, pedagogical skills of pedagogical and psychological experts, the essence and content of pedagogical ability and pedagogical creativity. Methods and theoretical foundations for the formation of creative abilities as a prerequisite for quality training of future teachers are described.

**Key words:** professionalism, profession, pedagogical skills, pedagogical abilities, pedagogical creativity, dynamism, intuitive, constructive, communicative, emotional, creativity, competence, intellectual.

Hal qilinayotgan muammolar murakkabligi, o'qituvchidan talab qilinadigan sifatlarning ko'p sonliligi, unga jamiyat tomonidan yuklanadigan mas'uliyatning darajasiga ko'ra o'qituvchi kasbi boshqa, o'zining yaratuvchanlik mohiyatiga ko'ra yerdagi mavjud bo'lganlar orasida eng asosiysi – insonni takomillashtirishga qaratilgan barcha kasblar orasida eng qiyini va eng oliyjanobi sanaladi. Bugungi kunga kelib, o'qituvchi professionmasini tuzish bo'yicha anchagina boy tajriba to'plangan. U o'qituvchiga qo'yiladigan kasbiy talablarni uchta asosiy kompleksga birlashtirish imkonini beradi. Bular: umumfuqarolik sifatlari; o'qituvchi kasbining o'ziga xosligini belgilovchi sifatlari; fan (ixtisoslik) bo'yicha maxsus bilim, malaka va ko'nikmalar.

XXI asr o'qituvchisining obrazini tasavvur qilishga urinishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, V.I.Andreyev pedagogning ideal shaxsi tasvirini keltiradi: uning fikricha ziyoli shaxs, ma'nan boy shaxs, ijodkor shaxs, insonparvar shaxs, erkin shaxs, faol fuqaro, raqobatbardosh shaxs, madaniyat kishisi va tarbiyachilik, o'qituvchilik, metodik, tadqiqotchilik ishini yuqori darajada bajaradigan shaxsni birlashtiradi [1].

Zamonaviy adabiyotlarda pedagogning professionalizmi ko'pincha professional – pedagogik madaniyat tushunchasi bilan bog'lanadi. Uning strukturasi turli: ijtimoiy-pedagogik, ilmiy-pedagogik, shaxsiyatli (pedagogik pozitsiya, kasbiy malakalar, xulq, ijoddagi yutuqlarning integratsiyasi) darajalardan iborat. Pedagogik madaniyatni oshirishning eng ta'sirli omili va stimuli ham o'qituvchi va pedagogika oliy o'quv yurt talabasining pedagogik ijodga jalb qilinganligi, produktiv o'z - o'zini namoyon qilishga, innovatsion faoliyatga, tadqiqotchilik izlanishiga jalb etilganligi sanaladi.

O'qituvchining kasbiy sifatlari haqidagi turli fikrlarni o'rganishdan ko'rinadiki, mustaqil va ijodiy fikrlash o'qituvchi professiogrammasining hozirgi sharoitdagi doimiy va eng muhim komponentlaridan biri sanaladi. Buni professionalizm masalalari bilan shug'ullanadigan psixologlar ham ta'kidlaydi. «Odam - odam» tipidagi kasb vakillari bilish faoliyati xususiyatlarini tadqiq qilishda kuzatiladiki, nostandart vaziyatlar sotsiumining normal stixiyasi sanaladi. Shu sababli bu tipdagi kasblar aqlning ijodiy tuzilishi, aniq tasavvur qilish, odamlar xatti – harakatining ehtimoliy oqibat variantlarini, ularning nizolari, qarama – qarshiliklari yoki, aksincha, birlashishlarining ehtimoliy yakunini modellashtirish qobiliyatiga ega bo'lishni muqarrar talab qiladi.

Pedagogik mehnatning ijodiy tadqiqotchilik xarakteriga o'tmishning buyuk pedagoglari (A.Disterveg, Y.A.Komenskiy, I.G.Pestaloti), va psixologlari (P.P.Blonskiy, A.S.Makarenko, V.A.Suxomlinskiy, K.D. Ushinskiy, S.T.Shatskiy) ham e'tibor qaratgan. K.D.Ushinskiy pedagogning ishi boshqa har qanday ishdan ko'ra ko'proq ko'tarinkilikka muhtojligini ta'kidlagan. P.P.Blonskiy fikricha, yangi maktab -o'qituvchining o'zining hayot va ijod maktabi. S.T.Shatskiy ta'kidlashicha, ta'lim jarayoni bolalar kabi jonli, faoliyatli, bir shakldan boshqasiga o'tadigan, harakatlantiruvchi, izlovchi bo'lmag'i kerak.

Bir necha o'n yillikdan beri alohida tushuncha – pedagogik mahorat mavjud. Pedagogik ijodning obyektiv zarurati haqida gapirish mumkin, hal qilinayotgan vazifalarning murakkabligi va serqirraliligi, konkret pedagogik vaziyatlarning favqulodda xilma – xilligi bunga asos bo'ladi.

Keyingi yillarda pedagogika va psixologiyada pedagogik ijodning mohiyatini aniqlashtirishga (Y.P.Azarov, F.N.Gonobolin, M.Y.Vilenkin, V.I.Zagvyazinskiy, S.N.Zaytseva, V.A.Kan Kalik, N.V.Kuzmina, N.D.Levitov, N.D.Nikandrov, I.P.Rachenko, A.I.Shcherbakov), bo'lg'usi o'qituvchilarni kasbiy-ijodiy faoliyatga tayyorlashning nazariy asoslarini ishlab chiqishga (V.I.Andreyev, Y.K.Babanskiy, V.V.Krayevskiy, V.A.Slasyonin va b.) bag'ish-lang'an qator tadqiqotlar amalga oshirildi [2].

Fikrimizcha, sintezlovchi ta'riflar pedagogik ijod mohiyatini tobora to'liq va aniq ochib beradi. Masalan, pedagogik ijod, avvalo, pedagogning o'quv – tarbiya ishlarining yanada ratsional yo'llarini izlashga qaratilgan faol mehnat jarayoni, pedagogik muammolarning samarali yechimi. Bu pedagogik faoliyatning shunday holatiki, unda o'qituvchi ko'p narsani ko'r – ko'rona olmay, balki tekshiradi, tadqiq qiladi, izlaydi va fan hamda amaliyotda erishganlari asosida loyihalashtiradi o'z tajribasini yaratadi .

Pedagogik ijodning namoyon bo'lish sohasi pedagogik faoliyatning asosiy komponentlari strukturasi bilan belgilanadi va uning amalda barcha tomonlarini: rejalashtirish, tashkil qilish, realizatsiyalash va natijalarni tahlil qilishni qamrab oladi.

Ijodning boshqa ko‘plab (ilmiy, badiiy, texnik) turlari bilan umumiylikka ega bo‘lgan pedagogik ijod ma‘lum o‘ziga xosliklarga ham ega. Pedagogik ijodning o‘ziga xosliklarini qator mualliflar (V.I.Zagvyazinskiy, A.F.Ivanov, I.I.Leytman, V.A.Kan-Kalik, N.V.Kuzmina, N.D. Nikandrov va boshqalar) tahlil qilib berishgan [3].

Pedagogik ijodning o‘ziga xosliklaridan biri pedagogik ijodning mazmuni hamisha betakror, noyob bo‘lgan insonni yaratishdan iborat ekanidadir. Bundan tashqari, pedagogik ijod individual xarakterga ega va hisobga olinishi va tarqalishi yomon kechadi. O‘qituvchi bolalar bilan yolg‘iz ijod qiladi va o‘z ijodiy muvaffaqiyatlari va topilmalarini qayd etishga hamisha ham vaqt va imkon topa olmaydi.

Pedagogik ijod dialektik xarakterga ega. O‘qituvchi o‘quvchilarning o‘sish va rivojlanishi jarayonida doimiy o‘zgarib turadigan sharoitda ijodkorlik qiladi. Pedagogik ijod jarayoni doimiy o‘z-o‘zini tahlil va o‘z-o‘zini baholashni talab qiladi. Biroq ijodiy harakatning dinamizmi bu kabi tahlil uchun hamisha ham vaqt qoldiravermaydi, ko‘pincha u intuitiv darajadagi qarorlar bilan almashtiriladi.

Pedagogik mehnatning o‘ziga xosliklari sirasiga uning natijalarini uzoq kutish kerakligi va ular haqida faqat qisman yakunlar bo‘yicha mulohaza yuritish mumkin ekanligi kiradi. Bu o‘ziga xoslik o‘qituvchi shaxsiga talablar qo‘yadi: u pedagogik ta’sir oqibatlarini bashorat qila bilishi, muntazam ravishda kundan kunga maqsadli «ijod qilish» qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim.

Pedagogik ijod o‘quv – tarbiya jarayoni bilan uyg‘unligi bois u doimo ijobiy natijalar berishi kerak. Salbiy natijalarga faqat xayoliy sinovlar va taxminlarda yo‘l qo‘yiladi, farazlarni tekshirishning qarama – qarshisidan kelib chiqib isbotlash kabi usullariga o‘qituvchining amaliy faoliyatida mutlaqo yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi.

Pedagogik ijodning eng muhim o‘ziga xosligi uning ham tarbiyalanuvchilarning ham butun pedagogik jamoaning ijod jarayoni bilan bog‘liqligi sanaladi. Pedagogik jamoa, ijodiy jamoa bo‘lib, o‘z muhitida doimiy yuzaga keladigan ziddiyat va nizolarga ega bo‘lmasligi mumkin emas. Nizoli vaziyatlar va ziddiyatlarni bartaraf etish tanqid va o‘z – o‘zini tanqidni rivojlantiradi, pedagogik vazifalarni hal qilishning yangi yo‘llari va vositalarini izlashga majbur etadi, bu esa ijodiy jarayon sanaladi.

Sanab o‘tilgan xususiyatlarning ko‘pchiligini: vaqt zahirasi yo‘qligi, natijalarning uzoq kutilishi, xatolarga yo‘l qo‘yib bo‘lmasligi, tarqatishning (ommalashtirishning) qiyinligini pedagogik ijodning qiyinchiliklari sirasiga kiritish mumkin. Biroq pozitiv holatlar ham yo‘q emas. Ijod obykti va pedagogik jamoa bilan hamkorlikda ijod qilish katta rag‘batlantiruvchi potensialga ega, bu pedagogni o‘z ijodiy faoliyati doirasini kengaytirish va shaxsiy sifatlarini faol namoyon qilishga undaydi.

Ijod butun pedagogik faoliyatni shunchaki qamrab olmasdan, balki o'qituvchining professionalizmi mezonlaridan biri sanaladi ham (A.K.Markova). Bu fikrni professionalizmning psixologik adabiyotlarda mavjud ta'rifi ham tasdiqlaydi. O'qituvchining o'z faoliyatiga ijodiy munosabati darajasini aniqlabgina uning mehnat mazmuni va tashkil qilinishini to'g'ri baholash mumkin. Pedagogik ijodning uchta darajasini farqlaydilar: kashfiyotlar (yangi pedagogik g'oyalarni ilgari surish va o'quv – tarbiya ishining konkret tizimida amalga oshirish); ixtirolar (pedagogik sistemalarning ayrim elementlarini, ta'lim va tarbiya vositalari, metod va sharoitlarini o'zgartirish va konstruksiyalash); takomillashtirishlar (ta'lim va tarbiyaning ma'lum bo'lgan metod va vositalarini modernizatsiyalash va konkret sharoitlarga moslashtirish).

Pedagogik ijod uchun zarur bo'lgan shaxsning xususiyatlarini ta'riflashda mualliflar asosan ikki yo'nalishdan boradilar:

1.O'qituvchi professiogrammasi bilan aynan bir narsa deb hisoblash. V.I.Zagvyazinskiy pedogog – ijodkorga xos sifatlarni yoritib beradi: yuqori darajadagi ilmiy va kasbiy kompetentlik; rivojlangan pedagogik tafakkur; ijodiy izlanishga intilish; pedagogik texnikani egallaganlik; ma'lum pedagogik tajriba; intellektual malakalar, tasavvur va intuitsiyaning yetarli darajada rivojlanganligi.

Ijodiy qobiliyatlar strukturasi ergashish. S.S.Zorin, N.Y. Postalyukning ijodiy qobiliyatlar klassifikatsiyasini amalda to'liq takrorlaydigan o'qituvchining ijodiy faoliyati uslub hosil qiluvchi ko'p qirralarini ko'rsatib, faqatgina ijod, bilimlar va mahorat darajasini; ijodiy intuitsiya bilan uyg'unlashgan refleksiyaning qo'shadi. S.S.Zorin fikricha, pedagogik ijod darajasi refleksiya asosida shakllanadigan o'qituvchi faoliyatining ijodiy uslubiga bog'liq bo'ladi. Fikrlashning tanqidiyligi; o'z nuqtayi nazarini asoslash; materialni muammoli bayon qilish; munozara yurita olishga qodirlik; o'z -o'zini boshqarish qobiliyati; o'qituvchining qobiliyatlariga shaxsli yondashuv; shaxsning yo'nalganligini o'qituvchining refleksiv ijodiy faolligining asosiy ko'rsatkichlari sifatida e'tirof etadi.

Ikkinchi yo'nalish asosliroq sanaladi, zero psixologiyada mavjud professionalizm haqidagi tasavvurlarga mos keladi. A.K.Markova shaxsning professional ijodi rivojlanishi uchun zarur sifatlarini ko'rsatib beradi: boshqalar ko'rmagan o'rinda muammoni ko'ra bilish; muqobillarni ko'ra olish; bir masaladan boshqasiga tez ko'chish, subyektiv o'xshatish qobiliyati; umum tomonidan qabul qilingan yangilikka tanqidiy munosabat, ma'lum bo'lgan elementlardan yangi kombinatsiyalar tuza olish qobiliyati. Sanab o'tilgan sifatlar ijodiy qobiliyatlarga mos keladi.

Shunga qaramay, pedagogning kommunikativ – ijodiy qobiliyatlariga alohida e'tibor qaratiladi. Bu sohada asosiy yondashuvlar quyidagilardan iborat:

- pedagogik ijod doirasida kommunikativ – ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish (V.I.Andreyev);

- pedagogik muloqotda ijodkorlikni o‘rganish (V.A.Kan-Kalik). V.A.Kan-Kalikning fikricha, o‘qituvchi namoyon qilgan muloqotdagi ijod beshta malakadan tarkib topadi, bular: informatsiyani yorqin va obrazli bera olish; tashqi ko‘rinishidan o‘quvchining psixik holatini tushuna bilish; bolalar bilan o‘zaro munosabatlarni mohirona qurish va rivojlantirish; sherigiga mohirona ta’sir ko‘rsatish va u bilan o‘zaro hamkorlik qilish; o‘zining ruhiy holatlarini boshqarish, psixik to‘siqlarni bartaraf qilish va optimist bo‘lish. Muallif o‘qituvchi oldida turgan kommunikativ vazifalarni, muloqot strukturasi va uni boshqarishni to‘siqlar va kommunikativ ilhom (ko‘tarinkilik)ning rolini batafsil o‘rganadi.

Xamkorlik pedagogikasi doirasida o‘quvchilar bilan o‘zaro munosabatlarda ijodiy uslubni o‘rganish (N.A.Lochnikova). pedagoglar va o‘quvchilarning o‘zaro munosabatlari turli uslublari orasida N.A.Lochnikova tobora samarali – ijodiysini ajratadi va uni nozik tanlov yoki mavjud sharoitlarda maqsadga erishish uchun tobora samarali bo‘lmish o‘zaro munosabatlarning yangi usullari yig‘indisini yaratish sifatida ta’riflaydi.

Tadqiqotimiz nuqtayi nazaridan olganda, N.YE.Kuzminaning pozitsiyasi e’tiborga molik. Kreativlik, olimaning fikricha, shaxsiy kognitiv va ijtimoiy – psixologik jihatlariga ega. U xulq – atvorning yangi usullarini topish, konstruktiv va nostandart qarorlar qilish, o‘z tajribasini anglash va rivojlantirish imkonini beradi.

Kreativlik parametrlari: xulq – atvor usullari haqida ko‘plab g‘oyalarni generatsiyalash va ularni muloqotda realizatsiyalashga qodirlik; xulq – atvor strategiyalarini o‘zgartirishga qodirlik; bir yoqlama bo‘lmagan, paradoksal fikrlarga qodirlik. Emotsional sohada – holatlarning bir qutbidan qarama - qarshisiga o‘tishga moyillik va shaxsiy planda ustuvor – oldindan aytib bo‘lmaslik, yumor hissi, tanqidiylik, ochiqlik, o‘z tajribasini refleksiylash va o‘zgarishlarga tayyorlik.

Demak, yakun yasaymiz. Pedagogik mehnatning ijodiy xarakteri o‘tmishning mashhur pedagoglari tomonidan ham e’tirof etilgan, ijodiy tarkibiy qism o‘qituvchining professiogrammasida doimo mavjud bo‘lgan, «pedagogik ijod» tushunchasi yuzaga kelgan va iste’molda barqaror o‘rnashib qolgan. Ijod o‘qituvchi professionalizmining eng muhim mezonlaridan sanaladi. Qolaversa, kasbiy ijod uchun zarur deb ta’kidlanadigan sifatlar asosan shaxsning ijodiy qobiliyatlari bilan mos keladi. Pedagog uchun, shuningdek, kommunikativ – ijodiy qobiliyatlarning roli muhim ekani ta’kidlanadi. Demak, o‘qituvchi pedagogik ijodda yuqori cho‘qqilarni zabt etishi uchun quyidagi mantiqiy zanjirni o‘tish zarur: shaxsning umumiy ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish – pedagogik ijod qobiliyatlarini kuchaytirish – pedagogik faoliyatda professionalizmga yaqinlashish. Shu tariqa, shaxsning ijodiy

qobiliyatlarini shakllantirish, bo'lg'usi o'qituvchining sifatli kasbiy tayyorgarligi zaruriy sharti sifatida namoyon bo'ladi.

### **Adabiyotlar**

1. Андреев В.И. Диалектика воспитания и самовоспитания творческой личности. Казань: Изд-во Казан. ун-та, 1988 - 238 с.
2. Гоноболин Ф.И. Книга об учителе. М.: Просвещение, 1965. - 260 с.
3. Кан-Калик В.А. Учителю о педагогическом мышлении: Кн. для учителя. -М.: Просвещение, 1987. 190 с.
4. Кормен Т., Лейзерсон Ч., Ривест Р. Алгоритмы: Построение и анализ. - М.: МЦНМО, 2001. 960 с.
5. Дроздикова Л.Н. Творческая самореализация старшеклассников в условиях системно-целевой дифференциации обучения// Дисс. канд. пед. наук. Казань, 1998. - 194 с.

## **6-SINF O'QUVCHILARINING O'QIB TUSHUNISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA MATN USTIDA ISHLASHNING AHAMIYATI**

**Mambetova L.M. – Toshkent davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada jahon va o'zbek tilshunoslarining matn, matn turlari, matn yaratish va matn ustida ishlashga doir tadqiqot ishlari tahlil qilindi. 6-sinf ona tili darsligida berilgan matnlar va matnlar asosida tuzilgan topshiriqlar ustida ishlash o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi yoritildi.

**Kalit so'zlar:** matn, matn ustida ishlash, mazmuniy va grammatik bog'lanish, mashq, nutqiy kompetensiya, o'qib tushunish, og'zaki va yozma nutq, sintaktik birlik, topshiriq.

## **ЗНАЧЕНИЕ РАБОТЫ НАД ТЕКСТОМ В РАЗВИТИИ НАВЫКОВ ПОНИМАНИЯ ПРОЧИТАННОГО УЧАЩИХСЯ 6 КЛАССА**

**Мамбетова Л.М. - докторант Ташкентского государственного педагогического университета**

**Аннотация.** В данной статье были проанализированы исследовательские работы мировых и узбекских лингвистов по тексту, типам текста, созданию текста и работе над текстом. Работа над заданиями, построенными на основе текстов, приведенных в учебнике родного языка 6 класса, была освещена как важная в развитии речевых компетенций учащихся.

**Ключевые слова:** текст, работа над текстом, содержательно-грамматическая связь, упражнение, речевая компетенция, понимание прочитанного, устная и письменная речь, синтаксическая единица, задание.

## **THE IMPORTANCE OF WORKING ON TEXT IN DEVELOPING READING COMPREHENSION SKILLS OF 6TH GRADE PUPILS**

**Mambetova L.M. – PhD student at Tashkent State Pedagogical University**

**Annotation.** This article analyzes the research work of world and Uzbek linguists on text, text types, text creation and text processing. It highlighted that working on texts and assignments based on the texts given in the 6th grade mother tongue textbook is important in developing students' speaking competencies.

**Key words:** text, work on the text, semantic and grammatical connection, exercises, speech competence, reading comprehension, oral and written speech, syntactic unity, assignment.

Umumiy o'rta ta'limning ona tili fanidan davlat ta'lim standarti va o'quv dasturida umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ona tili fanini o'qitishning maqsadi – o'quvchilarda og'zaki va yozma nutq ko'nikmasini, ijodiy fikrlash malakasini, kitobxonlik va nutq madaniyatini rivojlantirish bo'lsa, ona tili fanini o'qitishning asosiy vazifasi qilib o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgaralar fikrini anglashga, o'z fikrini og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy (kommunikativ) kompetensiyani rivojlantirish; o'quvchilarda grammatikaga oid o'zlashtiriladigan bilimlarni (fonetika, leksikologiya, so'zning tarkibi, so'z yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalarni) rivojlantirish hamda ona tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda to'g'ri va ravon bayon eta olishni rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat ekanligi belgilab qo'yilgan [1].

Yuqorida belgilangan maqsad va vazifalar amaliyotda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ona tili ta'limi jarayonida tajribali o'qituvchilar tomonidan puxta rejalashtirilgan darslarda o'quv darsliklarida berilgan grammatik qoidalarni o'quvchilarga o'rgatish, mashq va topshiriqlarni bajartirish orqali amalga oshirilmoqda. Shu o'rinda o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda matn ustida ishlashning o'rni va ahamiyatiga to'xtalmoqchimiz. Tilshunoslikda matnning lisoniy birlik sifatida e'tirof etilishi natijasida ona tili dasturlariga matn va matn turlari bo'yicha mavzular kiritildi. Rus tilshunosi O.I.Moskalskaya matnni oliy yirik sintaktik butunlik, shu bilan birgalikda, til birligi, nutq birliklari ichida eng mustaqili deb ataydi [2]. Jahon tilshunosligida ta'riflanishicha, matn – nashr etilgan



asar; mazmuniy tugalikka ega bo'lgan yirik sintaktik birlik; xabarlar yig'indisi; nutq shakli; mazmuniy izchilikka ega bo'lgan bir necha sodda yoki qo'shma gaplar yig'indisidir [3].

Professor A.Nurmonov "Har qanday og'zaki va yozma nutq parchasi matn hisoblanadi. Matn mikromatnlarning o'zaro mazmuniy va grammatik bog'lanishidan hosil bo'ladi",-[4] deb ko'rsatadi. Professor A.Mamajonov e'tirof etishicha, "Matn tugallangan fikr anglatuvchi nutq ko'rinishi, ikkinchi tomondan bir butun poetik yoki prozaik asar, gazeta yoki jurnal maqolasi, ilmiy ma'ruza va bir butun asarning boblari, qismlari, xatboshilardir" [5].

Shuningdek, tilshunoslarimiz tomonidan matnli o'qitish, matn tuzish, matn ustida ishlashga doir bir qator ilmiy ishlar yaratilgan. T.Ziyodova matn yaratishning bosqichli tizimini ishlab chiqqan [6], B.O'rinboyev badiiy matnni lingvistik tahlil qilish zarurligini uqtirsa [7], A.G'ulomov ona tili mashg'ulotlarida matn ustida ishlash muhimligini ta'kidlaydi [8]. M.Omilxonova matn tarkibidagi gap bo'laklarini aniqlash ahamiyatli ekanligini aytadi [9]. M.Mirmaxsudova o'quvchilarni matn tahliliga tayyorlashga doir tadbirlarni ishlab chiqqan [10]. Tilshunos olim Sh.Yusupova o'quvchilar matn yaratish davomida quyidagilarni nazarda tutishlari shart ekanligini ta'kidlaydi: a) gaplar orasida "kontakt" va "distant" aloqalarni bilish; b) xatboshlarni o'rganish; v) sarlavhalar topish uchun mulohaza yurita olish; g) mantiqiylikka amal qilish; d) matnda keltirilgan fikrlar aniq, asosli bo'lishiga erishish; j) uni qismlarga ajrata olish va shu qismlardan butunlik hosil qilishni o'rganish; z) ziddiy fikrlar hosil qilib, uning to'g'risini topa olish, falsafiy kategoriyalarni matnda aks ettirib, uni izohlay bilish [11].

Umumiy o'rta ta'lim ona tili darsliklarida ham o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan ko'pgina mashqlarda matn va uning tahliliga qaratilgan topshiriqlar berilgan. Jumladan, 6-sinf "Ona tili" darsligida "Matn va mavzu", "Matn turlari. Hikoya matni", "Tasviriy matn" va "Muhokama matni" mavzularida berilgan "Iftixor", "Kompyuter", "Ninachi", "Qirqbo'g'im", "Sabzavot", "Yangi hovli", "Zumrad va Qimmat" kabi sarlavhali matnlar va boychechak, non qadri, ota, sovg'a, tabiat tasviri, tabiatni asrash, ustoz, vatan haqidagi sarlavhasiz matnlar hajmi va mazmuni jihatidan o'quvchilarning yoshiga mos tanlangan bo'lib, ushbu matnlar asosida tuzilgan:


- matnni tuzishdan ko'zlangan maqsadni aniqlashga harakat qiling;
- matndagi gaplarning bir-biri bilan bog'lanishiga e'tibor bering, gaplar orasidagi mazmuniy aloqadorlikni izohlashga harakat qiling;
- gaplarning bog'lanishiga xizmat qilayotgan grammatik va leksik vositalarni aniqlab, ular haqida o'z fikrlaringizni bayon qiling;
- matnni o'qing va matnning mavzusiga mos sarlavha toping;
- ertak matnining boshlanishini o'qing va uning davomini so'zlab bering;

- she’rda aks etgan manzarani tasvirlab nasriy matn tuzing;
- matnni o‘qing, uning mazmunini qayta hikoya qiling;
- berilgan mulohazalardan xulosa chiqarishga harakat qiling va mulohaza-xulosalar atrofida bahslashing kabi savol va topshiriqlar o‘quvchilarning ona tilidan olgan grammatik bilimlarini mustahkamlash bilan birga ularni mustaqil fikrlashga, o‘z fikrini og‘zaki bayon qilishga undaydi.

Biz 6-sinfda Ot so‘z turkumi bo‘yicha o‘tilganlarni mustahkamlash darslarida “Quyosh toji nima?” deb nomlangan matn ustida quyidagicha savol va topshiriqlar ustida ishlashni tavsiya qilamiz.

### QUYOSH TOJI NIMA?

Biror marta Quyoshning tutilgandagi suratini ko‘rganmisiz? Suratda Quyoshning qora gardishi atrofida notekis olov tillariga o‘xshash narsa ko‘zga tashlanadi va u toj deb ataladi.



Quyosh ham yulduzdir. Boshqacha aytganda, u o‘zidan nur taratadi. Albatta, buning uchun katta miqdordagi energiya — quvvat talab qilinadi. Quyosh bu quvvatni qayerdan oladi? Olimlarning fikricha, Quyoshning markaziy, eng issiq qismida joylashgan vodorod atomlari o‘sha quvvat manbaidir. Ular o‘sha qismda birlashib, termoyadro reaksiyasi natijasida geliy atomlariga aylanadi. Oqibatda katta miqdordagi energiya ajralib chiqadi va u Quyosh yuzasiga chiqib, yorug‘lik bo‘lib, fazoga tarqaladi. Quyosh, to vodorod zahiralari tugamaguncha, sizni bizning boshimiz uzra porlab turaveradi.

Bizning tasavvurimizda Quyosh nuri hamisha birday yorqinday tuyuladi. Aslida shundaymikin? Bu savolga javob shuki, Quyosh tuzilishi o‘ziga xos xususiyatga ega. Avvalo, u Yer singari qattiq jism emasligini unutmaslik kerak. Uning ekvatoridagi nuqta o‘q atrofida 29 kecha-kunduzda bir marta aylanib chiqsa, qutbdagi nuqtaga buning uchun 34 kecha-kunduz kerak bo‘ladi.

Quyoshning toj deb ataladigan tashqi qatlami yyengil va siyrak gazlardan iborat. Uning tashqi qismi oq tusda bo‘lib, shu’lalar taralib turadi. Bu shu’lalar millionlab kilometrarga cho‘zilgan bo‘lib, Quyosh yorqinligiga, oz bo‘lsa-da, sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Toj ostida Quyosh atmosferasining boshqa bir qatlami — xromosfera mavjud. Uning qalinligi 15 000 kilometrdir. Bu qatlam, asosan, vodorod va geliydan iborat. Unda vaqti-vaqti bilan protuberanslar — to‘satdan sovib ketgan ulkan modda **oqimi** paydo bo‘ladi va Quyosh tojiga yorib chiqadi. Protuberanslar, odatda, **balandligi** 1 500 000 kilometrlik ark ko‘rinishiga ega bo‘ladi. Ular ham Quyoshning nechog‘lik yorqin nur sochishiga ta’sir ko‘rsatadi.

Quyoshni o‘rab turgan qatlamlarning tavsifi, asosan, shudir. Ularning ostida nima borligi hozirgacha jumboq bo‘lib qolmoqda. <http://taqvim.uz/uz/news/>

1-savol. Quyosh haqidagi to‘g‘ri ma‘lumotni toping?

- A) Quyosh tojini faqat suratdagina ko‘rish mumkin.
  - B) Quyosh o‘z o‘qi atrofida turli qismda turlicha tezlikda harakat qiladi.
  - C) Quyosh toji quyoshning yorqin nur sochishiga ta‘sir ko‘rsatmaydi.
- Javob-B) Quyosh o‘z o‘qi atrofida turli qismida turlicha tezlikda harakat qiladi.

2-savol. Quyoshning toj deb ataladigan tashqi qatlami qanday tuzilishga ega?

- A) Bu qatlam, asosan, vodorod va geliydan iborat.
  - B) Bu qatlam yengil va siyrak gazlardan iborat.
  - C) Bu qatlam tunganmas yorug‘lik manbaidan iborat.
- Javob: B) Bu qatlam yengil va siyrak gazlardan iborat.

3-savol. O‘rtog‘ingizga quyoshning tuzilishini tushuntirmoqchisiz, siz quyidagi qaysi so‘zlardan foydalanib tushuntirsangiz ilmiy jihatdan ham to‘g‘ri bo‘ladi?

- A) qattiq jism, xromosfera, vodorod, geliy, yadro
- B) yorug‘lik manbai, quyosh toji, xromosfera
- C) vodorod atomi, geliy atomi, quyosh toji, xromosfera

Javob: C) vodorod atomi, geliy atomi, quyosh toji, xromosfera

4-savol. Matnda Quyosh so‘zi nima uchun gapning o‘rtasida kelganda ham bosh harf bilan yozilgan? Javobingizni daftarga yozing.

Javob: Yulduz va sayyorlar nomlari atoqli otlar hisoblanadi va bosh harf bilan yoziladi.

5-savol. Matndan turdosh otlarga kiruvchi o‘nta so‘zni topib daftaringizga yozing.

Javob: yulduz, toj, surat, olov, ko‘z, nur, quvvat, nur, tasavvur, shu‘la va h.k.

6-savol. Matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni asos va qo‘shimchalarga ajratib yozing, qo‘shimchalarni vazifasiga ko‘ra turini aniqlang.

Javob: oqimi - oq+im+i, balandligi - baland+lik+i, -im, -lik – ot yasovchi qo‘shimchalar; -i – sintaktik shakl yasovchi qo‘shimcha.

Ona tili darslarida bu kabi savol va topshiriqlardan foydalanish o‘quvchilarning darsda olgan bilimlarini mustahkamlashda, og‘zaki va yozma nutqlarini, o‘qib tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirib borishda muhim ahamiyatga ega.

### **Adabiyotlar**

1. Umumiy o‘rta ta‘limning ona tili fanidan davlat ta‘lim standarti va o‘quv dasturi. – T., 2017. – B.25
2. Moskalskaya O.I. Грамматика текста. – М., 1981. 7 с.
3. Новое в зарубежной лингвистике. – М.: Прогресс, 1978. 116 с.

4. Nurmonov A. va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili.–T.:Xalq merosi, 2003.b-181.
5. Mamajonov A. Tekst lingvistikasi. – T., 1989. – B. 9.
6. Ziyodova T.U., Shamsiyeva M.M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili uslubiyati // Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun qo‘llanma. – T., 2003.
7. O‘rinboyev B. va boshqalar. Badiiy matnning lingvistik tahlili. – T.: O‘qituvchi,1990.
8. G‘ulomov A.Q., Qobilova B.Sh. Nutq o‘stirish mashg‘ulotlari. O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma. – T.: O‘qituvchi , 1990.
9. Omilxonova M. Maktabda ona tili sintaksisini o‘rganish. – T.: O‘qituvchi, 1991.
10. Mirmaxsudova M.B. O‘quvchilar nutqini takomillashtirishda Grammatik terminlardan foydalanishning lingvometodik asoslari. 5-7-sinf ona tili darslari misolida. Ped.fanlari nomz.... dis. – T.,2004
11. Yusupova Sh.J. Hozirgi o‘zbek adabiy tili darslarida o‘quvchilar tafakkurini o‘stirishning ilmiy-metodik asoslari (akademik litseylar misolida). Ped.fanlari dok. dis. – T., 2005

## **MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA, ILM-FAN VA TABIAT RIVOJLANISH MARKAZIDA TAJRIBA VA EKSPERIMENT USLUBIDAN FOYDALANISHNI YANADA TAKOMILLASHTIRISH**

**Namazbayeva L. Z. – Tohkent davlat pedagogika universiteti qoshidagi T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada tajriba va eksperiment uslubi orqali bolalarda atrof-olamni anglash, qiziqishini oshirish, aqliy faoliyatini, fikrlash doirasini kengaytirish, qiyoslash, tahlil qilish, umumlashtirish va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini shakllantirish imkoniyatlari bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** maktabgacha yoshdagi bola, tajriba va eksperiment, ijodkorlik, qiziquvchanlik, rivojlantirish, bilish kompetensiyasi, tabiat hodisalari, tahlil qilish, atrof-olam, tadqiqotchilik.

**ДАЛЬНЕЙШЕЕ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ  
ОПЫТНЫХ И ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНЫХ МЕТОДОВ В ДОШКОЛЬНЫХ  
ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ, В ЦЕНТРЕ РАЗВИТИЯ  
НАУКИ И ПРИРОДЫ**

**Намазбаева Л.З. - докторант Узбекского научно-исследовательского  
института педагогических наук имени Т.Н. Кори Ниязи при Ташкентском  
Государственном педагогическом университете**

**Аннотация.** В статье описана возможность развития у детей способности понимать окружающий мир, повышать интерес, расширять их умственную деятельность, мышление, сравнивать, анализировать, обобщать и делать выводы с помощью экспериментальных методов.

**Ключевые слова:** дошкольник, опыт и эксперимент, творчество, любознательность, развитие, познавательная компетентность, природные явления, анализ, окружающая среда, исследование.

**FURTHER IMPROVEMENT OF THE USE OF EXPERIMENTS AND  
EXPERIMENTAL METHODS IN PRESCHOOL EDUCATIONAL  
ORGANIZATIONS AT THE CENTER FOR DEVELOPMENT OF SCIENCE  
AND NATURE**

**Namazbayeva L.Z. - Basic doctoral student of the Uzbek Research Institute of  
Pedagogical Sciences named after TN Qori Niyazi under the Tashkent State  
Pedagogical University**

**Annotation.** This article describes the possibilities of developing children's ability to understand the world around them, increase interests, expand their mental activity, thinking, compare, analyze, generalize and draw conclusions through experience and experimental methods.

**Key words:** preschool child, experience and experiment, creativity, curiosity, development, cognitive competence, natural phenomena, analysis, environment, research.

Psixologlarning ta'kidlashicha, bolalarda hayotining dastlabki yetti yoshigacha fikrlash ko'rgazmali-obrazli bo'lishini isbotlangan. Binobarin, maktabgacha ta'lim tashkilotida pedagogik jarayon, asosan, ko'rgazmali va amaliy usullardan foydalangan holda amalga oshirilishi zarur. Asosan, buni ilm-fan va tabiat rivojlanish

markazida, tajriba va eksperiment uslubi yordamida mashg'ulot olib borilganda samarali sanaladi [1].

Bugungi kunga qadar bolalar eksperimentlarini tashkil etish metodikasi to'liq rivojlanmagan. Bu holat ko'plab sabablarga bog'liq: masalaning nazariy jihatlari to'liqligicha ishlab chiqilmagan, uslubiy, o'quv qo'llanmalarining yetishmasligi, tarbiyachi-pedagoglarning shu faoliyatga yo'nalmaganligi va shu bilan bir qatorda oliy ma'lumotli kadrlar yetishmasligidadir.

Buning natijasida hozirgi kunda eksperiment faoliyatdan amaliyot va mashg'ulotlarda foydalanish sekin suratlarda rivojlanmoqda.

Qo'llanma yaratilishi bu muommalarning ayrimlariga yechim topa oladi va shu qism bo'shliqlarini to'ldiradi.

Eksperiment usulining asosiy ustunligi shundaki, bolalarga o'rganilayotgan obyektning turli jihatlari to'g'risida to'liqroq ma'lumot beradi, uning boshqa obyektlar va atrof-muhit bilan o'zaro aloqasi borligini ko'rsatadi. Tez-tez bunday eksperimental o'tkazish, amalda ko'rsatilgan tajribalar bolaning xotirasini boyitadi, uning fikrlash jarayonini ham faollashtiradi, tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish kabi murakkab psixologik jarayonlar amalga oshirishiga sababchi bo'ladi. Bola bajarilgan, ko'rsatilgan tajribaning qonuniyat va xulosalarini gapirib beradi. Bunda nutq yanada rivojlanishiga turtki bo'ladi.

Buning natijasida bola nafaqat yangi ma'lumotga ega bo'ladi, u shuningdek, mantiqiy fikrlay oladi. Tajribalarning ijobiy ta'sirini ham yaqqol ko'rishimiz mumkin. Bolada ijodiy qobiliyatlar rivojlanadi va takomillashadi. Mehnat ko'nikmalari hosil bo'ladi. Bola tajriba va eksperimentlarni bajarish davomida ko'p harakatlarni bajaradi, bu esa sog'liqqa ijobiy ta'sir ko'rsatadi [2].

Bu uslubning afzalliklarini psixolog ham pedagog ham cheksiz gapirishi mumkin, lekin shunga qaramay hozirgi paytda negadir keng targ'ib etilmayapti.

Bolalar bog'chasida eksperiment o'tkazish bu maktabgacha yoshdagi bolalarning atrof-olamni anglash uchun qaratilgan samarali faoliyatdir. Bolalar o'zi tabiatan qiziquvchandirlar. Maktabgacha yoshdagi bola eksperimental mashg'ulotlarga qiziqish uyg'otish kerak, shuning uchun barcha tajribalar va eksperimentlarni o'yin shaklida o'tkazilishi maqsadga muvofiqdir. Agar bolada qiziqish bo'lsa, u qo'shimcha ma'lumotni yod olib, bilimlarni oson va tabiiy ravishda o'zlashtiradi.

Maktabgacha ta'lim muassasasidagi tajriba va eksperimental faoliyatning maqsadi jonli va jonsiz tabiat obyektlarini bilish istagini rivojlantirishdir.

Tajriba va eksperimental faoliyatning vazifalari:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarning atrof-olamga qiziqishini shakllantirish, bolalarning qiziquvchanligini qondirish;

2. Amaliy tadqiqotlar jarayonida yangi obyekt haqida ma'lumot olish qobiliyatini rivojlantirish;

3. Mustaqillikni rivojlantirish uchun sharoit yaratish va tabiatda sabab-oqibat munosabatlarini o'rnatish.

Eksperimental mashg'ulotlardan qachon foydalanish kerak?

Tarbiyachi bu yo'nalishda doimiy ravishda izlanishlar olib boradi: mashg'ulot davomida, (ilm-fan va tabiat rivojlanish markazida) sayr vaqtida, tematik bo'sh vaqtlarida tajriba va eksperimentlarni tashkil qiladi, bolalarni mustaqil faoliyatda tajriba o'tkazishga jalb qilish uchun sharoit yaratadi. Bolalar eksperimentlari kichik ilmiy kashfiyotlarga o'xshaydi: bolalar bajarilgan ishning muhimligini tushunishadi, natijalarini ko'rishadi, bu esa bola uchun katta ahamiyatga ega.

Eksperimental faoliyatning rivojlanish bosqichlari:

1. Kuzatish - eksperimental faoliyat rivojlanishining birinchi bosqichidir. Bola jonli va jonsiz tabiat obyektlarini kuzatadi, sodir bo'layotgan o'zgarishlarni payqaydi. Kuzatuvlar natijasida bolalarning fikrlash jarayonlari rivojlanadi, diqqati faollashadi, tajriba o'tkazishning yangi g'oyalari paydo bo'ladi;

2. Fikrlash - tajriba, eksperiment o'tkazishga olib keladigan ikkinchi bosqichdir. Kuzatayotganda bola o'ylay boshlaydi, bu unga o'zi uchun qiziqarli bo'lgan gipotezani shakllantirishga va muammoni hal qilish uchun taxminlar qilishga yordam beradi;

3. Gipotezani tekshirish - tajriba va eksperimentlarni o'tkazish. Bola o'z farazining (taxmini) to'g'ri ekanligini isbotlashga harakat qiladi. Ba'zan o'lchash kerak bo'ladigan holat paydo bo'ladi, bu esa bolaning matematik bilimlaridan foydalanishga imkon beradi;

4. Xulosa chaqarish. Ushbu bosqichda bola "Qanday qilib? Nima uchun? Nega?" savollari va gipotezalariga javob oladi. Oxirgi bosqich oldingilariga qaraganda bolalar uchun biroz qiyinroq kechadi, ammo agar tarbiyachi bolalar bilan muntazam ravishda tajriba o'tkazib tursa, aksariyat bolalar bu muammolarni osonlikcha tushunib yecha oladi [3].

Dastlab, tajriba va eksperiment so'zlarining ma'nosi bilan yaqindan tanishib olamiz."Eksperiment" so'zi yunoncha "Experimentum" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, bu so'z "sinov, tajriba" degan ma'noni anglatadi. Chet el so'zlarining zamonaviy lug'atida (1994) quyidagilar ta'riflar mavjud : eksperiment 1) ilmiy asoslangan tajriba, ilmiy ko'rib chiqilgan sharoitda o'rganilayotgan hodisani kuzatish va uni ko'p marta takrorlashga imkon beradigan uslub turidir; 2) umuman tajriba, nimanidir amalga oshirishga urinish demakdir.

"Kuzatishdan farq qilib,tajriba ilmiy nazariyaga asoslangan holda amalga oshiriladi, vazifalarni belgilaydi va uning natijalarini talqin qilish" "Tajriba bu sistematik kuzatuv demakdir".

Yuqoridagi ta'riflardan ko'rib turibdiki "tajriba" va "eksperiment" so'zlari bir-biriga yaqin sinonim so'zlardir "Tajriba" amaliyot, kuzatuv tushunchalarini ham o'z ichiga oladi. Bolalar orasida eksperiment va tajriba o'tkazish bilish faoliyatini yanada kengaytiradi va shu bilan birga bilish kompetensiyalarini rivojlantiradi.

Eksperimental faoliyat yana boshqa mehnat va kuzatuv faoliyatlari bilan ham uzviy bog'liqdir. Kuzatish har qanday eksperimentning ajralmas qismidir, chunki ishning borishi, xulosalanishi va natija berishi aynan shu faoliyatga bog'liq. Ammo kuzatishning o'zi tajribasiz amalga oshishi ham mumkin. Masalan, tabiatning bahorgi uyg'onishini, tabiiy hodisalarni, atrof-olamni kuzata olishimiz mumkin, bu jarayon inson ishtirokisiz amalga oshadi. Eksperimental faoliyat mehnat harakatlarisiz amalga oshmaydi. Jarayon davomida bolalarda mehnat malakalari shakllanadi va rivojlanadi.

Tajriba va nutq biri-biri bilan juda chambarchas bog'liqdir. Tajriba jarayoning har bir bosqichida, xulosa qilishda, maqsadni qo'yishda, ko'rganlarini bayon qilishda ko'rinadi. Shuni ta'kidlash kerakki, ushbu aloqalar ikki tomonlama xarakterga ega. Tajribani qay darajada o'zlashtirganligini biz bolaning ifodalab bergan nutqida ko'ramiz. Shu bilan bir bu jarayon muntazam ravishda takrorlanib turilsa, nutqning yanada rivojlanishiga, takomillashishiga olib keladi.

Nutqning bir-biriga ma'noli bog'lanishlari bolaning bilim xazinasini zahirasiga bog'liq deb S. L. Rubinshteyn (1989) va A. M. Leushinalar o'z ishlarida ta'kidlab o'tganlar. "...nutq lug'atini maktabgacha yoshdagi bola bilish kompetensiyalarini rivojlantirish orqali takomillashtirishi mumkin" deb R.K. Aralbaev va N. K. Kogutenkalar aytishgan.

Tasviriy san'at bilan eksperimental faoliyat bir-biriga chambarchas bog'liq. Bolaning tasaffur qilish, vizual qobiliyatlari qanchalik rivojlangan bo'lsa, eksperimentning natijasi shunchalik aniq, to'g'ri bo'ladi.

Eksperiment faoliyati elementar matematik tushunchalarni ham shakllantiradi va bir-birini to'ldirib turadi. Tajriba paytida doimo hisoblash, o'lchash, taqqoslash, shakli va hajmini aniqlash kabi matematik amallar bajariladi. Shu bilan birga, tajriba o'tkazishni osonlashtiradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolajonlar bilan olib boriladigan tajribalar maktabda olib boriladigan tajribalardan keskin farq qiladi: vaqtning davomiyligida, mavzuning yengil murakkabligida farq qiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga tajriba o'yin ko'rinishida amalga oshirilsa maqsadga muvofiqdir.

Bundan tashqari bolalar eksperimenti majburiyatdan xoli, bola o'zini faoliyat jarayonida qisman erkin his qilishi lozim. Faoliyat davomida tajriba boshdan oxirigacha qiziqarli o'tishi, zerikib qolmasligi pedagog-tarbiyachining mahoratiga bog'liq.

Vaqtning to'g'ri taqsimlash katta ahamiyatga egadir. Tajriba davomida bolaning gapirmasligi, faqatgina quloq solishi kabi qat'iy qoidalardan voz kechish lozim. Bola o'z fikrlarini erkin bayon etishi kerak. Bolada tajriba davomida yangi g'oya kelsa, uni



inkor qilmasdan, bajarilishiga imkon berish lozim. Agar tarbiyachi bolalarning kashfiyotlaridan mamnun bo'lsa, urinishlarini ma'qullasa, guruhda ijodiy muhit paydo bo'ladi va bolalarning aqliy rivojlanishi, mustaqil fikrlay olishi, o'z fikrini bayon eta olishiga olib keladi. Navbatdagi tajribani intizorlik bilan kutadi [4].

Bola tajriba davomida har xil xatoliklarga yo'l qo'yishi mumkin. Bu holatni to'g'ri tushungan holda, bolani to'g'ri yo'naltirib yoborish kerak va shu bilan birga xatosini to'g'irlab, muammoni birgalikda yyechish lozim. Qilingan xatolar ustida ishlash tajribaning mukamalligiga olib keladi[5].

Pedagog tajribani bola yoshiga munosib tanlashi lozim. Shundagina bolada shu tajribaga nisbatan tushinish va oxirida xulosalashda qiyinchilikga duch kelmaydi.

Eksperiment qilish jarayonida bolalar quyidagilarni o'rganadilar:

- Ko'rishni va muammoni ko'ndalang qo'yishni;
- Qabul qilishni va oldiga maqsad qo'yishni;
- Obyekt yoki hodisani tahlil qilishni;
- Asosiy xususiyatlarni, bog'liqliklarni ajrata olishni va ko'rsatishni;
- Faraz qilishni va taklif qilishni;
- Mustaqil faoliyat uchun material manba tanlashni;
- Xulosa qilishni;

Tajriba va eksperimental faoliyatda qanday materiallar va jihozlardan foydalaniladi?

Bolalar bog'chasida tajriba va eksperiment o'tkazish uchun oddiy vositalardan foydalaniladi. (katta qiluvchi oynalar, tarozilar, chizg'ichlar, mikroskopdan). Bolalarni ushbu qurilmalardan qanday foydalanishni o'rgatish, qanday ishlashini ko'rsatish va tushuntirish lozim. Tajribalar uchun tabiiy, kundalik hayotimizda ishlatmaydigan, keraksiz matolar ishlatiladi. Probirkalarga, plastik idishlarga, pipetkalarga, tayoqchalarga va boshqalarga ega bo'lish kerak. Guruhda bolalar laboratoriyasi, tabiat burchagi uchun joy bo'lishi kerak va u yyerda kuzatuvlar o'tkazilishi, tarbiyalanuvchilarning tarbiyachi bilan ishlashi va bolalarning mustaqil eksperimental faoliyati olib borilishi lozim. Bu yerda bolalar didaktik o'yinlar, rang-barang ensiklopediyalar, eksperiment o'tkazish sxemalari bilan ta'minlangan bo'lishi kerak.

Shunday qilib, bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimi bolalarning bilim olish faolligini va yangi bilimlarni egallash istagini rivojlantirishga qaratilgan. Buning uchun tajriba - eksperimental faoliyatni yanada takomillashtirish kerak. Tajriba va eksperiment mashg'ulot davomida bajarilganda, bolalar o'zlarini tadqiqotchi, olim, kashfiyotchi kabi his qilishadi va albatta, qiziqtirgan barcha savollarga javob topishadi. Kelajakda bolalar o'z g'oyalariga ega bo'lib, haqiqiy tadqiqotchi, olim, kashfiyotchilarga aylanishadi. Shu bilan birga mustaqil O'zbekistonni dunyoga tanitishadi. "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim tashkilotining

Davlat o'quv dasturida Ilm-fan va tabiat rivojlanish markazining tajriba va eksperimentlar ketma-ketligi oddiydan murakkabga qarab ketishi kerak. Shu bilan birga yoshini inobatga olgan holda o'quv qo'llanma yaratilishi maqsadga muvofiqdir.

### **Adabiyotlar**

1. "Ik qadam" maktabgacha ta'lim tashkilotining Davlat o'quv dasturi. Toshkent. 2018-y
2. Мартынова Е. А., Сучкова И. М. Организация опытно-экспериментальной деятельности детей 2–7 лет: тематическое планирование, рекомендации, конспекты занятий/ авт.— сост. Е.А. Мартынова, И. М. Сучкова. — Волгоград: Учитель, 2011. 100 – 110 стр
3. Куликовская И. Э, Совгир Н. Н. Детское экспериментирование. Старший дошкольный возраст. — М.: Педагогическое общество России, 2003. 55-60 стр
4. Иванова А.И. Методика организации экологических наблюдений и экспериментов в детском саду: Пособие для работников дошкольных учреждений. — М: ТЦ Сфера, 2007. 10-13 стр
5. Прохорова Л. Н. Организация экспериментальной деятельности дошкольников: методические рекомендации / Л. Н. Прохорова. — М.: АРКТИ, 2003. 44-49 стр

## **XALQ PEDAGOGIKASI - YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA ASOSIY MANBA**

### **Orazimbetov YE.K. - Nukus davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada xalqimizning ma'naviyati, o'tmishi va tarixi aks etgan xalq pedagogikasining yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi ahamiyati, uning insonni har tomonlama kamolga keltirishda yo'l ko'rsatuvchi tengi yo'q amaliy tarbiya maktabi ekanligi, unda yoshlarni ilm o'rgatish, kasbga yo'naltirish, aql, axloq, huquq, mehnat, tejamkorlik, go'zallik, insoniylik, jismoniy va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo'yicha bebaho tajribalari to'planganligi to'g'risida fikrlar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** xalq pedagogikasi, yoshlar tarbiyasi, tarixiy an'ana, madaniyat, urf-odatlar, Vatan, Vatanparvarlik, insonparvarlik, e'tiqod, qadriyatlar

## **НАРОДНАЯ ПЕДАГОГИКА - ОСНОВНОЙ ИСТОЧНИК ВОСПИТАНИЯ МОЛОДЕЖИ В ДУХЕ ПАТРИОТИЗМА**

**Оразымбетов Е.К. - докторант Нукусского государственного  
педагогического института**

**Аннотация.** В статье раскрыто значение народной педагогики, отражающей духовность, прошлое и историю народа, как важной составляющей воспитания молодежи в духе патриотизма, в том числе приведены мнения о накоплении бесценного опыта народной педагогики в воспитании молодежи, направляющего их к науке и профессиям, к разуму, моральным качествам, закону, труду, бережливости, красоте, человечности, физическому и патриотическому духу.

**Ключевые слова:** народная педагогика, воспитание молодежи, исторические традиции, культура, обычаи, Родина, патриотизм, человечность, верования, ценности.

## **FOLK PEDAGOGY IS THE MAIN SOURCE IN EDUCATION OF YOUTH TO PATRIOTISM**

**Orazymbetov E.K. - basic doctoral student of the Nukus state pedagogical  
institute**

**Annotation.** The article reveals the importance of folk pedagogy, reflecting the spirituality, past and history of the people, as an important component of educating young people in the spirit of patriotism, including opinions on the accumulation of invaluable experience of folk pedagogy in educating young people, directing them to science and professions, to reason, moral qualities, law, labor, frugality, beauty, humanity, physical and patriotic spirit.

**Key words:** folk pedagogy, youth education, historical traditions, culture, customs and traditions, Motherland, patriotism, humanism, faith, values

Har bir insonning o'z hayot yo'li bo'lgani kabi, har bir xalqning, jamiyat hamda davlatning o'z tarixiy hayoti bor.

Xalqimizning ma'naviyatida millatimiz o'tmishi, tarixi va hozirgi kuni o'z ifodasini topgan. Ajdodlarimiz yosh avlod tarbiyasiga, ularning barkamol bo'lib shakllanishiga o'zlarining munosib hissalarini qo'shib keldi. Shuning uchun ham jamiyatimizda sog'lom avlodni tarbiyalash muqaddas vazifa darajasiga ko'tarildi. Ana shunday vazifani hayotga tadbiiq qilishda xalq pedagogikasining o'rni alohida.

Qoraqalpoq xalq pedagogikasi kichkinalar uchun ham, kattalar uchun ham o‘z-o‘zini tarbiyalashning tengi yo‘q amaliy maktabi bo‘ldi.

Ma’lumki, xalq pedagogikasining ta’lim-tarbiyadagi o‘rni juda beqiyos. Sababi xalqimizning orzu-umidlari bilan uyg‘unlashgan xalq pedagogikasi yosh avlodni vatanparvarlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda asosiy xizmatni bajaradi. 1990-yillardan keyin milliy qadriyatlarning ta’lim-tarbiyadagi tutgan o‘rni pedagogik jihatdan o‘rganila boshladi. Hozirgi vaqtda milliy qadriyatlarimizning yoshlar ma’naviyatini shakllantirishda ahamiyati katta ekanligi e’tirof qilinmoqda. Asosan, o‘quvchilarimizni ma’naviy-ahloqiy shakllantirishda xalqning tarbiyaviy an’analari alohida e’tiborga molikdir.

O‘quvchi yoshlarning ma’naviy–axloqiy kamol topishida xalq pedagogikasi boy manbalarga ega. Xalq pedagogikasi umumxalq ijodiy mahsulining natijasi, pedagogik madaniyatning asosiy ifodasi bo‘lib, uning ildizi qadim-qadimlarga borib taqaladi. U o‘zida xalqning orzu-istaklari, qarashlari, inson, oila, o‘quvchi yoshlarning tarbiyasi haqidagi tasavvurlarni aks ettiradi.

Ushbu xalq pedagogikasining negizini tashkil etadigan og‘zaki adabiyot meroslari qoraqalpoq xalqining madaniy tarixida alohida o‘rin tutadi.

“Qoraqalpoq xalqi, - deb yozadi N. Dao‘qarayev, - o‘zining qayg‘uli kunlarida ham, quvonchli kunlarida ham qushiqsiz, musiqasiz, og‘zaki poeziyasiz yashay olmadi”.

...xalq ijodiyoti o‘zining tematikasi va mazmuni jihatdan judayam boy. U xalqimizning butun hayot tarixini qamraydi. Ushbu boy va har xil janrdagi folklor namunalarimiz xalq pedagogikasining asosiy o‘zagini tashkil etadi. Shu asosda xalq pedagogikasi asrlar davomida rivojlandi, xalqning tilak-talablari, orzu-umidlari, qarashlari o‘sdi, boyidi va shakllanib bordi.

Xalq pedagogikasining materiallari qancha boy va rang-barang bo‘lsa, uning so‘z ketadigan masalalari shuncha ko‘p tarmoqli. Bu masalalar faqat xalqning madaniy tarixi uchungina emas, hozirgi kundalik turmushi uchun ham katta ahamiyatga ega.

Ilmiy tadqiqotlarni o‘rganib tahlil qilish natijasida ta’lim-tarbiyada yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ilmining nazariyasi dolzarb muammo ekanligi va u doimiy ravishda tadqiq qilinishi talab qilinadigan zarur mavzu ekanligi aniqlandi.

Bizning fikrimizcha, vatanparvarlikka asoslangan tarbiya ishini olib borishda oliy ta’lim muassasalari talabalari muammosi alohida ahamiyatga ega bo‘ldi. Sababi talabalar kelajak kasb egalari sifatida shakllanib, hayot tajribasini aniqlab, vatanni rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqishda o‘zlarining katta hissasini qo‘shadi.

Bugungi kunda O‘zbekistonning ravnaqi, gullab-yashnashi va qudratining oshishi uchun ta’lim-tarbiya jarayonida har jihatdan barkamol yoshlarni

shakllantirib, tarbiyalash muhimdir. Bugungi kunda yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘usini rivojlantirish eng dolzarb muammo hisoblanadi.

Ota-bobolarimiz «Halol, mard kishi Vatanini sevadi». «Vataning – onang» degan. Vatanga bo‘lgan muhabbatni o‘lchab bo‘lmaydi. Xalqning asl xazinasi naql-maqollarda teran o‘rin olgan. Masalan, yosh avlodga el, xalq qadrini «Oz yeliH – altin besigiH», «Vatan – ottan issi», «Basqa yelde sultan bolg‘ansha, oz yeliHde ultan bol»singari hosil so‘zlar bilan bildirilgan. Yoshlarni kindik qoni tomgan yeri uchun ardoqlab o‘stirgan eli uchun so‘nggi tomchi qoni qolguncha dushman bilan kurashadigan, Vatanni chin sevadigan, mard, jasur etib tarbiyalashda xalq o‘zining terma-to‘lg‘ovlarini, afsona-rivoyatlarini, naql-maqollarini yaratgan. Shu tufayli liroepik, qahramonlik asarlarning bosh qahromonlari ota-onasi, sevgan yori, tug‘ilgan yeri, eli uchun yov bilan kurashib, xalqning sevimli o‘g‘il-qizlariga aylanadi. «Vatan ushin otqa tys», «Yer jigiti yeli ushin tuviladi, yeli ushin oledi» deb xalq o‘z avlodlarini Vatanni sevish ruhida tarbiyalaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev «...vatanparvarlik har bir davlat hayotining ma’naviy asosi hisoblanadi va jamiyatni har tomonlama rivojlantirish borasida eng muhim safarbar etuvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham fuqarolarimizda bizga mutlaqo yot bo‘lgan zararli ta’sirlarga qarshi mustahkam immunitetni shakllantirish va Vatanimiz taqdiri uchun mas’uliyat tuyg‘usini mustahkamlash bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni ko‘rishimiz shart» degan edi.

Qadimgi ota-bobolarimizning ozodlik uchun yeri bilan xalqini himoya qilgan botir bobolarimiz haqidagi qo‘shiq-lari, naql-maqollari, dostonlari, to‘lg‘ov-jirlari asrlar bo‘yi yoshlarni insonparvar, hunarli, vijdonli va haqiqiy vatanparvar etib tarbiyalab kelganligi tarixiy fakt. Shu asosda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda, ularning qalbida odob-axloq, g‘amxo‘rlik, kamtarinlik, insonparvarlik singari tuyg‘ularni singdirishda ushbu milliy fazilatlar ta’lim-tarbiya jarayonida keng tatbiq qilinsa, maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Biz bunda ikkita masalaga alohida e’tibor qaratamiz.

Birinchi - jamiyatning ko‘p millatliligini barqaror birlashtiruvchi faktorga aylantirish. Ya’ni, tashqaridan qaraganda har xil kelishmovchiliklarni bartaraf etish.

Ikkinchi - millatning jamiyat hayotidagi birlashtiruvchi rolini atab ko‘rsatilishi. Ya’ni davlat taqdiri uchun dastlab o‘zi javobgar ekanligini ochiq aytilishi. Demak, birlashtiruvchilik vazifasini bajarish – jamiyatning har xil elementlari orasida oddiy kommunikator bo‘lish degandan ko‘ra murakkab tushuncha, buning uchun shularning ijtimoiy muhit tirikchiligining mosligiga, chin ma’nodagi negizi, milliy poydevoriga aylanishi kerak.

Prezidentimiz o‘zining har bir chiqishida “Vatanparvarlik” degan tushinchaga har tomonlama urg‘u berib keladi. Buning uchun yoshlar jamiyatda siyosiy

erkinligini aniq sezadigan va o'z vatanini ongli ravishda himoya qiladigan, uning ravnaqi uchun harakat qiladigan azamatlar bo'lishi shart.

Shunda har bir fuqaro o'z mamlakatining o'tmishiga, buguniga va ertangiga o'z hissasini qo'sha oladi. Vatan taqdiri uchun o'ziga shaxsiy mas'uliyat yuklanishini teran anglaydigan bo'ladi. El, xalq hayotiga bog'liq son ming muammolarning hammaga birdek tushunarli bo'lishi shunga bog'liq.

Vatanparvarlik tuyg'usi faqat ma'naviy sohadagi totuvlik, tirikchilik, fuqarolik burchlarini bajarishda emas, balki davlatning moddiy negizini mustahkamlash bilan ham bog'liq.

Vatanparvarlik tuyg'usi xalqimizning dunyo sivilizatsiyasiga qo'shilib, jahonda o'ziga xos o'rin egallashiga zamin yaratadigan birdan-bir kuchdir. Tarixi, madaniyati, shuningdek, hunari, iqtisodiy kuchi bo'lmagan elga boshqalar qiziqish bildirmaydi. Ularni keng ommaga tanitish uchun, eng avvalo, o'zimiz qadriyatlarimizni yaxshi bilishimiz, ulardan g'ururlana olishimiz kerak.

Vatanni sevimlikning mazmun-mohiyati ham shu tarzda ochiladi. El nomusi, milliy nomusni hammasidan yuqori qo'yish – vatanparvarlikning asosiy belgisi hisoblanadi.

Ko'plab lug'atlar, ensiklopediyalarga tayansak, vatanparvarlik – o'z vataniga bo'lgan mehr, halollik, unga xizmat qilish, uni ichki-tashqi dushmanlardan himoya qilishga tayyor turishni bildiradi.

Undagi asosiy narsa – ayrim qiyinchiliklarga, qarshiliklarga uchrasa-da, har bir fuqaro Vatanning, o'zining kelajagiga katta ishonch bilan, umid bilan qarashidir. U uchun, avvalo, bizga vatanparvarlik, milliy ong tuyg'usi kerak. Bu xususiyatlar yoshlarning qalbiga o'qish, bilish, o'rganish, intilish va tarbiya bilan singadi.

«Vatan – bu inson va uning ota-bobolarining kindik qoni tomgan muqaddas dargohi. ...Vatan odamning suyanshig'i, maqtonishi, ona kabi panasi. Shu tufayli biz uni onaga taqqoslab ona-vatan deymiz, u bizga ona kabi aziz»[10]

Vatanparvarlik tarbiyasi – teran tomir urgan, xalqimizning necha ming asrlik, orzu-umidlari, qarashlari, madaniyatining ko'rinishidir.

O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq shoiri I.Yusupovning quyidagi misralari bunga misol bo'ladi:

Usi jerde esip-önip,  
Qara shañiraq yel bolg'anbiz.  
Avir miynetine kënip.  
Islep qara ter bolg'anbiz.  
... Tegin yemes tuvg'an topiraq,  
Beze almaydi adam degen.  
Tereñ tamir urg'an daraq, -  
Vatan degen, vatan degen!

Bunday tuyg'ularni qalbiga singdirmay, yoshlarni oltin beshik elini, kindik qoni tomgan yerini himoya qiladigan va ushbu maqsad yo'lida bor kuch-jigari bilan aql-kuchini sarflaydigan, vatanparvar etib tarbiyalash mumkin emas.

Xalq pedagogikasining asl maqsadi yoshlarni milliy tarbiya asosida har tomonlama shakllangan «jeti qirli, bir sirli» avlod sifatida ajdodlarimizga munosib etib tarbiyalashdir.

Bizning tadqiqotimizning asosi qoraqalpoq xalq pedagogikasining negizida yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdir. Bunday dolzarb maqsadni amalga oshirishda quyidagi tarbiyaviy ko'rsatmalar boshchilikka olindi:

Birinchidan, ertangi kelajak mutaxassislarning elini, yerini, xalqini sevadigan vijdonli azamat bo'lishini o'ylash.

Bu, avval, qariyalarning, ko'pni ko'rgan yoshi ulug'larning pand-u nasihatlarida, tilaklarida keng o'rin oladi. Yoshi ulug'larning «joritqanda joliq bolsin» deb duo qilishi insonni yaxshilikka undaydi.

Bekorchilik, yengiltaklik madaniyatiga bo'ysinmay o'z milliyligini saqlab qolishni o'ylagan har bir ongli odam ota-bobolar dasturini saqlab, urf-odatlarimizni, qadriyatlarimizni ongiga singdirishi kerak.

Bu borada muhtaram Prezidentimiz: "Biz yagona bir maqsadni ko'zda tutmoqdamiz, ya'ni O'zbekiston ilm-fan, intellektual salohiyat sohasida, zamonaviy kadrlar, yuksak texnologiyalar borasida dunyo miqyosida raqobatbardosh bo'lishi shart", - deb ta'kidlagan edi parlamentga qilgan murojaatnomasida.

Vatanga mehr el-yurtga muhabbatdan boshlanadi... Dunyoda shunday insonlar bo'ladi, kasb-korini ardoqlab, undan faxrlanib, uni hayotining mazmuni deb biladi. Kasbga sadoqat - Vatanga mehr, el-yurtga muhabbatdan paydo bo'ladi. Ha, kasbni muqaddas bilib, uni ardoqlagan kishi el-yurt hurmatiga, mehriga sazovor bo'ladi.

Ikkinchidan, bolani yoshidan mehnatsevar, talabchan, mas'uliyatli etib tarbiyalash. Bu maqsaddagi qarashlar qoraqalpoq beshik jirlarida, salt dasturlarida, ertak, rivoyatlari, terma-to'lg'ovlari, naql-maqollari bilan qo'shiqlarida ko'p uchraydi.

«Miyneţ tybi r h t», «Miyneţniŋ qatti bolsa, tatqaniŋ tatli bolar» singari xalq donishmandligini misol tariqasida aytish mumkin. Qoraqalpoq klassik shoiri Berdaq:

...Miyneţz d nya izleme.

yoki:

Talap islep tap d nyani,

Sytten aqdur bilseŋ ani.

– deb mehnatni ulug'lab, yoshlarni halol mehnatga chorlaydilar.

Uchinchidan, «Birinshi bayliq – den savliq» - degan qoidaga amal qilgan xalqimiz «Den savliq – tereh bayliq», «Avirio‘ astan», «Deni savdih – tēni sav» deb tana go‘zalligiga alohida e‘tibor bilan qaragan.

Bola dunyo eshigini ochib kelgan vaqtdan boshlab, uni har kuni tuzli suv bilan cho‘mltirish, moy bilan silash, oyoq-qo‘lini tortish uning sog‘lom bo‘lib o‘shishiga ta’sir etgan. «Sap denede sap aqil» degan tushunchaga tayangan ko‘chmanchi xalq yosh avlod tarbiyasiga e‘tiborsiz bo‘lmagan. Milliy o‘yinlar ota-bobomizdan bizga yetib kelgan, o‘tmish bilan bugunni bog‘laydigan baholi boyligimiz, asl xazinamiz.

Shu tufayli uni o‘rganish, kundalik hayotda foydalanish orqali yoshlarni zamonimizga mos avlod etib tarbiyalashda ahamiyatga ega. Shu bilan birga, milliy o‘yinlarni tana chiniqtirish darslarida qo‘llana bilish kerak.

Olima G.Jumasheva tadqiqotlarida «... milliy o‘yinlar faqat ko‘ngil ko‘taradigan o‘yinlar bo‘lib qolmasdan, ular bolalarni jismoniy, estetik va ahloq-odob tomondan tarbiyalashga, ularning tilining o‘shishiga, ongining rivojlanishida katta ta’sirini qiluvchi usul» ekanligini ta’qidladi ko‘rsatadi.

Qur’oni karim hadislarida ham «kasal bo‘lmay turib sog‘ligingning qadrini bil» degan nasihatlar bor. Biz ongli, kelajakni davom ettira oladigan sog‘lom avlodni tarbiyalashimiz zarur. Bu – bizning elimizning, xalqimizning oldida turgan asosiy burchimizdir.

Shu tufayli, xalqimiz yosh avlodning ertangi kuni vatanni himoya qiladigan mard, jasur bo‘lib o‘shishi uchun doimiy ravshda ularga g‘amxo‘rlik ko‘rsatib, tarbiyalagan.

To‘rtinchidan, xalqimiz etnopedagogikaning yo‘nalishi, mazmuni orqali bo‘yidagi yuqori insoniylik xususiyatlarni jamlashga, sabr-taqotli etib tarbiyalashga intilgan. «O‘atan ot basinan baslanadi», «Jao‘g‘a janindi bersende, arihdi berme», «O‘atan ushin otqa tys, arih ushin jan ber», «Yerdiñ sēni yel bolar, Yeldiñ sēni jer bolar, Jerdiñ sēni suo‘ bolar», «Yeldi syugen yelge dos», «Jaqsı perzent syuyenish...», «Jaqsıdan bag‘ qaladi...», «Kishi peyilliktıñ astari altın» deb ezgulikka, halollikka, vijdonli bo‘lishga, va’daga vafodorli bo‘lish ruhida tarbiyalagan.

Qoraqalpoq klassik shoiri Berdaq «Bolam» qo‘shig‘ida:

Əshıñdı al dushranıñnan,

Küşıñdı jiyna jasıñnan,

Xalqıñ qalmasın qasıñnan,

Kishi peyil bol jastan balam...

...Jaman ushin tyspe otqa,

Sözge yerip ketpe jatqa,

Qıyanet oylama jurtqa,

Onarina jaqsı balam- deb yuqoridagi fikrlarni tasdiqlaydi.



Demak, har bir xalqning tarbiya dasturlarining paydo bo‘lib shakllanishi, bajaradigan xizmati jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy, tarixiy o‘zgarishlar, ilm-fan, madaniyatning rivojlanishi bilan bog‘liq.

Xalqimizning to‘plangan tarbiya tajribasi bilan pedagogik qarashlari, salt-dasturlari, urf-odatlarini, ijtimoiy hayoti, moddiy madaniyati etnopedagogikaning ilmiy-tadqiqot obyektiga aylanishi davr talabi.

Bizning maqsadimiz xalqning tarbiya to‘g‘risidagi qarashlari, tarix elagidan o‘tib shakllangan tarbiya tamoyillari va usullarining ma‘nosini ochib ko‘rsatish, ularni bugungi yoshlarni tarbiyalash ishlarida qo‘llanish yo‘llarini tadqiq etish etnopedagogika fanining asosiy muammosi hisoblanadi. Beshinchidan, vatanparvarlik tuyg‘usi xalq pedagogikasining asosiy qoidalarining biri. «Vatan oiladan boshlanadi» degan iboraga tayangan xalqimiz o‘z farzandlarini ota-onani, kattalar bilan kichiklarni hurmat qilishga, elning, xalqning g‘amxo‘rchisi bo‘lish ruhida tarbiyalagan.

«Vatanparvarlik g‘oyalarini yoshlarimiz ongiga singdirish, avvalambor, oiladan boshlanadi. Bu jarayon bobolar o‘giti, ota ibrati, ona mehri orqali amalga oshadi. Inson o‘zligini anglagani, nasl-nasabini bilgani sari yuragida Vatanga muhabbat tuyg‘usi ildiz otib, yuksala boradi»

Oila tarbiyasi yosh avlodning har tomonloma rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, sog‘lom avlodni tarbiyalashda oilaviy tartib, oiladagi ijtimoiy muhit, oila a‘zolarining bir-biriga munosabati, ota-ona va katta kishilarning xulq-atvori asosiy omil hisoblanadi.

Xalqimiz muhtojlarga yordam berishni farz deb bilgan. «Атаңниң баласи болма, адамниң баласи бол», «Birlik bar jerde tirilik bar», «Hürmet yetseñ, hürmet көreseñ» kabi naql-maqollar orqali insonparvarlik namunalarini ko‘rsatgan.

Berdaq shoirning «Bolam» qo‘shigi fikrimizni mustahkamlaydi.

...Ата-анаңди қәдирле,  
Өлгеніңше жақси сөyle,  
Mal tapsaң torqag‘a бөle,  
Өсеріңye жақси балам.

Jetim көrsen қоліңди бер,  
Ag‘a bolsa keynine yer,  
Onsha bultiyip болма sher,  
Әlpayim болg‘im балам.  
G‘әrip көrsen ақиліңди аyt,  
Oңli bolsa қasiңа tart,  
Olda bolsa үlken murat,  
Onidag‘i oyla балам.

Oltinchidan, «Bilim - tavsilmas kən, ʻner - ʻlmes miyras», «Bilegi kyshli birdi jig‘adi, bilimi kyshli miħdi jig‘adi», «Aqil kʻpke jetkizer, ʻner kʻkke jetkizer», «Oqiv - bilim bulag‘i, Bilim - ʻmir shirag‘i» kabi naql-maqollarni yaratgan xalqimiz hunar va bilimni tirikchilikning mezoni, hayot shamchirog‘i deb bilgan. Shu tufayli xalqimizning juda ham boy og‘zaki adabiyoti namunalaridagi naql-maqollar, jir-to‘lg‘ovlar, qo‘shiqning mazmun-mohiyatini yosh avlodga nasihatlab, ongiga singdirib borish maqsadga muvofiqdir.

Shunday ekan, har bir odamning, har bir xalqning Vataniga, eliga bo‘lgan tuyg‘u tushunchasi har xil bo‘lganligi tufayli, vatanparvarlik tushunchasini umumlashtirishning ham son ming sirlari mavjudligi qonuniy hodisa.

Ta‘lim-tarbiya – hayotning uzluksiz davom etadigan jarayoni. Yoshlarga bugungi kun talabiga mos ta‘lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va bilimli mutaxassislar tayyorlash masalasiga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27- iyuldagi «Oliy ma‘lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-3151-son, 2018- yil 5- iyundagi «Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-3775-son qarorlarida ta‘lim-tarbiyaga alohida e‘tibor qaratilib, unda, ta‘lim sohasidagi kamchiliklarni bartaraf etish, ta‘lim-tarbiya mazmunini yangilash va mutaxassis tayyorlash sifatini takomillashtirish vazifalariga alohidaurg‘u berilgan.

Yettinchidan, odam hayoti tabiat bilan chambarchas bog‘liq. Shu tufayli otabobolarimiz umr bo‘yi tabiatni asrashni maqsad qilgan.

Butun tirikchilikning qudratli to‘rt turi mavjud. Ular quyosh, yer, havo va suv. Agar ularning bittasi bo‘lmasa, tirikchilik tugaydi. Shuning uchun odamzot ularni onadek e‘zozlaydi.

Quyosh – barcha tirikchilikning qudratli manbasi. Ajdodlarimiz azaldan quyoshni ona – quyosh deb sig‘inib kelgan. Misol: Qoraqalpoqlarning qadimgi ajdodlari, massagetlarning jasur ayol podshohi To‘maris fors shohi Kirga: «Qonxo‘r Kir!... yerimni tark eti. Agar bunday qilmasang, quyosh xudosi nomi bilan qasam ichaman. Sening ko‘zlaringni qonga to‘ldiraman...» , -deb quyosh nomi bilan qasam ishgan.

Quyoshga sig‘inish O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston xalq shoiri I.Yusupovning «Tumaris» asarida o‘z aksini topgan.

... Ant yedi bul qorqinishli,  
Ayqasarda ʻmir -ʻlim,  
Jurt sezip bir ulli kyshti,  
Zor shayqasqa buo‘di belin.

«O‘a, patshayim, Quyash qizi!

Joliñ bolar, qara əne...

...«Gyldir - gyldir kisnegen,

Altin jyo‘yen tislegen,

At jolina sadag‘a,

Miyrimli Quyash, qollaygør,

Jyyrik Quyash, qollaygør!

Qamisi nuo‘li køl bergen,

Seleo‘i semiz shøl bergen,

Gyrkirep Gyldirmamasi,

Aspanda pøstek sabag‘an,

Miyrimli Quyash, qollaygør,

Saqiy Quyash, qollaygør!

Asig‘i pytin aq serke,

Qoy baslasin qotanda.

Beldeo‘de kisnep tulpar at,

Syrinbesin jortqanda.

Miyrimli Quyash, qollaygør!

Jyyrik Quyash, qollaygør!

Oshag‘imizda ot sənbesin,

Bøle-qada kelmesin,

Atimizg‘a tuyaq ber,

Tənimizge quo‘at ber,

Miyrimli Quyash, qollaygør,

Qəhərli Quyash, qollaygør!

Biyigin kerset tao‘lardıñ,

YEŋsesin kerset jao‘lardıñ.

Abiray berseñ - ulistan,

Əjel berseñ - qilishtan.

Ottan, suo‘dan asira,

Tinishliq - oshaq basina.

Miyrimli Quyash, qollaygør!

Nurli Quyash, qollaygør!»

Qoraqalpoq xalqi yerni, ona – yer deydi. «Jeri baydıñ –yeli bay», «Tuo‘g‘an jer – altin besik», «Jerdi baqsan – jer seni bag‘adi» deb, xalq yerni ona deb, himoya qiladi.

Xalqimizda «Yer tuvg‘an jerinde, iyt toyg‘an jerinde» degan maqol bor. Har bir odamning tug‘ilgan joyi hamma narsadan qimmatdir.

Sababi inson shu yerning tuprog‘ida voyaga yetib, suvini ichib, havosidan nafas oladi. Tabiati bilan birga shakllanadi. Shu tufayli har bir odam tug‘ilgan joyini himoya qiladi, ardoqlaydi, g‘amxo‘rlik qiladi.

Dunyodagi tirikchilikning manbasi – suvdur. O‘simlik, hayvonot va har xil mavjudotlar suvsiz hayot kechira olmaydi. Hayotda eng qimmat, eng kerakli narsa

suv bo‘lganligi tufayli, xalqimiz suvni hosiyatli deb hisoblagan. «Suvdiñ da soravi bar», «Suvli jer - nurli jer», «Suv bar jerde ømir bar», «Bulaq kørseñ, køzin ash», «Suvday taza, syttey aq bol», - deb ajdodlarimiz suvni isrof qilmaslik kerak ekanligini kelgusi avlodlarga nasihat etib kelgan.

Hayotda eng qudratli narsa – havodir. Shu sabab xalqimiz «Taza hava – tønge dava», - deb havoni toza saqlashni maqsad qilgan.

Tirikchilikning to‘rt manbasi quyosh, yer, suv va havoni toza saqlash – xalqimizning dasturi va hayot qonunidir.

Xalq orasida tug‘ilgan yer haqida qo‘shiqlar bisyor. Ajiniyozning «Yellerim bardi», A.Musayevtiñ «Qaraqalpaqta» qo‘shiqlari qoraqalpoq xalqining kartinasini to‘liq ko‘rsatib beradi.

Vatan deganda tug‘ilgan joy, tabiat, uning boyliklari, til, dastur, tarixiy yodgorliklar va hakazolar tushuniladi.

Ular inson qalbiga iliqlik, yaqinlik, qarindoshlik tuyg‘ularini jo qilishda, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda asosiy manba bo‘ladi.

«Tiken gylin qorg‘aydi, hørre palin qorg‘aydi», «Hør kimniñ øz jeri - Misir shøhri», «Miyo‘yeli ag‘ash mayisqaq», «Sayiz suv sarqirap ag‘adi» kabi donolikni falsafaga bog‘lagan xalqimiz tabiatdan quvvat olib, go‘zallikni seza bilishga o‘rgatadi.

Ular xalqimiz sandig‘ida asrlar davomida shakllangan etnopedagogikaning mevalari hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2016- yil 14- sentabrdagi “Yoshlarga oid Davlat siyosati to‘g‘risida”gi O‘RQ-406-son qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 3- iyundagi «Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish to‘g‘risida»gi PQ -3031-sonli qarori, 2017- yil 30- iyun kuni “O‘zbekiston yoshlar ittifoqi” tashkil etilishi munosibati bilan O‘zbekistonda 30- iyun kunini «Yoshlar kuni» deb e‘lon qilishi va Prezidentimizning yoshlar ma‘naviyatini yuksaltirish va ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo‘yicha 5 ta muhim tashabbusni ilgari surishi yurtimizda yoshlar ta‘lim-tarbiyasi masalasi davlat siyosati darajasida ekanligini isbotlaydi.

Yoshlar – Vatanimizning, millatimizning kelajagidir. Vatanimiz taqdirini ularga ishonib topshirar ekanmiz, avvalo, ular zimmalariga yuklatilayotgan murakkab va mas‘uliyatli vazifani butun mohiyati ila chuqur anglashlari, unga o‘zlarini hissalarini qo‘shishlari lozim. Zero, Vatanni sevish, unga mehr-muhabbat qo‘yish bevosita har kimning shu yurt ravnaqi yo‘lida amalga oshirayotgan bunyodkorlik ishlari bilan belgilanadi. Shuning uchun bugungi kunda xalq pedagogikasi yanada teran o‘rganishni talab etadigan, yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘usini takomillashtirishning pedagogik asoslarini yaratishda o‘z yechimini kutayotgan, dolzarb muammo ekanligini ko‘rsatmoqda.

### Adabiyotlar

1. Қарақалпақ этнопедагогикасы. Муаллифлар жамоаси. Н., «Билим», 2010 ж.
2. О. Musurmonova. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. Т., 1996 у.
3. Musurmonova О. Yuqori sinf o'quvchilari ma'naviy madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari. Ped. Fan. Dok. ...diss.-Toshkent, TDPI, 1993-у.
4. Н.Дәўқараев. Революцияға шекемги қарақалпақ әдебиятының очерклери. Нөкис.: 1961ж.
5. А.Тажимуратов. Қарақалпақ халқ педагогикасы. Н., Билим, 1996 ж.
6. Қарақалпақ нақыл-мақаллары. Қарақалпақстан баспасы, Н/-1978 ж.
7. Xalq so'zi online/ <http://old.xs.uz/index.php/homepage/rasmiy/item/9255-zbekiston-respublikasi-urolli-kuchlari-tashkil-etilganining-25-jilligi-munosabati-bilan-vatan-imoyachilariga-bajram-tabrigi>
8. Руўхыйлық тийкарлары./ академик Ж.Базарбаев илмий раҳбарлигида. Н., 2009 й.
9. И.Юсупов. Таңлаўлы шығармаларының еки томлығы.2том. Н.-1992 ж.
10. 11. Бердақ таңламалы шығармалары. Н., 1987 ж.
12. Г.Х.Жумашева «Қорақалпоқ халқ ўйинлари» Н.: 2010 й.
13. Орлова А.Н. Народные традиции и современные проблемы воспитания // Советская педагогика. - 1989. - №7-9. - С.106-111.
14. Q.Nazarov va boshq (mualliflar jamoasi). Milliy g'oya: targ'ibot texnologiyalari va atamalar lug'ati. Т., 2007-у.,
15. Геродот. Книга 1. Стр.212. <http://ancientrome.ru/antlitr/t.htm?a=1269001000>
16. Ж.Базарбаев. Миллий идея – бизиң идеямыз. Н., «Билим» 2003ж.

### О'QUVCHILARDA FUQAROLIK SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

**Кадирова У. В. – Toshkent davlat pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi**

**Аннотатсия.** Ushbu maqolada o'quvchilar fuqarolik savodxonligini oshirish masalalari, fuqaro, fuqarolik jamiyati va fuqarolik savodxonligi hamda o'quvchilarning fuqarolik xulq-atvorini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni egallashi, fuqarolik xulqi va faoliyati subyekti haqida so'z boradi.

**Калит со'злар:** fuqarolik savodxonligi, faoliyat, xulq-atvor, fuqarolik jamiyati, huquqiy madaniyat, jamiyat, ta'lim-tarbiya, demokratik islohotlar, jamiyatini rivojlantirish, ijtimoiy faollik.

## **ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ ГРАЖДАНСКОЙ ГРАМОТНОСТИ УЧАЩИХСЯ**

**Кадирова Я. Б. - соискатель Ташкентского государственного педагогического университета**

**Аннотация:** В статье автор анализирует вопросы о повышении гражданской грамотности и ответственности учеников, о навыках поведения, о формировании и развитии мировоззрения и мышления, необходимых для развития гражданской грамотности и позиции, приведены субъективные аспекты решения проблем в этой сфере.

**Ключевые слова:** гражданская грамотность, деятельность, поведение, гражданское общество, правовая культура, общество, образование, демократические реформы, развитие общества, социальная активность.

## **POSSIBILITIES OF DEVELOPING CIVIL LITERACY OF STUDENTS**

**Kadirova Ya.B. - Independent applicant of Tashkent State Pedagogical University**

**Annotation.** In the article, the author analyzes the issues of increasing civic literacy and student responsibility. She tried to study how students learn behavioral skills, about the formation and development of the worldview and thinking necessary for engaging in civic literacy and attitudes. She practiced the objective and subjective aspects of problem solving in this area.

**Key words:** civic literacy, activity, behavior, civil society, legal culture, society, education, democratic reforms, community development, social activity.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonida, jismonan sog‘lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat’iy hayotiy nuqtayi nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish masalalari belgilab qo‘yildi [1].

Bugungi kunda yurtimizda aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish, aholini, ayniqsa, yoshlarni zararli axborotlardan himoya qilish ularda mustahkam huquqiy immunitetni shakllantirish bo‘yicha jadal ishlar amalga oshirilsada sohada bir qator muammo va kamchiliklar saqlanib qolinmoqda.

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda fuqaroni tarbiyalash muammolari tobora ko‘proq ko‘rib chiqilmoqda va shu sababdan “fuqaro” va |”fuqarolik” tushunchalari

o'ziga xos mazmun bilan to'ldirilmoqda. Masalan, tadqiqotchi I.P. Podlasiy tarbiya jarayonining mazmunini inobatga olib, yaxshi tashkil etilgan tarbiya odamni hayotdagi uchta asosiy rolga – fuqaro, ishchi, oilaviy inson roliga tayyorlashi kerakligini ta'kidlaydi.

Olim yuqorida ta'kidlangan insonning hayotdagi faoliyatining har biri haqida batafsil ma'lumot beradi. Fuqarolik faoliyatini bajarish uchun “Fuqaro: fuqarolik burchlarini bajarish – mamlakat, jamiyat, ota-onalar oldidagi burch hissi; milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'usi; Konstitutsiya va davlat hokimiyati organlarini, mamlakat Prezidenti, davlat ramzlari (gerb, bayroq, madhiya)ni hurmat qilish; mamlakat taqdiriga javobgarlik; ijtimoiy tartib va madaniyat; mamlakat milliy boyliklariga, til, madaniyat, an'analarga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish; ijtimoiy faollik; demokratik tamoyillarga rioya etish; tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish; o'zgaralar huquq va erkinliklarini hurmat qilish; faol hayotiy yondashuv; huquqiy ong va fuqarolik javobgarligi; vijdonlilik, adolatlilik, sezgirlik, rahmdillik; o'z xatti-harakatlari uchun javobgarlik hissi; millatlararo, boshqa mamlakatlar xalqlariga hurmat va boshqa xislat-fazilatlarga ega bo'lish shart”,- [6, 29] deb ta'kidlaydi va shu tariqa insonni fuqaro sifatida to'liq, biroq yakunlanmagan ta'rifini beradi.

Fuqarolik haqida yanada batafsil ilmiy ta'riflarni A.S.Gayazov fikrlarida ko'ramiz, u fuqarolik umumiy modelini mafkuraviy, kasbiy, fuqarolik-siyosiy, milliy-madaniy, ma'naviy, axloqiy, ekologik, valeologik xususiyatlar bilan ifodalaydi [2, 155-156]. Olimning fikricha, bu xususiyatlar zamonaviy fuqaroning quyidagi asosiy fazilatlarida o'z ifodasini topadi:

- jismoniy va ruhiy salomatlikni rivojlantiradi, uni faol hayot-faoliyatni amalga oshirishni ta'minlaydi;
- kasbiy va shaxsiy uzluksiz o'z-o'zini rivojlantirishning barqaror asosi bo'lgan madaniy dunyoqarash va keng tafakkurga egalik;
- shaxsiy qiziqishlari, qobiliyatlari, mehnat bozorida talab qilinadigan va mehnat faoliyati jarayonida o'z malakasini oshirish yoki qayta tayyorlashga imkon beradigan, moddiy va ma'naviy ishlab chiqarish darajasidan yuqori bo'lgan kasb-hunar ma'lumotiga ega bo'lish;
- oila va mehnat jamoasida vatanparvarlik, axloqlilikni namoyon etish;
- tabiatni faol asrash, ekologik aloqadorlikning buzilishini tiklanishida ishtirok etish;
- jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi sharoitida yashashga qodir va o'zining voyaga yetish mintaqasida (hududida) ham jismoniy va ham aqliy qobiliyatlaridan foydalana olish [2, 156-157].

Bizning fikrimizcha, A.S. Gayazov taklif qilgan zamonaviy fuqaroning xislatlari izohni talab etadi. Yuqoridagi ba'zi xislat-fazilatlar fuqaroning

xususiyatlariga xos emas deb hisoblaymiz. Shunday qilib, inson salomatligi har bir inson uchun muhim bo'lgan universal xususiyatdir. Agar inson obyektiv sabablarga ko'ra jismoniy salomatlikka ega bo'lmasa, bu uning fuqaro bo'lolmasligini anglatmaydi. Kasbiy ta'lim to'g'risida ham shunday deyish mumkin – ta'limning yetishmasligi insonning fuqarolik xususiyatlari shakllanishiga to'sqinlik qila olmaydi.

Fuqarolik jamiyati tushunchasi antik davrdan g'arb ma'rifatchilarigacha bo'lgan uzoq davr mobaynida turlicha ko'rinishlarda namoyon bo'lgan[14, 3-42].

O'zbekiston milliy ensiklopediyasida fuqarolik jamiyatiga quyidagicha ta'rif beriladi: “Fuqarolik jamiyati - konstitutsiyaviy huquq nazariyasida huquq va demokratiyaga asoslangan ijtimoiy hayotning zarur oqilona usuli; insonga uning iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayoti shakllarini erkin tanlash kafolatlanadigan, qonun ustuvorligi va inson huquqlari hamda erkinliklari qaror topadigan, ko'p partiyaviylik, siyosiy institutlar, mafkura va fikrlarning xilma-xilligi ta'minlanadigan hamda o'zini-o'zi boshqarish organlarining mavqeyi baland bo'lgan ijtimoiy tuzum”[10, 320].

Aflotunga ko'ra, davlat adolatli jamiyat qurishni o'z oldiga maqsad qilishi, odamlar esa jamiyat manfaatlari yo'lida, oqillik, jasurlik, bosiqlik hamda adolat bilan, o'zlariga topshirilgan vazifalarni puxtalik bilan bajarishlari kerak. Jamiyat haqida qayg'urish «dono hukmdor»ning vazifasi sifatida belgilangan[15, 6].

Ma'lumki, ijtimoiy-fuqarolik va axloqiy savodxonlik – unga mos tushunchani anglatuvchi juda keng hodisa bo'lib, unda tushunchaning o'zi unga mos hodisani qayd etadi, bunda “ijtimoiy”, “fuqarolik” va “axloqiy” atamalarining mazmuni “siljishi” kuzatiladi.

“Madaniyat” va “huquqiy” atamalarining fuqarolik savodxonligi tushunchasi tarixi obyektiv sharoitda subyektiv tomonidan jamiyat taraqqiyoti insonlarning o'zaro hamkorligi aloqa doiralarini kengaytirilishi takomillashuviga ko'rsatiladigan ta'sirning ijobiy, mo'tadil holatda bo'lishini ta'minlashda ko'rinadi.

“Fuqarolik savodxonligi” tushunchasida keltiriladigan atamalar, bizningcha, ijtimoiy-fuqarolik va axloqiy savodxonlikka nisbatan o'z mazmunli to'ldirilishiga ega bo'lishi kerak.

Savodxonlikning ixtiyoriy turi, jumlada, ijtimoiy-fuqarolik va axloqiy savodxonlikni juda keng tushunish o'quvchilarning bunday savodxonliklarini shakllantirishning mazmuni, shakllari va metodlarini optimal tanlashga yordam bermaydi va hatto o'quvchilarning ijtimoiylik, fuqarolik va axloqiylik to'g'risidagi tasavvurlarining yaxlit rivojlanmasligiga olib keladi. O'quvchilar “ijtimoiy”, “fuqarolik” va “axloqiy” atamalarni mazmunini ifodalashda qiyinchiliklar his qiladilar, chunki ijtimoiy-fuqarolik va axloqiy savodxonlikni shakllantirish o'ziga tashqaridan qarash qobiliyatlari, jamiyat hayoti bilan bog'liq bo'lgan qobiliyatlarning rivojlanishi bilan bog'liq. Faqatgina bunday qobiliyatlarni shakllantirish, bizningcha,



ijtimoiy, fuqarolik va axloqiy jihatlari o'qituvchining va oqibatda bolalarning diqqat markazidan tashqarida yotishiga olib kelishi mumkin deb hisoblaymiz.

O'quvchining fuqarolik savodxonligi shaxs hosilasi hisoblanadi, chunki o'quvchilarning fuqarolik savodxonligini shakllantirish, birinchidan, ularda fuqarolik jamiyati, fuqaro va uning sifatlari to'g'risidagi, fuqarolik jamiyati qadriyatlari to'g'risida, fuqarolik xulqi va faoliyati hamda fuqarolar to'g'risidagi tasavvurlarni (bilimlar) shakllantirishni nazarda tutadi. Ikkinchidan, o'quvchilarda fuqarolik jamiyatiga, fuqaroga va boshqalarga qadriyatli munosabatni rivojlantirish. Uchinchidan, ularning fuqarolik xulqi va faoliyati tajribasini, "fuqaro", "fuqarolilik" tushunchalari mazmuniga mos munosabatlarni amalga oshirish tajribasini egallashni ko'zda tutadi.

Ma'lumki, tushuncha, fuqarolik mazmunidagi xulq va hatti-harakatlarning mazmunli tomonini belgilovchi munosabatlarda rivojlanadigan va ifodalangan xususiyatlar va sifatlarni emas, balki munosabatlarni qayd etadi. Maktab o'quvchisining fuqarolik savodxonligi, bizningcha, o'quvchilarni fuqarolik mazmunidagi harakatlar-xulqlarni bajarishga yo'naltiruvchi bilimlar va qadriyatlar majmuini ifodalaydi.

Fuqarolik savodxonliginida huquqiy ta'lim va tarbiya o'zaro bog'liqlik, uzviylik, aloqadorlik hamda dialektik xarakterga ega bo'lib, shaxs fuqarolik savodxonligiga oid bilimni shakllantirish garovi hisoblanadi. Zero, huquqiy ta'lim o'quvchilarga huquqiy me'yorlar, qonunlar, shuningdek, ijtimoiy-huquqiy munosabatlar mohiyati to'g'risida tizimlashgan bilimlarni berish, ularda huquqiy bilimlarni egallashga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirish, huquqiy ongni shakllantirish jarayoni bo'lib, u izchil, uzluksiz, tizimli tarzda tashkil etilishi lozim.

Huquqiy tarbiya shaxs tomonidan o'zlashtirilgan nazariy-huquqiy faoliyatni tashkil etish borasidagi ko'nikma va malakalarni hosil qilish, ijobiy mazmundagi huquqiy sifatlarni qaror toptirish va huquqiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan murakkab dinamik tizimli jarayon hisoblanadi. Shaxs fuqarolik savodxonligini shakllantirish huquqiy ta'lim va tarbiya jarayonning muhim bosqichidir.

Huquqiy madaniyatni shakllantirish – aniq maqsadga yo'naltirilgan yaxlit pedagogik faoliyat jarayoni bo'lib, ushbu jarayonda quyidagi pedagogik vazifalar hal etilgan:

- o'quvchilarda huquqiy faoliyatni tashkil etish borasidagi ko'nikma va malakalarni hosil qilish;

- ularda ijobiy mazmundagi huquqiy sifatlarni (huquqiy tasavvurlar, huquqiy idrok, huquqiy tafakkur, huquqiy savodxonlik, huquqiy mas'ullik, huquqiy e'tiqodlilik va huquqiy salohiyat)ning qaror topishini ta'minlash;

-o'quvchilarga huquqiy me'yorlar, qonunlar va ijtimoiy-huquqiy munosabatlar mohiyati hamda ularning ijtimoiy hayotdagi ahamiyati to'g'risida ma'lumotlar berish;

- o'quvchilarda huquqiy bilimlarni egallashga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirish, huquqiy ongni qaror topshirishga erishish.

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarning fuqaro, fuqarolik jamiyati, ijtimoiy tizim, ijtimoiy tartib to'g'risidagi tasavvurlari – kundalik tajribaga hamda o'quvchilarning maktab ta'limi mazmunini o'zlashtirishlari davomida egallagan bilimlariga asoslangan tasavvurlar (bilimlar) o'quvchilarning fuqarolik savodxonligi haqidagi dastlabki bilimlarini oshirishga xizmat qiladi.

#### **Adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni.

2. Гаязов А.С. Образование и образованность: гражданин в современном мире. - М.: Наука, 2003. - 256 с.

3. G'oziyev E. Mustaqil fikrlashning komillikka ta'siri. Xalq ta'limi jurnali. - Toshkent: 2011-yil 4-son. 31-37-betlar.

4. Quronov M. Maktab ma'naviyati va milliy tarbiya. -Toshkent: Fan. 1995. – 118-b.

5. Mamatov X. Huquqiy madaniyat va O'zbekistonda fuqarolik jamiyatining shakllanish muammolari. -T.: 2009. -117- b;

6. Подласый И.П. Педагогика. Новый курс: учебник для студентов педагогических вузов: в 2 кн. - М.: ВЛАДОС, 2000. - Кн. 2: Процесс воспитания. - 256 с.

7. Tadjibayeva O.A., Ramazonova N.K. Inson huquqlari. -T.: 2010. -51-b;

8. To'ychiyeva X.N. Karmova O.A. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish uchun zarur bo'lgan dasturlar, kurslar, metodik ko'rsatmalar, didaktik vositalarga qo'yiladigan talablar. O'quv qo'llanma. –Tashkent: 2001. 24-b.t.

9. To'ychiyeva X.N. Huquqiy ta'lim-tarbiyani takomillashtirishning ba'zi masalalari. Toshkent davlat pedagogika universiteti. Ilmiy ishlar to'plami. –Tashkent: 1998. 61-67- b.

10. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2001-2006. TOSHKENT B-320

11. Xalilov E.X. Ijtimoiy turmushda huquqiy ongning o'rni, –Tashkent: O'zbekiston, 1997. –48-b.

12. Husanboyeva Q. Adabiyot – ma'naviyat va mustaqil fikr shakllantirish omili. -T: Alisher Navoiy, 2009. 368- b. 12-13-betlar.

13. Shoraxmetov Sh. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual huquqi. -Toshkent: Adolat. 2001. -339-b.

14. Boris DeWiel. A Conceptual History of Civil Society: From Greek Beginnings to the End of Marx. Past Imperfect. Vol. 6, 1997, pp.3-42

15. Edwards, Michael. Civil Society. Cambridge, England: Polity Press, 2004. p.6.

## **TALABALARDA VATANPARVARLIK RUHINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI**

**Tursunov Sh. R. - Toshkent davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada talabalarni Vatanga muhabbat, milliy g'urur, iftixor, o'dob-axloqli, madaniyatli, ma'naviy barkamol, yuksak insoniy fazilatlarini o'zida jam qilgan komil shaxsni tarbiyalashning pedagogik ta'sir vositalari axloqiy qarashlar orqali yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Vatan, tarbiya, vatanparvarlik, iftixor, milliy g'urur, madaniyat, ma'naviyat, tashabbuskorlik, yoshlar, islohot, ma'rifat, strategiya

## **ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПАТРИОТИЧЕСКОГО ДУХА У СТУДЕНТОВ**

**Турсунов Ш. Р.- Преподаватель Ташкентского государственного педагогического университета**

**Аннотация.** В статье описаны педагогические средства воспитания у студентов любви к Родине, национальной гордости, нравственности, культуры, духовной зрелости, высоких человеческих качеств через нравственные воззрения.

**Ключевые слова:** Родина, воспитание, патриотизм, гордость, национальная гордость, культура, духовность, инициатива, молодежь, реформа, просвещение, стратегия.

## **THEORETICAL BASIS OF FORMATION OF THE PATRIOTIC SPIRIT IN STUDENTS**

**Tursunov Sh. R.-Teacher of Tashkent State Pedagogical University**

**Annotation.** The article describes the pedagogical means of instilling in students love for the Motherland, national pride, morality, culture, spiritual maturity, high human qualities through moral views.

**Key words:** Homeland, education, patriotism, pride, national pride, culture, spirit, initiative, youth, reform, enlightenment, strategy.

Bugungi kunda jamiyatda tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda bosh omil, yoshlarni Vatanga muhabbat, milliy g'urur, iftixor, so'zlashuv odobi, ahloqiy – madaniyati, yuksak insoniy fazilatlarni o'zida jam qilgan barkamol shaxs qilib kamol toptirish dolzarb vazifa sifatida ilgari surilmoqda. Chunki talabalarni vatanparvarlik ruhida kamol toptirishda tarbiyaviy metodlar, ta'lim jarayonining samaradorligini oshirib borish muhim o'rin tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 19-mart kuni ilgari surgan besh muhim tashabbusida ham talaba-yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ta'lim muassasasi o'rnini va ahamiyati yuqori. Chunki ushbu ilgari surilgan “beshta eng muhim tashabbusda yoshlarga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirish, ularni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, yoshlarda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish, yurtimiz yoshlari o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini ta'minlash” kabi vazifalar mamlakat ertangi kuni uchun, yetuk, yoshlarni barkamol avlod bo'lib voyaga yetishlarida ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash muhim o'rin egallaydi [1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2020-yil 24-yanvar kuni Oliy Majlisga murojaatnomasida: “O'zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bunga nafaqat jadal islohotlar, ilm-ma'rifat va innovatsiya bilan erishamiz. Buning uchun, avvalambor, tashabbuskor islohotchi bo'lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur” degan ushbu murojaati mazmunida ham oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talaba-yoshlarni vatanparvarlik ruhida kamol toptirish pedagoglar oldida turgan eng muhim muammodir [2].

Vatanparvarlik bir so'z bilan aytilganda o'z ijobiy ishlarimiz, bunyodkorlik harakatlarimiz, vatan ravnaqi yo'lida bor kuch g'ayratimiz bilan yurtimizning gullab yashnashiga o'z hissasini qo'shish:

- ona yurtimizda tinchlik, barqarorlik va osoyishtalikni saqlashga intilish vatanparvarlikning belgisidir;

- vatanparvarlik – xalqaro munosabatlarda vatan, millat manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yishdir [3].

Vatan, vatanparvarlik, vatanparvarlik ruhi, vatanga e'tiqod, vatanga sadoqat so'zlari doimo biri-ikkinchisini to'ldirishi, ifodalashini inobatga olib, “vatanparvarlik” tushunchasining mazmuni, mohiyatini tushunib olish lozim. “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi”da vatanparvarlik - kishilarning ona-yurtiga, o'z vataniga muhabbati va sadoqatini ifodalaydigan tushuncha. Vatanparvarlik barcha

kishilar, xalq, millatlar uchun umumiy bo‘lgan asrlar davomida sayqallanib kelgan umuminsoniy tuyg‘u, ma’naviy qadriyatlardan biri. Tarixiy jihatdan vatanparvarlik kishilarning o‘z vatanlari taqdiri bilan bog‘liq ijtimoiy rivojlanish, xalqlarning o‘zlari yashayotgan hududning daxlsizligi va mustaqilligi yo‘lidagi kurashi jarayonida takomillashib kelgan his-tuyg‘ular jamlanmasi hamdir. Bu vatanning o‘tmishi va hoziri bilan faxrlanishda, manfaatlarini himoya qilishda namoyon bo‘ladi [4].

A.Erkayevning “Ma’naviyat millat nishoni” kitobida vatanparvarlik tuyg‘usi haqida quyidagicha fikr bildirib o‘tiladi: “Vatanparvarlik eng avvalo, mustaqillikni mustahkamlashga ijobiy hissiy munosabatdir. Vatanparvarlik, shuningdek, e’tiqod sifatida tegishli tushunchalar, qarashlar, g‘oyalar, ideallardan ham tarkib topadi. Vatanparvarlik minglab, millionlab xalq tomonidan istiqlolni mustahkamlashni, rivojlantirishni, uni ijtimoiy hayotning barcha sohalarida kengaytirish zaruriyatining asosiy tamoyillarini to‘g‘ri tushunish, istiqlol manfaatlarini shaxsiy, guruhiy, sinfiy, mahalliy-mintaqaviy manfaatlardan ustun qo‘yishdir” [5].

Vatan tushunchasining ilmiy, pedagogik, falsafiy, badiiy jihatlariga to‘xtaladigan bo‘lsak, 1981 - yilda nashr etilgan “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da vatan tushunchasiga quyidagicha ta’rif berilgan: “Kishi tug‘ilib o‘sgan va o‘zini uning fuqarosi hisoblagan mamlakat; kishining tug‘ilib o‘sgan o‘lkasi, shahri yoki qishlog‘i; turar joy, boshpana, maskan, uy sifatida talqin etilgan” [6].

O‘zbekiston milliy ensiklopediyasida esa Vatan tushunchasiga shunday ta’rif keltiriladi: “Vatan - kishilarning tug‘ilib o‘sgan joyi, yurti, mamlakati; tarixan muayyan xalqqa tegishli hudud hamda uning tabiati, aholisi, o‘ziga xos taraqqiyoti, tili, madaniyati, turmushi va urf-odatlari majmui. Vatan ona kabi muqaddas. Vatan oldidagi qarzdorlik tuyg‘usi, mas’uliyati har bir yetuk insonga xos xususiyatdir. Vatanni sevish vatanparvarlikda namoyon bo‘ladi” [7].

Vatanparvarlik va milliy o‘ziga xoslik bir butunning ikki qanoti - inson va fuqaroning ma’naviy olamidir. Xalqimizning vatanparvarligi vatandoshlarimizning sha’ni, qadr-qimmatini, madaniyati, urf-odatlari va tarixiga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lishda mujassamdir.

Vatanparvarlik g‘oyasi butun zamonlarda nafaqat jamiyatning ma’naviy hayotida, balki jamiyat hayotining mafkura, siyosat, madaniyat, iqtisodiyot, ekologiya va hokazolar singari barcha eng muhim sohalarida alohida o‘rin egallagan. Vatanparvarlik o‘zbek milliy g‘oyasining tarkibiy qismi, asrlar davomida yaratilgan mamlakatdagi madaniyat va fanning ajralmas bo‘g‘inidir. Bu doimo mardlik, qahramonlik manbai hamda davlatimizning buyukligi va qudratining zaruriy sharti sifatidagi o‘zbek xalqining qudrati sifatida baholab kelingan.

Yoshlarda vatanparvarlik va vatan tuyg‘usi qanchalik kuchli bo‘lsa, ularning ma’naviy kamolotga bo‘lgan ehtiyojlari ham mustahkam, barqaror bo‘ladi.

Vatanparvarlikning mazmuni va yoʻnalishi eng avvalo, jamiyatdagi maʼnaviy va axloqiy iqlim, avlodlarning ijtimoiy hayotini oziqlantiruvchi jamiyatning tarixiy ildizlari bilan belgilanadi. Vatanparvarlikning roli va ahamiyati tarixni keskin burilishlarida, jamiyat rivojlanishining obyektiv tendensiyalari, jamiyatdagi fuqarolar kuchlarining keskinligi oshishi (urushlar, bosqinlar, ijtimoiy toʻqnashuvlar, inqilobiy silkinishlar, inqirozli hodisalarning keskinlashuvi, hokimiyat uchun kurash, favqulodda va boshqa kulfatlar va h.k. ) ortishi bilan birgalikda kechadigan davrda yanada oshadi. Bunday davrlarda vatanparvarlikning namoyon boʻlishi yuksak oliyjanob intilishlar, oʻz xalqi, oʻz vatani uchun oʻzini qurbon qilish sifatлари bilan namoyon boʻladi. Bu vatanparvarlik toʻgʻrisida murakkab va albatta, mislsiz hodisa toʻgʻrisida soʻz yuritishga majbur etadi.

Ayrim oʻzbek tadqiqotchi olimlarimiz ham eʼtiqod tushunchasini quyidagicha ifodalaganlar. Xususan, A.Ibrohimov, X.Sultonov, N.Joʻrayevlarning “Vatan tuygʻusi” kitobida “Eʼtiqod- bu oʻz fikr va qarashlariga mahkam, sobit qadamlik bilan ishonish va oʻzgalarni ham oʻzidek hisoblab, ularning lafziga samimiyat bilan ishonishdir. Eʼtiqod jurʼatni, mardlikni, fidoyilikni taqozo qiladi. Bularsiz u quruq gʻoya boʻlib qolaveradi” [8], - deya talqin etiladi.

Bugungi kunda vatanparvarlik gʻoyasi bir qator ziddiyatlar va xolis boʻlmagan mulohazalarga ega. Zamonaviy sharoitlardagi vatanparvarlik rolini tegishli bahosi yoʻqligining jiddiy sabablaridan biri vatanparvarlik gʻoyalarini nazariy ishlab chiqishni bir maʼnoda emasligi va turli yoʻnalishlarga ega ekanligi, ularning OAV da targʻib qilinishi, siyosiy partiyalar va harakatlarning koʻrsatmalaridir. Bularning barchasi oʻz Vatani himoya qilish borasida aholining vatanparvarlik qarashlariga jiddiy taʼsir koʻrsatadi.

Vatanparvarlik gʻoyalarining toʻgʻri talqin qilinishiga olib keladigan obyektiv va subyektiv sabablarni tahlil qilish asosida toʻgʻri xulosalar chiqaribgina qolmasdan jamiyatda fuqarolik yondashuvini tarbiyalash zaruriyatini tushungan holda mazkur sohada jiddiy oʻzgarishlarga erishiladi.

Yuqorida bayon qilinganlarga tayangan holda quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

Birinchidan, ijtimoiy hayot hodisasi va ijtimoiy ong boʻgʻini sifatidagi vatanparvarlik boy tarixga va chuqur anʼanalarga ega boʻlgan mamlakatimizdagi ijtimoiy fan va madaniyatning ajralmas tuzilmaviy unsuridir;

Ikkinchidan, vatanparvarlik doimo oʻzbek xalqining mardligi, shuhrati va qahramonligi timsoli sifatida, davlatimizning birligi, buyukligi va qudratining zaruriy sharti sifatida koʻrib chiqilgan;

Uchinchidan, vatanparvarlik mohiyati turli mutaffakirlar tomonidan turlicha, eng avvalo, uning maʼnaviy ifodalanishi hamda aniq taʼsirchan namoyon boʻlishi maʼnosida talqin qilinganligini taʼkidlash zarur. Vatanparvarlik muammosini koʻrib

chiqish buni asosli va yanada mukammal ishlab chiqish imkoniyatlarini turli shakllarda cheklagan, uning ahamiyatli jihatlarini, g'oyaning o'zini badnom qilishga intilishga bo'lgan qadar yuqoriga urgangan ko'p sonli muxoliflarning ta'siri ostida bo'lganligi o'ziga xos ahamiyatga ega;

To'rtinchidan, vatanparvarlikni zamonaviy tushunish barcha fuqarolarning ham mamlakat ichida, ham jahonda milliy sanoatni, qishloq xo'jaligini, madaniyat va san'atni yuqori texnologiyalarni faol rivojlantirish hisobiga mamlakatimizning nufuzini mustahkamlashda faol ishtirok etishini nazarda tutadi.

Tarixiy va zamonaviy ilmiy tadqiqot adabiyotlarida mavjud bo'lgan vatanparvarlikni tushunishga yondashuvlarning butun turli-tumanligini vatanparvarlik yondashuvini anglatuvchi uning asosiy alomati bo'yicha shartli tarzda yo'nalishlarga farqlash mumkin. Globallashuv jarayonida bozor iqtisodiyotiga ega bo'lgan demokratik davlat qadriyatlarini asosida yoshlarni vatanparvar, jonkuyar, o'z yurtiga sadoqatli qilib tarbiyalash, yoshlarga Vatan tushunchasini teran anglab yetishishiga o'rgatish, vatanparvarlik – yuksak axloqiy tamoyil ekanligini ularning ongiga sindirish muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Adabiyotlar**

1. Xalq so'zi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 - yil 19 - martdagi "Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha muhim vazifalar" haqidagi nutqi. 2020 - y. 20 - mart
2. Xalq so'zi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy Majlisga Murojaatnomasi" 2020 - y. 25 - yanvar №-19 - son
3. Sh.M. Mirziyoev. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017 - y. – 488 - b.
4. Mirziyoev Sh.M. 1-oktyabr – O'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan yo'llagan bayram tabrigi. <https://kun.uz/news/2017/09/29/>.
5. I.A.Maxmudov, Vatanparvarlik tarbiyasining dolzarb masalalari.– Qarshi. 2017 - y.
6. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.- T.: Davlat ilmiy nashriyoti, 2-tom. 2001. 395-bet.
7. Erkayev A., Ma'naviyat millat nishoni.- T.: Ma'naviyat, 1997. 188- bet
8. O'zbek tilining izohli lug'ati. - M.: Rus tili, 1-tom. 1981. 173- b.
9. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.- T.: Davlat ilmiy nashriyoti, 2-tom. 2001. 395- b.
10. Ibrohimov A., Sultonov X., Jo'raev N. Vatan tuyg'usi.- T.: O'zbekiston, 1996.- 25-b

**NOFILOLOGIK YO‘NALISHLARDA KASBIY-PEDAGOGIK  
TAYYORLASH JARAYONIDA CHET TILI VOSITALARI ORQALI  
BO‘LAJAK O‘QITUVCHINING MULOQOT KOMPETENSIYASINI  
RIVOJLANTIRISH**

**Xasanov A. A. – Samarqand davlat universiteti o‘qituvchisi**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada muloqot kompetensiyaning mohiyati va strukturasi taalluqli bo‘lgan xorijiy va milliy tadqiqotlar tahlili, kasbiy-pedagogik tayyorlash jarayonini intensivlashtirish maqsadida mazkur tushunchani yanada aniq ta’riflash zaruratini ko‘rsatadi. Pedagogik oliy ta’lim muassasalarida chet tilini o‘rganishning mazmuni nafaqat bilim va ko‘nikmalarni egallashda, balki o‘zini, hayotda o‘z o‘rnini topishda, bilimlar, tilga muhabbatga asoslangan, kasbiy ahamiyatli shaxs sifatlarini rivojlantirishdan iborat ekanligini ko‘zda tutadi.

**Kalit so‘zlar:** muloqot kompetensiyasi, chet tili, bo‘lajak o‘qituvchi, dunyoqarash, ijtimoiy ong, pedagogika, bilim, ko‘nikma, kasbiy tayyorgarlik, madaniyatlararo hamkorlik, tilga oid tayyorgarlik, kasbiy ehtiyoj.

**РАЗВИТИЕ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ  
БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ ПОСРЕДСТВОМ ИЗУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫХ  
ЯЗЫКОВ В ПРОЦЕССЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ  
ПОДГОТОВКИ ПО НЕФИЛОЛОГИЧЕСКИМ НАПРАВЛЕНИЯМ**

**Хасанов А.А. - преподаватель Самаркандского государственного  
университета**

**Аннотация.** Приведённый в данной статье анализ зарубежных и отечественных исследований значения и структуры коммуникативной компетенции подчеркивает необходимость более четкого определения этого понятия с целью интенсификации процесса профессионально-педагогической подготовки. Цель изучения иностранного языка в педагогическом вузе - не только получить знания и умения, но и найти себя, свое место в жизни, развить знания, языковые, профессионально важные личностные качества на основе любви к языку.

**Ключевые слова:** коммуникативная компетенция, иностранный язык, будущий учитель, мировоззрение, общественное сознание, педагогика, знание, умение, профессиональная подготовка, межкультурное сотрудничество, языковая подготовка, профессиональная потребность.



**DEVELOPMENT OF THE COMMUNICATIVE COMPETENCE OF THE FUTURE TEACHER THROUGH LEARNING FOREIGN LANGUAGES IN THE PROCESS OF PROFESSIONAL-PEDAGOGICAL TRAINING IN NON-PHYLOGICAL DIRECTIONS**

**Khasanov A. A. – teacher of Samarkand state university**

**Annotation.** This article analyzes foreign and national research on the nature and structure of communication competence and highlights the need for a clearer definition of this concept in order to intensify the process of vocational training. The purpose of learning a foreign language in pedagogical universities is not only to acquire knowledge and skills, but also to find oneself, one's place in life, knowledge, language-based, professionally important personality traits.

**Key words:** communicative competence, foreign language, future teacher, worldview, public consciousness, pedagogy, knowledge, skills, professional training, intercultural cooperation, language training, professional need.

Mamlakatlar va xalqlarni yaqinlashtirish, ularning o‘zaro aloqalarini kuchaytirish jarayonlari – zamonaviy jamiyat rivojlanishining muhim qonuniyati hisoblanadi. Ta’lim tizimi hayotning boshqa sohalaridan ajralib qolmasdan, mazkur jarayonlarning ta’sirini o‘zida aks ettirmoqda. U insonda dunyoqarashning yaxlitligini, ya’ni inson va olamning umumiylikini shakllantirishi va rivojlantirishi kerak (insonning tabiiy va ijtimoiy muhitdagi o‘rni va rolini belgilash bilan). Milliy, umuminsoniy qadriyatlarni aniqlashga yo‘nalgan mazkur jarayon asosida yangi ijtimoiy ong, yangi ilmiy fikrlash turi, insonlar o‘rtasidagi yangi munosabatlarning shakllanishini ko‘zda tutuvchi umuminsoniy g‘oya yotadi. Mazkur g‘oya ta’lim oldiga bevosita pedagoglarning kasbiy rivojlanishlariga mos vazifalarni qo‘yadi.

Pedagogik oliy ta’lim muassasalari talabalarining kasbiy rivojlanishi madaniyatlar dialogi aspektida sifatli yangi ko‘rsatkichlarga ega bo‘lmoqda. O‘zbekiston pedagogika fanining jahon ilmiy hamjamiyatiga kirib borishi chet tilini, uning uzluksiz ta’lim tizimidagi rolini o‘rganishda tub o‘zgarishlarni yuzaga keltiradi. Pedagogik oliy ta’lim muassasalari talabalar nafaqat maxsus bilim va ko‘nikmalarni egallaydigan, balki ijtimoiy va kasbiy munosabatlar tajribasini to‘playdigan, ularda muayyan dunyoqarash, hayot ustanovkalari va qadriyatli yo‘nalganliklar shakllanadigan muhim omil hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda o‘qituvchi faoliyati va kasbiy tayyorgarligini tadqiq etuvchi ko‘pgina ishlar mavjud (B.S.Abdullayeva, A.A.Abdudodirov, G.Abduraimova, Sh.Abduraimov, B.R.Adizov, N.N.Azizxodjayeva, S.Bazarova, U.Sh.Begimqulov, R.H.Djurayev, R.G.Isyanov, Sh.Q.Mardonov, A.Maxmudov, D.Mamatov,

N.A.Muslimov, O.Musurmonova, U.N.Nishonaliyev, S.Nishonova, N.Ortiqov, M.Ochilov, B.X.Rahimov, O'.Q.Tolipov, O.To'raqulov, U.To'raqulov, D.Sharipova, Sh.S.Sharipov, A.A.Xalikov, N.G'. Egamberdiyeva, M.Qodirovlar. Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlari tadqiqotchilari L.S.Vigotskiy, P.Ya.Galperin, V.V.Davidov, N.V.Kuzmina, Ye.N.Linov, I.Ya.Lerner, A.K.Markova, N.D.Nikandrov, S.L.Rubinshteyn, Yu.K. Babanskiy, Ye.P. Belozersev, Yu.K. Vasilyev, F.N. Gonobolin, V.I. Zagvyazinskiy, V.A. Kan-Kalik, Yu.N. Kulyutkin, M.I. Maxmutov, N.V. Nikandrov, V.A. Onishuk, Ye.K. Osipova, A.A. Orlov, V.G. Podzolkov, V.A. Slastenin, G.S. Suxobskaya, I.L. Fedotenko, N.A. Shaydenko).

Maktab va oliy ta'lim muassasasi ta'limining yangi konsepsiyalari, o'qituvchilarni tayyorlash va qayta tayyorlash modellari ishlab chiqilmoqda va paydo bo'lmoqda.

Yevropa Ittifoqi bugungi kunda ixtiyoriy mutaxassis, jumladan o'qituvchi uchun zarur bo'lgan 5 ta asosiy kompetensiyalarni ajratadi: siyosiy va ijtimoiy; ko'p madaniyatli jamiyat hayotiga taalluqli bo'lgan kompetensiya; axborot jamiyatining yuzaga kelishi bilan bog'liq bo'lgan kompetensiya; butun hayot davomida o'qish qobiliyati va istagini amalga oshiruvchi kompetensiya; «ishda va ijtimoiy hayotda muhim bo'lgan og'zaki va yozma muloqotni egallashni belgilovchi kompetensiya.... Mazkur muloqot guruhiga borgan sari katta ahamiyatga ega bo'layotgan, bir necha tillarni bilish ham kiritiladi».

O'qituvchining kasbiy tayyorgarligi va rivojlanishi mazmunida ular alohida ahamiyatga ega bo'ladi, shu sababli oliy pedagogik ta'limning kadrlarning muloqot tayyorgarligi darajasi muammosiga murojaati bugungi kunda dolzarb hisoblanadi.

Kasbiy va ijtimoiy hayotdagi muhim kompetensiyalaridan biri muloqot kompetensiyasi hisoblanib, bir tomondan shaxsning ijtimoiylashuviga ko'maklashadi va fuqarolarning shaxsiy ehtiyojlariga javob beradi, boshqa tomondan – jamiyatning professional kadrlarga bo'lgan ehtiyojini qondiradi. Zamonaviy mutaxassis, jumladan o'qituvchi uchun faqatgina homo sapiens, «zakovatli inson» bo'lish yetarli emas, jamiyatning homo loquens, «so'zlashuvchi inson», aniqrog'i «muloqot qiluvchi inson»ga ehtiyoji ko'proq sezilmoqda.

Tildagi inson omiliga, nutq subyektini tomonidan til qanday foydalanilishiga qaratilgan ta'limning zamonaviy paradigmasi bevosita uning muloqot kompetensiyasiga bog'liqdir. O'z mohiyatiga ko'ra antropologik til nafaqat jamiyatning muloqot xizmat ko'rsatish pragmatik funksiyalarini bajaradi, balki insonning shaxs sifatida individual ifodalanishi usullaridan biri sifatida xizmat qilib, mazkur jamiyatning har bir a'zosini shakllantirish uchun ulkan imkoniyatga ham ega hisoblanadi.

Pedagogik oliy ta'lim muassasalarini ijtimoiy qadriyatlarining butun tizimini ifodalaydigan jamiyatning sotsiologik modeli sifatida qarash mumkin.

Pedagogning muloqot kompetensiyasi darajasi jamiyatning ijtimoiy-psixologik muhitini, jamiyat ma'naviyatining holatini, kasbiy faoliyat muvaffaqiyatini aks ettiradi. Pedagogik oliy ta'lim muassasalarida kasbiy rivojlanish jarayonida mazkur kompetensiya o'quv-tarbiya jarayoni subyektlarining roli va shaxslararo o'zaro aloqalari tizimlarini boshqarishni ta'minlaydi.

Pedagogik kasb pedagogdan nutqiy amallarda o'zini-o'zi ifodalashni, nutqiy ta'sir etish instrumentlarini egallashni talab etadi, o'z nutqi orqali bilish va muloqot usuli sifatida tilga munosabatni amalga oshiradi. Madaniyatlararo hamkorlik va baynalminal aloqa vositalarining rivojlanishi bilan chet tilini amaliy egallaganlikning ahamiyati oshdi, uni egallash darajasiga xalqaro talablarga yo'nalganlik ortdi. Chet tili vositalari bilan ta'lim berish o'quvchilarni madaniyatlar dialogiga jalb etish, umuminsoniy madaniyatlar rivojida milliy madaniyat yutuqlari bilan tanishtirish, ona tili va madaniyatning boshqa til madaniyati ifodasidagi rolini anglashni nazarda tutadi. Ammo, amaliyot ko'rsatishicha, maktab va oliy ta'lim muassasasi o'rtasidagi uzluksizlik o'rnatilmagan, oliy ta'lim muassasalarining birinchi kursida chet tilini o'rganish alfavitni o'zlashtirishdan boshlanadi. Bu bir qator sabablar bilan bog'liq bo'lib, ular orasida, o'quvchilarning tilga oid tayyorgarliklarini bir xil emasligi, umumiy madaniyat va ta'limning turli darajasi mavjud bo'lib, bu o'z navbatida talabalarning muloqot kompetensiyalari darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va ularning kasbiy rivojlanishlari jarayonini sekinlashtiradi.

Ma'lumki, oliy ta'limda chet tillarini o'rganish yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashda uzluksiz ta'lim tizimining tarkibiy qismi hisoblansada, uning umumiy konsepsiyasiga nisbatan bahslar hamon to'xtamagan.

Zamonaviy maktabda muloqot kompetensiyaning yuqori darajasiga ega bo'lgan, umumiy va kasbiy madaniyatning tashuvchisi va subyektini hisoblangan, murakkab ijtimoiy-madaniy sharoitlarda erkin ishlaydigan, o'quvchilarning shaxsiy milliy madaniyatini anglashlariga ko'maklashish orqali, ularning jahon madaniyatiga integratsiyasiga ko'maklashuvchi ijodiy pedagog zarurdir.

Zamonaviy "tipik" o'qituvchining darajasi ortib borayotgan talablarga javob bermaydi, mavjud kasbiy rivojlanish tizimining ko'p sonli o'zgarishlari esa bo'lajak o'qituvchilarning amaliy tayyorgarliklarini sifatli yaxshilanishiga olib kelmaydi.

Pedagog muloqot kompetensiyasining past darajasi sababli jahon madaniyati mazmunidan tashqarida bo'lib, o'zining madaniy-ijodiy rolini, o'quvchilarning ijtimoiy-ahamiyatli ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga yo'naltirib, madaniyatlar dialogiga undovchi, maktabda ta'limiy va tarbiyaviy muhitni yaratishda amalga oshiradi. O'qituvchilarni tayyorlash amaliyoti pedagogik oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari muloqot kompetensiyasining yetarli darajasiga ega emasliklarini ko'rsatadi. Tajriba-sinov ishlari doirasida olingan anketa, suhbat, kuzatuv natijalari o'qituvchilar chet tilida erkin muloqot qilishni, pedagogik hamjamiyatdagi kasbiy

aloqalarni kengaytirish uchun, uni fanlararo integrasiyani amalga oshirishda o'z kasbiy faoliyatlarida qo'llashni istashlari to'g'risida ta'kidlash imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari, pedagogik oliy ta'lim muassasasi talabalarining shaxslararo bilish qonunlari, muloqot texnologiyalari, kasbiy-pedagogik (jumladan nutqiy) axloqni o'zlashtirish istagi va intilishida ifodalanuvchi, ular chet tilini o'rganish orqali muloqot kompetensiya shakllanganligi darajasini oshirish ehtiyojini his qilishlari to'g'risida guvohlik beradi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, bugungi kunda chet tilini o'rganishga, chet tilini egallagan va kasbiy kompetentlikning shakllanganligini talab etuvchi, muloqot kompetensiyasining yuqori darajasiga ega bo'lgan fan o'qituvchilariga haqiqiy ehtiyoj mavjud. Shu sababli nofilologik fakultetlarda muloqot kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirish masalasiga taalluqli nazariya va amaliyotning yetarli ishlab chiqilmaganligi, pedagogik oliy ta'lim muassasalari talabalarining kasbiy-pedagogik tayyorgarliklari jarayonida chet tilining roliga e'tibor qaratilmaganligi bilan tushuntiriladi.

Mazkur muammo bo'yicha ko'p bo'lmagan nashrlar tadqiq etilayotgan muammoning to'liq ochib bermaydi, «Chet tili» kursining namunaviy dasturlarining mazmunli qismi bo'lajak pedagoglarning shaxsiy, kasbiy ehtiyojlariga mos kelmaydi. Pedagogik oliy ta'lim muassasalari nofilologik fakultetlarida muloqot kompetensiyasini rivojlantirish maqsadida, chet tilini o'qitishning mazmuni, shakllari va metodlarini modernizatsiyalash zaruratini va mazkur masalaning nazariy hamda amaliy darajalarda yetarli ishlab chiqilmaganligini e'tiborga olib, muloqot kompetensiyasini pedagogik oliy ta'lim muassasalarida talabalarni kasbiy-pedagogik rivojlanishlarining zaruriy elementi sifatida, chet tilini o'rganishni esa – uni amalga oshirish vositasi sifatida qarash lozim deb hisoblaymiz. Zamonaviy psixologik-pedagogik tadqiqotlarni o'rganish chet tili vositalari bilan bo'lajak o'qituvchining, muloqot kompetentligini shakllantirish masalasini hal etishga ayrim urinishlar mavjudligi to'g'risida guvohlik qiladi, ammo bu faqatgina filologik fakultetlar bitiruvchilariga taalluqlidir. Nofilologik fakultetlarda kasbiy-pedagogik tayyorlash jarayonida chet tili vositalari bilan bo'lajak o'qituvchining muloqot kompetensiyasini rivojlantirish muammosini o'rganuvchi maxsus tadqiqotlarni uchratmadik.

Muloqot kompetensiyaning mohiyati va strukturasi taalluqli bo'lgan xorijiy va milliy tadqiqotlar tahlili, kasbiy-pedagogik tayyorlash jarayonini intensivlashtirish maqsadida mazkur tushunchani yanada aniq ta'riflash zaruratini ko'rsatadi. Pedagogik oliy ta'lim muassasalarida chet tilini o'rganishning mazmuni nafaqat bilim va ko'nikmalarni egallashda, balki o'zini, hayotda o'z o'rnini topishda, bilimlar, tilga muhabbatga asoslangan, kasbiy ahamiyatli shaxs sifatlarini rivojlantirishdan iboratdir.

### Adabiyotlar

1. Abdullayeva B.S. Fanlararo aloqadorlikning metodologik-didaktik asoslari (Ijtimoiy-gumanitar yoʻnalishlardagi akademik litseylarda matematika oʻqitish misolida). Ped.fan.dokt...diss. avtoref.
2. Абдуллаева Ю.Н. Коммуникативная методика обучения иностранным языкам и зарубежный педагогический опыт. –Самарканд, 2001.
3. Антропова Л.Г. Совершенствование коммуникативной компетентности учителя на основе творческой рефлексии (в условиях дополнительного образования): Дис. ...канд. пед. наук / Л.Г.Антропова. – Челябинск, 1999. -167 с.
4. Ахмедова Н.М. Научные основы построения концепции непрерывной лингвометодической подготовки преподавателя иностранного языка на основе интегративного подхода. Uzluksiz taʼlim ilmiy-uslubiy jurnal. №1 T.: 2018, b.105-111.
5. Begimqulov U.Sh. Pedagogik taʼlim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti. // ped.fan.dokt. ilmiy dar.uchun diss.. -T.: 2007. - 305 b.
6. Безукладников К.Е. Формирование лингводидактических компетенций будущего учителя иностранного языка: Монография / К.Е.Безукладников. – Пермь: Изд. ПГПУ, 2008. – 270с.
7. Булыгина М.В. Педагогические условия развития культурологической компетенции при обучении иностранному языку: Дис. ... канд. Пед. наук / М.В. Булыгина. – Екатеринбург, 1997, -152с.
8. Гнусарёва Н. Формирование профессиональной компетентности будущего педагога иностранных языков. Uzluksiz taʼlim tizimida oʻqituvchilarni sociolingvistik-pedagogik kompetentligini rivojlantirish muammolari va istiqbollari: Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari, Toshkent, 2013yil. 211-212-betlar.
9. Gulyamova M.X. Ingliz tilini oʻqitishda talabalar kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga integrativ yondashuv//:Avtoref. dis. (PhD)ped nauk//Gulyamova M.X. – T.: 2019
10. Jalolov J. “Chet tili oʻqitish metodikasi” T.,- 1996y.
11. Inoyatov U.I. Zamonaviy elektron didaktik vositalarni yaratish, taʼlim jarayonida axborot-kommunikasion texnologiyalarni qoʻllash dolzarb ijtimoiy-pedagogik muammo// Zamonaviy uzluksiz taʼlim muammolari: innovasiya va istiqbollar// xalqaro ilmiy konferensiya T.: 27 aprel, 2018 yil.
12. Kuckartz, Udo / Dresing, Thorsten / Rädiker, Stefan / Stefer, Claus F. (2008). Qualitative Yevaluation – Der Yeinstiyeg in diye Praxis. Wiyesbaden: VS Verlag für Sozialwissenschaften.
13. Lamnek, Sigfried (2005). Qualitative Sozialforschung. Lehrbuch. 4. Aufl. Basel: Beltz.

14. Muslimov N.A. “Tinglovchilarning kasbiy-pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish muammolari”. Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayonlarini takomillashtirish mazmuni va ilg’or xorijiy tajribalar. Xalqaro ilmiy anjuman materiallari. 14-15 oktyabr, -Tashkent, “Sano- standart” nashriyot, 2016. 10-12b.

15. Thuc-Lan TRAN (Magister Artium) / Der kommunikative Fremdsprachenunterricht und Lern und Lerntraditionen am Beispiel des Deutschen-Fremdsprache Unterrichts in Vyetnam / Dissertation zur Yerlangung des akademischen Grades Doctor philosophiaye (Dr.phil.) / vorgelegt dem Rat der Philosophischen Fakultät der Friedrich-Schiller-Universität Jena /München, den 12.Januar 2009

### **MUSIQA MADANIYATI DARSLARIDA O‘QUVCHILARNI ESTETIK TARBIYASINI YUKSALTIRISHDA O‘ZBEK PROFESSIONAL RAQSI ASOSCHILARI BILAN TANISHTIRISHNING AHAMIYATI**

**Karimova D.A. - Toshkent Davlat Pedagogika universiteti dotsenti  
Abdullayeva I. - Toshkent Davlat Pedagogika universiteti talabasi.**

**Annotatsiya.** Maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarining musiqa madaniyati darslarida, musiqa tinglash faoliyati orqali o‘quvchilarni estetik tarbiyasini yuksaltirishda o‘zbek professional raqsi asoschilari bilan tanishtirish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** musiqa, tovush, tembr, ritm, lad, garmoniya, raqs san’ati, musiqa madaniyati, raqs maktablari.

### **ЗНАЧЕНИЕ ЗНАКОМСТВА С ОСНОВОПОЛОЖНИКАМИ УЗБЕКСКОГО ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ТАНЦА В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ ЭСТЕТИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ УЧАЩИХСЯ НА УРОКАХ МУЗЫКАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ**

**Каримова Д.А. - Доцент Ташкентского государственного  
педагогического университета  
Абдуллаева И. - Студент Ташкентского государственного  
педагогического университета**

**Аннотация.** В статье даны рекомендации по знакомству учащихся с основателями профессионального танца в Узбекистане на уроках музыкальной культуры общеобразовательной школы с целью повышения уровня их

эстетического воспитания посредством учебной деятельности – слушания музыки.

**Ключивые слова:** музыка, звук, тембр, ритм, лад, гармония, искусство танца, музыкальная культура, школы танца.

## **THE IMPORTANCE OF KNOWING THE FOUNDERS OF UZBEK PROFESSIONAL DANCE IN IMPROVING THE AESTHETIC EDUCATION OF STUDENTS IN MUSIC CULTURE LESSONS**

**Karimova D.A.-associate professor of Tashkent shtate Pedagogikal University**

**Abdullaeva I. Student of Tashkent State Pedagogical University**

**Annatation.** The article provides recommendations for introducing students to the founders of professional dance in Uzbekistan at the music culture lessons of a secondary school in order to increase the level of their aesthetic education through educational activities – listening to music.

**Key words:** music, sound, timbre, harmony, dance art, musical culture, and dance school.

*Musiqqa qudratli fikr chashmasi,  
musiqiy tarbiyasiz to'liq aqliy  
rivojlanish mumkin emas.*

**V. A. Suxomlinskiy.**

Jamiyatimizning taraqqiyotini yuksaltirishning iqtisodiy va siyosiy omillari singari o'ta zarur bo'lgan yana bir muhim asosi borki, usiz mustaqillikni mustahkamlash, ko'zlangan ozod va obod Vatan, erkin va farovon jamiyat qurishga erishish mumkin emas. Bu musiqa san'atidir. Musiqa insonni yuksak did bilan qurollantiradi va ma'naviy dunyoqarashini shakllantiradi. Musiqa san'ati insonning mehnat jarayoni va borliqdan olgan hissiy taassurotlari bilan bog'liq holda yuzaga kelgan. Bu san'at dastlab qo'shiq va so'z bilan bog'liq bo'lib, keyinchalik mustaqil san'at turiga aylangan. Ritmika-kuylanadigan yoki tinglanadigan kuyning sur'ati, usulini o'rgatadi. Ritmsiz kuy bo'lmaydi. Shuning uchun biror bir kuy noto'g'ri ritmda ijro etilsa, musiqiy asar o'z shaklini yo'qotadi. Darslarda amaliy mashqlar jarayonida musiqiy asarga xos ritmik harakatlar yoki raqs elementlari bajariladi.

Raqs asrlar davomida takomillashib, barqaror shakllarga ega bo'la borgan. Ijrochining libosi raqs obrazlariga aniqlik bergan. Har bir xalqning raqs an'analari, ijro uslubi, plastik tasviriy vositalari bo'lib, ular tarixiy, ijtimoiy va geografik sharoitlar ta'sirida tarkib topib rivojlangan. O'zbek raqslari mazmunini ifodalashda ijrochilar tepki, qarsak, zangdan ham foydalanganlar. Ayrim raqsalar ro'mol, piyola,

qadah kabi buyum bilan ijro etilgan, ba'zan ijrochi xalq cholg'u asboblari (qayroq, doira, nog'ora va h.k.) da o'ziga o'zi jo'r bo'lgan. Markaziy Osiyo, jumladan, O'zbekiston hududida topilgan qoya tosh tasvirlari arxeologik topilmalar bu yerda raqs juda qadimiyligidan guvohlik beradi [1].

Zardushtiylarning muqaddas kitobi «Avesto» davridayoq raqs san'ati shakllanib, xalq va professional raqs – ikki yo'nalishda rivojlanishga kirishgani haqida tarxiiy ma'lumotlar bor. Shuningdek, turli taraqqiyot bosqichlarida yurtimizda raqs va o'yinlar bir-biriga ta'sir ko'rsatishi natijasida «Beshqarsak», «Katta o'yin», «Lazgi», «Kema o'yin», «Ashshadaroz» kabi qadimiy o'yinlar vujudga kelgan. XX asrga kelib raqs san'ati Buxoro raqsi, Xorazm raqsi, Farg'ona raqsi yo'nalishida shakllanib, zamonaviy sahna talablari asosida qayta ishlangan sahnaviy xalq raqsi sifatida rivojlandi. Mazkur yo'nalishlarning har biri asr davomida bir necha tarixiy bosqichni bosib o'tib, o'z shakli, mazmuniga ega bo'ldi. Bir qator davlat va xalq raqs jamoalari jahonga tanildi. Bunda Hamdamxon, Yusufjon qiziq Shakarjonov, Usta Olim Komilov, Tamaraxonim, Mukarrama Turg'unboeva, Gavhar Rahimova, Roziya Karimova, Qunduz Mirkarimova, Karim Rahimov, Qodir Mo'minov, Ma'mura Ergasheva, Yulduz Ismatova, Shokir Ahmedov, Gavhar Matyoqubova, Rushana Sultonova va Dilafro'z Jabborova, Qizlarxon Do'stmuhamedova, Malika Ahmedova kabi raqs ustalarining xizmati katta bo'lgan. Mustaqillik yillarida o'zbek milliy raqs san'atini rivojlantirish borasida bir qator xayrli ishlar amalga oshirildi. Sohni rivojlantirishga qaratilgan me'yoriy hujjatlar qabul qilinib, Milliy raqs va xoreografiya oliy maktabi faoliyati yo'lga qo'yildi. Bu kabi amaliy ishlar ayni paytda ham davom ettirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2017-yil 15-fevraldagi "Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4956-sonli farmoni 4-bandiga asosan «O'zbeknavo» estrada birlashmasi va «O'zbekraqs» milliy raqs birlashmasi negizida «O'zbekkonsert» davlat muassasasi tashkil etilib, Muassasa tarkibida yangi bo'lim – Raqs va xoreografiya san'ati faoliyatini rivojlantirish va tashkil etish bo'limi faoliyati yo'lga qo'yildi [2,].

Ko'p asrlik boy va betakror madaniyatimizning ajralmas qismi bo'lgan milliy raqs san'atining xalqimiz ma'naviyati, badiiy-estetik qarashlarini yuksaltirish, yosh avlodni milliy qadriyat va an'alarimizga hurmat, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash borasidagi o'rni va ahamiyati tobora ortib bormoqda. Bu esa ushbu raqs san'atini bugungi kunda jamiyatimiz hayotining barcha sohalarida ro'y berayotgan tub o'zgarishlarga mos holda rivojlantirish, milliy raqsning turli yo'nalish va namunalarini, mamlakatimizning turli mintaqalarida shakllangan mumtoz raqs maktablarini qayta tiklash va kelajak avlodlarga bezavol yetkazish hamda bu boradagi ta'lim-tarbiya, targ'ibot ishlarini kuchaytirishni taqozo etmoqda.



Umumiy o'rta ta'limning Musiqa madaniyati milliy o'quv dasturida berilgan mavzularni o'zlashtirish orqali o'quvchilarni ma'naviy, badiiy, axloqiy madaniyatini rivojlantirib, ijodiy mahorat, badiiy-estetik didini o'stirish, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va hayotiy ko'nikmalar rivojlantiriladi[3]. Musiqiy tarbiyaning asosiy vositalaridan biri ritmik harakatlar (raqs) san'ati hisoblanadi. Raqs san'atning alohida o'ziga hos bir turidir. Ana shu o'ziga hoslik ritmik harakatlar bilan musiqa kuyning tarkibiy ravishda qo'shib ketishida o'z ifodasini topadi [4].

Musiqa estetik tarbiyadagi roli falsafa, musiqashunoslik va pedagogikaga doir adabiyotlarda yetarlicha yoritilgan. Musiqa san'ati tizimining murakkabligi va uning inson ongiga ta'sirining ko'p qirraligidir. Yosh avlodni kamol toptirishda musiqa san'atining tarbiyaviy jihatlari kattadir.

O'zbek musiqasining tarixi juda ko'hna bo'lib, u insoniyatning shakllanishi jarayoni bilan chambarchas bog'liqdir. Musiqa san'ati jamiyatning uzoq tarixiy davrlar davomida shakllangan ijtimoiy fikri, g'oyalari, dunyoqarashi mahsulidir. Musiqa o'zini qator jihatlari bilan o'quvchi-yoshlarda go'zallikni idrok etishni, zavqlanishni, estetik his-hayajonni, estetik did, estetik mulohaza, ashulachilik san'ati, uning tizimidagi elementlardan biri bo'lishi juda katta ta'sir doirasiga ega. Musiqa san'ati kuy, usul, zarb kabi qator musiqiy vositalar orqali mazmunni ifodalab, davlat, millat, irqni ajratmay insoniyatga yaqindan xizmat qilib, tarixda xalqning aql farosati estetik hissi, qayg'u - shodligi, pok muhabbati va orzu-armonlarini ifodalagan. Ularni ma'naviy-estetik baholash va estetik ongni rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etgan.

"Musiqa madaniyati" darslarida raqs san'atining estetik tarbiyaviy vazifasi – o'quvchi yoshlar ma'naviyatiga qaratilgan bo'lib, ular dunyoqarashini shakllantirish, ruhiy holati, ahloqiy qiyofasi, estetik qiziqishi va tafakurini kengaytirishda chuqur ta'sir ko'rsata olishdan iborat [5]. O'quvchining estetik tafakkuri ko'proq u qaysi janrdagi san'at asarlarining muhlisi ekanligi, o'z qalbi, irodasi, ish harakati, ijtimoiy orzusi qandayligini o'ylab, o'z -o'zini chamalab bilishida namoyon bo'ladi. Bunda tarbiya tiniq obrazlar vositasi orqali olib boriladi. Bu hamma vaqt kuchli hayajon va ta'sirlanish hissini uyg'otadi.

Raqs harakatlari o'quvchilarni idrokini o'stirishga va o'quvchilarni estetik tuyg'usini rivojlantirishga, san'atga qiziqishini, musiqaning estetik qiymatini tushuntirishni, estetik baho va san'atni tushunish saviyasini, estetik didini yuqori ko'tarib, qalb go'zalligi va estetik turmush saviyasini oshiradi. Shu jihatdan olganda, musiqa estetik tarbiyaning samarali vositasi bo'lib, faqat raqs san'ati ta'siridagina vujudga kelmaydi. U har taraflama ta'sir tufayli borliqqa keladi. U turmushning hayot maktabidan, jamoat hayotidan, moddiy va ma'naviy faravonligidan, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy sharoiti, ilm-fan, ahloqiy muhit ta'siri, boshqa halqlarning o'zaro ta'siri va milliy an'analarning ta'siridan kelib chiqqan holda shakllanadi.

Musiqqa san'ati ijtimoiy ma'naviyatni o'zgartirish, kishilarni ittifoqlashtirish va safarbar qilishida muhim rol o'ynaydi. Dunyoni anglash, xalqni tarbiyalash - san'atning realistik xarakteri xalqparvarlik, yaratuvchanlik kabi munosabatlarni yaxshilash bilan belgilanadi. Shu o'rinda Asafevning «...musiqqa - bu ham san'at, ham fan, ham til, ham o'yin» [6]. – degan so'zlarini eslash maqsadga muvofiqdir. “Ta’lim to’g’risidagi” qonunda fikrlar berishdan maqsad shuki, umumiy o’rta ta’lim maktablarida ta’lim olayotgan har bir bolani uquvini o’sishi, qobiliyati, tafakkuri, iste’dodi, qanday bo’lishidan qat’iy nazar, ta’lim tarbiya beruvchi o’qituvchini, ustozni e’tiborida bo’lishi kerak.

Respublikasmizda uzluksiz ta’lim tizimini islox qilish, xodimlarning yangi avlodini yuqori kasbiy madaniyat, ijodiy va ijtimoiy faollik, hayotga mustaqil moslashish ko’nikmalarini, hamda istiqbol rejalarini belgilash va hal etish qobiliyatlarini shakllantirishga yo’naltirilgan. Mazkur vazifalarni bajarishda “Musiqqa madaniyati” darslari alohida ahamiyat kasb etadi [7]. Ta’lim tarbiya ishlarini olib borishda endigina hayotga qadam qo’yib kelayotgan yoshlar o’z oldiga qo’yilgan maqsadlarga erishishi o’zlariga bog’liq ekanligini anglab yetishlari kerak [8]. Yurtimizdan buyuk allomalar, davlat arboblari, donishmandlar, shoiru yozuvchilarning yetishib jahon miqyosidan tan olganligi ham o’lkamizda ta’lim-tarbiyaga doimiy e’tibor berilganligi va uning asosiy o’rinlardan biriga qo’yilganligidandir [9].

Mustaqil respublikaning xalq ta’limini yanada takomillashtirish jarayonida umumiy o’rta mta’lim maktablaridagi musiqqa madaniyati darslarida ham yosh avlodni nafaqat tarbiyasini har tomonlama takomillashtirishda, ularda ma’naviy, oliyjanob fazilatlarini kamol toptirishda raqs san’ati katta ahamiyatga egadir. “Ta’lim to’g’risidagi” qonunda yosh avlodga tarbiya berishda aniq maqsadli hamda ijtimoiy –tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini, manaviy axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan fikrlar berilgan [10]. Keyingi yillarda mamlakatimizda qadimiy va boy madaniy merosimiz, milliy o’zligimiz, betakror qadriyat va an’alarimiz, madaniyat va san’atimizni qo’llab-quvvatlash va rivojlantirish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Xalqimizning ma’naviy saviyasi va estetik tarbiyasini yuksaltirishda muhim ahamiyatga ega bo’lgan raqs san’atini har tomonlama rivojlantirish, yosh avlodni milliy va jahon raqs san’atining namunalaridan keng bahramand etilmoqda. Har bir xalqning qadimdan shakllanib kelayotgan o’z raqs san’ati va shu raqslarni ifodalovchi kuylari bor. O’zbek xalq raqslari ham keng ommalashgan bo’lib, milliy kiyimlar bilan badiiy obrazlar yaratilgan. Jumladan: “Dilxiroj”, “Qari navo”, “Zang”, “Duchava” kabi raqs kuylari bilan boshlang’ich sinflarda tanishtiriladi o’rta sinf o’quvchilari esa O’zbekiston hududida hozirgi kunda o’ziga xos mavzusi, doira

zarblari va dilrabo ohanglariga ega bo'lgan 5ta raqs maktabi (“O‘zbek raqs maktablari”) bilan tanishtiriladi. Unda *Farg‘ona –Toshkent raqs maktabi*, Xorazm raqs maktabi, Buxoro raqs maktabi, Qoraqolpoq raqs maktablari va Surxondaryo-Qashqadaryo raqs maktablari orqali O‘zbekistonda raqs san’atining shakllanishiga asos slogan va tan olingan raqs ustalari va ustozlar: Yusufjon qiziq Shakarjonov, Usta Olim Komilov, Tamaraxonim, Mukarrama Turg‘unboyeva, Isoxor Oqilov, Galiya Izmailova, Yelizavetta Petrosova, Qunduz Mirkarimova, Roziya Karimovalardir [10].

XX asrning 2-yarmidan boshlab Muhammadjon Mirzayev, Baxtiyor Aliyev, Mustafo Bafoyev va boshqa bastakorlarning yangi kuy-ohanglari asosida o‘zbek raqs san’ati rivoj topdi. Bunga Mukarrama Turg'unboyeva, Qunduz Mirkarimova, Yulduz Ismatova kabilarning sahnalashtirgan raqslari misol bo‘la oladi. O‘quvchilarni mana shunday san’atdagi yuksak badiiylik bilan tanishtirish lozim. “Raqs san’ati”ning kuy va sahnalashtirilgan raqslari o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytiradi va musiqiy didini o‘stiradi, ko‘p sonli savodxon tinglovchilarni tarbiyalaydi [11]. Buning uchun musiqa tinglovchilarini bolaligidan musiqani tushunishga va uni eshitishga o‘rgatish kerak. O‘qituvchi tinglanayotgan raqsonga musiqiy asar mazmuni orqali o‘quvchilarga ahloqiy- estetik tarbiya byerishga ham jiddiy ahamiyat qaratishi lozim.

Musiqa tinglashga o‘rgatishda o‘qituvchi oldiga qo‘yiladigan vazifalar:

- musiqa san’atiga havas uyg‘otish, musiqa tinglash va amaliy vositalar orqali qiziqtirish, bolalarda musiqiy ehtiyojini kuchaytirish, o‘quvchilarda (savol javob, suhbatlar orqali) badiiy taasurotlarni to‘plab borish.

Buning uchun:

1. Tinglanayotgan asarni oddiy musiqiy pedagogik tahlil etish.
2. Tinglashda oddiy musiqa tyerminlarini va atamalarini qo‘llab borish.
3. Kuyning oddiy tuzilishi, uning ifoda vositalari, ritmik tuzilishlariga qarab chapak chalish, raqs harakatlarini bajarish va kuylashga o‘rgatish.
4. Musiqa ijodkorlari, ijrochilar, cholg‘u asboblari turlari bilan tanishtirish.

**Shuningdek :**

1. Musiqa janrlarini bilish (raqs, balet, opyera va boshqalar)
2. Asarning tuzilishini bilish (bandli, 2 qismli yoki 3 qismli)
3. Kompozitorlarning hayoti va ijodini bilish.
4. Musiqiy nutqni elementlarini bilish (haraktyeri, tempi, dinamikasi, musiqiy ifoda vositalari va boshqalar).
5. Musiqiy estetik ma’lumotlarni bilish (tinglash madaniyati).

O‘quvchilar 1-sinfdanoq musiqada mazmun borligini, u kishilarning hayotini aks ettirishini bilishlari lozim. Shuningek, musiqada shakl borligini tasavvur etishlari kyerak. O‘quvchilarning musiqiy didini tarbiyalashda o‘qituvchining mahorati muhim rol o‘ynaydi.

Musiqa tinglash 4 etapda olib boriladi.

1. Asarni tushunish uchun bolalar diqqatini jamlash va asar haqida o'qituvchining kirish so'zi. 2. O'qituvchi ijrosida yoki audio yozuvida musiqiy asarni tinglash.

3. Asarni suhbat yo'li bilan musiqiy badiiy jihatdan oddiy tahlil etish va chorak mavzusini yoritish.

4. Asarni to'liq qayta tinglash, so'ng asar haqida bolalarning umumiy taasurotlari yuzasidan yakuniy suhbat o'tkazish. Musiqa madaniyati darsiga O'quvchilarning bo'lgan qiziqishlarini o'stirish uchun dars samaradorligini oshirish, o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda darslarni to'g'ri tashkil etish, tinglash madaniyati va raqs asoschilari mavzularini nazariy va amaliy bilimlarini chuqurroq egallash o'zining ijobiy natijalarni byeradi

### **Adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 2020 yil 4 fevraldagi "Milliy raqs san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4584 Qarori

2. Umumiy o'rta ta'limning musiqa madaniyati milliy o'quv dastur loyihasi. T.2021

3. G.Sharipova, Musiqa o'qitish metodikasi. T.Turon-Iqbol 2019

4. D.Soipova, Musiqa o'qitish nazariyasi va metodikasi. T.UzDK 2019

5. Астафьев Б. В. Музыкальная форма как процесс. Л.: Госуд. муз. изд., 1973г., -24 с

6. O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi qonuni. 2020- yil.

7. G.M.Sharipova. Musiqa o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. T. «Turon», 2006-yil.

8. O.Xasanboyeva, J.Xasanboyev, N.Xomidov Pedagogika tarixi. T. Nizomiy nomidagi TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI 2004-y.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori "Raqs san'ati sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni yanada rivojlantirish" chora-tadbirlari to'g'risida

## **PAHLAVON MAHMUD MAQBARASIDAGI BEZAKLARNING TARIXIY-IJODIY MAZMUNINI O'QUVCHILARGA YETKAZISH**

**Bulatov S.S.-Toshkent davlat pedagogika universiteti pedagogika fanlar doktori  
professor**

**Saipova M.S. - Toshkent arxitektura-qurilish instituti doktoranti  
Panayeva M.M.- Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti magistranti**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Xivada joylashgan Pahlavon Mahmud maqbarasining bezaklarini ifodalanilishini mantiqiy yechimi haqida bayon etilgan. Bu bezak orqali Pahlavon Mahmudni Vataniga, xalqiga fidoiy inson bo‘lib o‘tganligi haqida g‘oya bayon etilgan.

**Kalit so‘zi:** Pahlavon Mahmud, maqbara, qal’a, ramziylik, tizimli yondashuv, devoriy kema, devoriy bulbul, ramziy bezak, go‘rxona, xonaqoh, Puryoyvalik, ruboiy, mehrob, oygul.

**ДОВЕДЕНИЕ ДО УЧЕНИКОВ ИСТОРИКО-ТВОРЧЕСКОГО  
СОДЕРЖАНИЯ УБРАНСТВА МАВЗОЛЕЯ ПАХЛАВОН МАХМУД**

**Булатов С.С. - доктор педагогических наук, профессор Ташкентского  
государственного педагогического университета**

**Саипова М.С. - докторант Ташкентского архитектурно-строительного  
института**

**Панаева М.М. - магистр Ташкентского государственного педагогического  
университета**

**Аннотация.** В статье описывается логическое решение выразительности убранства хивинского мавзолея Пахлавон Махмуд. В этом орнаменте была выражена идея о том, что Пахлавон Махмуд был человеком, преданным своей Родине и народу.

**Ключевые слова:** Пахлавон Махмуд, мавзолей, замок, символика, системный подход, пристенный корабль, настенный соловей, символическое убранство, гробница, ханака, Пурёйвалык, рубайи, алтарь, айгуль.

**CONVEYING THE HISTORICAL AND CREATIVE CONTENT OF THE  
DECORATION OF THE MAUSOLEUM OF PAHLAVON MAHMUD TO  
READERS**

**Bulatov S.S- Doctor of Pedagogical Sciences, Professor, Professor of Tashkent  
State Pedagogical University**

**Saipova M.S.-Phd student Tashkent Institute of Architecture and Civil  
Engineering**

**Panayeva Malohat Muminovna - Master of Tashkent State Pedagogical  
University.**

**Annotation.** This article describes the logical solution to the representation of the decorations of the Pahlavon Mahmud Mausoleum in Khiva. Through this

ornament, the idea that Pahlavon Mahmud became a man devoted to his homeland and people, was expressed.

**Keywords:** Pahlavon Mahmud, mausoleum, castle, symbolism, systematic approach, wall ship, wall bulbul, symbolic decoration, cemetery, khanaqah, Puroyvalik, rubai, altar, aigul.

Bugungi kunda dunyo miqyosida tarixiy yodgorliklarni saqlash, ta'mirlash va qayta qurish, me'moriy-badiiy qiymatga ega bo'lgan obidalardan samarali foydalanish dolzarb hisoblanadi. Hozirda o'rta asrlar yodgorliklari me'moriy yechimlari va bezaklaridagi ramziy ifodalarining mazmun va mohiyatini, mantiqiy, falsafiy, astrologik tomonlarini yoritishga ehtiyoj va qiziqish tobora ortib bormoqda. Bu borada BMT, YUNESKO, IKOMOS kabi nufuzli xalqaro tashkilotlar tomonidan madaniy va tabiiy merosni asrash bo'yicha Butunjahon konvensiyasining qabul qilinishi yodgorliklarni saqlash va ta'mirlash choralari ko'rish ishlari rivojiga jiddiy turtki bo'lmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi va tarixiy obidalarni tiklash bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirildi. Mamlakatimizni jadal rivojlantirishga qaratilgan Harakatlar strategiyasida shaharsozlik va me'morchilikni yanada takomillashtirish, me'moriy yodgorliklar bezaklarini saqlash va ulardan oqilona foydalanish borasidagi muammolarni hal etish chora-tadbirlari belgilangan. "Yurtimizdagi tarixiy obidalarni saqlash va ta'mirlash, buyuk ajdodlarimizning qadamjolarini obod etish bo'yicha oldimizda hali qanchadan-qancha vazifalar turibdi". Zero, ular o'zida davrlar, zamonlar o'tishi bilan boyib, rivojlanib kelgan ulkan falsafiy mazmuni aks ettiradi. Bezaklardagi ramziy merosni o'rganish nafaqat me'moriy yodgorliklardagi naqshlarni qayta tiklash, sayyohlik imkoniyatlarini oshirish, balki ushbu merosni zamonaviy arxitekturaga joriy etishning nazariy va amaliy asoslarini yaratish hamda me'moriy yodgorliklar kompozitsiyasi va ularning badiiy bezaklarini falsafiy mushohada qilishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir [1].

Xiva – O'zbekistonning qadimgi shaharlaridan biri. Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, shahar mil.av. V asrda barpo etilgan. Uning nomi shaharning qadimiy qismida joylashgan *Xivaq (Xeyvaq) qudug'i* bilan bog'liq. Ba'zi tadqiqotchilar shahar nomini xorazmiy tiliga yaqin bo'lgan qadimgi osetin tilidagi "*Xiauv*" – *qal'a* so'zidan, boshqalari bu atamani antik davrdan Xiva hududidan oqib o'tgan *Xeykaniq* (hozirgi Polvonyop) kanalining o'zgartirilgan (*Xeykaniq-Xeyvaniq-Xeyvaq-Xeva-Xiva*) nomidan kelib chiqqan deyдилar [2]. Xorazmlik tarixchi, solnomachi Xudoyberdi Qo'shmuhammad o'zining 1831-yilda yozgan "Dili G'aroyib" asarida Xorazmning qadimgi shaharlarini nomma-nom sanar ekan, "Bu mamlakatning yana bir qal'asi -

Qal'a Ramldir. Bu qal'aga Som ibn Nuh asos solgan bo'lib, u hozirgi Xivaq nomi ila mashhurdir" deydi.



Xiva dastlab agrarhunarmand shahar sifatida rivojlandi. Mil. av. II asrda Xivaning katta qismi qum ostida qolgach, aholi shaharni tark etdi. Ichan qal'a devorlari vayron bo'ldi. Mil. boshlarida shaharda hayot yana tiklana boshladi. Qal'a devorining g'arbiy qismida ark bunyod etildi. I-III asrlarda (Kushonlar davri) Xiva Ichan qal'a devorlari tashqarisidan qalin g'ishtin devor bilan mustahkamlandi, natijada shahar devori qalinligi 7,5- 9 m. ga yetdi.

Arxeologik tadqiqotlarning ko'rsatishicha, mil. IV-V asrlarda shaharni yana qum bosgan. VI-VIII asrlarda Xiva qayta tiklana boshladi. Xiva hududida zamindorlarning dastlabki ko'shklari paydo bo'la boshladi. Ichan qal'ada shunday ko'shklardan 2 tasi topilgan.







Pahlavon Mahmud, Puryoyvaliy, Qitoli-shoir va mutafakkir. Futuvvat-juvonmardlik guruhining ulug' peshvolaridan biri. Fors tilida ijod qilgan. Po'stindo'zlik, telpakdo'zlik bilan shug'ullangan. Hindiston va Eronda polvonlikda dong taratgan. Shunga ko'ra, Pahlavon Mahmud deb atalgan. Pahlavon Mahmud majmuasi, Pahlavon Mahmud maqbarasi, Polvon ota maqbarasi-Xivadagi me'moriy yodgorlik (1810-1913). Maqbara majmuasining umumiy hajmi 50x30 m bo'lib, dastlab Pahlavon Mahmud qabri ustiga 1664- yilda mo'jaz sinchkori imorat qurilgan. Darvozaxona eshigidagi yozuvga ko'ra, Pahlavon Mahmud majmuasining qurilish sanasi 1701-yilda Shohniyo'zxon qurdirgan vaqtdan hisoblanadi. 1825-35 yillarda uning o'rnida g'ishtin toqu ravoqli serhasham maqbara (17,5x25,5 m), ziyoratxona (9x9 m) va xonaqoh (4x4 m) qad ko'targan. Keyinroq Xiva xonlari (Abulg'ozixon, 1643-63; Shohniyo'zxon, 1695-1702; Muhammad Rahimxon I, 1807-26; Temurg'ozixon, 1857-58 va boshqalar) ham shu yerga dafn etilgan. 1913-yilda usta Qurbonniyo'z boshchiligida hovlining g'arb tomoniga ikki oshyonli qorixona, qarshisiga o'ymakori ustunli ayvon qurilgan [3]. Majmuaga janubiy tomondagi darvozaxona orqali kiriladi, ichkari sahniga g'isht terilgan. Chetida quduq, kichik hovli qarshisida peshtoqli xonaqoh - maqbara, o'ngda ayvon, so'lda supa va qorixona joylashgan. Xonaqoh peshtog'idagi g'ishtlar orasida sirkor bandlar bog'langan, ikki chekkasidagi guldasta morpech shaklida. Gumbazning naqshin bezaklari, asosan, moviy rang sirli sopollardan terilgan. Bino ichkarisi nafis bezatilgan. Uning izorasidan tortib gumbazli qubbasigacha oq va moviy naqshli. Bezaklar orasidagi kitobaga Pahlavon Mahmud ruboiylari bitilgan. Xonaqohning g'arbiy eshigi orqali ziyoratxonaga o'tiladi. Unda Pahlavon Mahmudning sirkor sag'anasi joylashgan Pahlavon Mahmud majmuasidagi asosiy binolar Odina Muhammad Murod boshchiligida qurilgan. Bezaklarini Mulla Nurmuhammad Qalandar o'g'li, So'fimuhammad Abdujabbor o'g'li va Abdulla "jin"lar bajargan. Ziyoratxona eshigi (1810), tashqari eshik (1894) usta Nurmuhammad tomonidan ishlangan. 1960-yilda

usta Ro‘zimat Masharipov ishtirokida qorixona va ayvon ta‘mir etilgan [4]. Pahlavon Mahmud majmuasida XIX asr Xiva me‘morligi uslubi yorqin namoyon bo‘lgan.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, me‘mor dahosi bilan yaratilgan maqbara insoniyat taraqqiyotining turli davrlaridan darak beruvchi noyob va bebaho hazinadir. Shular qatorida me‘moriy merosning aniq ochilmagan tarixiy jumboqlari hali behisob. Pahlavon Mahmud maqbarasining devoriy tasviridagi kompozitsiyada kema va bulbul tasvirlangan ramziy o‘qish tili orqali bezaklardagi falsafiy g‘oyalarni aniqlash muhim ahamiyatga egadir[5].

	Qismlari	Qismlarning izohi
1	 <p data-bbox="220 1361 683 1451"><b>Pahlavon Mahmud maqbarasi tasviridagi detal.</b></p>	<p data-bbox="711 757 1382 846"><b>Xiva</b> – O‘zbekistonning qadimgi shaharlaridan biri.</p> <p data-bbox="711 878 1382 1115"><b>Pahlavon Mahmud</b> maqbarasi asosan XIVasrda kichik go‘rxona shaklida qurilgan bo‘lib unda o‘z davrining katta Piri-Pahlavon Mahmud (1247-1326) jasadi ko‘milgan.</p> <p data-bbox="711 1146 1382 1236">Maqbara 3 ta qismdan iborat. Qabrxona, Xonaqo va Yo‘lak.</p>
2		<p data-bbox="711 1489 1382 1966"><b>Xiva-kema</b> o‘xshatib qurilgan. Xivaliklar Pahlavon Mahmud maqbarasini Nuh payg‘ambari tomonidan shaharning o‘rtasiga tashlangan <b>langar</b> deb hisoblaydilar. Toki, bu maqbara bor ekan, Xiva shahri tinch turadi. Shuning uchun ham xivaliklar uni <b>ko‘z qorachig‘idek asrashadi</b>, unga <b>sig‘inishadi</b>. Shaharning <b>qum</b> ustida qurilganini esa arxeolog olimlar isbotlashdi.</p>



3		<p><b>Bulbul-Koshinlardan birida qush surati</b> tasvirlangan, bu <b>bulbul</b> bo'lib, <b>sadoqat ramzini</b> bildiradi, ya'ni Olloqulixonning otasiga va Pahlavon Mahmudga sadoqatini bildiradi.</p>
4		<p><b>Gul-go'zallik, nafosat ramzi.</b>Ulardagi naqsh chiziq-lari bir-biri bilan aniq bog'lanib ketadi va umumiy bezak lavhalarni tashkil qiladi.</p>
5		<p><b>Quyosh aylana shaklda bo'lib, olamga nur, ziyo taratuvchi. Abadiy hayotni</b> bildiradi.Aylana naqshlar ichiga har xil gullar rasmining yasalishi, yoki kishini yomon niyatidan qaytarish uchun qilingan.</p>
6		<p><b>Qum-</b> Xiva qum ustiga qurilgan langar, poklik ramzi. <b>Suv-</b> obi-hayot, tiriklik ramzi</p>
7		<p><b>Oq rang -</b> Koshinlardagi naqsh gullarning aksari rangi oq, ko'k va zangori bo'lib, bu ranglarning tanlanishi ham bejiz emas. Chunki, <b>qadimdan oq rang tinchlik, tozalik, yorug'lik, baxt va omad ramzi.</b></p>
8		<p><b>Ko'k rang-moviy osmon, donolik, hayot, yomon kundan asrash ramzi.</b></p>
9		<p><b>Zangori – oily e'tiqod ramzini bildirgan.</b> Naqshlarda ham olam-olam ma'nolar yashiringan.</p>
	<p>Xulosa</p>	<p>Pahlavon Mahmud maqbara devoridagi bezakli tasvir naqshlarni o'rganish natijasida quyidagi ilmiy farazga keldik. Mehrob hoshiyasidagi naqsh kompozitsiyasini naqqosh yoki me'mor Pahlavon Mahmudni</p>

	ollohga, vatanga va xalqiga vafodorligi ramziy ifodalanganligi aniqlandi.
--	---

### **Adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalar bilan yig‘ilishda”gi ma‘ruzasi.
2. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
3. S.S.Bulatov, M.S.Soipova “Badiiy tahlil tamollari” Toshkent-2006
4. S.S.Bulatov “Rangshunoslik” Toshkent-2009
5. S.Abdirasilov, N.Tolipov, N.Oripova “Rangtasvir” Toshkent-“O‘zbekiston”-2006

### **AL-HAKIM AT-TERMIZIY ASARLARIDA PSIXOLOGIK QARASHLARNING ILMIY MAZMUNI VA SO‘FIYLIK NAZARIYASI BO‘YICHA TAHLILI**

**Qodirova A.B. – Termiz davlat universiteti katta o‘qituvchisi, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)**

**Annotatsiya.** Bu davrda tasavvuf ilmining bosh mavzulari belgilandi. So‘fiylar jamiyat a‘zolari o‘rtasida mustaqil bir tabaqa sifatida namoyon bo‘la boshladilar. Ba‘zi joylarda tasavvuf maktablari tashkil topdi. Tasavvuf ta‘limotida ilm “nur” istilohi bilan beriladi, demak nur-ilm, ilm esa o‘z navbatida nurdir. Ruhiyatshunoslikning tasavvufiy asoslarini o‘rganish boshqa fanlarni bilishni ham taqozo etadi.

**Kalit so‘zlar:** so‘fiylar, tasavvuf, nur, ilm, tariqat, ma‘rifat yoki hikmat, zohidlik

### **АНАЛИЗ НАУЧНОГО СОДЕРЖАНИЯ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ВОЗЗРЕНИЙ И ТЕОРИИ СУФИЗМА В ТРУДАХ АЛЬ-ХАКИМА АТ-ТЕРМИЗИ**

**Кодирова А.Б. - старший преподаватель Термезского государственного университета, доктор философских наук по психологии (PhD)**

**Аннотация.** В этот период были определены основные темы мистицизма. Суфии стали появляться в обществе как независимый класс. В некоторых местах были созданы мистические школы. В мистицизме наука называется «светом», то есть свет - это знание, а наука - это свет. Изучение мистических основ психологии требует знания других дисциплин.

**Ключевые слова:** суфии, мистицизм, свет, знание, учение, просветление или мудрость, аскетизм

## **AN ANALYSIS OF THE SCIENTIFIC CONTENT OF PSYCHOLOGICAL VIEWS AND THEORY OF SUFISM IN THE WORKS OF AL-KHAKIM AT-TERMIZI**

**Qodirova A.B. - Senior Lecturer of Termez State University, Doctor of Philosophy in Psychology (PhD)**

**Annotation.** During this period, the main themes of mysticism were identified. Sufis began to appear in society as an independent class. In some places mystical schools were established. In mysticism, science is called "light", that is, light is knowledge, and science is light. Studying the mystical foundations of psychology requires knowledge of other disciplines.

**Key words:** sufis, mysticism, light, knowledge, teachings, enlightenment or wisdom, asceticism.

IX-X asrlar – islom tasavvufi ilm sifatida shakllanib, o‘z tamoyillari barpo etilgan, buyuk mutasavvufilar shakllanib yetisha boshlagan va mumtoz tasavvufiy asarlar yozilgan davr bo‘ldi. Bu davrda tasavvuf ilmining bosh mavzulari belgilandi. So‘fiylar jamiyat a‘zolari o‘rtasida mustaqil bir tabaqa sifatida namoyon bo‘la boshladilar. Ba‘zi joylarda tasavvuf maktablari tashkil topdi. Lekin shuni ham qayd etish lozimki, garchi “tasavvuf” istilohi arab xalifaligining shimoli-sharqiy hududlarida yetarli darajada muomalada bo‘lgan bo‘lsa-da, bu istiloh Movarounnahr va Xurosonda IX-X asrlarda keng ko‘lamda iste’molda bo‘lmagan. Bu davrda mintaqa mistiklari, asosan, zuhd – zohidlik haqida munozaralar olib bordilar. Ma’rifat yoki hikmat ma’lum insonlarga, ya’ni dunyoviy yumushlardan xoli, butun qalbi va ezgu niyatlari bilan Alloh taologa intilgan shaxslarga xos bir mo‘jizadir. Ilm zikrida so‘fiylik olamidagi eng oliy fikr aytgan shaxs va shayx bizningcha, Abu Bakr Abdulloh ibni Tohir (vaf.330/942 y) bo‘lsa kerak, bu haqda Abdurahmon Jomiy “Nafohat ul-uns” va Alisher Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat”da ajoyib naql keltiradi. Abdulloh ibn Tohirdan “Haqiqat nimadir?” deb so‘rashganda: Haqiqat – bu ilmdir. Va undan ilm nimadir deyishganda: ilm – bu haqiqatdir, - deb javob qaytargan ekan.

Yuqoridagilardan xulosa shuki, tasavvuf eng avvalo, Islom dinining mafkurasi, uning targ‘ibotchisi ekanini unutmashimiz lozim. Zero, Islom dinining butun tarixi davomida tasavvuf Xudo va Payg‘ambar, Alloh va Rasul, Alloh va Nabi, Alloh va xabarchi tushunchalarini sharhlashi barobarida Islom dinining o‘tkir tashviqotchisi bo‘lib keldi [1:60].

Professor J.Omonturdiyev Al-Hakim at-Termiziy faoliyatini tahlil etar ekan, psixologiya faniga ahamiyat beradi: “Endilikda ruhiyatshunoslik (psixologiya) “kishilarning psixik protsesslarini o‘rgatuvchi fandır” deyish yetarli emas. Bu fanning o‘rganish obyekti murakkab, harakat doirasi keng. Undagi muammolarni hal etishda mavjud bilimlarimiz talab darajasida emas. Xususan, ruhiyatshunoslikning tasavvufiy asoslarini o‘rganish boshqa fanlarni bilishni ham taqozo etadi. Masalan, inson ruhiyati haqida bilganlarimiz bilmaganlarimizdan oz. Bu - dialektik jarayon. Chunki inson aqli, bilimi chegaralangan. Dunyoni (ilohiy olamni ham) bilish, anglash ilohiy aql (aqli kull)da mavjud. Biroq bu, aqli juz’ sug‘ro olamini (masalan, inson ruhiyatini) va uning kubro olami (ilohiy olam)ga munosabatini o‘rganolmaydi, degan gap emas. Katta olamning barcha zarralari kichik olamda mavjud ekan, bu uni nisbiy anglashga imkon beradi. Ruhiiy dunyoni anglashda aqli kullning mohiyati haqida professor Ibrohim Haqqul quyidagi ajoyib fikrni keltirgan: Malaklar Allohdan: “Yo rabbimiz, arshdan ham buyukroq biror narsa yaratdingizmi?” – deya so‘rabdilar. Shunda parvardigori olam: “Ha, aqlni yaratdim”, - debdi. “Aqlning qiymatiga teng narsa nedur?” – deb so‘raganlarida, “Hayhot! Hech kimsa buni bilishga qodir bo‘lolmagay”, - degan javob bo‘lgan ekan. Hakim Termiziy: “Alloh aqldan ustun va sharafliroq biror mahluq yaratmagandir”, - deya ta’kidlaganlarida, aynan shu haqiqatni nazarda tutganlar” [2:67-68].

(Payg‘ambar alayhissalom) “Kishi tik turgan holatda kovushini kiyishidan qaytardilar va: “Men o‘shanday odamda davosi bo‘lmaydigan kasallik paydo bo‘lishidan qo‘rqaman”,-dedilar. Rasulullohning o‘zlari bundagi sababni bayon qilib berdilar. Demak, tananing senda haqi bor, agar sen tanangga toqatidan tashqari narsani yuklasang, unda bir kasallik paydo bo‘lishi mumkin, demak, sen unga zulm qilgan bo‘lasan. Chunki tana ikkita oyoq ustida turadigan qilindi. Agar sen tik turib kovush kiysang, ilojsiz bitta oyog‘ingni [kovush kiyish uchun] ko‘tarasan. Bu holda badaning bitta oyoqqa bor yukini tashlashiga to‘g‘ri keladi. Tomirlaring iztirobga tushadi. Tomirlar iztirobga tushsa, biron-bir kasallik paydo bo‘lishidan qochib bo‘lmaydi, ya’ni tomirlar iztirobga tushsa kasallik paydo bo‘lishi xavfi kuchayadi. Chunki tomirlar qon va havo yuradigan yo‘llardir. Agar iztirob vaqtida, ya’ni qiynalgan vaqtida tomirlar toraysa, qon bosimi ko‘tarilsa va tomirlardagi o‘sha havolar qo‘zg‘alib qolsa, bir umr qutulmaydigan kasallikka chalinish mumkin. Agar tomirlar bo‘g‘ilib, ularda siqilish paydo bo‘lsa, ba’zida qon tomirdan chiqib ketishi mumkin. Natijada qon qotishi kuzatiladi. Qon qotib qolsa, oqmay qo‘yadi va qon buziladi. Ba’zida tomirlardagi bod-havo qisiladi. Natijada sokin turgan tanadagi havolar qo‘zg‘alib qoladi. Bu ham katta muammolarni keltirib chiqarishi mumkin [3:11].

E’tibor berilsa, al-Hakim at-Termiziy nur, ilm, qalb va umuman, musaffolik, Allohdan qo‘rqish singari tushunchalarni bir safga qo‘ymoqda. Bu tushunchalarning

barchasi birgalikda jamlanib, oqibatda ular o'rtasidagi keskin farqlar, hatto bora-bora sezilmay qolmoqda. Xullas, so'fiylik ta'limotida nur va ilm birdek olib qaraladi, ular birgalikda sirlarning asosi deb talqin etiladi. Nur – ilhom, hissiyot, hayajon ramzi va munavvarlik ibtidosi, ilm – tizimlashtirish debochasi, nazariy-amaliy soha va musulmon olamining, so'fiylik ma'rifatining ajralmas bir qismidir [1:54].

Professor J.Omonturdiyevning e'tirof etishicha, odamlar ko'p vaqt "Navro'znoma" va "Solnoma"dan folnoma, tole'noma sifatida foydalanganlaru, uning mohiyatni – mantiqiy asosini ba'zi bir real voqelik bilan bog'liq bo'lmagan tomonlaridan farqlay olmaganlar. Hakim Termiziyning o'zlari ham har bir bayon oxirida "vallohu a'lam bissavob" ("To'g'risini Allohning o'zi biladi") deb yozgandir. Bu kamtarlik. "Navro'znoma" va "Solnoma"da yer hayoti sayyoralar harakati bilan bog'liq holda o'rganilgan. Boshqacha aytganda, yer hayoti, odamlar taqdiri va boshqalar navro'zi olam haftaning qaysi kunida doxil bo'lishiga qarab belgilangan. Bu bir qarashda asossiz gaplarga o'xshaydi. Lekin olim haftaning "falon" kuni doxil bo'lgan yil "falon" sayyoriga taalluqlidir deb ta'kidlaydiki, astrolog nazari bilan qaralsa, buning zaminida jiddiy donishmandlik mavjudligi seziladi. Chunki yyer, jumladan, odam yetti xil boshqa-boshqa sayyoralar (Quyosh, Oy, Mirrix, Atorud, Mushtariy, Zuhra, Zuhal) tasarrufida, demak, yetti yil bir-biridan farqli voqeliklar ta'sirida, bir-biridan farqli muhit qurshovida yashaydi. Hakim Termiziy ana shu muhit ta'sirida yerda, jumladan, inson taqdirida, mijozida yuz beradigan o'zgarishlarni taqvimlashtirgan [2:65-66].

Tasavvuf ta'limotida ilm "nur" istilohi bilan beriladi, demak, nur-ilm, ilm esa o'z navbatida nurdir. Qur'oni karimda aytilishicha nur faqat Alloh tomonidan in'om etiladi. Nur-sodiq qulini haqiqiy iymonga yetaklaydi, demak, iymon-qalbdagi nur, orif (Xudoni tanish)lik shu'la bo'lsa, iymon ayni nurning o'zidir. Qur'onda "Alloh o'z nuriga har bir istagan bandasini olib boradi" deyiladi. Bular Mansur Halloj (857-922) shaharlarida ushbu xilda jaranglaydi: "Qalblarni munavvar etuvchi narsa – Allohning nuri, Alloh nurni kishilarga yo'llaydi. Ilhom nuri – inson boshida, suhbat nuri ikki qosh orasi (peshona)da, yaqin (ishonch) nuri – quloqda, ravshanlik nuri – tilda, iymon nuri – bag'ir(ko'krak)da joylashgan".[1:52-53]

Dunyo dinlaridan biri buddaviylik al-Hakim at-Termiziy faoliyati davomida alohida o'rin tutgan. Buddaviylik ilk Islom arafasida Termizda chuqur ildiz otgan va bu shaharning aholi qatlamlari orasida hukmron din hisoblangan. Al-Hakim at-Termiziy Islomni Termiz shahrining aholi qatlamlariga batamom singdirish maqsadida buddaviylik ta'limoti va buddaviylik dini bilan bog'liq adabiyotlarni chuqur o'rgangan. Shuningdek, al-Hakim at-Termiziy qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy kabi qadimgi hind manbalari bilan ham yaqindan tanish bo'lgan. Manbalarda ta'kidlanishicha, alloma o'zining "Solnoma" asarini qadimgi hind mualliflarining asarlariga tayanib yaratgan. So'fiylik va buddaviylik o'rtasidagi bog'liqlikni aksariyat

tarixchi va sharqshunos olimlar ham e'tirof etadilar. O'z navbatida al-Hakim at-Termiziy asos solgan hakimiya tariqati Movarounnahr hududidagi Islom tafakkuri tarixida so'fiylikning dastlabki oqimlaridan biri hisoblanadi [1:137].

Al-Hakim at-Termiziyning tasavvuf tariqatiga oid ilmiy merosini o'rganishda va tadqiq etishda olmon olimi Bernd Radtke ham muhim o'rin tutadi. B.Radtke o'z faoliyatini dastlab 1972 - yili Bayrut (Livan) shahridagi Olmoniyaning sharqshunoslik markazida referent vazifasidan boshlagan edi. U 1980 - yillarda al-Hakim at-Termiziy to'g'risida diqqatga sazovor maqolalar va kitoblarni e'lon qiladi. "Mistik (so'fiy) al-Hakim at-Termiziy – IX asr islom dini peshvosi", "Xuroson va Transoksianiya (Movarounnahr)lik ilohiyot peshvolari va mistik (so'fiy)lar" kabi asar va maqolalar uning qalamiga mansubdir. 1992 - yilda B.Radtke mas'ulligida "Termiziy al-Hakim, termizlik ilohiyotchining uch asari" sarlavhasida "Kitob siyrat al-avliyo" ("Avliyolar siyrati haqida kitob"), "Javob al-masoil allati salohi ahl saraxs anha" ("Xato masalalarga to'liq va to'g'ri hamda munosib javob") "Javob kitob Usmon bin Sa'yid min ar-rayy" ("Rayolik Usmon bin Sa'yid maktubiga javob") kabi risolalari arab matnida e'lon qilinadi [6:20-21].

Hakim Termiziyning "Kitob bayon al-ilm", "Ilm al-avliyo" (Avliyolar ilmi), "Siyrat al-avliyo" (Avliyolar siyrati, ikkinchi nomi "Xatm al-valoyat" – "Valiylik cho'qqisi" yoki "Xatm al-avliyo" – "Avliyolikning so'ngi", yanada aniqrog'i "Avliyolik cho'qqisi"), "Al-ilm", "Kitob al-huquq", "Taboqat as-so'fiya" ("Tarix al-mashoyix"), "Kitob al-hikma ilm al-botin" ("Donishmandlik ilmining ichki sirlari kitobi") va boshqa asarlarida ilmning nazariy asarlari hamda bu borada so'fiylarining tutgan o'rni o'z aksini topgan. Hakim Termiziy "tasavvuf – bu bilim", degan g'oya va shiorni jiddiy himoya qildi hamda tasavvufning ilm maqomini olish yo'lida beqiyos jonbozliklar namunasini ko'rsatdi. Allomaning asar va risolalari tasavvuf ilmida ustuvor iz qoldirish bilan birga kelgusi avlodlarga ham ta'sir kuchi beqiyos bo'ldi [4:35].

"Kashf al-Mahjub" asarining muallifi Hujvuriy: "Al-Hakim at-Termiziy buyuk va tabarruk bir zotdir. Mening oldimda shunday bir qadr-qimmatga ega ediki, qalbim unga to'liq bog'langandir. Shuning uchun mening ustozim: "Muhammad ibn Ali o'xshashi yo'q gavhari yaktodir. Jahonda uning tengi oz bo'ladi", - deb marhamat qildi" – degan edi [5:5].

Ma'lumki, har bir ijodkor o'z davrining farzandi, uni u yashagan davrdan ajratib o'rganib bo'lmaydi; unga o'zi yashagan davrdan turib baho beriladi. H.Termiziy yashagan tarixiy, falsafiy-mafkuraviy muhitni anglashda, o'ylaymizki, professor N.Komilovning yana quyidagi fikrlari bizga yordam beradi; olim IX asr boshlariga kelib tasavvufning nazariy asoslari ishlab chiqilganligini, so'fiylarning ruhiy, psixologik mashqlari o'z-o'zini tarbiyalash va chiniqtirish tadbir-usullari shakllanganligini, tariqat, ma'rifat va haqiqat tushunchalari yuzaga kelib,

tasavvufning ushbu uch qismiga oid qarashlar majmui tuzilgan – tasavvuf maxsus fan sifatida qaror topganligini, soʻfiyni tarbiyalash vazifasi, pir-muridlik qoidalari odobini yaratish zarurati tugʻilganligini, natijada shariat va tariqat, zohidlik va oriflik orasidagi munosabatlar, soʻfiylarning odam va odam mohiyati, aloqa muomalasi, tavhid kabi masalalar munozaraga sabab boʻla boshlaganligini, din arboblari bilan soʻfiy shayxlar, ayniqsa, falsafiydashgan tasavvuf tarafdorlari jiddiy mafkuraviy tortishuvlarga borganliklarini, tasavvuf butun islom olamini zabt etib, barcha qadimiy shaharlarda xonaqohlar, yoʻllarda rabotlar qurilganligini va bunda koʻplab shogirdlar tayyorlana boshlaganligini, tasavvufning ilk davrida maqomat va tariqat asoslarini ishlab chiqish, soʻfiylik yoʻriqlarini, vazifalarini belgilash va bunda ilohiy haqiqatlarni el orasida yoyishda, xususan, Zunnun Misriy (796-861), Boyazid Bastomiy (vafoti 875 yil), Hakim Termiziy va Mansur Halloj (858-922) ning xizmatlari beqiyos boʻlganligini, bu davrda Bagʻdod, Basra, Nishopur, Termiz, Balx shaharlari tasavvuf va tariqat markazlari sifatida muhim oʻrin tutganligini alohida taʼkidlaydi [3:39].

Al-Hakim at-Termiziy taʼlimotidagi muhim masalalardan biri insonda bilish (al-maʼrifa) haqidagi fikrlar majmuidir. Bilish maxsus qolip (jihoziy xos)ga ega boʻlib, u toʻrtta asosiy qismdan iboratdir,- deydi alloma. Ulardan birinchisi idrok etish orqali boʻlib, ular insondan tashqi boʻlgan hissiyotlar - bilim, tajriba va malaka, ularni tushunib idrok etib, ulardan oʻz faoliyatida foydalana bilish. Bu tizimning faoliyatida koʻz, quloq, til kabi aʼzolar bilan bir qatorda tashqi maʼlumotlarni qabul qilish, bunda insonning zehni, fahm - u farosati, quvvai hofizasi katta rol oʻynaydi. Yana bir xil vositalar borki, bular hayajonlanish, hissiyot, shuur bilan bogʻliq holatlarda (mashoʻir) (jigar, taloq, buyrak, shahvat bilan) namoyon boʻladi. Ikkinchi tizim insonda bor bilim vositasida amalga oshiriladi. Uchinchi tizim axloq masalalari bilan uygʻunlashib amalga oshadi; bu soʻnggi ikkalasi mushtarak boʻlsa, insonda ziyraklik, latofat, yuksak salohiyat kabi alohida fazilatlar yuzaga keladi. Inson erishishi qodir boʻlgan bilim - tasavvufiy maʼrifat yoki hikmat («gnosis») deb, uni inson qalbida tajalli boʻlgan ilohiy bir nur bilan tenglashtirdi. Chunonchi, shariatning turli masalalarini talqin qilib, uni hayotga tatbiq qilishga qodir boʻlgan bilim (ilm)dan farqli oʻlaroq, maʼrifat (gnosis) oʻsha narsalarning yashiringan (sirli) mohiyatini, oxir oqibatda uning ilohiy mohiyatini anglashga erishadi.

### **Adabiyotlar**

1. Choriyev Z., Annayev T., Murtazayev B., Annayev J. Al-Hakim at-Termiziy. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2008. – 149 - b.
2. Omonturdiyev J. Al-Hakim at-Termiziy taʼlimoti. – Toshkent: Universitet, 2000. – 95 - b.

3. Al-Hakim at-Termiziy, Qaytarilgan amallar (al-Manhiyyot). Arab tilidan tarjima va izohlar muallifi M.Ismoilov. – Samarqand: “Imom Buxoriy xalqaro markazi”, 2019. – 256 - b.
4. Termiziy allomalar / S.Tursunov va boshq. – Toshkent: Yangi nashr, 2015. – 272 -b.
5. Al-Hakim at -Termiziy, “Yashirin masalalar” (“al-Masoil al-maknuna”). Arab tilidan tarjima va izohlar muallifi M.Ismoilov. – Samarqand: “Imom Buxoriy xalqaro markazi”, 2019. – 216 - b.
6. Radtke B. Theologen und Mystiker in Hurasan und Transohanien. Zeitschrift der Deutschen Morganländischen Gezelshaft. Stuttgart, 1986.



## **TALABALARDA IJTIMOYIY FAOL FUQAROLIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK IMKONIYATLARI**

**Abdugʻaniev O.T. - Toshkent davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada talaba-yoshlarni faol fuqarolik tashabbuskorliklarini rivojlantirish, intellektual salohiyatli barkamol shaxs qilib tarbiyalash, ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari, fuqaro, faol fuqarolik, individual yondashuvli taʼlimning mazmun - mohiyati toʻgʻrisidagi tasavvur bilan bogʻliq yondashuvlar, ijtimoiy faol fuqarolik taʼlimi, fuqarolik burchi, majburiyati va huquqlarni bilish, unga rioya etish, huquqiy munosabatlarda muomala va huquqiy madaniyatga ega boʻlish kabi sifatlar orqali erkin demokratik davlat, fuqarolik jamiyati qurish yoʻlida talabalarni professional kasb egasi boʻlib voyaga yetishining, pedagogik-psixologik taʼsir vositalari orqali rivojlantirish yoritib oʻtilgan.

**Kalit soʻzlar:** islohot, taʼlim, ijtimoiy faollik, faol fuqarolik, kompetensiya, yetuk, barkamol, shaxs, jamiyat, demokratiya, adolat, salohiyat, professional, tarbiya, individual

## **ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ДЛЯ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНО-АКТИВНЫХ ГРАЖДАНСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ У СТУДЕНТОВ**

**Абдуганиев О.Т. - докторант Ташкентского государственного педагогического университета**

**Аннотация.** Статья связана с идеей развития активных гражданских инициатив, воспитанием студентов как интеллектуально зрелых личностей, педагогическими условиями развития социально активной гражданской компетентности, сущностью содержания активной гражданственности, индивидуального подхода к обучению. В статье показано развитие студентов как профессионалов в построении свободного демократического государства, гражданского общества посредством таких подходов, как социально активное гражданское образование, гражданский долг, знание обязательств и прав, их соблюдение, обращение в правоотношениях и развитие правовой культуры, педагогические и психологические средства воздействия.

**Ключевые слова:** реформа, образование, социальная активность, активная гражданственность, компетентность, зрелость, гармония, личность,

общество, демократия, справедливость, потенциал, профессиональный, воспитание, индивидуальный

## **PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL OPPORTUNITIES FOR THE DEVELOPMENT OF SOCIAL ACTIVE CIVIL COMPETENCES IN STUDENTS**

**Abduganiev O.T.- Phd student Tashkent State Pedagogical University**

**Annotation.** The article is connected with the idea of developing active civic initiatives, educating students as intellectually mature individuals, pedagogical conditions for the development of socially active civic competence, the essence of the content of active civic consciousness, an individual approach to learning. The article shows the development of students as professionals in building a free democratic state, civil society through approaches such as socially active civic education, civic duty, knowledge of obligations and rights, their observance, treatment in legal relations and the development of legal culture, pedagogical and psychological means of influence.

**Key words:** reform, education, social activism, active citizenship, competence, mature, harmonious, individual, society, democracy, justice, potential, professional, education, individual

Mamlakatimiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning tub zahirida ijtimoiy faol, barkomol yosh-avlodni tarbiyalash eng muhim vazifa sifatida ilgari surilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti BMT Bosh Assambleyasining 2017-yil 23-sentyabrdagi 75-sessiyasida so'zlagan nutqida yoshlar masalasiga to'xtalar ekan: «mamlakatimiz aholisining yarmidan ko'pini yoshlar tashkil etadi. Respublikamizda har bir yigit – qizning jamiyatda munosib o'rin egallashi va o'z salohiyatini namoyon etishi bo'yicha ulkan ishlar amalga oshirilmoqda». O'zbekistonda Yoshlar parlamentlari, Yoshlar ishlari agentligi faoliyat ko'rsatmoqda. Avgust oyida Birlashgan Millatlar Tashkiloti shafeligida yoshlar huquqlariga bag'ishlangan Samarqand xalqaro forumi muvaffaqiyatli o'tkazildi. Fursatdan foydalanib, yana bir bor Yoshlar huquqlari to'g'risidagi Birlashgan Millatlar Tashkiloti Konvensiyasini qabul qilish bo'yicha O'zbekiston tashabbusini qo'llab-quvvatlashga chaqiraman» - degan fikrlari dunyo hamjamiyati tomonidan ham keng e'tirof etilmoqda [1].

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlarga ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar o'z samarasini ko'rsatmoqda. “Islohot – bu yangilanish, o'zgarish degani. Islohotlar ijobiy natija berishi uchun, avvalo, rahbarlarimiz va odamlarimiz o'zgarishi kerak. Inson o'zgarsa, jamiyat o'zgaradi” [2; 252-b]. Chunki

har qanday islohot zamirida yoshlarimiz faolligi, tashabbuskorligi va ularning ilmi-ijodiy g'oyalarini qo'llab - quvvatlash ishlarini olib borilishi jamiyat ertangi kuni farovonligidan dalolat beradi. Shuning uchun ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirish talabalarda adolat, huquqiy tenglik, demokratik davlat, fuqarolik jamiyati qurish yo'lida eng muhim tashabbuskor omil hisoblanadi.

Mamlakatimizda yoshlarning har tamonlama yetuk shaxs sifatida voyaga yetishida jamiyat taraqqiyoti bilan birga, uning ijtimoiy faol fuqaro bo'lishi ham muhim o'rin tutadi. Talabalarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish bugungi kunda dolzarb masala bo'lib bormoqda. Fuqaro, faol fuqarolik tushunchalari mazmun - mohiyati to'g'risidagi tasavvur bilan bog'liq yondashuvlar turli davrlarda turlicha talqin qilingan. Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirish ta'limining maqsadi, doimo insonni jamiyatda faol, davlatning ijtimoiy – siyosiy hayotida ishtirok etishga, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lishga intilish bo'lgan. Shunga qaramay, inson hayotida davlat va jamiyatning roli turlicha talqin etilgan.

Talabalarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik imkoniyatlarini aniqlashtirish, bizningcha quyidagi fikr - mulohazalarni ta'kidlab o'tish imkonini berdi:

- yosh avlodni tarbiyalashda fuqarolik jamiyatining asosiy vazifasi – ijtimoiy faol fuqaroni kamol toptirish;

- talabalarga demokratik davlat qurish g'oyasini singdirib borish orqali jamiyat hayotining barcha sohalarida ijtimoiy faol ishtirokini ta'minlash;

- talabalarda millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik, xalq farovonligi, komil inson g'oyalarini singdirgan holda fuqarolik jamiyatini qurishda faol ishtirokini ta'minlash;

- talabalarni mustaqil hayotga tayyorlash va ularda ijtimoiy-siyosiy, huquqiy savodxonlikni rivojlantirish;

- talabalarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlanishi "Mentorlik", "Talaba minbari" kabi ijtimoiy loyihalarda faollik ko'rsatish orqali oshirib borish;

- talabalarni oliy ta'lim muassasalaridagi, "Yoshlar ittifoqi uyushmalari faoliyatida faol ishtirok etish, o'zini-o'zi boshqarish organlari faoliyatiga keng jalb etish" orqali ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish mumkin.

Talabalar oliy ta'lim muassasasi ijtimoiy hayotida, tashabbuskor va volontyorlik guruhlar, o'zini-o'zi boshqarish organlari, jamoat tashkilotlari, "Iqtidorli yoshlar" fan klublari faoliyatida jumladan, talabalar, ota-onalar kengashlari faoliyatini rivojlantirish orqali "ta'lim muassasasi talabalari va ota-onalar" o'rtasida faol hamkorlik muhitini yaratish orqali ko'zlangan maqsadga yetish mumkin. Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish sharoitlari orasida obyektiv

(ta'lim muassasasining demokratik hayot tarzi, uning tarbiyaviy tizimining ochiqliqi, ta'lim va tarbiya texnologiyalari va b.q.) hamda subyektiv (ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi va pedagoglarning shaxsiy sifatlari) sharoitlar orqali rivojlanadi. Ammo ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasining mazkur mezonlarni aniqlashtirish, jumladan, ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish bilan qiyoslash va ularda baholash mezonlari va vositalarini aniqlashni talab etadi. Demak, ilmiy tadqiqot ishlarining tahlili "ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi – bu inson o'z hayot faoliyatida, fuqarolik jamiyatining faol a'zosi bo'lishi, uning shakllanishi va rivojlanishida ishtirok etish, faol fuqarolik pozitsiyasiga asoslangan qobiliyati va tayyorgarligi natijasidir" deb ta'kidlashga asos bo'ladi.



### **1-rasm-Talabalar ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirish maqsadlari**

N.M.Voskresenskaya o'zining ilmiy tadqiqotlarida faol fuqaroni tarbiyalashda fuqarolik ta'limining loyihaviy modelini yaratish, o'quvchilarning muayyan ijtimoiy muammoni aniqlash, tahlil qilish va hal etishga yo'naltirilgan ijtimoiy loyihani ishlab chiqishlari va amalga oshirishlarini ko'zda tutgan. Olim o'z qarashlarida o'quvchilarning loyihaviy faoliyatlari ularning ma'lum ijtimoiy muammoni tanlash, uni tahlil qilish va hal etish variantlarini ishlab chiqish bo'yicha faol faoliyatlarni ko'zda tutgan. Bunda ijtimoiy kompetensiyalar egallanadi, o'smirlar esa atrof hamjamiyatdagi ijtimoiy vaziyatni yaxshilash bo'yicha mas'uliyatli qarorlarni qabul qilishga moslashadi. O'quvchilarda fuqarolik ta'limi orqali ijtimoiy

ta'lim olishning samaradorligi, o'zlashtirishning ijtimoiy faol metodlari bilan birlashtirish (treninglar, ishbilarmonlik o'yinlari, munozaralar, aqliy hujum, interaktiv metodikalar va h.k.) hisobiga erishiladi. Bundan tashqari fuqarolik ta'limida shaxs ongini shakllantirish (suhbat, bahs-munozara, namuna, ko'rsatma, tushuntirish va h.k.), o'quvchilarning xulqlari va faoliyatlarini tashkil etish va rag'batlantirish metodlari (talablar, ijtimoiy fikr, tarbiyaviy vaziyatlar, rag'batlantirish, jazolash) keng qo'llaniladi [3].

Ilmiy tadqiqot muammosiga oid tahlillar shundan dalolat beradiki, talabalarda tashabbuskorlik, ijtimoiy faollikni rivojlantirish muammolari bo'yicha respublikamiz olimlari X.M.Tojiboeva, N.N.Djamilova, Q.Q.Quronboev, B.Sh.Shermuhammadov, G.J.Tulenovalar yoshlarda ijtimoiy faollikni rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslariga to'xtalib o'tgan.


X.M.Tojiboeva ilmiy tadqiqot ishida ijtimoiy faollik – shaxsning maqsadga yo'naltirilgan faoliyati bo'lib, ijtimoiy voqelikka nisbatan individual munosabati va tizimli xatti-harakatlarining yuksak ko'rinishini ifodalovchi tushuncha sifatida talqin etgan. Ijtimoiy faollik me'yoriy va odatdagiga nisbatan kuchli faoliyatdir. O'quvchi-yoshlarning ijtimoiy faolliklarini oshirish ular o'rtasidagi ta'lim-tarbiyani tashkil etish jarayoni" deb ta'kidlab o'tgan [4].

N.N.Djamilova: "Tashabbuskorlik o'quv va kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishish uchun yangi g'oya va takliflarni ilgari surish hamda amaliy faoliyatda namoyon etishga qodirlik", - deb ifodalagan. Talabalar ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlanishida tashabbuskorlik, mas'uliyatlilik, qat'iyatlilik kabi sifatlar rivojlanishi muhim omil hisoblanadi[5; 14-b].

Q.Q.Quronboev o'z tadqiqotida "talabalarning ma'naviy – ijtimoiy faolliklarini rivojlantirishning uslublari va mazmuni, pedagogik asoslari, ma'naviy – axloqiy muammolar, yoshlar ta'lim-tarbiyasida ongli intizomning o'rni, burch va mas'uliyat, jamoatchilik sifatlarini tarkib toptirish" masalalariga to'xtalib o'tgan [6].

B.Sh.Shermuhammadov tadqiqotida "yoshlardagi ijtimoiy faollik qobiliyatlari, salohiyati ilmiy-amaliy jihatdan o'sish imkoniyatlarini oldindan aniqlash, ijodiy fikrlash" [7; 37-b] masalalari ifodalangan.

Talabalarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish muayyan g'oyalar, diniy e'tiqod, faol fuqarolik pozitsiyasi, axloqiy va fuqarolik qadriyatlarini (milliy va umumbashariy madaniyatining asosiy qadriyatlarini hurmat qilish) egallash. An'anaviy qadriyatlar vatanparvarlik, o'z xalqiga xizmat qilish, insonparvarlik, moddiy-pragmatikka nisbatan ma'naviy-axloqiy qadriyatlarining ustunligi, inson huquqlari, dinlararo bag'rikenglik va boshqa ahloqiy sifatlar orqali rivojlanishda namoyon bo'ladi.



## **2-rasm-Talabalarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi tushunchasini rivojlantirishning nazariy asoslari**

Kompetensiyani rivojlantirish modelining asosida – asosiy, mutaxassislik, maxsus kurslar, ijtimoiy amaliyotni tashkil qilish, ijtimoiy hamkorlik tizimini rivojlantirish va talabalarning darsdan tashqari faoliyatida, o‘z-o‘zini boshqarish, universitet jamoat tashkilotlari faoliyatida, volontyorlik harakatlarida o‘z ijodiy imkoniyatlarini namoyon etish bilan rivojlantirib borishda ta’lim modulini ajratish bilan ularni integrasiyalangan o‘qitish prinsiplarini amalga oshirish yotadi. Bunda qo‘yilgan maqsadga erishishning zaruriy sharti bo‘lib ta’lim muassasasidagi demokratik hayot tarzi alohida xizmat qiladi.

Kompetensiyaviy yondashuv nafaqat ma’lum sohadagi muayyan bilim, ko‘nikma va malakalarga, qadriyatli yo‘nalganlik, ijtimoiy faol fuqaro o‘z-o‘zini

anglashga ega bo'lgan, balki bularning barchasini amaliy faoliyatda qo'llash qobiliyati va insonlarni faol fuqarolikka tayyorlash zaruratini ifodalaydi.

Demak, ilmiy tadqiqot ishlarining tahlili "ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi – bu inson o'z hayot faoliyatida, fuqarolik jamiyatining faol a'zosi bo'lishi, uning shakllanishi va rivojlanishida ishtirok etish, faol fuqarolik pozitsiyasiga asoslangan qobiliyati va tayyorgarligi natijasidir" deb ta'kidlashga asos bo'ladi.

Xorijiy mamlakatlarda demokratik davlat qurishda, jamoatchilik fikrini o'rganishning nazorat shakllari quyidagicha amalga oshiriladi:

➤ davlat hokimiyati va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlariga petitsiyalar bilan murojaat qilish (fuqarolarning individual va jamoa tartibida murojaatlari);

➤ hokimiyat faoliyati to'g'risida axborotning fuqarolar uchun ochiqligi (fuqarolar uchun davlat organlarining axborot jihatdan ochiq-oshkoraligi);

➤ mahalliy o'zini o'zi boshqarish, fuqarolar yig'ilishlari va yig'inlari orqali fuqarolarning jamiyat ishlarini boshqarishda ishtiroki;

➤ oshkoralik tarzida eshituvlar;

➤ qonun loyihalari va davlat hayotining boshqa muhim masalalarining jamoat muhokamalari;

➤ qonunchilik hujjatlari loyihalarining jamoat ekspertizasi;

➤ jurnalistik tekshiruvlar va boshqa nazorat turlari orqali amalga oshirish, fuqarolik jamiyati shakllanishida muhim o'rin egallaydi.

Jamiyatda talabalar ijtimoiy faolligini oshirishda ijtimoiy adolat muhim o'rin tutadi. Ijtimoiy adolat – bu siyosiy qarashlari, jinsi, millati, tili va diniy e'tiqodidan qa'ti nazar, qonun oldida barcha fuqarolarning tengligini ta'minlashdir [8; 30-b].

Talabalarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirish to'g'risidagi ilmiy manbalar tahlili natijasida quyidagi xulosaga kelindi:

- talabalarining ijtimoiy rollari huquq va majburiyatlarini o'rganish va "O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi: Fuqarolik jamiyati" fani orqali (ijtimoiy-madaniy (faol fuqarolik) kompetensiyalari) o'zlashtirishga yo'naltirilgan maxsus tashkil etilgan dars va darsdan tashqari faoliyat sifatida belgilandi;

- ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish demokratik huquqiy davlatni qurish sharti va jamiyatning ijtimoiy barqarorligini oshirish, uning barqaror rivojlanish omili sifatida qayd etildi;

- ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi demokratik huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati va bozor iqtisodiyoti sharoitlarida insonni muvaffaqiyatli faoliyatga tayyorlaydi;

- bugungi kunda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyaviy yondashuv ustuvor hisoblanib, uning asosiy mazmun-mohiyati talaba-yoshlar ijtimoiy-siyosiy

bilimlarini amaliy faoliyat va keng doiradagi hayotiy vazifalarni yyechishda qo‘llay oladigan insonlarni tayyorlashdan iborat ekanligi ta’kidlandi;

- ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish talaba-yoshlarga demokratik jamiyatda fuqarolik huquq va majburiyatlarining butun majmuini faol, mas’uliyatli va samarali amalga oshirish, o‘z bilimlari va ko‘nikmalarini amaliyotda qo‘llashga imkon beruvchi qobiliyatlarning majmui tushuntirildi.

### **Adabiyotlar:**

1. Xalq so‘zi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil, 23 - sentyabrdagi BMT 75-sessiyasidagi nutqi. 2017-y. 24-sentyabr soni
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz.–Toshkent: O‘zbekiston, 2018.–252-b.
3. Воскресенская Н.М. Основные подходы к гражданскому образованию в России и за рубежом / Н.М. Воскресенская/ У. Гражданское образование: содержание и активные методы обучения». - М., Логос. – 2005
4. Tojiboeva X.M. “O‘quvchi-yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishning pedagogik tizimi” diss. 2018- y, 16-b.
5. Djamilova N.N. Pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarida tashabbuskorlikni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari.: Avtoref. dis.ped.DSc. – T., 2019- y. – 14-b.
6. Quronboev Q.Q. “Talabalarning ma’naviy – ijtimoiy faolliklarini rivojlantirishning pedagogik asoslari (Yoshlar tashkilotlari misolida)”: Ped.f.n...diss. – T.: O‘zPFITI, 2000-y.
7. Shermuhammadov B.Sh. Yoshlar orasida milliy g‘oya targ‘iboti samaradorligini oshirish. Dis. .. ped. fan. dok. – T.:, 2016. – 37-b.
8. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. –T.: O‘zbekiston, 2017. – 30-b.

### **“QAYDASAN MORIKO” QISSASIDA SHAXS FOJIASI TALQINI**

**Nasirov A. N. – Samarqand davlat universiteti, filologiya fanlari doktori**

**Annatsiya.** Iste’dodli ijodkor Odil Yoqubovning “Qaydasan Moriko” asarida davrning murakkab xususiyatlari talqin etilgan. Asardagi voqealar tizimida inson psixologiyasi, ruhiy iztiroblari badiiy talqin etilgan. Talqinlar zamirida adolatsiz jamiyatning inson xarakteriga, ijtimoiy muhitning esa, uning ruhiyatiga ta’siri tahlil etilgan.

**Kalit so‘zlar:** badiiy qahramon, psixologizm, obraz, xarakter, talqin, ijodkor mahorati.



## **ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ЛИЧНОЙ ТРАГЕДИИ В РАССКАЗЕ «ГДЕ ТЫ МОРИКО»**

**Насиров А.Н. - Самаркандский государственный университет, доктор филологических наук**

**Аннотация.** Работа талантливого писателя Одила Ёкубова «Где ты, Морико» интерпретирует сложные черты того периода. В системе событий произведения художественно интерпретируется психология человека, его душевные переживания. В основе интерпретации лежит влияние несправедливого общества на человеческую природу и социальную среду на его психику.

**Ключевые слова:** главный герой, психологизм, образ, характер, интерпретация, мастерство писателя.

## **INTERPRETATION OF A PERSONAL TRAGEDY IN THE STORY "WHERE ARE YOU MORICO"**

**Nasirov A. N. - Samarkand State University, Doctor of Philology**

**Annotation.** The work of the talented writer Odil Yokubov «Where are you, Moriko» interprets the complex features of that period. In the system of events of the work, human psychology, emotional experiences are interpreted artistically. The interpretation is based on the influence of an unjust society on human nature and the social environment on its psyche.

**Key words:** main character, psychologism, image, character, interpretation, writing skill.

Mustaqillik yillariga kelib badiiy adabiyotda ulkan poetik o'zgarishlar vujudga keldi. Hayot voqeiyligiga yangicha yondashish an'anasi shakllandi. Turfa xil vositalar, ramzlar asosida hayotni talqin etish an'anasi yuksalib bormoqda. Shu jihatdan turfa xillashayotgan adabiyot maydonga keldi. Ijtimoiy hayotning ma'lum bir qirrasini badiiy adabiyotda u yoki bu darajada o'z aksini topadi. "Yozuvchining hayotni obrazli umumlashtirishi, uning original badiiy kartinasini yaratishda talanti, ijodiy mustaqilligi, o'ziga xosligi, hayotiy fakt va hodisalarni, insoniy munosabatlarni yangicha talqin qilishi, "yangi so'z" aytish mahorati, adabiyotda o'z ovozi, o'z uslubini yaratish muhim ahamiyatga ega. Chunki badiiy ijod har bir avtordan ijodiy mustaqillikni, tasvir predmetiga subyektiv munosabatni taqozo etadi" (1, 73-bet). Darhaqiqat, keyingi yillar badiiy adabiyotida xuddi shu qayd qilingan tushunchalarni yetakchilik qilishini kuzatishimiz mumkin. Har bir mavzuga yangicha yondashish

an'anasi o'z ifodasini topmoqdaki, bu xususiyatni urush mavzusidagi asarlar bilan ham asoslash mumkin.

Ma'lum bir davrda yaratilgan urush mavzusidagi asarlarda g'oliblaru mag'lublar mavjud bo'lsa, keyingi yillar davr adabiyotida bu holatga yangicha yondashish usuli kuzatiladi. Bu xususiyat shundan iboratki, urush mavzusidagi asarlarda insoniyatga keltirayotgan iztiroblar, millati, irqidan qat'iy nazar yuzaga chiqayotgan fojialarning badiiy talqini yetakchiilik qilmoqda.

“Urush mavzusi adabiyotimizning kenja avlodini ham jalb etmoqda. XX asrdagi kishilarning boshi urushdan chiqmadi. Birgina Afg'on urushi global muammoga aylanib, dunyo xalqlarini bezovta qildi. Bu mudhish holat insoniyatni larzaga solib kelmoqda... Afg'on urushining salbiy asoratlari, qabohat va razolatning dunyo bo'ylab keng quloqch yoyishi adiblarni ham qo'liga qalam olishga chorladi” (2, 35-bet), - deb yozadi adabiyotshunos olim U. Rasulova. Darhaqiqat, insoniyatning tafakkur tarzi bugungi kunga kelib keskin o'zgardi. Har qanday inson baxtli yashash huquqiga ega ekanligini yanada teranroq va asosliroq his eta boshladi.

Inson hayoti tasodiflarga to'la bo'lishiga qaramay, tinimsiz harakat etadi. Dunyoning bir chekkasida bo'layotgan voqea-hodisalar boshqa bir joyida ham, aynan bolmasa-da, sodir bo'layotgan bo'lishi mumkin. Aynan biz tahlilga tortmoqchi bo'lgan Qo'chqor Norqobilning “Qishdagi lola”, Odil Yoqubovning “Qaydasan, Moriko” qissalari syujet, mavzu, badiiy g'oya, obrazlar tizimi, xarakter, badiiy detall jihatdan alohida asar sifatida e'tirof etilsa-da, undagi global muammo insoniyatning boshiga solayotgan ayanchli fojialarni juda teran va asosli talqin etganligi bilan alohida ajralib turadi.

Ma'lumki, keng dunyoqarash, tafakkurli insonning hayotga nisbatan qarashi, chiqaradigan xulosalari, hayot falsafasi yuzasidan chiqargan hukmi o'zgacha va mukammal bo'ladi. Adiblarimiz Odil Yoqubov va Qo'chqor Norqobil ham ma'lum bir darajada insoniyat qalbiga jarohat yetkazib, o'zining chuqur izini qoldirgan urushlarning bevosita o'sha davr muhiti sababli ishtirokchilarga aylangan bo'lsa ham, bu adolatsizlikni yillar o'tsa-da, unuta olmaydi. O'sha muhitning, ya'ni urushning azob-u uqubatlarini yigitlik paytidayoq boshlaridan o'tkazgan. Har ikkala qissada ham jangchi-adiblarning jang taassurotlaridan tashqari, insoniyat boshiga solgan iztiroblarini mahorat bilan talqin etadi. Syujet jihatdan olib qaraydigan bo'lsak, qissalarda retrospektiv syujet asosida voqealar silsilasi rivojlanib boradi. Mazkur syujet turida asar qahramonlari bugungi hayotdan, o'tmish xotiralarini yodga oladilar. Shu orqali asar kompozitsiyasida vujudga kelgan tugunni yechishga harakat qiladi. Qo'chqor Norqobilning “Qishdagi lola” qissasida dastlab bosh qahramon – Tohirning ish faoliyati va uni qidirib kelgan Irina bilan kutilmagan tarzda uchrashuvi, ularning o'zaro suhbat, o'sha og'ir damlarning ayanchli hayotini yodga oladi. Bularning barchasi asar kompozitsiyasida badiiy tugunni yuzaga keltiradi. Retrospektiv

syujetdan foydalanilgan holda 1987-yil, Fayzobodagi afgʻon urushi voqealari bayon etiladi. Tohirning Irina bilan bogʻliq xotiralari bayon etilgach, oʻn olti yil keyingi davrga qaytadi. Millati, irqidan qatʻiy nazar urushning odamlar boshiga solayotgan salbiy oqibatlarini kitobxon teranroq his etadi, anglashga intiladi.

Odil Yoqubovning “Qaydasan, Moriko” qissasida asar qahramoniga notanish qoʻngʻiroq boʻlishi bilan boshlanadi va shu qoʻngʻiroq sabab muallif birdaniga uzoq oʻtmishda qolgan, ammo mudom entikib eslanadigan yapon urushi va yapon qizi Moriko bilan bogʻliq xotiralarni eslay boshlaydi. Mazkur xotiralarning jonlanishi Moriko obrazini gavdalantiradi. Shundan keyin Moriko va uning turmush oʻrtogʻi bilan boʻlgan uchrashuvi talqin etiladi. Syujetning bunday tarzda ifodalanishi muallifning oʻziga xos ifoda etish uslubini namoyon etadi.

Qissalarning mavzu va gʻoyaviy doirasi ham oʻzaro mutanosibligini koʻramiz, urush va muhabbat. Bunday olib qaraganda bu ikkala tushunchalar bir-birini inkor etadigandek, biroq asar qahramonlarining his-tuygʻulari, xatti-harakatlari urush davrida ham kishilar bir-birlariga mehr-muhabbatli boʻlishi mumkin ekanligini isbotlaydi. Eng oxir damlarda oʻsha muhabbat insonni yashashga, tinimsiz harakatga, hayotda oʻz oʻrnini topishga yoʻl ochadi. Muhabbat mavzusi haqida gapirilganda, avvalo, hayotga va Vatanga boʻlgan muhabbatni anglash lozim. Asar qahramonlari urushda ulardagi kuchli iroda, yuksak orzular tufayli hayotga boʻlgan muhabbatlari soʻnmaydi. “Qishdagi lola” qissasi qahramoni Tohir xayolan odamlarga qarata shunday fikrlarni aytgan:

“Eh, xudoyim, shunday goʻzal, tinch dunyo qadriga yetmaymiz, urush oʻtini yoqamiz. Oʻzimizni ham, oʻzgalarni ham xarob qilamiz. Nima keragi bor ekan bu azoblarning? Hammamiz, barcha odamlar bir-biriga qoʻl berib, mana shunday seryulduz osmonlarga boqib, shunday yerning salqin ellarida orom olib xotirjam yashasak boʻlmaydimi-a? Eh, odamlar...”(3, 213-bet). Bu iztiroblarda inson qalbidagi faryod, iztiroblar yuzaga chiqqanligini guvohi boʻlamiz.

“Qaydasan, Moriko” qissasida bosh qahramon-askar yigit Vatanga boʻlgan muhabbatini quyidagicha ifodalagan:

“Ufqda qayoqqadir ketayotgan kemalar koʻzga tashlanadi. Ular qayoqqa ketayapti? Ehtimol elimiz tomon yoʻl olayotgandir? Biz kemalar moʻrisidan eshilib chiqayotgan koʻkimtir tutunlarga entikib tikilamiz. “Biz ham bir kun shunday kemalarga tushib ona yurt tomon yoʻl olarmikanmiz, yo suyaklarimiz bu goʻzal, lekin bizga yot tuproqlarda qolib ketarmikan”, - degan oʻy yuraklarimizni zirqiratadi...” (4, 171-bet). Inson erki baʻzan muhitga qurbon boʻladi. Ammo oʻsha ogʻir damlarda ham bunday orzu-umidlari soʻnmaydi. Yashashga, Vatanga boʻlgan mehri hech qachon soʻnmaydi.

Har ikkala qissada ham yigit va qizning bir-biriga boʻlgan muhabbati talqin etiladi. Asar qahramonlari endigina yigitlik yoshiga yetganlarida urush iskanjasiga

tortiladilar. Ular sevgi-muhabbat nima ekanligini urush ketayotgan bir davrida anglydilar. Bu tuyg‘u ularda o‘zaro dalda bo‘lish, hamdardlik qilish natijasida vujudga keldi. Tohir Irinaga bo‘lgan samimiy muhabbatini shunday izhor etadi:

“–Sen, sen yaxshisan, Irina. Sen zulmatdan bu dunyoyimda porlagan nursan. Urush komida qolgan hayotimda sevgi-muhabbat timsolisan. Sen, sen, mana shu hayotimda ochilib turgan gulsan, oppoq atirgulsan...”(3, 215-bet). Qorong‘i zulmatdan yorug‘ kunlarga chiqqandek o‘zini juda baxtli inson sifatida anglydi.

“Qishdagi lola” va “Qaydasan, Moriko” qissalaridagi mavjud qahramonlarining muhabbati shunchaki o‘tkinchi tuyg‘u emas, oradan ko‘p yillar o‘tsa-da, bu tuyg‘u ularni tark etmaydi, ko‘ngillarida abadiy muhrlangan holda yashaydilar. Xayolan o‘sha damlarni yodga oladi, murakkab hayot qirralari teran his etish imkonini beradi. Har ikki asarda ham voqealar notanish ayolning telefon qo‘ng‘irog‘i orqali yo‘qlovidan boshlanadi. “Qishdagi lola” qissasida kotiba qiz:

“Sizni bir rus ayoli pastda kutib turibdi. Sho‘rlik bir soatdan beri telefon qiladi. Yuring, ichki telefonni oling. Nega qarab turibsiz?”(3, 189-bet),-degan fikrlaridan o‘zini o‘nglagan qahramon ko‘z o‘ngimizda jonlanadi. “Qaydasan, Moriko” qissasida esa o‘zbek turizimida ishlaydigan qiz: “– Siz palonchi yozuvchimisiz? Men o‘zbek turizimidan telefon qilyapman. Bizga Yaponiyadan bir guruh turistlar kelishgan. Bir xonim sizni tanir ekan, yo‘qlayapti. Iloji bo‘lsa ko‘rishsam, deyapti”, - deb murojaat etadi (4, 169-bet),.

Muallif qo‘ng‘iroq detalidan foydalanish vositasida obrazlarning hayotidagi eski, goho shirin, goho achchiq bo‘lib tuyiladigan xotiralarni eslatishga yo‘naltiradilar. Qo‘chqor Norqobilning “Qishdagi lola” asarida shuningdek, Irinaning yon daftari, surat va maktub detalli mavjud bo‘lib, badiiy xarakterni yoritishga asos bo‘lgan. Mazkur detallar Tohir bilan Irinaning munosabatini ko‘rsatishga, shu o‘rinda Tohir obrazining shafqatli, insonparvar ekanligini namoyon etishga, murakkab davrda, yani urush davrida ham insoniyligini yo‘qotmagan shaxsligidan dalolat beradi. Tohir Irina va boshqa razvedkachilar bilan Fayzobodda jang olib borayotganda bir holatga duch kelib qolishadi. Askarlarga qarshi o‘t ochgan afg‘on kishisi yaralangan holda qo‘rg‘oniga yashirinadi. Uning ortidan ta‘qib qilib kelgan Tohir xona o‘rtasida jon taslim qilayotgan afg‘on jangchisini va bir chekkada qo‘rquvdan qaltirayotgan ayol, bolasi bilan turardi. Tohir ularning hech biriga qurol o‘qtalmaslikka buyruq beradi. Shu sababdan ayol va uning farzandi omon qolishadi. Oradan o‘n olti yil o‘tgandan so‘ng Tohir ular haqidagi darakni Irinaning maktubi orqali bilib oladi: “O‘tgan yili (Shafiqa, o‘sha afg‘on ayoli) menga maktub yozdi. Ishonasanmi, aqldan ozay dedim. Manavi suratni esa senga berib qo‘yishimni iltimos qilgandi. Uning ortida “Hayotimizning eng og‘ir lahzalarida bizga shafqat qilgan mard va mehribon insonga ulkan minnatdorchilik va qarzdorlik bilan tashakkur aytamiz...–deb yozilgan” (3, 221-bet). Yillar o‘tsa-da, askar yigitning insoniyligi

tufayli tirik qolganini, undan o‘zini qarzdor deb hisoblashini, uni izlashining sababi shunda ekanligi bilan belgilanadi.

Odil Yoqubovning “Qaydasan, Moriko” qissasida yapon qizlari bilan rus askarlari o‘rtasida insoniy munosabatni taqiqlovchi qoida mavjud edi, ammo shunday qoidani bilsa ham, askar ham, mayor ham yapon generalining qizlari Chiko va Morikoga ko‘ngil qo‘yishadi. Mayor muhabbatiga erishish uchun unvonlaridan ham voz kechishga tayyor edi. Hatto voz kechib, urushdan ham butunlay ketadi.

Qo‘chqor Norqobilning “Qishdagi lola” hamda Odil Yoqubovning “Qaydasan, Moriko” qissalarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadi-ki, asrlar davomida insoniyat o‘rtasida kurash davom etib kelmoqda, ammo bu ziddiyatlar faqat insonlarga baxt, yaxshi hayot emas, balki iztiroblar, alamlar ham olib kelayotganligini yanada teranroq badiiy talqin etiladi. Zero, haqiqiy badiiy asar bejizga yaratilmaydi. Hayotdagi mavjud ziddiyatlar, inson qalbidagi iztiroblarni ijodkor teranroq anglaydi, ilg‘aydi, his etadi, buning zamirida esa yetuk san‘at asarlari vujudga keladi. Anglanmagan haqiqatlar davrlar o‘tishi bilan inson qalbini larzaga soladi. Har ikki badiiy asar ham insonni hayotda nima uchun yashayotganligini teranror his etishga, bugungi tinch, xalq faravonligi yo‘lidagi islohatlarni, anglashga undaydi.

#### **Adabiyotlar**

1. Nosirov O‘. Badiiy uslub mavzuidan talqinlar. Ijodkor shaxs, badiiy uslub, avtor obrazi. –Toshkent, “Fan”, 1981-yil, 73-bet.
2. Rasulova U. XX asr o‘zbek qissalari tadriji. –Toshkent, “Fan”, 2012-yil, -60 bet.
3. Yoqubov O. Qaydasan Moriko. Qissalar, dramalar, hikoyalar, etyudlar, maqolalar. –Toshkent, “Sharq”, 2002-yil. -432 bet.
4. Norqobil Q. Kulib tur, azizim. Qissalar. –Toshkent, “Sharq”, 2004-yil. -223 bet.
5. Normatov U. Ijod sehri. – T., “Sharq”, 2007. – 290 b.
6. Bahodir Karim. Ruhiyat alifbosi, – T., G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2016. – 364 b.

### **“QO‘RG‘ONLANGAN OY” ROMANIDA SHAXS FOJIASI TALQINI**

**Djurakulova E. S. – Samarqand davlat universiteti, mustaqil tadqiqotchi**

**Annotatsiya.** Shoyim Bo‘tayevning “Qo‘rg‘onlangan oy” romanida ijtimoiy muhitning badiiy xarakterga va inson ruhiyatiga ta’siri masalasiga e’tibor qaratilgan. Tahlillar davomida badiiy obraz yaratish, insoniy fazilatlarining ijtimoiy muhit ta’sirida o‘zgarish jarayonlari tahlil etilgan.

**Kalit soʻzlar:** obrazlar olami, ruhiyat, ijtimoiy muhit, xarakter talqini, mahorat.

## **ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ЛИЧНОЙ ТРАГЕДИИ В РОМАНЕ “ЗАЩИЩЕННАЯ ЛУНА”**

**Джуракулова Э.С. - Самаркандский государственный университет,  
независимый исследователь.**

**Аннотация.** Роман Шойима Бутаева “Защищенная луна” фокусируется на проблеме влияния социальной среды на художественный образ, на психику человека. В статье анализируются процессы создания художественного образа, изменения человеческих качеств под влиянием социальной среды.

**Ключевые слова:** мир образов, сущность, социальная среда, интерпретация персонажей, мастерство.

## **INTERPRETATION OF PERSONAL TRAGEDY IN THE ROMAN “PROTECTED MOON”**

**Djurakulova E.S - Samarkand State University, independent researcher**

**Annotation.** Shoyim Botayev`s novel “The Protected Moon” focuses on the problem of the influence of the social environment on the artistic image, on the human psyche. The article analyzes the processes of creating an artistic image, changes in human qualities under the influence of the social environment.

**Key words:** image world, essence, social environment, interpretation of characters, skill.

Milliy istiqloq davriga kelib jamiyatda axloqiy mezonlarni yangilash zarurati tobora kuchaya boshladi. Nasr taraqqiyotida oʻziga xos talqinlar, poetik tasvir xususiyatlari namoyon boʻldi. Xususan, milliy romanchilikda qisqa vaqt mobaynida inson maʼnaviyati tadqiqi birinchi oʻringa koʻtarildi. Chunki bir tomondan, katta ijtimoiy muammolar kun tartibiga koʻtarilgan boʻlsa, ikkinchi tomondan, mavjud siyosiy andozalar yemirilayotganligi ruhiyat talqiniga, shaxs fojialarining borligi icha ifodalshga, badiiy talqin etishga harakat qilindi. Har bir davrning badiiy poetik talqinlaridagi oʻzgarishlar kabi, insonni, uning maʼnaviy-botiniy olamini anglashga boʻlgan ehtiyojining ortishini ham alohida qayd etmoq zarur.

Adabiyotshunos Abdugʻafur Rasulov qayd qilganidek: “Oʻzbek romanchiligi jahon adabiyotida roʻy berayotgan holat, izlanishlarni oʻzida aks ettirmoqda. Globallashuv sanʼat, adabiyotda ham koʻzga tashlanayotganligini inkor qilmagan

holda romanning o'zligini, betakrorligini milliylik, yangi-yangi qahramonlar belgilashini zinhor unutish mumkin emas" [1,59-b]. Ta'kidlanganidek, jahon adabiyotidagi yetakchi tamoyillar o'zbek romanchiligiga ham sezilarli ta'sir etganligini ham inkor etib bo'lmaydi.

Shu nuqtayi nazardan, iste'dodli adib Shoyim Bo'tayevning "Qo'rg'onlangan oy" romanida ham turfa xil taqdirlar, ularning o'ziga xos xarakter xususiyatlari teran badiiy talqin etilgan. Asarning asosiy mavzusi ham keyingi yillardagi xalqimiz hayotini, inson va tabiat birligini, inson va nabotot olamining dialektik birligini badiiy talqin etgan asarlardan biridir. Roman syujetiga umuminsoniy muammolar darajasidagi muammolar bilan bir qatorda uning insoniy fazilatlaridan mahrum bo'lib borishi, salbiy xarakterning shakllanishida muhitning ta'siri yorqin lavhalarda o'z ifodasini topgan.

Asardagi voqealar rivoji inson qalbida shakllangan yovuzlik xususiyatlarini o'zida mujassamlashtiradi. Inson o'z ruhiga singib ketgan yovuzlik mohiyatini anglashi murakkab jarayon ekanligini obrazlar olami orqali asoslashga intiladi. Inson ruhiga yovuzlikning kirib kelishi va uning fojiviy oqibatlari romanga xos tasvir usulida singdirilganligini kuzatish mumkin. Romanning badiiy-estetik ahamiyati shundaki, yozuvchi romanga xos tafakkurni romanga jalb etishda polifonik talqin yo'llariga murojaat etadi. Bu tasvir orqali badiiy qahramonlar ruhiyatini, xarakter qirralarini yoritib beradi.

Asardagi voqealar silsilasi shuni ko'rsatadiki, inson qalbida ezgulik bilan bir qatorda yovuzlik ham kurtak otadiki, buning asosiy sababi ham, inson va muhit o'rtasidagi ziddiyatlarga bog'lanadi. "Murtazo iyagini erinchoqlik bilan qashlab, esnab o'tirgan Rahmonga yer ostidan qarab-qarab qo'yarkan, yuragi po'killar, hozir boshini ko'tarib meni ko'radi-yu, ishga buyuradi deb o'ylardi. Rahmonning avzoyi buzuq, xuddi buyurishga arziydigan yumush o'ylab topolmaganidan bezovtalanardi. Shu on Murtazoning kutgani ro'y berdi: u boshini ko'tardi" (2, 38-bet). Voqealar rivojiga nazar tashlar ekanmiz, Murtazoning xuddi shu muhit, uning xarakterini o'zgarishiga, insonga nafrat bilan qarashini shakllanishiga sabab bo'lganligini his etamiz.

Asar qahramonining ruhiyatida vujudga kelgan yovuzlikning ilk kurtagi, tashqi muhit ta'sirida tug'ilgan, ruhityatiga xos bo'lgan andishani yengish g'oyasi bora-bora uning ruhiyatida o'ziga xos bir isyonga aylanib boradi: "Murtazo indamay o'rnidan turdi. Bir chetda yotgan, siri ko'chgan choynakni olib bir zum kalavalanib turdi, nimadir demoqqa chog'landi, aytolmadi. Ketdi... Baribir gap qaytargani bilan foydasi yo'qligini, Rahmon uning gapini ikki pulga olmasligini, qaytanga urib abjag'ini chiqarib tashlashini yaxshi bilardi" (2, 38-bet).

Murtazoning qalbida ham insoniylik mavjud edi, bolalarga xos qarashlar, tushunchalardan mahrum emas edi. Ammo "Hali bu gaplari uchun pushaymon

bo'ladi, kechirim so'raydi. Axir, men unga hech qanday yomonlik qilganim yo'q-ku?!" kabi savollar bilan o'zini ovutar ekan, asta-sekinlik bilan bu tushunchalarning o'rnini yovuzlik, zulmga zulm bilan javob qaytarish xususiyati shakllanishiga sabab bo'ladi. Chunki hammadan zo'r bo'lish istagining paydo bo'lishining o'ziyoq yovuzlik belgisi edi. Bu zo'rliqi bilan odamlar ko'ngliga qo'rquv solishga, ularning jismonan yengishga bo'lgan ehtiyoj uni shunday shakllatirib boradi. Shu sababdan ham uning ruhiyatiga kirib kelgan andishani yengish, hammadan ham zo'r bo'lish istagi kundan kun kuchayib boradi. Murtazo ruhiyatida muntazam o'zligini anglatib turuvchi o'zidagi qo'rquv – andishani yengish g'oyasi bora-bora u bilan muloqotga kirisha boshlaydiki, bu esa yovuzlik belgisi ekanligini anglab etmaydi. Ayni paytda, uning ichki kechinmalari davr evrilishlariga hamohang ekanligini ham unutmasligimiz zarur. Murtazoning nazarida, faqat shu ichki talab-andishani yengish orqali odamlar nazaridagi mavqeyini tiklaydi, shu sababdan ham u bu g'oyaga tobelarcha bo'ysunadi. Bunda u g'oyaning bir ovozi, bir yuzinigina ko'ra oladigan darajada nafrat tuyg'usini shakllantirib ulguradi. Asardagi voqealar rivojida, ilk bor tegishli qopdagi sementdan boshqa sement tashimayman deb, o'z huquqini talab qilgan Murtazo og'zi-burni qonga to'lib Rahmondan kaltak yeganda ham azoblanmaydi, aksincha mag'rurlanadi. Nihoyat, o'z qo'rquvining ustidan g'olib chiqishi, o'zini boshqalarga anglatishi uning uchun katta baxt-saodat deb bilishining o'ziyoq, gumrohligidan dalolat edi. Shu kundan boshlab ruhiyatiga in qurgan yovuzlik g'oyasi uning eng muqaddas tuyg'ularidan ham g'olib chiqa boshlaydi.

Bunday xarakterning shakllanishida o'sha muhitning o'rnini beqiyos edi. Murtazo ko'rinishidagi ikkinchi odam – beshafqat, cho'rtkesar, zolim Murtazoni anglagan, sevib uylangan xotini Mavluda dahshatga tushadi. Mavludaning: "Sizga nima bo'ldi?", – degan so'rog'ini uning: "Ko'zingizni oching, qaysi yo'lni tanladingiz?" degan ogohlantirishi deb emas, balki: "Xayriyat, nihoyat Siz ham odam bo'lib, o'z haq-huquqingizni anglabsiz", - degan ma'noda his etadiki, bu esa uning keyinchalik fojialar girdobida qolishga zamin hozirlaydi.

Qaynotasidan tog'begilikni qabul qilgan Murtazoning borlig'ini yovuzlik o'zining mustahkam iplari bilan asta-sekin o'rab oladi. Uning o'qiga duchor bo'lgan oq bo'kanlarning jon talvasasida oyoq silkishidan u huzur qiladi, tirqirab otilgan qondan may ichgandek mast bo'ladi. Uning beoram qalbini shu darajada yovuzlik egallab oladiki, ko'ziga zulm qilishdan boshqa narsa ko'rinmas, oddiydek tuyulardi. Yovuzlikning kuchayib borishi Murtazoni nafs quliga aylaniradi. Goho-goho xotirasida jonlangan sodda, ma'sum Murtazoning ko'zlaridan qocholmay qiynalgan damlarida ichkilikka ruju qo'yadi, bora-bora eslamaslikka harakat qiladi. Murtazo qalbidagi ezgulik, o'z navbatida yovuzlikka o'rnini bo'shatishga majbur bo'ladi.

O'z halol mehnati bilan kun kechirgan shofyorni yo'ldan urishi va ovga olib borishi oqibatida shofyorda psixologik depressiya holatidagi gallyusinatsiya yuz



berishga olib keladi. Ko'ziga qon ko'rinaverganidan o'zi ham o'limiga sababchi bo'lgan jonvorlarning holidan qo'rqib, mashinasidan ham, mashina haydashdan ham voz kechgan shofyor ongiga azob bergan azob aslida Murtazoning ongini, aql-idrokini ko'r qilgan «zo'r bo'lish» g'oyasining ikkinchi ijobiy ovozi natijasida yuzaga kelgan vijdon azobi edi. Murtazoni bir necha bo'lakka bo'lib tashlagan g'oya hamma narsani egallash xohishini yuzaga chiqaradi. Anna bilan bo'lgan yaqinlik goho nafs bo'lib, uning xohishini uyg'otadi, goho gunoh bo'lib, vijdoniga azob beradi. Vijdoni qiynalgan damlari Mavludaning ko'zlariga boqolmay qoladi. Ammo ikkinchi g'oyaga tutqun Murtazo birinchi pok Murtazodan zo'r keladi.

Murtazoning xudbinligi oqibatida Mavluda bilan o'rtalarida begonalik paydo bo'la boradi. Kundan-kunga o'zgarib borayotgan Murtazoning xarakteri Mavludani tashvishga soladi, o'zlarining hayoti parokandalik sari yuz tuta boshlaganini anglab, u iztirobga tushadi, Murtazoni tushunmoqchi bo'ladi, erining qalbiga quloq tutishga intiladi. Ammo yovuzlik ruhi Murtazo ongini, aql-idrokini, es-hushini qamrab olgan edi. Mavludaning iltijolari, nasihatlarini butunlay unutadi, ya'ni o'ligini yo'qota boshlaydi. O'g'lining qo'lini halollashdan ko'ra to'y qilib, hammaga kimligini ko'rsatib qo'yish xohishi Murtazoning fojiasidan dalolat beradi. Bo'rilarining to'yga atab boqqan qo'ylarini chavaqlab tashlashi ham uning ruhiyatiga ta'sir qilmaydi.

Bo'rilarining qo'ylarga tajovuz qilishi, aslida Murtazoga kelayotgan fojiadan darak edi, ammo uni anglash, his etishdan mahrum bo'lganligini ham inkor etib bo'lmaydi. Nafsning natijasida tabiat va inson o'rtasidagi dialektik birlik buzila boshlaydi. Och qolgan bo'rilarining tap tortmay qishloqqa oyoq qo'yish sabablarini anglashga ham imkon topmaydi. Bu salbiy holatlar, fojialardan xulosa chiqarishdan ham mahrum edi.

Adibning badiiy mahorati shundaki, tabiat uyg'unligining falsafiy mohiyatidan polifonik talqinni kuchaytirib, qahraman ruhiy-ma'naviy olamini yoritib boradi. Yomonlik va yovuzlik, falokat va kasofat hech qachon yolg'iz kelmasligini Mavluda juda teran angelaydi. Ammo yillar shamoli uning qarashlarini anglash imkonini bermaydi. Yovuzlikning qalb qaridan mustahkam o'rin olishi uning xarakter xususiyati bilan bir qatorda, ruhiy olamini, fojiasini yoritishga xizmat qiladi. Bu davrga kelib uning butun borlig'i yovuzlik qudratidan kuch ola boshlaydiki, uning zamiridagi fojiani unutadi. Murtazoning o'zi ham aslida mana shu tabiatning bir bo'lagi ekanligini unutadi. Uning qalbidagi bu qabih g'oya keksa ovchining burgutini ko'rganda tug'iladi. Murtazo ruhiga singgan yovuzlik nafs yo'li bilan boshqa bir yovuzlik yuzaga kelishiga va o'zini dunyoga keltirgan yovuzlikdan ham zo'rraq bo'lishi uchun xizmat qiladi. Ochlikdan sillasi qurigan burgut bolasi bir bo'lak luqma uchun har qanday vazifani bajarishga majbur bo'ladi. O'z xojasi – Murtazoga ko'zi tushishi bilan o'ljasiz qaytishi ochlik, tashnalik bilan tugallanishini esiga soladi va

jon-jahdi bilan o'ljasi tashlanadigan darajaga borishga majbur bo'ladi. Qonga to'lgan burgutning ko'zlari qasos onlari yaqinlashganidan dalolat beradi.

Murtazoning xayoliga kelgan cho'loq bo'ri aslida uning bir turlanishi edi, xolos. Intiqom sari oshiqqan Murtazo insonga xos bo'lgan falokatni oldindan sezish hissidan ham mahrum bo'lishga ulgurgan edi: "Murtazo bir Saru hol, nima qilib, nima qo'yayotganini ham farqiga ko'pincha bormasdi. Xayoli allaqayirlarda parishon kezinar, rang-u ro'yiga qarab bo'lmasdi – yonoqlari turtib chiqib, ko'zlari ich-ichiga botib ketgandi. Uning ishidan ham, o'zidan ham, turish-turmushidan ham ko'ngli sovigandan sovib borardi. Qachon kech kirib, ish tugar ekan, manovu Rahmonning turqini ko'rmasam ekan, deb o'ylar edi" [2,67-bet].

Qayd qilingan talqinlardan ko'rinadiki, uning qalbida o'ziga xos ruhiy iztiroblar mujassamlashgan. Murtazoda insoniy fazilatlar mavjud edi, ammo yillar davomidagi ijtimoiy muhitning ta'siri natijasida salbiy xarakter xususiyati ham shakllanib ulgurgan edi. Yovuzlik g'oyasining bir ongdan ikkinchi ongga o'tishi, turlanib, tuslanib o'ziga jalb etishi ko'povozlilik, ko'pqaatlamlilik darajasida talqin etiladi.

### **Adabiyotlar**

1. Rasulov A. Badiiylik – bezavol yangilik. – T., "Sharq", 2007. – 336-b.
2. Bo'taev Sh. Qo'rg'onlangan oy. Roman. – T., "Sharq", 1995. – 192-b.
3. Normatov U. Ijod sehri. – T., "Sharq", 2007. – 290-b.
4. Bahodir Karim. Ruhiyat alifbosi, – T., G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2016. – 364-b.
5. Nosirov O'. Badiiy uslub mavzuidan talqinlar. Ijodkor shaxs, badiiy uslub, avtor obrazi. –Toshkent, "Fan", 1981-yil, 73-bet.
6. Rasulova U. XX asr o'zbek qissalari tadriji. –Toshkent, "Fan", 2012-yil, -60 bet.

## **SOZANDALIK MAHORATINI RIVOJLANTIRISH TAMOYILLARI**

### **Sobirov N. - O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti o'qituvchisi**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada sozandalik mahoratini rivojlantirish tamoyillari, sohaning taraqqiyoti uchun kerakli ta'lim va fan integratsiyalashuvi borasida yoritilgan. Ilmiy tadqiqotlardan iqtiboslar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** maqom, klassik musiqa merosi, tasnif va mushkulot, ashula, katta ashula.

## **ПРИНЦИПЫ РАЗВИТИЯ ИСПОЛНИТЕЛЬСКОГО МАСТЕРСТВА**

**Собиров Н. – преподаватель Государственного института искусств и культуры Узбекистана**

**Аннотация.** В статье рассматриваются принципы развития исполнительского мастерства, интеграции образования и науки, необходимые для развития данной сферы. Приведены цитаты из научных исследований.

**Ключевые слова:** маком, классическое музыкальное наследие, классификация и сложность, песня, длинная песня.

## **PRINCIPLES OF DEVELOPMENT OF MUSICAL SKILLS**

**SOBIROV N. – The teacher of Uzbekistan state institut of art and culture**

**Annotation.** This article discusses the principles of developing musical skills, the integration of education and science necessary for the development of the industry. It quotes from scientific research.

**Key words:** makam, classical musical heritage, classification and difficulty, ashula, katta ashula.

O‘zbek klassik musiqa merosi asrlar davomida sayqal topib kelmoqda. Zamonaviy sozandalik mahoratini rivojlantirish va kelajak avlodga yetkazish yo‘lida ham klassik musiqa merosining o‘rni va ahamiyati katta bo‘lib, professional cholg‘u ijrochidan, avvalo, klassik musiqiy namunalarni chala bilish qobiliyati talab etiladi. Maqom san‘atini ilmiy-nazariy jihatdan o‘rgangan olimlar Yunus Rajabiy, Otanazar Matyoqubov, Oqilxon Ibrohimovlarning tadqiqot ishlarini kuzatar ekanmiz, o‘zbek klassik musiqa merosini naqadar jozibador, murakkab usullar ila yaratilgan ekanligiga guvoh bo‘lamiz.

O‘zbek musiqa san‘atida Faxriddin Sodiqov, Hojihon va Nurmuhammad Boltayevlar, Komiljon Otaniyozov, Ma‘rufjon Toshpo‘latov, Moshe Boboxonov singari ustoz san‘atkorlarning ijodi maqom san‘ati taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shdi. Professor Otanazar Matyoqubov o‘z tadqiqotida “Turg‘un Alimatov bilan boshlangan suhbatlarimizni XX asrning ulug‘ hofizi marhum Hojixon Boltayev, Xorazm musiqasining “jonli kitobi” - yuz yoshlarni qoralab qolgan Bola baxshi, maqom san‘atining ajoyib namoyondalari Ma‘rufxuja Bahodirov, Ollanazar Xasanov, Fattohxon Mamadaliyev, Orifxon Xotamov, Ro‘zmat Jumaniyozovlar va hozirgi kunning ustoz darg‘alari Shavkat Mirzayev, Ozod Ibrohimovlar bilan davom ettirishga shoshildim. Ularning ko‘rgan-bilganlarini ohangrabo tasmalariga yozib, so‘ngra qog‘ozga tushirib, hujjatlashtirib qo‘ydim. Ustozlardan olgan saboqlar, maqom negizlari odatga aylanib qolgan taassurotlarni ancha o‘zgartirib yubordi”, - deya ta’kidlaydi. [1. 9] Shuningdek, maqom san‘atini ilmiy-nazariy jihatdan

o'rganishda ustoz san'atkorlarning ijodiy faoliyatini kuzatish orqali anchagina muvaffaqiyatga erishgani borasida fikr yuritadi. Haqiqatan, amaliy jarayonni kuzatmay turib, ilmiy-nazariy tadqiqot olib borish samarali bo'lmaydi. Otanazar Matyoqubovning mazkur tadqiqotida O'rta Osiyo klassik musiqasining tarixiy shakllangan yagona tizimi Maqomot, ya'ni Buxoro Shashmaqomi, Xorazm maqomlari, Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari, shuningdek uning XX asrda O'zbekiston va Tojikistonda yuzaga kelgan yangi ko'rinishlari o'z aksini topgan. Ularning barchasi umumlashtirilib "Maqomot" nomi bilan yuritilishi aytib o'tilgan. Bugungi kunga kelib, mazkur tadqiqot Maqom san'ati nazariyasini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda. Olim o'z ishida hududlar bo'yicha maqom ashulalarining bir-biriga o'xshamas, o'ziga xos an'analarni o'rganib, betakror usullarini isbotlab bergan. Masalan, Farg'ona-Toshkent maqomlari qadimiy maqom yo'llari doira (muodil)lari, usul va shakl andozalari asosida tarkib topib, ushbu voha sozandalarining qalb qo'ri bilan sug'orilgan mustaqil kuy va ashulalarga aylanib ketganligini isbotlagan. Maqom san'atini o'rganish va ijro etish sozandalik mahoratini rivojlantirishda ham qo'l keladi. Murakkab usullarning ritmgga solingan musiqiy yo'llari cholg'u ijrochisidan o'ziga xos professional tajribani talab etadi. Asrdan asrga o'tib kelayotgan maqom san'ati namunalarini tinglasak, ularda she'r va musiqa shaklan va mohiyatan uyg'unlashib, bir butun yaxlit badiiy asarga aylanib ketganligini ko'rish mumkin.

Maqom namunalari ijrosida qo'llaniladigan cholg'u asboblari murakkab cholish texnikasi ila yaratilgan bo'lib, ularning kuy va ashulalar bilan bog'lanishini ikki tomonlama kuzatish mumkin. "Bir tarafdin, cholg'u sozlar amaliyot in'ikosi, asrlar davomida shakllangan musiqiy tafakkur mahsuli bo'lsa, ikkinchidan, ijro jarayoniga bevosita ta'sir o'tkazuvchi juda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi"[2. 13].

Bugungi kunda musiqiy pedagogikada maqom san'atini o'rgatish, mahoratli sozandalarni yetishtirishda asriy an'analardan foydalanish strategiyasi mavjud. Bunda "ustoz-shogird" an'anasi yuksak o'rinda turadi. O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida ustoz san'atkorlar O'lmas Rasulov, Orolmirzo Safarov, Mashrab Ermatov, Beknazar Do'stmuhammedov, Ahmadjon Dadayevlar ijodiy faoliyat bilan birga pedagogik ta'limda ham faol bo'lib, sanoqsiz shogirdlarni yetishtirib kelmoqda. Tarixga nazar solsak ham yetuk san'atkorlar o'z ijodiy merosini ta'limga sarflaganiga guvoh bo'lamiz. Muhammad Bekjon Rahmon o'g'li Muhammad Yusuf Devonzodaning "Xorazm musiqiy tarixchisi" nomli kitobida "Muhammad Rasul Mirzaboshi o'z otasi Pahlavon Mirzaboshidan shashmaqom nag'malarini o'rganib, o'zining bilgan maqomlarini kun sayin Muhammad Rahimxon Soniyga ta'lim qilmoqqa boshlaydir. Shuning birla Muhammad Rahimxonning musiqa ustodi bo'ladir", degan ma'lumotni ko'ramiz [3. 30]. Shuningdek, ushbu

kitobda ko‘plab ustoz san’atkorlarning maqom san’atining nazariyasi va amaliyotini o‘rgangani borasida ma’lumotlar keltirilgan. Muhammad Rasul Mirzaboshi shashmaqom nag‘malarini ikki katta mujallad qilib savod darsligini yozgan. Tasnif va mushkulot, ya’ni manzum va mansur qismlarini ayri-ayri yig‘ib, alohida bir kitob qilgani bayon etilgan. Mazkur kitoblar endilikda mahoratli xonanda va sozanda tayyorlashda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Ustoz san’atkor maqomlarning usullarini yanada mukammallashtirgani ma’lum. O‘sha manbada “Gup-taqqa”dan iborat bo‘lg‘on usuli maxsus so‘zlarni soz ila barobar ijro etilganda nag‘malarning ohangiga ko‘ra “Taq gup”larni oralarida ba’zi lozim bo‘lg‘on “Ist” zamoni borligi yoziladi. Shu o‘rnida Muhammad Rasul Mirzaboshi Xorazm musiqasining birinchi islohotchisi ham nigohboni va muhaffizi deb tan olinadi.

Cholg‘u ijrochiligi murakkab jarayon bo‘lib, bunda mahorat serqirra ravishda rivojlantirilishi lozim. Maqom ashulalarini mukammal tarzda ijro eta olgan sozandaning tajribasi ham ortib boradi. Har bir hudud maqomlari kuylarining chalish texnikasi, usullari turlicha bo‘ladi. Sozanda o‘z tahsilida muayyan hududning an’analariga murojaat qiladi.

Musiqashunos olim va tajribali pedagog professor Oqilxon Ibrohimov o‘zining “Maqom asoslari” kitobida maqom ashulalari strukturasi ildizigacha o‘rgangan. Bir misol keltirsak: “Buxoro maqomlarining (Olti maqomning) ikkinchi guruh ayrim yo‘llari turkumlanishida o‘zgacha qonuniyatlar namoyon bo‘ladi. Bunda “Savt” va “Mo‘g‘ulcha” nomli aytim (ashula) yo‘llari yetakchii o‘rinda turadi. “Savt” so‘zi arabcha so‘z bo‘lib, “ohang”, “tovush”, “aks-sado” ma’nolarini anglatadi. “Savt”lar, odatda 1-guruh aytim turkumlaridagi “Talqin” va “Nasr” ashula yo‘llariga nazira (javob, aks-sado) sifatida yaratilgandir” [4.82]. Ushbu kitob oliy ta’lim muassasalari talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, unda mumtoz maqomlar tarixi, nazariyasi va ijrochiligi bilan bog‘liq ayrim masalalar, shuningdek, bizning davrimizgacha yetib kelgan Buxoro Shashmaqomi, Xorazm maqomlari va Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari borasida o‘ta qimmatli ma’lumotlar keltirilgan. Maqom asoslari kitobi musiqiy pedagogika ta’limida yosh kadrlarni yetishtirishda muhim manba bo‘lib, yosh ijodkorlarning qobiliyatlarini o‘stirishda ham qo‘l keladi.

Professor Oqilxon Ibrohimovning yozishicha “Olimlar orasida mavjud qarashlarga ko‘ra, maqomlarning eng qadimiy namunalari payg‘ambarlardan meros qolgan. Bu haqda XVI asr ikkinchi yarmi va XVII asr birinchi choragida yashab ijod etgan birinchi vatandoshimiz, mashhur musiqachi va olim Darvish Ali Changiyning “Tuhfat us-surur” nomli risolasida ma’lumotlar bor”, ekan [5. 11]. Demak, maqom san’ati ilohiy bo‘lib, insonlar uchun qadrli sanaladi. Ulardagi mavjud musiqiy qatlam xalq og‘zaki ijodiyotining ko‘hna namunalari tashkil etadi. Qadimdan insonlar kuyga, uning sehrliligi jilosiga mahliyo bo‘lishgan, oshufta qalbi ila soz chalishni o‘rganib, mustaqil ravishda kuylar, ohanglar yaratishgan. To hozirgi kunga qadar yetib kelgan

Navro‘z bayrami bilan bog‘liq “Navro‘zi Azam”, “Navro‘zi Xoro”, “Navro‘zi Sabo” nomli asarlar eng qadimiy namunalar sanaladi. Bu ham Navro‘z bayramining qadimiyligi va o‘sha bayram bilan bog‘liq an‘analarning asrdan asrlarga o‘tib kelayotganidan dalolat beradi. Shuningdek, ustoz o‘z tadqiqotlarida maqom namunalarining ildizlari yaxudiylikning muqaddas kitobi “Avesto”da ham borligini bayon etganlar. Hozirgi kunga kelib ularni to‘la ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganishda tarixshunoslik, madaniyatshunoslik va san‘atshunoslik kabi ilmiy sohalarning rivojlantirilishi muhim o‘rin tutadi. Bugun yoshlar ma‘naviyatini yanada rivojlantirish, ilg‘or texnologiyalardan foydalanish, barkamol avlod tarbiyasi, bunyodkor mafkura va porloq kelajak sari dadil qadamlar bosilayotgan bir davrda yosh avlodni milliy qadriyatlar va muqaddas an‘analar ruhi ostida tarbiyalash strategiyasi samarali tarzda amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston davlat konservatoriyasi hamda O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat institutida maqom san‘atini o‘rgatish bo‘yicha professional metodika ishlaydi. Xulosa qilib aytganda, sozandalik mahoratini shakllantirish va rivojlantirish muhim bosqichlarni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, ta‘lim, ijod, san‘at va madaniyatning amaliy jabhalarida ham sozandalik ilmi va ijodiy konsepsiyasini takomillashtirib borish talab etiladi. Zero, milliy musiqa san‘atining taraqqiyoti bevosita sozandalik rivoji bilan bog‘liq.

### **Adabiyotlar**

1. Matyoqubov O. “Maqomot” –T.: “Musiqqa”. 2004-y. 9-13-b.
2. Devonzoda Yu.M. “Xorazm musiqiy tarixchisi” – T: “Yozuvchi”. 1998-y. 30-b.
3. Ibrohimov O. “Maqom asoslari” –T: “Turon-Iqbol”. 2018-y. 82-b.
4. O‘sha manba, 11-b.
5. Mirziyoyev Sh. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. T.: 2017-y. (www.lex.uz)
6. Fitrat A. O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi. T.: 1993-y. (Elektron manba)
7. Matyoqubov O. Maqomot. T.: 2004-y. (Elektron manba)
8. O‘sha manba.
9. Ibrohimov O. “O‘zbek xalq musiqa ijodi (Metodik tavsiyalar)” T.: 1994-y. (Elektron manba)
10. Abdullayeva Sh., Xolmamatova L. Pedagogika. (Oliy o‘quv yurtlarining talabalari uchun o‘quv qo‘llanma) T.: 2005-y. (Elektron manba)

**NAVOIY IJODINING INDIVIDUAL TALQINI**  
**(Professor Bahodir Sarimsoqov ilmiy tadqiqotlari misolida)**

**Rahmonova Z. - Samarqand davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi**

**Annotatsiya.** Adabiyotshunoslikda ijodiy individuallik tushunchasi muayyan olimning adabiyotshunoslikka oid ilmiy asarlari, maqola va tadqiqotlarida namoyon bo'ladigan o'ziga xosliklar – betakror uslubi, tili, tadqiq prinsiplari, muammolarga qay tarzda yondashuvi, talqin yo'sini va boshqa shu kabi xususiyatlarni qamrab oladi. Ma'lumki, bugungacha so'z ilmida Navoiy asarlarining turlicha talqinlari yaratilgan. Shoirning nazmiy, nasriy va boshqa turdagi asarlari tadqiqotchilar tomonidan adabiy-tanqidiy, falsafiy-psixologik, diniy-tasavvufiy jihatlardan tadqiq etilgan. O'zbek adabiyotshunosligiga ulkan hissa qo'shgan zabardast olim, professor Bahodir Sarimsoqov esa Navoiy ijodiga ilmiy-nazariy va estetik jihatdan yondashdi. Ushbu maqolada professor Bahodir Sarimsoqovning Navoiy asarlariga individual yondashuv usullari xususida fikr yuritiladi.

**Kalit so'z:** individuallik, mimises, matezis, poetika, saj', kanon, g'azal-muloqot, poetik-sintaksis.

**ИНДИВИДУАЛЬНАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ТВОРЧЕСТВА НАВОИ**

**(На примере исследования профессора Баходира Саримсакова)**

**Рахмонова З. - Самаркандский государственный университет,  
независимый исследователь**

**Аннотация.** Творческая индивидуальность в литературе включает в себя особенность литературных произведений, статей и исследований конкретного ученого - его уникальный стиль, язык, принципы исследования, подход к проблемам, интерпретацию и другие подобные особенности. Известно, что до сих пор в словесной науке создавались различные интерпретации произведений Навои. Поэтические, прозаические и другие виды творчества поэта изучались исследователями с литературно-критической, философско-психологической, религиозно-мистической точек зрения. Профессор Баходир Саримсаков, блестящий ученый, внесший большой вклад в узбекскую литературу, подошел к творчеству Навои с научно-теоретической и эстетической точек зрения. В данной статье рассматриваются методы индивидуального подхода профессора Баходира Саримсакова к произведениям Навои.

**Ключевые слова:** индивидуальность, мимисес, матезис, поэтика, садж или аллетерация, канон, газел-диалог, поэтический синтаксис.

## INDIVIDUAL INTERPRETATION OF NAVOI'S CREATION

(On the example of Professor B.Sarimsakov's research)

**Rakhmonova Z. -Samarkand State University, Faculty of Philology,  
Independent Researcher**

**Annatation.** Creative individuality in literature includes the peculiarity of literary works, articles and research of a particular scientist - his unique style, language, research principles, approach to problems, interpretation and other similar features. It is known that up to now, various interpretations of Navoi's works have been created in the verbal science. Poetic, prosaic and other types of the poet's creativity were studied by researchers from literary-critical, philosophical-psychological, religious-mystical points of view. Professor Bakhodir Sarimsakov, a brilliant scientist who made a great contribution to Uzbek literature, approached Navoi's work from a scientific, theoretical and aesthetic point of view. This article examines the methods of the individual approach of Professor Bakhodir Sarimsakov to the works of Navoi.

**Key words:** individuality, mimesis, mathesis, poetics, saj (alliteration), canon, "ghazal-dialogue", poetic syntax.

Istiqlol yillari o'zbek adabiyotshunosligida ijodiy individuallikni badiiy asarlar nuqtayi nazaridan tadqiq etish borasida jiddiy yutuqlarga erishildi. Bu borada ko'plab adabiyotshunos olimlar tomonidan turli tadqiqotlar olib borildi. Biroq ijodiy individuallik tushunchasini ilmiy ijodga nisbatan tatbiq qilish ijodiy individuallik muammosini muayyan olim ijodi misolida o'rganish borasida jiddiy izlanishlar kuzatilgani yo'q. Mazkur ishimizda masalaning aynan shu jihatiga e'tibor qaratamiz, ya'ni adabiyotshunoslikdagi ijodiy individuallik qirralarini professor B.Sarimsoqov ilmiy tadqiqotlari misolida ochib berishga harakat qilamiz.

Ma'lumki, bugungacha so'z ilmida Navoiy asarlarining turlicha talqinlari yaratilgan. Shoirning nazmiy, nasriy va boshqa turdagi asarlari tadqiqotchilar tomonidan adabiy-tanqidiy, falsafiy, psixologik, diniy-tasavvufiy va boshqa jihatlardan tadqiq etilgan. O'zbek adabiyotshunosligiga ulkan hissa qo'shgan zabardast olim, professor Bahodir Sarimsoqov esa Navoiy ijodiga ilmiy-nazariy jihatdan yondashadi. Xususan, olimning «Alisher Navoiy poetik sintaksisidagi bir usul xususida», «Alisher Navoiy she'riyatida g'azal-muloqot shakllari», «Alisher Navoiy va she'riy mezonlar masalasi» [1.], «Badiiy ijodning ikki asosi» (O'zbek folklorshunosligi masalalari. T.2006.) kabi maqolalarida mumtoz she'riyatimizdagi she'riy kanonlar, ularning adabiy jarayonda qaror topishi, Navoiy she'riyatidagi



poetik sintaksis va gʻazal-muloqot shakllari, badiiy ijoddagi mimises va matezis masalalari oʻziga xos tarzda tadqiq etilgan.

B.Sarimsoqov tadqiqotlaridagi oʻziga xos jihatlar uning mavzu tanlashidan tortib, xulosa chiqarishigacha, ilmiy muammo sifatida dolzarbligini asoslashigacha namoyon boʻladi.

Olim faoliyati mobaynida soʻz ilmidagi eng dolzarb, asrlar mobaynida yechimini topmay kelayotgan muammolarga murojaat qiladi, ularni ilmiy-nazariy jihatdan puxta oʻrganib, yangicha konsepsiyalarini ishlab chiqadi. Uning ilmiy tadqiqotlarining oʻziga xosligi, fikrlar izchilligi, aniqligi, ilmiy asoslanganligi, maqsadlilik va yangi xulosalar bilan yakun topishida ham yaqqol koʻzga tashlanadi. Shuningdek, professor biror mavzu yuzasidan fikr yuritayotib, unga aloqasi boʻlmagan mulohazalarga chalgʻimaydi, uzundan-uzoq mantiqsiz jumlar tuzmaydi, fikrini qisqa va aniq ifodalash ham olim uslubiga xos individual xususiyatlardan hisoblanadi.

«Alisher Navoiy poetik sintaksisidagi bir usul xususida» nomli maqolasida olim gʻazal baytining birinchi misradan ikkinchi misraga koʻchishi, yaʼni anjambeman fikriy koʻchuv hodisasi haqida toʻxtaladi: «Odatda, sheʼrda misralar mazmunan va shaklan tugal boʻlishlari talab etiladi. Biroq shoir aytmoqchi boʻlgan poetik fikr, u ifodalamoqchi boʻlgan lirik kechinma murakkabligi tufayli baytdagi sheʼriy misralar mustaqilligi buziladi, birinchi misrada boshlangan poetik fikr ikkinchi misrada yakunlanadi. Tabiiyki, sheʼriy jumlaning birinchi misradan ikkinchi misraga koʻchishi bayt mazmuni, vazni va ohangini buzmaganda davom etishi ijodkorning sanʼatkorligini belgilaydi»[2].

Adabiyotshunos gʻazal bayti tarkibida qoʻllangan sintaktik koʻchuv hodisasining tipologik koʻrinishlarini aniqlaydi. Poetik koʻchuv shunchaki koʻchuv hodisasi emasligini, u baytdagi poetik mazmuni toʻgʻri, mantiqiy ifodalashning muhim vositasi ekanligini Navoiy gʻazallari misolida asoslab beradi.

B.Sarimsoqov ilmiy faoliyati avvalida Navoiyning nasriy asarlariga koʻproq murojaat qilgan boʻlsa, keyinchalik shoir lirikasi olimni oʻziga jalb etdi. Navoiy lirikasida gʻazal-muloqot fenomeni, uning shakllari, poetik tizimi kabi muammolarga bagʻishlangan “Alisher Navoiy lirikasida gʻazal-muloqot shakllari” nomli maqolasi ana shular jumlasidan[3;2-s; 7-b].

Mazkur tadqiqotida adabiyotshunos gʻazalning yangicha — gʻazal-muloqot shaklini kashf etdi. Mazkur shaklning yetakchii xususiyatlari, koʻrinishlari, qoʻllanish oʻrinlari va vazifalarini aniqladi. Gʻazal-muloqot shaklining yuzaga kelishini unga hayotiylik bagʻishlash ehtiyoji bilan izohlab: “Monolog nutq gʻazalga maʼlum darajada monotonlik bagʻishlaydi. Asarga jonlilik bagʻishlash, unga hayotiylik — polifoniya olib kirish ehtiyoji gʻazalga muloqot-nutq shaklini olib kirishga sabab boʻladi”-[4;2-s; 7-b.] deydi va ana shu muloqot shakliga ega boʻlgan gʻazallarni

shartli ravishda “g‘azal-muloqot” deb ataydi. Mazkur shakl g‘azal janrining ifoda hamda tasvir imkoniyatlarini boyitishga xizmat qilsa-da, o‘z xususiyatlariga ko‘ra, lirik turdan tashqari, dramaga xos ifoda imkoniyatlariga ham ega ekanligini aniqlaydi [5]. Olimning yozishicha, g‘azal-muloqot shakli shoir uchun lirik konflikt shiddatini to‘laligicha berishga, g‘azaldagi lirik dramatismni tarang tutib turishga, eng muhimi, polifoniyani kuchaytirishga imkon beradi. Bulardan kelib chiqib, B.Sarimsoqov: “G‘azal-muloqot shakli janrning imkoniyatlarini boyitishga xizmat qilar ekan, u lirika adabiy turining o‘z zaminida emas, balki o‘zga adabiy tur — dramaga xos ifoda imkoniyatlaridan “qarz” olish orqali vujudga kelgan, deyishga asos bor. Chunki monologik nutqqa qaraganda, muloqot nutq shakli tabiiyroq va hayotiyroqdir”, degan muhim tezisni o‘rtaga tashlaydi. Shu o‘rinda g‘azal-muloqot shaklining 2 xil (to‘liq g‘azal-muloqot va muloqot bayt) ko‘rinishlari va ularga xos xususiyatlarni Navoiy g‘azallari misolida ko‘rsatib beradi.

Olimning kuzatishicha, Navoiy muloqotning bu ko‘rinishini g‘azalning istagan o‘rnida emas, balki o‘zi zarur deb topgan o‘rinlardagina qo‘llagan va bunday tipik o‘rinlar quyidagilar:

1. G‘azal matlasida. Bunda matlada kuchliroq poetik tezis qo‘yish imkoni ortadi va g‘azalning keyingi baytlarida uni rivojlantirish yoki badiiy dalillash uchun yo‘l ochiladi.

2. G‘azal matlasidan keyingi baytda. Bunda matladagi go‘zal va nafis poetik tezis ikkinchi baytda favqulodda yo‘sinda rivojlantiriladi.

3. G‘azal maqtasida. Ma‘lumki, maqta g‘azal g‘oyasini ochib beruvchi, falsafiy-didaktik vazifa ado etuvchi yakuniy bayt hisoblanadi. Shuning uchun har bir shoir g‘azal matlasiga qay darajada e‘tibor qaratsa, g‘azal maqtasiga undan-da ortiqroq e‘tibor qaratadi va ular o‘rtasidagi mantiqiy aloqadorlikni buzmaslikka harakat qiladi [6; 2-s;11-b.].

G‘azal-muloqot shaklining o‘ziga xos xususiyatlari sifatida olim lirik konflikt oqimining shiddatini oshirishi, dramatismni taranglashtirishi va g‘azaldagi polifoniyani kuchaytirishini Navoiy g‘azallari misolida batafsil ko‘rsatib berdi.

Olimning “Badiiy ijodning ikki asosi” nomli maqolasi esa badiiylikning asoslari tadqiqiga bag‘ishlangan. Unda ijodning ikki asosi mavjudligi - ulardan biri mimesis, ikkinchisi matezis (lotincha “matethis” — tajriba va kuzatishlar orqali erishilgan bilim) ekanligi xususida fikr yuritiladi. Navoiy g‘azallari poetikasini chuqur o‘rgangan olim daho shoirning ishonchli tarixiy-falsafiy xulosaga kelishida nafaqat mimesis (ya‘ni hayotga o‘xshatish usuli), balki matezis nazariyasiga ham amal qilganini ta‘kidlaydi. Professorning badiiy ijod asoslari xususidagi bu kabi individual qarashlari badiiylik mohiyatini anglashda yangicha talqinlarga asos bo‘la oladi.

“Navoiy va she’riy mezonlar masalasi”[7] deb nomlanuvchi maqolasida B.Sarimsoqov mumtoz adabiyotdagi she’riy kanonlar, ularning adabiy jarayonda qaror topishi va amal qilishi singari muammolar xususida fikr yuritgan. Maqolada yozilishicha, E.E.Bertels, Hodi Zarif, E.Rustamov, A.Hayitmetov, Y.Is’hoqov singari adabiyotshunoslar she’riy mezonlar masalasiga munosabat bildirgan bo‘lsalar-da, bu masalaga doir ilmiy qarashlar uzil-kesil hal qilinmagan. Ayrim ilmiy monografiyalarda alohida bir asarga ikki janr atamasining ishlatish hollari olimni mushohadaga chorlaydi. Masalan, akademik B.Valixo‘jyevning ishlarida “tuyuq-ruboiy”, “qit’a-tuyuq”, professor R.Orzibekovning kitoblarida “tuyuq-ruboiy”, “ruboiy-tuyuq” kabi mafhumlar qo‘llaniladiki, mazkur tadqiqotida olim shunday terminologik chalkashliklarni bartaraf etishga harakat qiladi. Aslida B.Sarimsoqov ilmiy asarlaridagi individual jihatlardan yana biri aynan uning atamalarga jiddiy yondashishida namoyon bo‘ladi. Bu jihat ko‘proq ilmiy uslublardan biri bo‘lgan akademik uslubga xos xususiyatlardan biridir. Ya’ni ushbu uslub ilmiy asarlarning bayon uslubi bo‘lib, bunday uslub o‘zining jiddiyliги, aniqligi, ilmiy terminologiyalarga boyligi, har bir masalaga oid tadqiqot va asarlarga munosabat bildirib borishi, xulosalarning aniq bo‘lishi, ifodaning ortiqcha emotsionallikdan xoli bo‘lishi bilan xarakterlanadi [8;25-b.].

Olimning mazkur tadqiqotida Navoiy o‘zbek adabiy-nazariy tafakkuri tarixida birinchi marta she’riy kanonlar masalasini ko‘targani va buni amaliy jihatdan isbotlab berganiga guvoh bo‘lamiz.

Ushbu maqolasida u Navoiyning tuyuq haqidagi: “Yana turk ulusi, bataxis chig‘atoy xalqi aro shoi’ avzondurkim, alar surudlarin ul vazn bila yasab, majolisda ayturlar. Birisi “tuyug‘”durkim, ikki baytqa muqarrardur va sa’y qilurlarkim, tajnis aytilg‘ay va ul vazn ramali musaddasi maqsurdur...”[9;95-b.] degan fikrlariga alohida e’tibor qaratadi va shu o‘rinda Navoiyning tuyuqqa xos nozik bir nuqtasini topadi. Bu nuqtani “sa’y qilurlarkim, tajnis aytilg‘ay”, degan fikrda ko‘radi. Hozirda biz tilimizda qo‘llaydigan “sa’y” so‘zini faqatgina urinmoq, harakat qilmoq ma’nolarida qo‘llanayotgani, hatto bu so‘zni harakat so‘zi bilan juft holda, ya’ni “sa’y-harakat” tarzida noto‘g‘ri qo‘llanayotgani, aslida “sa’y” — harakat qilib erishmoq degan ma’no anglatishi, bundan kelib chiqadigan xulosa tuyuqda tajnis qo‘llanishi shart ekanligini ta’kidlaydi.

Olim she’riy kanonlar masalasiga nafaqat Navoiy, balki undan oldin va keyin ijod qilgan qator mutafakkirlarning asarlariga ham murojaat etdi. Har bir masalaga oid tadqiqot va asarlarga munosabat bildirib borishi ham olim qo‘llagan akademik uslub xususiyatlaridandir.

B.Sarimsoqov mumtoz she’riy janrlar nomlanishiga ham diqqat qilib, ularning har biriga xos yetakchi xususiyatlarni ma’lum darajada anglaydi. Jumladan, ruboiyning to‘rt misrada katta falsafiy mazmuni ifodalashi, qit’aning kesilgan, ya’ni

ixchamlashtirilgan shaklda ibratli yaxlit fikr bildirishi, qasidaning u yoki bu narsani, shaxs yoki voqeani madh etish yoxud tanqid etishga qasd qilganligini ifodalashini aytib, “tuyuq” terminining ifodalagan ma’nosiga asoslanib, ushbu janrning yetakchi xususiyatlarini aniqlaydi.

Ma’lumki, “tuyuq” so’zi qadimgi turkiy tilda siqilgan, tumanli, bulutli va yumuq ma’nolarini anglatadi. Shunga ko’ra, olim jinsdosh so’zlar tuyuqdagi mazmuni xira, yumuq ifodalashini e’tiborga olgan holda tajnisni tuyuqning yetakchi kanoni deb belgilaydi.

B.Sarimsoqov adabiyotshunoslikka doir tadqiqotlarida asosan nazariy poetika masalalarini yechishga harakat qilgan. Mumtoz adabiyotdagi she’riy tizimlar, janrlar, ularning o’ziga xos xususiyatlari va kanonlari, vaznli nasr xususida olib borgan izlanishlari shubhasiz adabiyotshunosligimizni yangi nazariy bilimlar bilan boyitdi. Ayniqsa, uning mumtoz adabiyotimizdagi saj’ san’atiga oid asarini hech ikkilanmasdan ilmiy kashfiyot deb aytish mumkin. Chunki o’zbek adabiyotida ushbu mavzuga doir ilk jiddiy va fundamental xulosalar aynan “O’zbek adabiyotida saj’” nomli asarida o’z ifodasini topgan. Poetika asosini tashkil etuvchi saj’ adabiyotshunosligimizda nazariy jihatdan deyarli tadqiq etilmagan bo’lib olim bu xususda dastlabki muhim xulosalar yangi nazariy qoidalarni ilmga tatbiq etdi. Olim o’z tadqiqotida og’zaki va yozma adabiyot munosabatlari masalasiga keng to’xtalib, bayt, qofiya, badiiy san’atlar, she’r vaznlari xususida chuqur izlanishlar olib bordi.

Umumlashtirib aytganda, B.Sarimsoqovning ilmiy qarashlarida ijodiy individual xususiyatlar betakror usul va prinsiplar ifodasi ko’zga tashlanadi. U adabiyotshunoslik uchun muammoli bo’lgan adabiy tur va janrlar xususida; mumtoz adabiyotdagi she’riyat unsurlari — bayt, qofiya, radif, kompozitsion o’ziga xosliklar, shuningdek, g’azal-muloqot shakli, uning yetakchii xususiyatlari, ko’rinishlari, qo’llanish o’rinlari va vazifalarini sof nazariy aspektda o’rgandi. O’zbek folkloridagi doston va ertakning janr xususiyatlari, tasnifi, tarixiy taraqqiyoti, janrlararo munosabat va diffuziyasi kabi masalalarni muammoli tahlil qilib, bu xususda o’zining aniq va asosli xulosalarini taqdim etdi. Shuningdek, u marosimlar folklori janrlarining tarkibi, poetik tabiati va genetik asoslari, o’zbek marosim folkloridagi rasm-rusumlar, ramzlarni umumturkiy xalqlar madaniyati bilan bog’liq holda o’rgandi.

Yuqoridagilardan professor B.Sarimsoqov tadqiqotlarida jahon ilmida mavjud bo’lgan akademik, sistemali, qiyosiy-tarixiy, tarixiy-tipologik va muammoli usullar bilan birgalikda o’zigagina xos bo’lgan individual qarashlar namoyon bo’ladi. Olim ilmiy merosini yaxlit holda tadqiq etish va ijodiy individualligi qirralarini o’rganish ayni paytda uning shaxsiyati va ilmiy asarlari mohiyatini yanada chuqurroq anglash uchun asos bo’ladi.

## **Adabiyotlar**

1. Sarimsoqov B. “Alisher Navoiy poetik sintaksisidagi bir usul xususida”. – “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnali, 2001. 1-s.; “Alisher Navoiy lirikasida g‘azal-muloqot shakllari. – “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnali, 2004. 2-s.; “Alisher Navoiy ijodida she’riy mezonlar masalasi”. – “O‘zbek tili va adabiyoti”, 2004.1-s.
2. Sarimsoqov B. “Alisher Navoiy poetik sintaksisidagi bir usul xususida”. – “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnali, 2001. 1-s. 3-b.
3. Sarimsoqov B. “Alisher Navoiy lirikasida g‘azal-muloqot shakllari”. – “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnali, 2004. 2-s. 6-b.
4. O‘sha manba, 7-b.
5. Uzoq Jo‘raqulov. “Nazariy poetika masalalari: Muallif. Janr. Xronotop. – T. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2015. 356-b.
6. Sarimsoqov B. “Alisher Navoiy lirikasida g‘azal-muloqot shakllari”. – “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnali, 2004. 2-s, 11-b.
7. Sarimsoqov B. “Navoiy va she’riy mezonlar masalasi”. – “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnali, 2004, 1-s. 4-b.
8. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati. – T. “O‘qituvchi”. 1983. 25-b.
9. Navoiy A. Mukammal asarlar to‘plami. 20 tomlik. 16-tom. – T.: 2000, 91-95-b.

## **XITOI TILI O‘QITISHNING ZAMONAVIY METODIKALARI**

**Saydaliyeva N. F.-Toshkent davlat pedagogika universiteti qoshidagi akademik litsey o‘qituvchisi**

**Annotatsiya.** O‘zbekiston Respublikasi jadal rivojlanish bosqichida xalqaro standartlarga javob beradigan malakali tarjimon-kadrlarni tayyorlashga katta e’tibor qaratmoqda. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda xitoy tilini o‘qitish sohasidagi ustuvor vazifalardan biri bu talabalarning tarjima kompetensiyasini shakllantirishdir. Shu bois ushbu maqola olimlarning ilmiy asarlaridagi tarjima kompetensiyasi tushunchasiga berilgan qarashlarga bag‘ishlanadi, shu bilan birga mavzu doirasida olib borilgan tahlillar asosida tegishli xulosalar yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** o‘qitish tamoyillari, forum, o‘qitish metodikasi, gumanistik yo‘nalish

## **СОВРЕМЕННАЯ МЕТОДОЛОГИЯ ОБУЧЕНИЯ КИТАЙСКОМУ ЯЗЫКУ**

**Сайдалиева Н. Ф.- преподаватель академического лицея при  
Ташкентском государственном педагогическом университете**

**Аннотация.** На этапе динамичного развития Республики Узбекистан большое внимание уделяется подготовке компетентных переводчиков, соответствующих международным стандартам. Одной из приоритетных задач в области обучения китайского языка с применением современных информационных технологий является формирование переводческой компетенции студентов. В связи с этим, данная статья освещает понятие переводческой компетенции в научных работах ученых, в ней приводятся соответствующие выводы исходя из проведенного анализа в рамках данной темы.

**Ключевые слова:** принципы обучения, форум, методика обучения, гуманитарные науки.

## **MODERN METHODOLOGY OF CHINESE LANGUAGE TEACHING**

**Saydalieva N.F. – Academic high school teacher Tashkent State  
Pedagogical University**

**Annotation.** At the stage of rapid development, the Republic of Uzbekistan pays great attention to the training of qualified translators who meet international standards. One of the priorities in teaching Chinese using modern information technology is to develop students' translation competencies. Therefore, this article is devoted to the views on the concept of translation competence in the scientific works of scholars, as well as the relevant conclusions based on the analysis of the topic.

**Key words:** teaching principles, forum, teaching methods, humanities

Jahon hamjamiyatida faol ishtirok etish va O'zbekistonning milliy manfaatlariga mos keladigan ko'p tomonlama siyosat yuritish-davlatimiz mustaqilligini mustahkamlashning muhim shartidir. Buning uchun eng muhim shart-sharoit - O'zbekistonni dunyoning 150 dan ortiq mamlakati tan olganligi

bo‘lib, bulardan 60 tasi bilan davlatimiz diplomatik aloqalar o‘rnatgan. Bu davlatlar o‘rtasida Xitoy Xalq Respublikasi ham bor. Joriy yilning 11-15 - may kunlari O‘zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev XXR ga rasmiy tashrif buyurdi hamda “ Bitta belbog‘ - bitta yo‘l”- forumida ham ishtirok etdi. “ Bitta belbog‘– bitta yo‘l”- forumi ham hozirgi zamonda dunyo mamlakatlari orasida iqtisodiy hamkorlikni yanada kuchaytirish, savdo va investitsiyalar uchun qulay sharoitlar yaratish, shuningdek, turizm, ta’lim va madaniyat sohalarida hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi”,- dedi.

-Bizning eng katta boyligimiz – bu xalqimizning ulkan intellektual va ma’naviy salohiyatidir,- degan xulosaga kelgan Sh. M. Mirziyoyev Xitoy va O‘zbekiston munosabatlari haqida shunday degan edi: “O‘zbekiston va Xitoy aloqalari ko‘p asrlik tarixga ega bo‘lib, Buyuk ipak yo‘li davriga borib taqaladi. Xalqlarimiz o‘rtasida azal - azaldan barqaror savdo-sotiq, ilm-fan va gumanitar aloqalar rivojlandi” [1].

Shunday sharoitda biz ham talabalarga xitoy tilini o‘qitish jarayonida xitoy tili o‘qitish metodikasiga, B 1 darajadagi talabalarda tarjima kompetensiyasini shakllantirish jarayonida xitoy tili o‘qitish metodikasi, xitoy tilini o‘qitish bo‘yicha olimlarning tadqiqot ishlari va bu mavzular bo‘yicha dissertatsiyalarni ham ko‘rib chiqish lozim.

Xitoy tili murakkab til ekanligini butun dunyo tan oladi. Bu tilni o‘rganish uchun uzoq vaqt talabalardan qiziqish, murakkab mehnat va qunt bilan o‘qish talab etiladi. Xitoy tili grammatikasi, undagi mavjud kostruksiya, so‘z turkumlari, xitoy tilidan o‘zbek tiliga matnlarni to‘g‘ri tarjima qilish, ularni muloqotga kirishish va so‘zlashish jarayonida B 1 darajadagi talabalarda yozma tarjima kompetensiyasini shakllantirish bizning asosiy maqsadimizdir.

Xorijiy tillarni ta’lim olish jarayonida talabalarda tarjima mahoratini shakllantirish bilan birga ularning dunyoqarashini kengaytirish, xitoy tili yoki xorijiy tillarni o‘rganish jarayonida talabalarda aynan bir maqsad, ya’ni – ularning shaxsiy bilimlari va ko‘nikmalariga tayanib, mustaqil tarjimon sifatida shakllanishi uning asosiy maqsadi hisoblanadi. Agar talabalar o‘z ona tilida bilimlari mustahkam bo‘lsa, bu ularga katta yordam beradi, unda xitoy tili ularga xitoylik fuqarolar bilan madaniy va milliy mavzuda aloqaga kirishida xizmat qiladi. Talabalarni xitoy tiliga o‘qitish jarayoni juda murakkab va mashaqqatli bosqichdir, bu jarayonda o‘qituvchi talabalarga eng faol va zamonaviy usullar orqali dars berishi va yondashuvlarga tayanib tarjima mahoratini o‘rgatishi lozim. Xitoy tilini o‘qitish vazifalari asosida xitoy tilini o‘qish jarayoni ham shakllanadi [2].

Xitoy tilini o‘qitish jarayonida uning vazifalari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- xitoy tilini o‘qishda ular, ya’ni talabalar gumanistik yo‘nalishni tanlashi lozim;
- amaliyot jarayonida talabalar bilim darajalari asosida til qoidalarini namoyon etishlari kerak;
- talabalar o‘qish jarayonida o‘z maqsadlariga asoslanib, alternativ usullarni tanlashi lozim;

Xitoy tilini O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim muassasalaridagi o‘qitish metodikasiga to‘xtalishdan oldin biz xitoy tilini o‘qitish tamoyillariga ham e’tibor berishimiz kerak. “ Tamoyil “ so‘zi – bu mavjud narsani bilimlar asosida bir joyga to‘plab beruvchi, rivojlantiruvchi jarayondir. I. Passov fikricha, “ noto‘g‘ri shakllangan, noto‘g‘ri va noaniq tamoyillar, tilni o‘rganish jarayonida bir chuqur jarlikka olib keladi ,” - degan fikrni aytib o‘tgan [3].

O‘qitish tamoyillari - bu o‘qish jarayonida shakllangan xarakter bo‘lib, ular to‘g‘ri tanlangan yo‘nalishlarda va bu yo‘nalishlarda to‘g‘ri tanlangan yondashuvlar asosida amalga oshadi. Janubiy Yevropa olimlari Larsen Friman V.S. Lakkey ular talabalarni o‘qitishda lingvistik, didaktik va psixologik faktorlar muhim deb hisoblaydilar. Zamonaviy metodikada ham o‘qitish tamoyili tushunchasi o‘qituvchi tomonidan xorijiy tillarni o‘qitish jarayonida dominant rolda ishtirok etadi. Ta’lim olish jarayonida o‘qituvchiga murakkab jihati shuki o‘qituvchi faoliyati va talabaning individual faoliyatidir. Talaba va o‘qituvchi bu jarayonga kirishishidan avval ularda aniq shakllangan va reja asosida puxta tuzilgan rejalar asosida amalga oshadi.

O‘qitish tamoyillari turli xarakterga ega bo‘lishi mumkin: bir xil turdagi tamoyillar o‘quv jarayonini aniqlab beradi, boshqa turdagi tamoyillar esa qandaydir aniq bir so‘zlashuv nutqini aniqlaydi, bir xil tamoyillar aynan ilmga tayanadi, umumiy didaktik tamoyillar esa zamonaviy usuldagi o‘qitish usullariga mos keladi.

A.P. Starkov va P.V.Gurvich umumiy didaktik va metodik o‘qitish tamoyillarini shu ikki turga ajaratadilar. Metodik tamoyillar o‘z navbatida umumiy metodik va xususiy metodik turlarga bo‘linadi.

Turli xarakterga ega o‘qitish tamoyillari bu - butun o‘qitish jarayonida ular faqat bitta tamoyilga bo‘ysunadi: ular asosan og‘zaki nuqtani rivojlantirishga qaratilgan bo‘ladi. O‘qitish usullarining didaktik tamoyili bu – o‘qitish jarayonida turli predmetlar ya’ni narsalardan foydalanishdir. Y.A. Komenskiy fikricha, -“ Didaktik tamoyil aynan ta’lim va tarbiya olish jarayonida amalga oshadi, bu ko‘proq tabiiy fanlarda bilinadi”-deydi. Komenskiy didaktik tamoyilda quyidagilar ishtirok etadi deb hisoblaydi: o‘z vaqtida bajarish, tilda grammatik va tarjima qilish bilim va ko‘nikmalariga ega bo‘lish, aniqlik, tezlik, foydalilik, tajribalilik, individual va yoshdagi jihatlarni farqlash, faollik, o‘z faoliyatiga ega bo‘lish va uni



davom ettirishga moyillik talab etiladi. Xorijiy tillarni o'qitishda didaktik tamoyillar quyidagilarda namoyon bo'ladi: [4]

1. Onglilik tamoyili: Bu tamoyilning haqida ko'p fikrlar bildirilgan: L.V.Sherba, G.E.Vedel, A.N. Leyontev tadqiqotchilarning fikricha, xorijiy til va ona tilini solishtirishda til tizimini ongli ravishda anglashlari lozim. Talaba ongli ravishda muloqotga kirishishda o'zi vaziyatdan chiqishga harakat qilishi kerak.

2. Faollik tamoyili: Xorijiy tillarni o'qish jarayonida talabalar faol qatnashishlari lozim. Bu tamoyil zamonaviy psixologiyaga tayangan holda, faollik mavjud bo'lsa tahlil ham bo'ladi deb hisoblaydilar.

3. E'tiborlilik tamoyili: bu jarayonda talabalar o'quv qo'llanma bilan tanishadilar, tushunadilar va tahlil qiladilar. Asosan xorijiy tillarni o'qishda ulardan e'tiborlilik muloqotga kirishishda e'tiborlilik talab qilinadi.

4. Mavjudlilik tamoyili. Bu tamoyilni amalga oshishida talabalarning individual xususiyatlarida namoyon bo'ladi. Unda albatta talabalarning yoshlari ham inobatga olinadi. Ular vaziyatdan chiqib ketish uchun muammoning to'g'ri yechimini topishlari kerak.

5. Kuchlilik tamoyili. Bu tamoyilda ma'lumotlarni shunday o'zlashtirish kerakki, miyadagi har bir raqamni yodda tutib ularni to'g'ri ishlatish kerak. Bunda talabalar o'z ustilarida ko'proq ishlaydilar, mashq bajaradilar va o'zlarini boshqaradilar.

6. Muntazamlik tamoyili. O'quv qo'llanma bayoni talabga javob berishi shart. Ta'lim jarayoni omadli va natijaviy bo'lishi kerak, agar o'qish jarayonida xatolik ketsa, bu jarayonni sekinlashtiradi va vaqtni yo'qotishga sabab bo'ladi .

Yevropa va boshqa davlatlar ham o'z o'qitish usullarini butun dunyoga taqdim etadi. Bulardan E.I.Passov, G.Palmer, V. Skalkin o'zlarining bir qator til o'rgatish vazifalari va tamoyillarini keltirib berganlar. Barcha ta'lim berish tamoyillari talabalarning maqsadlari asosida amalga oshadi. Metodik tamoyillar aynan xorijiy tillarni o'qitish va o'rgatish jarayonida qo'llaniladi. Umumiy metodik tamoyillarga sanab o'tganimizdek funkcionallik, bosqichli yondashuv, og'zaki nutq asosi, og'zaki nutqni dasturlangan shakli kiradi [5].

Aynan xususiy tamoyillar: aynan og'zaki nutqni rivojlantiruvchi mashqlar, og'zaki nutqni va yozma tarjimani rivojlantirish uchun, mashqlarni bajarishda. Ta'lim berish jarayonida kommunikativ yondashuv, talabalardan xitoy tilida tarjima mahoratiga ega bo'lish talab etiladi. Xorijiy tillarni o'qitish jarayonida biz aynan ko'proq didaktik tamoyillarga e'tiborimizni qaratamiz: matnning yozma tarjimasi asl nusxadagi moyillilarga mos tushishi kerak, bu esa o'quv jarayonida talabalarning oldiga qo'ygan maqsadlari asosida amalga oshadi, bu ham o'quv qo'llanmaning tarkibi, usullari, o'qitish jarayonini tashkil etish jarayonini ham o'z ichiga qamrab oladi. O'qitish usullarini ikki guruhga ajratishimiz mumkin: nazariy

va ilmiy bo‘limlarga, shu bo‘limlar asosida biz amaliyot orqali qonunlar, talablar va takliflar bilan yuzaga keladi.

Xorijiy tillarni o‘qitish amaliyotiga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, talabalarga bu jarayonni muloqotga kirishish jarayoni deb tushuntiramiz, bu kommunikativ yo‘nalishni tanlash orqali asoslanadi. Bu talabalarni o‘qitish jarayonida ularda og‘zaki tilni va yozma matn tarjimasini qilishni o‘rgatish, o‘z bilim va ko‘nikmlari asosida til bilish darajalarini namoyon qilishni talab etadi. Asosiy metodik tamoyillarga farqli va birlashtirilgan tamoyillar kiradi. Har qanday nutq jarayonida tilning leksik-grammatik tuzilishiga ahamiyat beriladi. Aynan og‘zaki nutq va yozma matn tarjimasini o‘rgatish jarayonida eshitish va gapirish, o‘qish va yozish, tayyorlangan va tayyorlanmagan nutqlar, metodik savollar bilan va mashqlarni bajarish bilan amaliyot jarayonida shakllanib boradi. Xorijiy tillarni o‘qitish jarayonida asosiy rolni ona tilimizdagi o‘qitish tamoyillari ham o‘ynaydi. Ona tilini o‘qitish tarkibida o‘quv qo‘llanmasining qanday tashkillashgani va tuzilganiga ham bog‘liq. Lingvistik yo‘nalishda xorijiy tilni to‘g‘ri talaffuz qilish, tilning grammatik va leksik xususiyatlarini o‘rganish, orfografik xatolarini va semantik tahlilini ham bilishlari talab etiladi [6].

Psixologik nuqtayi nazardan esa, so‘zlashuv nutqidagi so‘zlar joylashuvi, ularni qanday harakatga keltirish va yuzaga chiqarish, nutqdagi bilim va ko‘nikmalarini shakllantirish- bularning barchasi og‘zaki nutqda kuzatiladi. Xorijiy tillarni o‘qitish metodikasida yana faollik tamoyili ham asosiy rol o‘ynaydi. Bu tamoyil o‘qituvchi va o‘quvchilardan faollikni talab qiladi, o‘qish davomida ular talabalarning xohishi va qiziqishida namoyon bo‘ladi, bunda talabalarning barcha diqqati o‘quv jarayoniga qaratiladi. Xorijiy tillarni o‘rganish vaqtida intellektual va emotsional so‘zlashuv nutq turlari vujudga keladi. Undan tashqari, e‘tiborlilik tamoyili ham mavjud. Talabalarni o‘qitish metodikasida, talabalarning sezgi organlari asosida e‘tiborlilik bilan o‘qishga undaydi. Hattoki, mavjudlik va kuchlilik tamoyillari ham mavjud. Ular asosida talabalar oldilariga qo‘yilgan muammolarning yechimini topadilar. Bu talabalarga yanada ko‘proq kuch beradi. Mustahkamlilik tamoyili: bu tamoyilda talabalar o‘z bilim va ko‘nikmalarini bosqichma-bosqich ko‘paytirib boradilar, bunday sharoitda ular so‘z birikmalari, idioma iboralarini, so‘zlashuv nutqidagi so‘z birikmalarini boyitib boradilar. Bunga biz o‘qish, yozish va gapirishni ham kiritishimiz mumkin. Individuallik tamoyili – har bir talabaning bilimi o‘sishi jarayonida undagi individual xususiyatlari, uning bilim va ko‘nikmalari qiziqishi orqali namoyon bo‘ladi.

Biz yuqorida xorijiy tillarni o‘qitish bo‘yicha tamoyillarni ko‘rib chiqdik, endi esa xorijiy tillarni o‘qitish bo‘yicha turli yondashuvlarni ko‘rib chiqamiz. Hozirgi kunda talabalarni o‘qitish jarayonida an‘anaviy o‘qitish usullari deyarli foydalanilmaydi, iloji boricha oliy ta‘lim muassasalarida zamoviy pedagogika dars

o‘tish usullaridan foydalanish tavsiya etilmoqda. Shuningdek, oldingi o‘rinlarda talabaning shaxsiy aspektlari, uning ijodiy yondashuvi, fikrlashi, o‘zining rejalarini hayotda ro‘yobga chiqarishi va maqsadiga erishishi bularning barchasi yondashuvlar bilan bog‘liq. Shuning uchun xorijiy tillarni o‘rganish va qandaydir sohani o‘rganish vaqtida dars o‘tish usullari ham zamonaviylashib o‘zgarib bormoqda. Dars o‘tish metodikasida “ metod “ so‘zi ikki ma’noda qo‘llaniladi:

1. Metod huddi metodik tuzilma asosida:
2. Metod – huddi dars berish jarayonida qo‘yilgan maqsadga biror bir yo‘nalish asosida erishish tushuniladi.

Dars berish metodikasi - bu boshlang‘ich bilim olish jarayoni bo‘lib, tadqiqotlar o‘tkazish va bilimlarni jamlash va oldiga qo‘yilgan muammolarni yyechish jarayonidir. Aynan ta‘lim berish metodikasida bu umumiy dars o‘tish qonuniyatlari hisoblanadi, ular esa konkret yondashuvlar asosi sifatida xizmat qiladi. Zamonaviy dars o‘tish usullarini hisobga olib, biz ularni quyidagi xususiyatlarda namoyon bo‘lishi mumkin deb qabul qildik [7].

1. Talabalar yaxshi o‘qishlari uchun ularga qulay sharoit yaratib berish kerak, vaqtida ular rag‘batlantirilib turishlari lozim.
2. Har bir o‘quvchiga shaxsiy fikrini bildirishiga sharoit yaratish, uning hissiyotlari, fikrlari va hayajonlarini e‘tiborga olgan holda.
3. Talabani o‘qitish jarayonida faollashtirish va uni boshqa talabalar bilan solishtirish.
4. Tilga o‘qishda mustaqil o‘qishga o‘rgatishdan iborat.
5. Sinf xonasida ularga turli holatlarda ya‘ni ikki guruh, katta guruh, individual va frontal tarzda ishlashga o‘rgatish.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, oxirgi o‘n yil ichida talabalarni o‘qitish usullari va yondashuvlar turlicha va ular yillar sayin zamonaviylashib o‘zgarib bormoqda. G‘arb mamlakatlari o‘qituvchilari 60-70 yillarda ular amaliyotda o‘qitish bo‘yicha gumanistik yondashuvni yaratdilar. Bu yondashuvga asosan bir necha noana‘naviy o‘qitish usullari ham kiradi: talabaning fiziologik holati, “ tinch “ o‘qitish usuli, “umumiylik” usuli va boshqalar. Darslarni sifatli tashkillashtirish, darsning o‘qitish jarayonida talabalarning qiziqishi va tajribasini oshiradi. Gumanistik yondashuv aynan talabaning kommunikativ yondashuvining shakllanishiga yordam beradi, bu yondashuv butun dunyoda tan olingan va u yuqori va sifatli natijalar berishi isbotlangan.

Passov ham kommunikativ yondashuvga nisbatan quyidagi fikrni bildirgan: “Yondashuv – bu talabalarni o‘qitish jarayonida ularning o‘ylagan tadqiqot ishlarini amalda qo‘llash, amaliyot jarayonida barcha sohalarda muloqotga kirishishni talab etadi. Bundan tashqari, yana turli xil yondashuvlar mavjud. Keling ularni qisqacha ko‘rib chiqamiz:[9; ]

1. Bixeivorizm- avvalambor, ta'lim olish jarayonida butun atrof-muhitga ta'sir ko'rsatadi, bu genetik faktor emas (B. Skinner).
2. Kognitivlik- ta'lim olish jarayonida talabalar juda faol qatnashadilar,
3. Gumanistik-ta'lim olish jarayonida talabalarning fikrlashi, his-hayajonlari va fikrlarini mustaqil bildira olishi hisobga olinadi.
4. Kommunikativ-xorijiy tillarni o'rganishda boshqa millat vakillari bilan muloqotga kirisha olish ular so'zlashuv nutqini oshiradi.
5. Shaxsiy va to'g'ri yo'naltirilgan talabalarning individual xususiyatlarini shakllantirishdan iborat.
6. Global- so'zlashuv nutqini o'rganayotgan vaqtimizda turli o'quv qo'llanmalardan foydalaniladi,
7. Deduktiv-umumiylikdan xususiylikka, ya'ni til qonuniyatlarini amaliyot jarayonida tushuntirish va isbotlash.
8. Induktiv- xususiylikdan umumiylikka.
9. Tizimli- Gaplardagi so'zlar tartibi joylashuvini aniqlash, ularni bosqichma-bosqich tahlil qilish.
10. Leksik-so'zlashuv nutqini shakllantirish va xorijiy tillardagi leksik qonuniyatlarni yod olish.
11. Elektik-birlashtirilgan – bir dars o'tish usulidan foydalanib turib, unga boshqa usullarni birlashtirish.
12. Birlashtirilgan- so'zlashuv jarayonida to'rt xil ko'rinishga ajratiladi; eshitish, gapirish, o'qish va yozish.
13. Eshittiriladigan- so'zlashuv nutqida eshitish asosiy o'rinni egallaydi.

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, talabalarga xorijiy tillarni o'qitishda turli usul va yondashuvlar metodikada asosiy rol o'ynaydi. Lekin o'qituvchining roli shuki, u talabalarda xorijiy til bilim va ko'nikmalarini shakllantirishda turli usul va yondashuvlarni o'zi tanlaydi.

Xorijiy tillarni o'qitishdagi yondashuvlarni o'rganishdan asosiy maqsad bu talabalar darslar davomida o'z bilim va ko'nikmalarini boyitib boradilar. Bilim bilan qurollangan holda o'qitsak, talabalar amaliyot davomida o'zlarini anglashni boshlaydilar va amaliyot davomida ko'proq bilim oladilar. Boshqa xorijiy tillarni mukammal bilish va so'zlashish bu boshqa millat vakillarining tillarini tushunish va ularning madaniyati bilan tanishish imkoniyatini yaratib beradi. Bu esa ikki madaniyat o'rtasida dialoglar shakllanishini ko'rsatadi. Bu maqsad esa umumiy madaniyatlar birlashuvini ham tashkil etadi. Aynan ta'lim berish jarayoni bunday kommunikativ xaakterdagi tashkillashtirishga xizmat qiladi, chet-tilida aloqaga kirishishni va so'zlashishni, talabalarda yozma tarjima kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qiladi. Talabalarga aynan tarjima kompetensiyasini shakllantirishda shaxsiy-yo'naltirilgan va turli xil zamonaviy yondashuvlar ham

katta yordam beradi. Yozma tarjima kompetensiyasini shakllantirish berilgan mashqlarni samarali bajarishda aks etadi, bularga eshitish, matnlarni xitoy tilida o‘qish, yozish va gapirish kabi xususiyatlar bilan shakllanadi. Bu xususiyatlarning barchasi ularni shaxsiy fikrlashni rivojlantirishga va muammolarning yechimini topishga yordam beradi. Keling, biz aynan shu yondashuvlarning barchasini tahlil qilib chiqamiz:

1. Shaxsiy-yo‘naltirilgan yondashuv- bu talabalarning individual xususiyatlarida, ularning shaxsiy xarakteridagi fikrlari namoyon bo‘lishida, ularning yozma tarjima qilish moyilliklari va qiziqishlari borligi ham shu yondashuv bilan aniqlanadi.

Aynan shu yondashuv asosida ta‘lim berish quyidagilarda aks etadi:

- Ta‘lim olish jarayonida talabalarning mustaqil faoliyati, ularning maqsadi, vazifalarni to‘g‘ri tanlashi va muammolarga yechim topa olishida;
- Talabalarning o‘z bilimlari va tajribasiga tayanadi;
- Talabaning hayotda so‘qal madaniy fikrlashi va uning hayot tarzi, o‘zini-o‘zi anglash;
- Talabalarning emotsional holati va ularning axloqiy estetik qadriyatlarini;
- Maqsadga muvofiq shakllangan bilim va ko‘nikmalar asosida talabalarning mustaqil izlanishlari va o‘qish rejasiga binoan amal qilishlari;
- Rollarni talabalarga bo‘lib berish, o‘qituvchining rolini nisbatan kamaytirish, o‘qituvchining o‘ng qo‘li bo‘lish, maslahatchisi va yordamchisi bo‘lishdan iborat.

Xorijiy tillarning zamonaviy darslarida eng asosiy o‘rin ta‘lim berish jarayonini tashkillashtirishdir, talabalar o‘qituvchi bilan birga faollikda ishlaydilar. O‘qituvchi o‘quv jarayonini, guruh bo‘lib ishlash faoliyati esa talabalarning vazifasidir, ular dialogning asosiy ishtirokchilari hisoblanadi. O‘qituvchi muammolarning yechimini topishga harakat qiladi, u ko‘rsatadi, eslatadi va talabalar bilan maslahatlashadi. O‘qituvchi talabalarga vaziyatni omadli ko‘rsatadi, ularga kuyunadi, maqtaydi, ularga ishonch bildiradi, ularga o‘qish vaziyatlarini tushuntiradi, ulardan natijani kuchli ravishda talab qiladi, yo‘naltiradi, ularning talabalarning hammasini obro‘larini ko‘taradi, umid bag‘ishlaydi. Talabalar oldilariga qo‘yilgan muammolarni echadilar va uning yechimini topishga harakat qiladilar, ular ham o‘zlari bir-birini tekshirib, baho beradilar, solishtiradilar, tahlil qiladilar, tadqiq qiladilar, bir-birlari bilan fikr alamashadilar.

Zamonaviy yondashuvlar talabalarga ta‘lim berish jarayonida katta rol o‘ynaydi, agar ular eskirgan bo‘lsa, ularning sifatini yaxshilashga harakat qilamiz, o‘qituvchilar ohirgi yillarda eng yangi va zamonaviy yondashuvlardan foydalanmoqdalar. Aynan hozirgi davrda zamonaviy pedagogikada pedagogik bilim va maktabdagi olingan bilimlar, keying bosqaichlardagi bilimlarni davom

ettirishga xizmat qiladi. Keling bu yondashuvdagi yana bir necha muhim xususiyatlarini ko'rib chiqamiz:

1. Talabalarga har tomonlama o'qishni ta'minlab berish, ularga chuqur bilim berish va mustahkamlash, ularda yozma tarjima kompetensiyasini shakllantirish;

2. Har bir darsning boshlang'ich daqiqasidan to oxirigacha tashkillashtirishga javobgar bo'lmoq. Oldindan darsga tayyorlanish, ko'rgazma qurollar tayyorlash, texnik sozlamalar, o'quv qurollari, qo'llanma va qo'shimcha adabiyotlar, bularning barchasi dars vaqtida foydalanadilar.

Maqsadga talabalarining to'g'ri yo'naltirilganligi, bunda o'qituvchi va talabalar o'zaro muloqotda bo'ladilar. O'qituvchiga qo'yilgan talab shundaki, u talabalar muammoni yyechishga to'g'ri tartibda yo'naltirishi kerak, buning uchun har bir dars rejalaniadi, ularda dars tizimi, metodikasi hammasi maqsadga erishish uchun avvaldan rejalashtiriladi.

Interaktiv yondashuv-bu talabalarining aniq o'quv qo'llanma bilan interfaol ishlash jarayonidir.

Interfaol yondashuvning o'zagi interfaol mashqlar va vazifalarni bajarish, ularning yechimini birgalikda topishdan iborat. Ular oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv rejasi bilan cheklanibgina qolmay, yana qo'shimcha adabiyotlarni ham o'qiydilar. Zamonaviy metodika turli interfaol usullarga juda boy ularga: ijodiy faoliyat turlari, kichik guruhlarda ishlash, o'rgatuvchi o'yinlar: rolli o'yinlar, imitatsiyalar, ish bilan bog'liq o'yinlar, tarbiyaviy o'yinlar , umumiy ma'lumotlardan foydalanish, (mutaxasisni taklif qilish, ekskursiyalar uyushtirish) madaniy proyektlar tashkillashtirish v auditoriyadan tashqari ( soqal proyektlar, musobaqalar, spektakl, ko'rgazmalar, qo'shiq va ertaklar o'rganish, yangi ma'lumotni o'rganish va mustahkamlash,(interfaol leksiya, ko'rgazmali qurollar bilan ishlash, videomateriallar va audio ma'lumotlar bilan ishlash, " talaba o'qituvchi rovida", " har bir talaba bir-biriga o'rgatadi", mozayka shu kabilar), murakkab muhokamali mavzularda tortishish " Bir o'zi, ikkimiz – hamma birga", " vaziyatni o'zgartir", " Arg'imchoq ", debatlar, simpozium) , muammolar yechimini topish ( "Yechimlar daraxti", " Aqliy hujum ", " Kazuslar tahlili ", " Muhokamalar va mediasiya ", " Zinalar va ilonlar ").

Rivojlantiruvchi yondashuv – uning o'zagi bu ilmiy tushunchalardir. Bu insoniyat tarixidagi tarixiy elementlar yig'indisidir. Bu talabalar harakati davomidagi tajribalari, xorijiy tillarning grammatik qonuniyatlari, ularning umumiy vazifalari va tizimini bilishlari lozim. Demak ilmiy tushunchalarni bilmoq bu – muammolarni yechimini toppish va hal qilishda, tajribadan tashqariga chiqishda aks etadi. Talabalar o'z ijodiy faoliyatlari davomida ilmiy bilimlarini

boyitib boradilar. Talabalarda yozma tarjima kompetensiyasini shakllantirish davrida ular vaziyatning subyektini hisoblanadi.

Rolli yondashuvlar – rolli o‘qitish bu talabalarning shartli vaziyatlarda, to‘g‘ri yo‘naltirilgan va to‘g‘ri tanlangan umumiy olgan tajribalarini namoyon qilish, bilimlari, ko‘nikmalarini, ijodiy faoliyatlarida his – hayajonlarini ko‘rsatib berish orqali namoyon bo‘ladi.

Ularga quyidagilar ham kiradi:

- Erkin rivojlantiruvchi faoliyat, o‘qituvchi talabiga binoan talabalarning xohishiga qarab mavzuni mustaqil tanlash.

- Ijodiy erkin rivojlangan improvizatsiya harakteridagi faoliyat;

- Emotsional, raqobat bilan rivojlanadigan ijodiy faoliyat;

- Yillar davomida va turli sharoitlarda rivojlangan ijodiy faoliyat turi;

- Imoçon harakterdagi faoliyat, bu talabaning professional mahorati va u jamiyatning ta’sirida shakllanadi.

Turli muammoli vaziyatlarda rolli o‘yinlar bizlarga ularning yechimini topishda yordam beradi va hattoki hayotda ham biz o‘z foydamizga turli harakterdagi rolli vaziyatlardan foydalanamiz. Emotsionallar turdagi o‘yinlar talabalarning mustaqil harakat qilishlarini ta’minlaydi.

Muammoli yondashuv-bu holatdagi yondashuvda o‘qituvchi talabalarga qiyin tushunchalarni tushuntiradi, muammoli vaziyatlarni shakllantiradi, hamma talabalarga avvaldan ogohlantirib, murakkab o‘quv jarayonini tushuntiradi. Natijada talabalarda qiyin vaziyatlarda mustaqil harakat qilish, talabalar bilimlarini bir-biriga o‘tkazishi, ularning ijodiy faoliyatlari rivojlanadi. Talabalarga muammoli yondashuvni qo‘llash jarayonida ularni muhokama qilish, mustaqil fikrlash, o‘z fikrlarini erkin bildirishiga, tahlil qilishi, raqobatlashishi va isbotlab berishiga erishishimiz mumkin. Bunda talabalar muammoni yechishlarida o‘zlari yechimini topadilar. Muammoli vaziyatlar doim mavjud bo‘ladi, ular har bir yosh avlodning hayotida uchrab turadi, bu hayotiy tajriba o‘zini- o‘zi anglashda, qadriyatlarni qadrlashlarida namoyon bo‘ladi.

Loyihalar yondashuvi-bu maqsadlarga erishishda didaktik usul hisoblanib, muammolar texnologik dasturlar yordami asosida yechiladi, ular haqiqat bilan, amaliyot orqali tashkillashtirish va muayyan bilimlar asosida muammoning yechimi hal qilinadi.

Loyihali yondashuvning asosiy maqsadi talabalarga mustaqil ravishda bilimlarini ko‘paytirish, bu jarayonda muammolar yechimini topish, turli fanlarning muammoli vaziyatlarda mustaqil ravishda o‘zlari qaror qabul qilishni o‘rgatishdan iborat. Talabalar bu kabi yondashuvda tadqiqot ishlari, turli dars o‘tish usullari ustida tadqiqotlar, muhokamalar olib boradilar. Talabalar information dasturlar orqali yozma tarjima qiladilar, o‘z ustilarida ishlaydilar, ularda yozma tarjima

kompetensiyasidan bilimlar va ko'nikmalar hosil bo'lganda kelajakda o'zlari ham yozma tarjima dasturlarini yaratishga kirishadilar.

Kommunikativ yondashuv-bu kabi yondashuvda talabalar, ijodiy faoliyatning rivojlanishida olib keladi, ularda ko'proq og'zaki nutq rivojlanadi, ularning og'zaki nutq rivojlanishiga yordam beradi. Talabalar bu jarayonda subyekt sifatida harakat qiladilar, talabalarda individual-psixologik, turli yoshdagi insonlarda turlicha bo'ladi va milliy xususiyatlar bilan shakllanadi. Obyekt sifatida esa nutq faoliyati va yozma tarjima hisoblanadi, ularga eshitish, gapirish, eshitish va yozish turlari ham kiradi. Bu yondashuvda o'qituvchida ham talabalarga nisbatan kommunikativ yondashuv bo'lishi kerak, ular dars o'tish jarayonida mashqlar bajaradilar, grammatik qoidalarni o'rganadilar.

Kompetent yondashuv – bu talabalarni o'qitish jarayonidagi vazifalarni aniqlab beruvchi jarayon yig'indisidir, ta'lim berishning mundarijasidir, talabalarni baholashdagi muhim vaziyatdir. Bu yondashuv talabalarda turli sohalarda muammolarni yechimini o'zlarini topishga o'rgatadi, ular o'z tajribalarini oshiradilar.

Bu yondashuv talabalarda didaktik fikrlashni shakllantirib, dunyoviy, ahloqiy, siyosiy va boshqa sohalardagi muammolarni yechimini topishga o'rgatadi.

Interfaol texnologiyalar yondashuvi- bu yondashuvda o'qituvchi ta'lim berish jarayonida noana'naviy usullardan foydalanadi, ular o'yinlar, seminarlar, musobaqalar, darslar ko'proq loyihalar orqali sudlar, debatlar va konferensiyalarda amalga oshiriladi. Interfaol usullar orqali konferensiyalar tashkillashtiriladi. Ularda talabalar, faol, mustaqil va erkin harakat qiladilar. U boshqalar bilan aloqa qilib vaziyatni o'rganadi, boshqaradi, boshqa talabalar bilan aloqaga kirishadi, o'z bilimlarini boshqalar bilan solishtiradi va tahlil qiladi.

Interfaol yondashuvdagi konferensiya quyidagilarga amal qiladi:

- O'qish jarayonida talabalarni information baholash;
- Faollik va mustaqillikni rivojlantirish;
- Talabalarni mavzularni tahlil qilishga o'rgatish;
- Kommunikativ bilimlarni shakllantirish;
- Talabalarning o'zaro rivojlanishi.

Darslarning o'tilishi juda qisqa vaqtni tashkil etadi. O'qituvchi talabalarga maksimal darajada o'zining talabalarini chizib beradi, ular kichik guruhlarda dialoglar tuzadilar, turli yo'nalishlarda birga ishlaydilar. Talabalar 90 foizgacha ma'lumotni o'zlari mustaqil o'zlashtiradilar, bu yondashuvda eng asosiysi o'quvchilarning moslashishidir.

Dars jarayonidagi innovatsion yondashuv- Innovatsion darslar asosan qonun-qoidaga ko'ra bir nechta o'tilgan mavzular asosida shakllanadi, bu yondashuv talabalarni boshqaradi va ularni muntazam ravishda baholab boriladi.



Bunday darslar asosan noodatiy, noana'naviy sharoitda rivojlanadi. Avvalo, darsning boshlanishi o'zgaruvchan bo'ladi, ular talabalarga xursandchilik bag'ishlaydi, chunki ular yozma tarjima kompetensiyasi ularda shakllanib bo'lgandan so'ng, ular o'z olgan natijaviy baholarini eshitadilar. Bunday darslar texnik vositalardan foydalangan holda o'tiladi: (kompyuter, videotexnika, bukletlar, stendlardan va ko'rgazmalardan) foydalanadilar.

Bunday darslarda turli maqsadlarga erishish maqsadida metodik, psixologik va pedagogik harakterga ega bo'ladi va ular quyidagilarda aks etadi:

1. Bir mavzu asosida bilim, ko'nikma va tajribalar asosida bilimni mustahkalmash;
2. Talabalarda dasrga nisbatan qiziqish, ishlash atrof-muhiti, talabalar diqqat e'tiborini darsga tortadi;
3. O'qituvchi darsda nisbatan kamroq ishtirok etadi.

Innovatsion darslarni talabalar ko'proq yaxshi ko'radilar, chunki ular noana'naviy tarzda o'tiladi, ularning metodikasi va tashkillashtirilishi ham umuman boshqachadir.

Hozirgi zamon talabiga ko'ra, yuqorida tahlil qilingan dars o'tish usullari va yondashuvlar talabalarga faollik bilan muammolarning yechimini topishlariga yordam beradi, talabalarga aynan xorijiy tillarni o'qitishda va ularda tarjima kompetensiyasini shakllantirishda, ularning shaxsiy fikrlashiga, talabalar o'zlarining g'aroyib g'oyalarini ro'yobga chiqarishlariga imkon beradi. Bu bilimlar paydo bo'ladi, rivojlanadi va yillar davomida boyib boradi. Tahlil natijalariga ko'ra, talabalarga ta'lim berishda turli usullar va yondashuvlardan foydalanish, ularda lingvo-madaniy, madaniy – kommunikativ va shaxsiy tashkiliy qarashlari amalga oshadi.

### **Adabiyotlar**

1. Mirziyoyev SH.M. Erkin va faravon demokratik O'zbekiston davlatini barpo etamiz. –Toshkent: —O'zbekiston, 2016.-56-b.

2. И.Пассов. Принципы обучения иностранному языку. -Москва: Просвещение.-2010 г.-С.15.

3. Диордиященко О.В. Принципы обучения иностранному языку. Харьков. Харьковский государственный университет питания и торговли. Первомайский факультет.-2015 г.-С.-23.

4. Шакирова А.А. Принципы обучения иностранному языку. ФГАОУ ВПО «Казанский (Приволжский) федеральный университет. Журнал Современные проблемы науки и образования. – 2015. – № 1 (часть 1) Дата публикации 07.04.2015.-С.-1.

5. Диордиященко О.В. Принципы обучения иностранному языку. Филологические науки /1. Методика преподавания языка и литературы. Харьковский государственный университет питания и торговли. Первомайский факультет.-2018 г.-С.1.

6. Кашина, Е.Г. Традиции и инновации в методике преподавания иностранного языка: учебное пособие для студентов филологических факультетов университетов./ Самара: Изд-во «Универс-групп», 2006. – 75с.

7. Шмелева Ж.Н., Антонова Н.В. Повышение мотивации студентов на уроках иностранного языка в неязыковом вузе. Вестник КрасГАУ № 3, 2015. /Краснояр. гос. аграр. ун-т. – Красноярск, 2015 С. 223-229

## **INTEGRATION OF LANGUAGE SKILLS AS A PREREQUISITE FOR TEACHING FOREIGN LANGUAGE VOCABULARY**

**Yarieva Z.Sh. - intern researcher at Gulistan State University**

**Annotation:** this article is devoted to methodological issues related to the formation of students' lexical competence, which is an important component of foreign language communicative competence. It is assumed that the implementation of integration of language skills as a prerequisite for teaching foreign language vocabulary is directly related to the mastery by students of certain skills of their use in various types of productive (speaking, writing) and receptive (reading, listening) speech activity. Observations and testing showed that for the formation of all the necessary qualities of lexical skills, that is, the assimilation of their qualitative structure, it is necessary to create the appropriate conditions for the performance of all actions and operations that are part of the lexical exercise.

**Key words:** vocabulary; lexical competence; integration; language skill; speech activity; speaking; letter; reading; listening.

## **ИНТЕГРАЦИЯ ЯЗЫКОВЫХ НАВЫКОВ КАК НЕОБХОДИМОЕ УСЛОВИЕ ОБУЧЕНИЯ ИНОЯЗЫЧНОЙ ЛЕКСИКЕ**

**Яриева З.Ш. – стажер-исследователь Гулистанского государственного университета**

**Аннотация.** Данная статья посвящена методическим вопросам, связанным с формированием у студентов лексической компетенции, которая является важным компонентом иноязычной коммуникативной компетенции. Предполагается, что реализация интеграции языковых навыков как

необходимого условия для обучения лексике иностранного языка напрямую связана с овладением учащимися определенных навыков их использования в различных видах продуктивной (говорение, письмо) и рецептивной (чтение, аудирование) речевой деятельности. Наблюдения и тестирование показали, что для формирования всех необходимых качеств лексических навыков, то есть усвоения их качественной структуры, необходимо создание соответствующих условий для выполнения всех действий и операций, входящих в состав лексического упражнения.

**Ключевые слова:** лексика; лексическая компетенция; интеграция; языковой навык; речевая деятельность; говорение; письмо; чтение; аудирование.

## **TIL KO'NIKMALARI INTEGRATSIYASI – XORIJIY TIL LEKSIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING ZARURIY SHARTI SIFATIDA**

**Yarieva Z.Sh. – Guliston davlat universiteti stajyor tadqiqotchisi**

**Annotatsiya.** Ushbu maqola chet tili kommunikativ kompetentsiyasining muhim tarkibiy qismi bo'lgan talabalarning leksik kompetentsiyasini shakllantirish bilan bog'liq uslubiy masalalarga bag'ishlangan. Chet tili so'z boyligini o'rgatishning zaruriy sharti sifatida til ko'nikmalarini birlashtirishni amalga oshirish ularni samarali faoliyati (gapirish, yozish) va qabul qilish (o'qish, tinglash) nutqining turli turlarida ulardan foydalanishning ma'lum ko'nikmalarini o'zlashtirish bilan bevosita bog'liq deb taxmin qilinadi. Kuzatishlar va sinovlar shuni ko'rsatdiki, leksik ko'nikmalarning barcha kerakli fazilatlarini shakllantirish, ya'ni ularning sifat tarkibini egallash uchun leksik mashqni tashkil etuvchi barcha harakatlar va operatsiyalarni bajarish uchun tegishli shart-sharoitlarni yaratish kerak.

**Kalit so'zlar:** so'z boyligi; leksik kompetensiya; integratsiya; tilni bilish; nutq faoliyati; gapirish; yozish; o'qish; tinglash.

The main goal of teaching lexical side of foreign language speech is to form students' lexical competence as a component of language competence. The latter, as it is stated in various publications, is “an important component of foreign language communicative competence”[1;]. The implementation of this goal is associated with the mastery by students of a certain number of words, stable phrases and clichéd phrases, as well as the skills of their use in various types of productive (speaking, writing) and receptive (reading, listening) speech activity. Taking into account the formulated goal, the tasks and content of vocabulary teaching are specified. So,

“within the framework of receptive speech activity, students are taught to recognize and isolate lexical units in a speech stream or in a text; to distinguish and understand vocabulary denoting objects and objects of everyday life (cultural awareness), speech and etiquette formulas, non-equivalent vocabulary (using reference literature); recognize and understand homonyms, homographs, cognate words, international words, etc.”[2] When teaching speaking and writing, students are taught such lexical operations as the correct choice of words and phrases in accordance with the communicative task of communication; the correct combination of words in sentences; selection of the necessary lexical-thematic associations; the ability to carry out, if necessary, paraphrasing and selection of synonyms (antonyms), etc. To master all these skills and lexical material, students must have a certain set of knowledge: phonetic – to memorize the auditory-motor images of lexical units; in the field of graphics and spelling – for writing words and recognizing them in the text; in the field of grammar – for the formation of word forms; in the field of semantics – for the formation of meaningful phrases, etc.

Communicative competence consists of three key competencies: linguistic (language experience)[3], sociolinguistic (speech experience)[4] and pragmatic (personal qualities of students)[5]. The process of forming lexical competence is of the greatest interest and requires further research, since “it is from the accumulation of lexical stock, from the enrichment of the vocabulary of students that they begin to master a foreign language”[6].

According to Shamova, lexical competence is “based on lexical knowledge, skills, abilities, as well as personal linguistic and speech experience, a person's ability to determine the contextual meaning of a word, compare the volume of its meaning in two languages, understand the structure of the meaning of a word and highlight the specifically national in the meaning of the word”[7].

Methodological problems associated with the integration of language skills in teaching vocabulary are widely covered in the scientific works of teachers in English-speaking countries[8] and Russia[9]. The principles of an integrated approach in teaching English vocabulary to university students are enshrined in the education system of the Republic of Uzbekistan[10]. At the moment, the main problem in this direction is the development of the most effective methodology that combines integrated teaching of language skills[11]. In our study, lexical competence[12] is considered as central one, linking all language skills together.

In this study, both theoretical (descriptive, comparative-historical, source analysis) and practical (observation, testing) methods were applied.

**Theoretical methods** were used to clarify the terminological apparatus of the study, as well as to compile a literature review section of the article.

*Practical methods* were used to determine the effectiveness of certain methodological techniques of integrated vocabulary teaching of students of higher educational institutions.

Venue of the research–Gulistan State University.

The subject of the research is a set of methods and techniques for integrated vocabulary learning.

The object of the research is the second year students of the Faculty of Philology. Group 37-19 was an experimental group. Group 38-19 was a control group.

As a result of the observation, which lasted for 8 pairs in each group, notes were made. In the experimental group, during the observed 8 pairs, all methods and techniques of integrated vocabulary learning recommended by leading experts in this field were purposefully used (determined according to the “Literature review” section). The teachers who worked with the control group did not know anything about the purpose of the study and conducted pairs according to their approach and experience. While attending classes, notes were made, the analysis results of which are given in the “Results” section of this article. In the last lesson, students from both groups were asked to take a short test, which took about 20 minutes. The purpose of testing was to confirm or deny the results of the study.

The formation of lexical competence is directly proportional to the formation of students’ lexical skills. In the methodological literature, a lexical skill is defined as “an automated action to select a lexical unit adequately to the concept and its correct combination with other units in productive speech (speaking and writing) and automated perception and association with meaning in receptive speech (listening and reading)”[13].

Lexical skills are formed according to certain principles[14]. From our point of view, the system-forming principles of the formation of lexical skills in a non-linguistic university are (based on the principles formulated by Galskova: 1) the principle of the unity of teaching vocabulary and speech activity; 2) the principle of integration (integration of a foreign language and specialty); 3) the principle of thematic conditionality (taking into account the university and the specialty of students); 4) the principle of verification of mental components in the content of teaching vocabulary (solving problem situations as close as possible to the conditions of real communication); 5) the principle of collective interaction; 6) the principle of taking into account the didactic and psychological characteristics of teaching and the audience[15]. These principles are aimed at developing a communicative culture using lexical knowledge on a specific topic and are included in the system of principles of the modern communicative-cognitive approach.

The integration of all types of linguistic activity with the lexical competence of students can be most clearly traced by studying the stages of the formation of lexical skills[16].

The first stage in the formation of lexical skills begins with the acquisition of sensory information about a word, namely: perception, recognition of the image of a word and its discrimination (recognition of a word by its specific features in different modalities). Then the process of memorization takes place – the cognitive action of retaining words and their connections in memory. The memorization process must be conscious, i.e. learners must understand the meaning and meaning of lexical units, and not memorize them mechanically.

The second stage of the formation of lexical skills involves practical actions with a word, repeated training “according to a template”, with the aim of gradually developing the ability to use new vocabulary, memorize it, and transfer it to the level of long-term memory.

The third stage of the formation of lexical skills is based on the formation of lexical skills, i.e. the stage of creative application of knowledge, the development of lexical actions in new conditions, in other words - this is lexical creativity, which is characterized by originality and independence of expression, novelty of thought.

The acquired knowledge and skills make it possible to develop and improve lexical competence, the level of formation of which is evidenced by the ability of students to solve problems associated with the assimilation of a foreign language word during its practical use in speech on the basis of acquired knowledge and corresponding skills.

The indicators of the formation of lexical competence are the following skills of trainees: to consciously imitate the sound image of a foreign language word; automatically find the necessary words in the mental vocabulary; use words in combination depending on the communication situation; express the same thought using different lexical units; anticipate the meaning of a word in context; get out of the situation of lexical difficulty in various ways; to carry out lexical self-correction. These skills indicate a formed foreign language lexical competence and, as a result, a high level of communication in a foreign language.

As a result of observing students of two groups (experimental and control) and comparing the results of testing their lexical competence, the most effective methods and techniques were identified, in the process of which the integration of language skills is observed. 10 students from each group participated in the experiment. Each student had to answer 20 test question – 10 test questions checking translation skills and 10 test questions checking the effectiveness of the exercises based on visualization. So, total number of questions for all participants was 200. The results of the observation and tests showed the following:

The main means of revealing the meaning of a word in a foreign language is *translation*. In general, translational exercises, like any other types of exercises, have a certain level of efficiency. In modern methodology of teaching foreign languages translational exercises considered to be not so effective, but our experiment shows that their efficiency is on the quite high level (Table 1). Of course, translation as a means of revealing the meaning of a word, along with advantages, also has disadvantages. The advantages of translation as a means of semantization are the comparative accuracy of a foreign word's meaning transfer, the ability to immediately find words that are adequate in meaning, which gives a certain saving in time. The disadvantage of translation as a means of semantization is that in some cases there are difficulties in finding an equivalent word in the native language. This is due to the difference in the volume of meanings of words in different languages and is clearly seen in the example of the Russian and English languages. Therefore, a word can be accurately translated only based on the context, resorting in some cases to the interpretation of the word. The only exceptions in this case are words expressing the names of very specific objects.

**Table 1. Reflection of the effectiveness of translation exercises in the results of the test**

	Experimental group		Control group	
	Before	After	Before	After
<b>Correct answers</b>	49	82	51	77
<b>Incorrect answers</b>	51	18	49	23

Another means for explaining meaning is *visualization*, which can be both external (objective and pictorial) and internal (linguistic). The means of linguistic visualization for disclosing the meaning of a word include an explanation of the meaning of a word in context, an explanation of the meaning of a word using synonyms or antonyms, an explanation of the meaning of a word using the analysis of word-formation elements, and an explanation of the meaning of a word using its meaning in a foreign language. Exercises based on visualization principle, again like any other types of exercises, have a certain level of efficiency. But according to our

experiment, the efficiency of the exercises of this type is a bit lower comparing to translational exercises (Table 2). But here we assume that the further research is necessary to reveal the accuracy of the experiment's results, as there is a variety of types of exercises based on the principle of visualization.

**Table 2. Reflection of the effectiveness of exercises based on visualization in the results of the test**

	Experimental group		Control group	
	Bef ore	Af ter	Be fore	Aft er
<b>Correct answers</b>	64	89	63	84
<b>Incorrect answers</b>	36	11	37	16

The *context* has the advantage over other means of language visualization that it contributes to the strong memorization of the word due to the appearance of a number of associations among students. The lack of context is that the student in this case acquires knowledge of only the contextual meaning of the word. This local meaning may not be its main meaning, since a word in the context may have a narrowed meaning or even a different meaning that is not at all typical for it. Therefore, it becomes necessary either to find the necessary context, or to accompany the work on the word in the context with the necessary *additional explanations*.

*The use of synonyms and antonyms* to reveal the meaning of new words is very limited. This is because most synonyms are only relatively close in meaning, so only in rare cases can you confidently use synonyms. In addition, the same word may or may not be synonymous with another word, depending on the context in which this other word occurs, since in different contexts it will have different meanings. For the same reasons, the use of antonyms is also limited.

*Description* of the meaning of a word in a foreign language can be used in limited cases if a narrow goal of semantization is pursued. However, it acquires great importance if the repetition of previously studied vocabulary and the development of listening comprehension of foreign speech are pursued as an additional goal.

For a strong *memorization* of a word, it is important to repeat the word in a changed context. The material in the exercises should be selected in such a way that



students in the process of assimilating new things all the time relied on the meanings they know and on the experience they gained in working on vocabulary. These can be exercises in memorizing the material passed by, for substituting polysemantic words, homonyms, synonyms into sentences, for independently composing simple sentences with the obligatory inclusion of well-known words in them, etc.

*Lexical exercises* should be adequate to the essence of the lexical skill and lexical unit. Having considered the morphological and qualitative structure of a lexical skill, we can conclude that the functionality of a lexical skill at the morphological level is manifested in the unity of its components such as a speech task, operations for choosing and combining lexical units, as well as the form of a lexical unit. In this case, the leading role is assigned to the speech task. The formation of the qualities of a lexical skill depends on the conditions in which the exercises are performed. Exercises should provide, on the one hand, the assimilation of the structure of the lexical speaking skill, and, on the other hand, the formation of all the necessary qualities. The exercise includes setting and various activities to master the lexical material. Since the functionality of the lexical skill is manifested in the unity of all its components with the leading role of the speech task, the functionality of the lexical exercise is expressed in the unity of the speech setting for the exercise, actions to designate objects of utterances, combining lexical units with other and grammatical structures, as well as actions to pronounce the sound form lexical unit. In this form, the structure of the lexical exercise corresponds as much as possible to the structure of speech action, which is part of the structure of speech activity.

For the formation of all the necessary qualities of lexical skills, that is, the assimilation of their qualitative structure, it is necessary to create the appropriate conditions for the performance of all actions and operations that are part of the lexical exercise. Based on this, vocabulary exercises can be classified in the following way:

1. Exercises aimed at mastering the form of a foreign language lexical unit, for example, to establish a relationship between the pronunciation of a word and its spelling, to speak words after a native speaker. read words that sound similar and so on.

2. Exercises aimed at assimilating the operations of choosing lexical units, for example, grouping vocabulary by topic, marking in a group words that do not fit thematically, and so on.

3. Exercises aimed at mastering the operations of combining lexical units, for example, making a combination of the specified words, name everything that can be combined with a given verb, compose a sentence using these words, supplement the sentence, expand the sentence using the specified words and phrases, and so on Further.

4. Exercises aimed at a speech task, for example, make an oral presentation on a topic with new words, create a situation using these words, and so on.

However, it is not always possible to clearly establish the classification of exercises for each component. In a lexical skill, all components are fused into a single whole. For example, performing exercises aimed at mastering the operations of combining lexical units also presupposes mastering the operations of choosing lexical units. Mastering the operations of choosing lexical units contributes to mastering the form of lexical units. However, when performing a certain type of exercise, the presenter is the mastering of any one component of the lexical speaking skill. This circumstance must be taken into account in its formation.

Thus, the functioning of any component of a lexical skill is due to its connection with a speech task. If the mastery of the components of the lexical skill was carried out without connection with the speech task, then in the process of speaking the student will be forced to establish this connection on his own, often spontaneously, which can lead to violations of the speech process in a foreign language. Therefore, when mastering the structure of a lexical skill, it is advisable to use exercises that would ensure the assimilation of the structure of a lexical skill in the process of solving speech problems. Since the emergence of speech tasks is a consequence of the activation of the mental activity of students, the formation of a speech need in them, placing the speech task in the first place in the exercise depends on the presence of a meaningful basis, thoughts and interests of the student's personality.

There are two possible approaches to the construction and use of lexical exercises: component and integrated. With the component approach, lexical exercises are built taking into account the sequence of stages in the formation of lexical speaking skills. With an integrated approach, mastering the structure of a lexical skill is carried out in the unity of all its components with the leading role of the speech task.

Exercises should be functional, that is, the leading place is given to the function of new lexical units, while the form is acquired involuntarily due to the abundant use of these units in speech. They should be performed as a speech-thinking task, that is, within the framework of the general problem posed by the film, dialogue, each exercise reveals some facet of the problem by discussing a particular speech task.

Exercises should direct the consciousness of students to the content of the thoughts of both their own and those of their interlocutors about the discussion of the problem under discussion. They should exclude the possibility of making mistakes, that is, all the attention of students will be focused on not making a mistake, and not on the content of the thoughts of their own and the interlocutor. Exercises should

ensure regular and repeated entry of new lexical units into the brain of students. This is achieved due to the need to use the same lexical units to discuss different speech problems.

### References

1. Alqahtani M. The Importance of Vocabulary in Language Learning and How to Be Taught // International Journal of Teaching and Education. – 2015. – Vol. III. No. 3. – P. 21-34. DOI: 10.20472/TE.2015.3.3.002
2. Read J. Research in Teaching Vocabulary // Annual Review of Applied Linguistics. – 2004. – Vol. 24. – P. 146-161. DOI:10.1017/S0267190504000078
3. Schmitt N. A Fresh Approach to Vocabulary: Using a Word Knowledge Framework // RELC JOURNAL. – 1995. – Vol. 26. № 1. – P. 86-94.
4. Alsaaw A. To What Extent Guessing the Meaning from the Context Is Helpful in Teaching Vocabulary // ARECLS. – 2013. – Vol. 10. – P. 130-146.
5. Thornbury S. How to teach vocabulary. – London: Pearson Longman, 2002.P-58.
6. Павлова Л.П. Формирование иноязычной лексической компетенции у студентов экономического вуза // Инновационные образовательные технологии. – 2011. – №2. – С. 44.
7. Шамов А.Н. Лексические навыки устной речи и чтения – основа семантической компетенции обучаемых // Иностранные языки. – 2007. – №4. – С. 20.
8. Gu Y. Fine Brush and Freehand: The Vocabulary Learning Art of Two Successful Chinese EFL Learners // TESOL Quarterly. – 2003. – Vol. 37. – P. 73-104.
9. Каргина Е.М. Использование ситуативных упражнений при введении и активизации иноязычной лексики // Психология, социология и педагогика. – 2014. – № 11 (38). – С. 51-54.
10. Типовая программа по предмету «Практика языковых аспектов» для студентов направления 5111400 – Иностранный язык и литература (английский). – Ташкент: Министерство Высшего и Среднего специального образования Республики Узбекистан, 2020. – 12 с.
11. Сусименко Е. В. Эффективные стратегии формирования лексических навыков у студентов технических вузов // Альманах современной науки и образования. – 2010. № 4 (35). – С. 150-152.
12. Shigenori T. Lexical Competence in English / CIFLE Report. – 2017. – No. 8. URL: [http://www.cifle.jp/news/cifle\\_report\\_005.pdf](http://www.cifle.jp/news/cifle_report_005.pdf)
13. Alsaaw A. To What Extent Guessing the Meaning from the Context Is Helpful in Teaching Vocabulary // ARECLS. – 2013. – Vol. 10. – P. 130-146.

14. Комарова Е.В. Использование гуманитарных знаний в обучении иностранному языку// Современные научные исследования и инновации. 2015. № 1. URL: <http://web.snauka.ru/issues/2015/01/45292>

15. Гальскова Н.Д. Теория обучения иностранным языкам: Лингводидактика и методика: учебное пособие. – Москва: Академия, 2004.

## **BO‘LAJAK TARIX FANI O‘QITUVCHILARINING SHAXSIY-PEDAGOGIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI**

**Yusupova N.O. Toshkent davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi**

**Annotatsiya.** Maqolada bo‘lajak tarix fani o‘qituvchilarining shaxsiy-pedagogik sifatlarini rivojlantirish, jamiyat hayotida ijtimoiy munosabatlarga kirisha olish, ta’lim-tizimida o‘z imkoniyatlarini oshirib borishi muhim ahamiyat kasb etishi, talaba-shaxsiy sifatlarini rivojlantirishning pedagogik ta’sir vositalari yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** ta’lim, tarbiya, shaxs, kompetentlik, qadriyat, islohot, jamiyat, ma’naviyat, ahloq, madaniyat, uzluksizlik.

## **ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ РАЗВИТИЯ ЛИЧНОСТНО-ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КАЧЕСТВ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИСТОРИИ**

**Юсупова Н.О.- преподаватель Ташкентского государственного педагогического университета**

**Аннотация.** В статье подчеркивается значение будущих учителей истории в развитии личностно-педагогических качеств студентов, доступа к социальным отношениям в обществе, повышения их возможностей в системе образования, средств педагогического воздействия на развитие личностных качеств студента.

**Ключевые слова:** образование, воспитание, личность, компетентность, ценности, реформа, общество, духовность, нравственность, культура, преемственность.

## **PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR THE DEVELOPMENT OF PERSONAL-PEDAGOGICAL QUALITIES OF FUTURE HISTORY TEACHERS**

**Yusupova N.O. - Teacher Tashkent State Pedagogical University**

**Annotation.** The article highlights the importance of future history teachers in developing personal and pedagogical qualities, access to social relations in society, increasing their capabilities in the education system, the means of pedagogical influence on the development of student-personal qualities.

**Key words:** education, upbringing, personality, competence, value, reform, society, spirituality, morality, culture, continuity

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh poydevori bo‘lgan yoshlarni qo‘llab quvvatlash, ularning ma’naviy yetuk, barkamol shaxs bo‘lib, zamonaviy bilim kasb-hunarni puxta egallagan yosh-avlod kadrlarini tayyorlash dolzarb vazifa sifatida ilgari surilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi[1]da yosh-avlod kadrlarini tayyorlash masalasiga to‘xtalar ekan: “yoshlarni zamonaviy bilim va tajriba, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, ezgu fazilatlar egasi bo‘lgan isonlarni voyaga yetkazamiz” deb ta’kidlashida ham bugungi islohotlar jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda ularning intellektual salohiyati, yetuk kadr bo‘lib tarbiyalanishi davlat ahamiyati doirasida ekanligi bunga asos bo‘ladi.

Bo‘lajak tarix fani o‘qituvchilarining shaxsiy-pedagogik sifatlarni rivojlantirish jamiyat hayotida ijtimoiy munosabatlar ta’lim-tizimida ham muhim ahamiyat kasb etishi, talaba-shaxsi sifatlarini rivojlantirish alohida o‘rin tutadi. Bo‘lajak o‘qituvchilarning shaxsiy-pedagogik sifatlarni rivojlantirish masalalariga olimlar O.Qo‘ysinov, N.Muslimov, R.Yarmatov, V.Andreev, O.A.Abdulina, N.V.Kuzmina va boshqalar zamonaviy jamiyatda shaxs o‘z hayotini nafaqat o‘zining baxtli va yaxshi hayoti to‘g‘risidagi tasavvurlarga ega bo‘lishi, balki umumqabul qilingan ijtimoiy-madaniy qoidalar, me’yorlar va o‘z hayot yo‘lini belgilab olishi kerak. Shu bilan birga, shaxs o‘z tarixining muallifi bo‘lishi va uni jamiyat hayotiga uyg‘unlashtirishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

N.Muslimov[2] bo‘lajak o‘qituvchilardan talab qilinadigan ijtimoiy-madaniy kompetentlik masalalarini ifodalar ekan: “ijtimoiy-madaniy kompetentlik bu-talaba chuqur o‘zlashtirishi zarur bo‘lgan bilim va faoliyat tajribasining doirasi bo‘lib, milliy va umuminsoniy madaniyatlar xususiyatlari, inson va insoniyat hayotining ma’naviy-axloqiy asoslari, oilaviy va ijtimoiy an’analarning madaniy asoslari, inson hayotida

fan va dinning roli, ularning moddiy borliqqa ta'siri, turmush va dam olish borasidagi bilimlar, masalan, bo'sh vaqtni samarali tashkil etish usullarini bilishi" deb ta'kidlagan.

O. Qo'ysinov[3] talaba rivojlanishida kasbiy sifatlar masalasiga to'xtalar ekan: "talabalarning kasbiy sifatlari shakllanishi o'qitish jarayonida shaxs ijodiy faoliyatining faolligi bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'langan. Oliy ta'lim tizimida zamonaviy o'qitishning eng muhim vazifasi bu talabalarning kasbi bo'yicha xabardorligini shakllantirish uchun qulay shart-sharoit yaratishdir. Ijodiy faoliyat uzoq vaqt tayyorgarlik ko'rish, eruditsiyani, qobiliyatlarni talab qiluvchi faoliyat hisoblanadi. Ijodiy faoliyat – inson faoliyati asosi, barcha moddiy va ma'naviy boyliklar manbayidir" deb ta'kidlashga asos bo'lishini keltirib o'tgan.

R.Yarmatov[4] bo'lajak tarix fani o'qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarlik ishlari masalasiga to'xtalar ekan: "bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi sifatini takomillashtirish jarayoni orasidagi mavjud nomuvofiqlik aniqlandi, uni bartaraf etishda zamonaviy axborot texnologiyalarining yetarli joriy etilmaganligi mavjud muammoning yanada yuqori dolzarflik kasb etayotganligini ko'rsatdi" deb ifodalagan.

V.Andreev o'z tadqiqotlarida zamonaviy o'qituvchi shaxsiga ta'rif berar ekan, uni quydagicha ta'riflaydi. "O'qituvchi bu ziyoli, ma'naviy yetuk, ijodiy-tasavvuri rivojlangan, insonparvar va o'z jamoasi orasida raqobatga kirisha oladigan shaxs",- deb ifodalagan[5].

Olimlar O.Abdulina, N.Kuzmina tadqiqot ishlarida bo'lajak pedagog shaxsini tavsiflar ekan, ijtimoiy-munosabatlar orqali ta'lim-tizimidagi rivojlantiruvchi omillar o'qituvchi o'z ijodiy imkoniyatlarini shakllantirishga ta'siri bilan ifodalagan [6; 230]. Olimlar tomonidan bildirilgan tahlillar shundan dalolat beradiki, "o'qituvchining o'z ijodiy imkoniyati" doirasida pedagogik ijodkorlik shaxsning barcha pedagogik-psixologik jarayonlar orqali intellektual salohiyatini oshirib borishi muhim o'rin tutadi.

Demak, bo'lajak tarix fani o'qituvchilarining shaxsiy-psixologik sifatlarini rivojlanishida jamiyatning zamonaviy subyekt sifatida o'zida muayyan hayot tarzining yo'lga qo'yish orqali, bo'lajak o'qituvchi o'zining shaxsiy imkoniyatlarini ochishi, ma'naviy-tarbiyaviy ta'sirlarning yakuniy vazifasi sifatida subyektda quyidagi sifatlarni shakllantirish muhim omil hisoblanadi:

bo'lajak o'qituvchi insoniyatning tarixiy yutuqlaridan foydalanish;  
shaxsiy hayot faoliyatining insoniyat muammolariga taalluqliligi;  
zamonaviy ta'limda o'zini madaniyatning eng oliy qadriyati sifatida yo'nalganligi;

individual shaxsiy sifatlarining o'ziga xosligi, kabi jarayonlar bilan ifodlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Bo'lajak tarix fani o'qituvchilarini shaxsiy-psixologik sifatlarini rivojlantirishda quydagi xulosaga kelindi. Bo'lajak tarix fani o'qituvchisining ilmiy-metodik tayyorgarligini oshirib borishi;

bo'lajak tarix o'qituvchilarining tarixiy jarayonlar va hodisalarni tahlil qilishda o'z metodik tayyorgarligining rivojlanishi;

o'qituvchining uzluksiz ta'lim-tizimida kasbiy tayyorgarligi rivojlanishi orqali shaxsiy-psixologik sifatlarni oshirib borish:

bo'lajak tarix fani o'qituvchilarining shaxsiy-psixologik sifatlarini rivojlanishida kasbiy-metodik taminotini yaratilishi o'z imkoniyatlarini yuqoriga oshirishida muhim omil hisoblanadi.

### **Adabiyotlar**

1. Xalq so'zi. 2020 yil 30 dekabr. №-276-son 2-b.
2. N.A.Muslimov "Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi". O'quv qo'llanma.: 2013 y. 11-b
3. O.Qo'ysinov "Kompetentli yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish texnologiyalari".: Diss. 2019 y. 58-b.
4. R.Yarmatov "Bo'lajak tarix o'qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirish".: Diss.: 2020-y.
5. Абдулина О.А. Общепедагогическая подготовка учителя в системе высшего педагогического образования. - М.: Высш. шк., 1990,-47 с.
6. Андреев В.И. Педагогика творческого саморазвития: инновационный курс. Кн. 2. - Казань: Изд-во Казан, ун-та, 1996. – 319 с.

### **TA'LIM TIZIMI UCHUN PSIXOLOG KADRLAR TAYORLASHNING DUAL TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING SAMARADORLIGI XUSUSIDA**

**Turamuratov U.U. – Termiz davlat universitetining Pedagogika instituti  
pedagogika fakulteti yoshlar bilan ishlash bo'yicha  
dekan o`rinbosari**

**Annotatsiya.** Mazkur maqola ta'lim tizimi uchun psixolog kadrlar tayyorlashning dual ta'lim texnologiyalarining samaradorligi xususida mavzusiga bag'ishlangan. Shuningdek, maqola matnida ta'lim bo'yicha davlat islohotlari, zamonaviy yoshlar va ularning ta'limi masalasi, dual ta'lim va uning samaradorlik jihatlari, psixolog kadrlarni tayyorlashning zamonaviy pedagogik talablari kabi masalalar ham keng yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Ta'lim, kadrlar, psixolog kadrlar, dual ta'lim, pedagogik texnologiyalar, ta'lim islohotlari, yoshlar, zamonaviy ta'lim kontseptsiyalari, psixologik bilimlar tizimi.

## **ОБ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДУАЛНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИИ ПОДГОТОВКИ ПСИХОЛОГА**

**Турамуратов У.У. – заместитель декана по делам молодежи  
педагогического факультета педагогического института, Термезского  
государственного  
университета**

**Аннотация.** Статья посвящена теме эффективности технологий обучения психологов для системы образования. В статье также освещаются такие вопросы, как государственные реформы в образовании, современная молодежь и ее образование, дуальное образование и его эффективность, современные педагогические требования к подготовке психологов.

**Ключевые слова:** Образование, кадры, психологи, дуальное образование, педагогические технологии, образовательные реформы, молодежь, современные образовательные концепции, система психологических знаний.

## **ON THE EFFICIENCY OF DUAL EDUCATIONAL TECHNOLOGIES OF PSYCHOLOGIST TRAINING**

**Turamuratov U. U. – Deputy dean for Youth affairs of the Pedagogical  
faculty of the Pedagogical institute of the Termez state  
university**

**Annotation.** The article is devoted to the topic of the effectiveness of training technologies for psychologists for the education system. The article also highlights such issues as state reforms in education, modern youth and their education, dual education and its effectiveness, modern pedagogical requirements for the training of psychologists.

**Key words:** Education, personnel, psychologists, dual education, pedagogical technologies, educational reforms, youth, modern educational concepts, psychological knowledge system.

Bugungi kunda iqtisodiyotning faol sektori sifatida – innovatsion texnologiyalar, IT sohasidagi yangiliklar, bularning asosida esa ilm-fanning taroqqiyoti turganligi hech kimga sir emas. Bozor iqtisodiyoti talablari asosida raqobatbardosh, etuk malakali kadrlar tayyorlash har doim diqqat marazimizda turgan masala bo`lib qolaveradi. Davlatimiz rahbari tamonidan ilgari surilgan ta'lim tizimini davlat-xususiy sheriklik asosida rivojlantirish g'oyasining provard zamirida ana shu maqsad yotibdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil



19-sentabr kuni BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida soʻzlagan nutqida bugungi globallashuv jarayonida yoshlar tarbiyasi naqadar muhim masala ekanligini yana bir bor taʼkidlab, jumladan, shunday degan edilar: “Bugungi kun yoshlari – son jihatidan eng yirik avloddir, chunki ular 2 milliard kishini tashkil etmoqda. Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzadlarimiz qanday inson boʻlib kamolga etishi bilan bogʻliq. Shu munosabat bilan odamlar, birinchi navbatda, yoshlarning ongu tafakkurini maʼrifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir”<sup>1</sup>.

Maʼlumki, pedagogika va psixologiya fanlari yosh avlodni tarbiyalash va unga taʼlim berishning mazmun-mohiyati va muammolarini oʻrganuvchi fanlardir. Demak, “Kelajagimiz – yoshlar qoʻlida” degan hayotiy haqiqatga asoslanadigan boʻlsak, Vatanimiz taraqqiyoti, xalqimizning farovon kelajagi ham bil vosita, ham bevosita psixologiya sohasining taraqqiyoti bilan uzviy bogʻliq ekanligiga shubha yoʻq. Yoshlarimizni zararli gʻoyalardan: turli xil axborot xurujlaridan, “ommaviy madaniyat” koʻrinishidagi axloqsizlik illatlaridan, tajovuzkor millatchilik va ayirmachilik harakatlaridan, yangicha koʻrinishdagi fashistik va ekstremizm gʻoyalaridan ogoh etib turishi zarur. Yoshlarning maʼnaviy-mafkuraviy immunitetining yuksalib borishi har xil zararli gʻoyalarning oldini olishda muhim ahamiyatga ega. Bugungi global oʻzgarishlar davrida bunga eʼtibor berish psixologiya sohasidagi ustuvor vazifalardan biri boʻlib qolmoqda.

Aytish joizki, muhtaram Yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyevning donolik bilan aytgan quyidagi mulohazalari tarbiya va jamiytdagi shart-sharoitli muhitning uygʻunligi bugungi kun yoshlarining ruhiy holati va kelajak kamolotida muhimligini ifoda etadi: “Biz taʼlim va tarbiya tizimining barcha boʻgʻinlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni oʻzimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz. Yosh avlod tarbiyasi haqida gapirganda, Abdurauf Fitrat bobomizning mana bu fikrlariga har birimiz, ayniqsa, endi hayotga kirib kelayotgan oʻgʻil-qizlarimiz amal qilishlarini juda-juda istardim: “Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand boʻlishi, baxtli boʻlib, izzat-hurmat topishi, jahongir boʻlishi yoki zaif boʻlib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, eʼtibordan qolib, oʻzgalarga tobe va qul, asir boʻlishi ularning ota-onalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bogʻliq”. Qarang, qanday bebaho, oltinga teng soʻzlar!

Bugungi kunda yon-atrofigimizda diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, “ommaviy madaniyat” degan turli balo-qazolarning xavfi tobora kuchayib borayotganini hisobga oladigan boʻlsak, bu soʻzlarning chuqur maʼnosi va ahamiyati yanada yaqqol ayon boʻladi. Haqiqatan ham, hozirgi vaqtda yoshlar tarbiyasi biz uchun oʻz dolzarbligi va ahamiyatini hech qachon yoʻqotmaydigan masala boʻlib qolmoqda”<sup>2</sup>. Oldimizda turgan keyingi oʻn yillikni pragnoz qildigan boʻlsak, barcha sohalar kabi taʼlim-tarbiya sohasida ham katta oʻzgarishlar kutilmoqda. Tajribalar shuni koʻrsatayaptiki, fan-texnika va ilmiy

---

<sup>1</sup>Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 19-sentabr kuni BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida soʻzlagan nutqidan. // “Xalq soʻzi”, 2017 yil 20 sentabr.

<sup>2</sup>“Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini taʼminlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi”. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bagʻishlangan tantanali marosimdagi maʼruzasidan. // “Xalq soʻzi”, 2016 yil 8 dekabr.

taraqqiyot yutuqlari ishlab chiqarish bilan birgalikda amaliyotga tadbiiq etilishi yuqori samara va muvaffaqiyatga erishishning kaliti bo`lib xizmat qilmoqda.

Dual ta`lim – bu ta`limni o`z yo`nalishiga mos tashkilot, muassasa yoki korxonada mehnat qilish bilan birga olib boriladigan ta`lim tizimidir. Dual ta`limni tashkil etish uchun mas`ul mutasaddi hokimliklar va manfaatdor vazirliklar tomonidan kerakli kadrlariga bo`lgan ehtiyoji doimiy ravishda monitoring qilib boriladi va aniqlangan ma`lumotlar orqali taklif (kvota)lar shakllantiriladi. Psixologiya yo`nalishida mutaxassis kadrlar tayyorlaydigan ta`lim muassasalari belgilangan kvotalar asosida talabalarni qabul qiladi. Oliy ta`lim muassasalari psixologiya sohasi bo`yicha kadrlarga ehtiyoji bo`lgan korxonalar, tashkilotlar hamda muassasalar bilan, shuningdek, talaba va ish beruvchi o`rtasida ham shartnomalar tuziladi. Endilikda oliy ta`lim muassasalarida xorijda sinovdan o`tgan va yuqori samaradorlikka erishgan, o`ziga xos, milliy ta`lim tizimining jozibadorligini ta`minlash prinsiplari amaliyotga joriy etiladi. Yoshlarning mehnat orqali hayotda o`z o`rnini topishiga asos bo`ladigan yangi kasblar, standartlar tuzilmasining tubdan yangilangan shakllari ish beruvchilar talabi asosida qayta ishlab chiqiladi.

Ayni paytda, oliy ta`lim tizimi oldida o`quv adabiyotlari, kitob va darsliklar, elektron ta`lim resurslari, innovatsion, raqamlashtirilgan ta`lim texnologiyalarini to`liq yangilash, ochiq elektron resurslar tarmog`iga ulash, o`quv adabiyotlarini xorijiy davlatlardan olib kelish, qayta ishlash, chop etish va tarqatish, kelajak kutubxonalari va auditoriyalarini yaratish kabi muhim vazifalar turibdi. Ta`lim dasturlarida mavjud ish o`rinlariga mos kasbiy-amaliy ko`nikmalarni shakllantirish, rus, ingliz tillarini mukammal o`rgatish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga alohida e`tibor qaratiladi.

Ta`lim tizimi uchun psixolog kadrlar tayyorlashda oliy talim muassasalari bilan barcha bo`g`indagi ta`lim muassasalarining o`quv jarayonlarini o`zaro bog`lash natijasida ikki yoqlamli dual ta`limda talabalarni mehnat faoliyati ishtirokchisiga aylantirish orqali ta`limning ishlab chiqarish bilan bog`liq amaliy qismini muassasa (korxonalar, tashkilot)larda hamda nazariy va o`quv-amaliy qismini oliy ta`lim muassasalarida tashkil etiladi. Hududlarda psixolog kadrlarga bo`lgan ehtiyojlarini hisobga olgan holda ushbu soha yo`nalishlarida kadrlarini tayyorlash tizimini takomillashtirib borishni taqazo etadi. Malakali mutaxassislar bilan ushbu ehtiyojlarini tizimli ravishda qondirib borish maqsadida ta`lim dasturlarini mehnat faoliyati bilan uyg`unlashgan holda amalga oshiradigan yangi kompetensiyalarni shakllantirish, ta`lim muassasalarining o`zaro hamkorlik formatlari va modellarini ishlab chiqish, ish beruvchilarning talablari va ularda sodir bo`layotgan yangilanishlar asosida takomillashtirib boorish, kadrlarni tayyorlash va ta`lim dasturlarini amalga oshirishni moliyalashtirish kabi bir qator vazifalarni yuklaydi. Har bir hududning o`ziga xos investitsion jozibadorligini va mehnat bozorida psixolog kadrlarga bo`lgan talab va takliflarni inobatga olgan holda dual ta`lim jarayonini amalga oshirish hamda iqtisodiyotning real sektorlarida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib, yangi innovatsion loyihalarni ishlab chiqa oladigan qobiliyat va layoqatlarga ega bo`lgan kadrlar tayyorlash bugungi kunning dolzarb masalasi ekanligini hech kimga sir emas.

Yoshlarni, ayniqsa maktab bitiruvchilarni kasb-hunarga yo`naltirish, ularni kejakda o`z hayot yo`llarini topishlarida kerakli maslahat, tavsiya va yo`nalishlar berish psixologiya sohasi muaxassislarining vazifasidir. Zero, kasb-hunarga ega bo`lish har bir shaxs uchun zarur ehtiyojlardan biri ekanligini buyuk bobokalonlarimiz o`zlarining durdona asarlarida aytib o`tganlar. Jumladan, Kaykavusning “Qobusnoma” asarida shunday deyilgan: “Bas, aqling bo`lsa hunar o`rgang`il, nedinkim hunarsiz aql – boshsiz tan, suratsiz badandekdur... Ey farzand, ogoh bo`lki, kishi hsmisha foydasiz bo`lur va hech kishiga naf ep ko`rmas”<sup>3</sup>. Shuningdek, bugungi kunda ta`lim tizimida faoliyat olib borayotgan psixologlar har bir shaxsning o`ziga xos – individual ekanligini hisobga olgan holda, o`sib kelayotgan yosh avlodning iste`dod va qobiliyatlarini erta aniqlashi va ularga tegishli ko`rsatmalar berib borishi zarur. Tadqiqotchi K.M. Gurievichning differensial psixologiya va psixodiagnostika nomli monografiyasida Platonning quyidagi so`zlari keltirib o`tilgan: “...Odamlar o`zaro tengdirlar, lekin ular majburiyatlariga munosabatlarida bir xil emasdirlar, ular qobilyatlari jihatidan har xildirlar – bir xillari boshqarish uchun tug`ilganlar, boshqalari yordamlashishga, yana bir boshqalari – dehqonchilik, hunarmandchilik uchun yaratilgandirlar. Ularni hammasini... tilla, kumush, mis va temir kabi farqlash mumkin”<sup>4</sup>. Demak, insonlarda imkoniyatlar va individual farqlar turli ko`rinishga ega.

Xulosa qilib aytganda, ta`lim tizimi uchun psixolog kadrlarga bo`lgan talabning yuqoriligini hisobga olgan holda, etuk malakali psixologiya sohasi mutaxassislararini tayyorlash jarayoniga kadrlar buyurtmachilarini faol jalb etish lozim. Va ta`lim muassasalari o`rtasidagi o`zaro tarmoq hamkorligining shakl va uslublarini takomillashtirish maskur soha rivojiga katta hissa qo`shadi albatta. Shu bilan birga, dual ta`lim dasturlari asosida tayyorlanayotgan bitiruvchi kadrlarni baholashda ish beruvchi tomonning ishtirokini yanada kengaytirish ta`limni adolatli va shaffof baholashda yana bir muhim omil bo`lib xizmat qiladi.

## **ТАЛАБАЛАРДА КАСБИЙ МАСЪУЛИЯТ ШАКЛЛАНИШИНИ РЎЎБГА ЧИҚАРИШ ИМКОНИАТЛАРИ**

**Турахонов А.Э. – Сурхондарё вилояти халқ таълими ходимларини қайта  
тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази, катта  
ўқитувчиси**

**Аннотация.** Мазкур мақола талабаларда касбий масъулият шаклланишини руёбга чиқариш имкониятлари мавзусига бағишланган. Шунингдек, мақолада касбий масъулият феномени ва унинг ўзига хосликлари, касбий масъулиятни шакллантириш юзасидан илғор психологик тадқиқотлар таҳлили, талабалик даври ва унинг психологик хусусиятлари, касбий масъулиятни таъминловчи психологик омиллар каби масалалар ҳам кенг ёритилган.

<sup>3</sup>Кайкавус “Qobusnoma”.:–Т. // 1994. 26 б.

<sup>4</sup>Гуревич К.М. Дифференциальная психология и психодиагностика.:– М.:, 2008. – 224 с.

**Калит сўзлар:** Талаба, касб, касбий масъулият, психологик тадқиқотлар, касбий кўникмалар, динамизм тамойили, истиқболлилик тамойили, кўп қирралилик тамойили, мулоқот кўникмалари, таълим.

## **ВОЗМОЖНОСТИ ФОРМИРОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ ДЛЯ СТУДЕНТОВ**

**Турахонов А.Э. – Старший преподаватель, Сурхандарьинский областной центр переподготовки и повышения квалификации учителей народного  
Образования**

**Аннотация.** Данная статья посвящена возможностям осознания студентами профессиональной ответственности. В статье также рассматривается феномен профессиональной ответственности и его специфика, анализируется перспективное психологическое исследование формирования профессиональной ответственности, студенческий период и его психологические особенности, психологические факторы, обеспечивающие профессиональную ответственность.

**Ключевые слова:** студент, профессия, профессиональная ответственность, психологическое исследование, профессиональные навыки, принцип динамизма, принцип перспективности, принцип универсальности, коммуникативные навыки, образование.

## **OPPORTUNITIES FORMING PROFESSIONAL RESPONSIBILITY FOR STUDENTS**

**Turakhonov A.E. – Senior lecturer, Surkhandarya regional center for  
retraining and advanced training of teachers of folk education**

**Annotation.** This article is devoted to the possibilities of students' awareness of professional responsibility. The article also examines the phenomenon of professional responsibility and its specificity, analyzes a prospective psychological study of the formation of professional responsibility, the student period and its psychological characteristics, psychological factors that ensure professional responsibility.

**Key words:** Student, profession, professional responsibility, psychological research, professional skills, principle of dynamism, principle of perspective, principle of universality, communication skills, education.

Масъулиятлилик хусусияти талабаларда касбий фаолиятни ривожлантирувчи ва рағбатлантирувчи психологик омиллардан бири саналиб, унда талабалар шхасига хос ўзига хос характерологик хусусиятлар яъни маънавий-ахлоқий баркамоллик, фидойийлик, ҳаётий қадриятларга содиқлик, ижтимоий онглилик, ўзини ўзи назорат қилиш, бурч ва мажбуриятларни оқилона англаш каби психологик сифатлар мужассамдир. Қоидага кўра, мазкур сифтларни шакллантириш талабанинг ўз соҳасига бўлган мотивацион

муносабатларини ривожлантириш билан ҳам характерланади. Бизнингча, талабалар шахсида ўқув фаолиятига нисбатан масъулиятлиликни руёбга чиқариш имкониятлари авваламбор, таълим муҳитида ўқув машғулотларини самарали ташкил этишдан бошланади. Машғулотларнинг мураккаблик характери ҳам талабаларнинг ақлий, ҳиссий иродавий, коммуникатив соҳаларининг ривожига ҳам кенг таъсир этади. Шу жиҳатдан қаралганда, мазкур масала психологик жиҳатдан ўрганиш ўта муҳим ишлар туркумидан бири саналади. Қуйида касбий масъулиятлилик борасида айрим тадқиқотчиларнинг фикр-мулоҳазаларига тўхталиб ўтишга ҳаракат қиламиз.

Л.И.Дементийнинг айтишича, талабаларда касбий масъулиятни руёбга чиқариш ишлари, уларда қуйидаги кўникмаларни ривожлантириш орқали амалга оширилади<sup>5</sup>:

- Атрофдагилар билан эркин мулоқот қила олиш кўникмалари;
- Замонавий ахборот технологияларидан самарали фойдалана олиш малакалари;
- Соҳага оид маълумотлар базасига эга бўлиш;
- Иқтисодий ва соҳадаги янгиликлардан хабардорлик;
- Таълим тўғрисидаги қонунлар, фармонлар ҳамда тегишли вазирликларнинг буйруқ ва ҳужжатлари мазмунидан хабардорлик;
- Хориж тилларидан бирини мукамал билиш;
- Бошқаларни ўзгартиришга нисбатан психологик тайёргарлик ва ҳоказо.

Бундан ташқари, касбий фаолиятдаги масъулиятлилик мезонлари ихтиёрий фаолиятнинг икки жиҳатини қамраб олиши таъкидланган.

В.М.Борцова ўз тадқиқотларида, ўқув фаолиятида талабаларда масъулият ҳиссини руёбга чиқарувчи психологик шарт-шароитларнинг уч муҳим жиҳатини ажратади<sup>6</sup>:

1. Умумий илмий ёки фундаментал жиҳат – мазкур жиҳат талабаларнинг табиий-гуманитар фанлар бўйича билимларини, компьютер билан ишлашга оид касбий тажрибаларини назарда тутати;

2. Ижтимоий-шахсий ва коммуникатив – ушбу жиҳат талабалар учун муҳим саналган танқид қилишга қобилиятлилик, бағрикэнглик, жамоада ишлаш қобилияти кабилар билан тушунтирилади;

3. Ташкилий ва бошқарув хусусиятли жиҳат бу – талабаларда шаклланган ишларни режалаштириш ва уларни бажариш, назарий ва амалий билим ҳамда кўникмаларни амалиётда қўллаш олиш қобилияти, соҳага оид турли илмий адабиётлардан олинган маълумотларни таҳлил қила олиш кўникмалари, ўзгарувчан шарт-шароитларга тез мослаша олиш малакалари кабилар билан тавсифланади. Демак, масъулиятли учун касбий фидоийлик ва унинг психологик таркибий қисмлари ўта муҳим саналади. В.А.Адольфнинг эътироф этишича, талабаларни малакасини оширишга ихтисослашган дастурлар икки муҳим тамойил асосида иш юритиши лозим ҳисобланади. Яъни

<sup>5</sup>Дементий Л. И. К проблеме меры ответственности / Л. И. Дементий // Личность. Культура. Общество. - 2004. - № > 3 (№ 23). - С. 264 - 274.

<sup>6</sup>Борцова М. В. Факторы становления начальных форм ответственности личности: теоретический аспект: Монография / М. В. Борцова. - Славянск-на-Кубани: Издательский центр СГПИ, 2007. – С.58.

мазкур тамойиллар умумий ва махсус турга ажаратилиб, у ўз мазмунида қуйидагиларни мақсад қилади<sup>7</sup>:

1. Динамизм тамойили – бу таълим дастурларини доимий ўзгартириб бориш ва янгилаб туришни назарда тутати;

2. Истикболлилик тамойили – бу талабалар томонидан турли хил таълим имкониятлари тизимини чуқур тушунишларини характерлайди;

3. Кўп қирралилик тамойили – бу талабаларнинг юқори қизиқишлар кўламини ва талабаларнинг малакаси кабиларни ўз ичига олади;

4. Ўзаро таъсирлашиш тамойили – бу талабалар ва талабаларнинг ўзаро муносабатлари ҳамда ўқувчи – ўқитувчи ўртасидаги мулоқот жараёни кабилар билан тавсифланади.

Муаллиф назарича, ўзаро таъсирлаша олиш қобилияти ўқитувчини талабалар томонидан тез қабул қилинишининг муҳим омилларидан бири саналади. В.А.Исаевнинг мулоҳазасига кўра, касбий компетенцияга асосланган ёндашувларнинг мазмунига кўра, бўлажак талабаларда касбий масъулият ҳиссини ривожлантириш фақат ўқитиш орқали эмас, балки услубий ва янги педагогик технологиялар ёрдамида амалга оширилади. Бунинг учун аввало, ўқитиш муҳитида психологик ва педагогик шарт-шароитларни яратиш муҳимдир. Мазкур шартларга қуйидагилар киради<sup>8</sup>:

1. Машғулотларда ўқитувчининг ролини ўзгартириш – бунда дастлаб ўқитувчи билимларни етказиш вазифасини бажаради, ўқувчиларга назарий маълумотларни тушунтиради ёки талабаларнинг шахсий ривожланишига ҳисса қўшадиган актёр ролини бажаради;

2. Талабаларнинг касбий фаолиятини рағбатлантирадиган инновацион усулларини жорий этиш. Бу ўқитувчининг тажриба тўплаши ва алмашиши, ишдаги қийинчиликларни энгиш ва ижодий лойиҳалаш каби қобилиятлар орқали тушунтирилади;

3. Талабалар касбий компетенцияларининг кўплаб элементларига ва уларнинг индивидуал хусусиятларини такмоллаштирадиган ўқитиш усулларидан фойдаланиш. Бундай усулларга қуйидагилар киради: ижобий хатолар усули, ижодий-муаммоли, ўйин шаклидаги усуллар, ролли мослашишларни ўрганиш техникаси, ғояларни намойиш қилиш ва лойиҳалар методлари ва ҳоказо;

4. Талабаларнинг турли хил касбий ва ҳаётий шарт-шароитларига эътибор бериш, таълим мақсадлари ва меҳнат бозорида қўлланилиши мумкин бўлган вазиятлар ўртасидаги боғлиқликни амалга ошириш;

5. Ўқув жараёнида олинган тажрибаларнинг ўзига хос хусусиятларига мос келадиган ва маълум бир кишига хос бўлган индивидуал ривожланиш хусусиятларини таъминлайдиган ҳамда тезкор баҳолаш операцияларидан фойдалана олиш ва ҳоказо. Шундай қилиб, биз касбий ваколатларни ривожлантириш мақсадни белгиловчи таркибий қисм сифатида ҳаракат

<sup>7</sup>Адольф В.А. Формирование профессиональной компетентности будущего учителя Текст. / В.А. Адольф // Педагогика. 2004. - № 1. - С.72 -75.

<sup>8</sup>Исаев В.А. Психолого-педагогические основы методики преподавания учебных дисциплин в высшей школе : учеб. пособие. – Чита: ЧитГУ, 2013. – С.67.

қилишини ва ўзига хос психологик-педагогик ҳолатларни шакллантиришда амалга оширилишини кузатишимиз мумкин. Талабалар шахсига хос касбий яроқлилик кўплаб муаллифлар томонидан ўрганилган ва уларни турли нуқтаи - назардан кўриб чиқиш мумкин. В.А.Толочекнинг айтишича, касбий масъулиятлиликнинг психологик жиҳатларини қадриятли, технологик ва шахсий-ижодий кўринишда таҳлил этиш ҳам мумкин. Талабанинг қадриятлари тизми аввало, фалсафа фанининг ўрганиш масалаларидан бири санади. Унда қадриятлар тушунчаси мазмунига оид барча турдаги саволлар кўриб чиқилади<sup>9</sup>. Моҳиятан, қадриятлар инсон ҳаёти ва фаолиятининг ҳаракатлари йўналишини ва мотивациясини белгилайди. Ҳар бир талабанинг ўз қадриятлари тизими бор, у баъзиларда тушунарсиз бўлиши мумкин, бошқаларда эса, тушунарли ва англаб олинган бўлади. Инсон учун қадриятли бўлган нарса бу у учун алоҳида аҳамиятга эга бўлган ёки ҳатто фойда келтирадиган нарсадир. Ҳар қайси соҳада соғлом қадриятлар билан самарали ҳаракат қилиши мумкин: у нарса ёки объект, вазият ёки ҳодиса, ҳаракат ёки сўз, ҳис-туйғулар, ҳис-туйғулар ва ҳатто инсоннинг ўзи бўлиши мумкин. Н.В.Корепановага кўра, касбий масъулиятлилик феноменини тушунтирувчи куйидаги психологик компонентлар мавжуд<sup>10</sup>:

- Адолатлилик;
- Чидамлилик;
- Маълумотларга сезгирлик;
- Муносиблик;

– Ўқув топшириқларини бажаришдаги ижодкорлик, режалилик ва тартиблилик. Демак, касбий муносиблик келажакда бўлажак мутахассисларнинг таълим муҳитида самарали фаолият олиб боришга тайёрлиги билан тушунтирилади. Мазкур сифат меҳнат шароитида вазифаларини қафолатли ва самарали бажарилишини таъминлайди. М.В.Борцованинг таъкидича, фаолиятда масъулиятлиликни белгиловчи куйидаги умумпсихологик хусусиятлар мавжуд<sup>11</sup>:

- Аналитик фикрлаш усули;
- Ҳиссий барқарорлик;
- Стрессга чидамлилик ва экстремал шароитларга тез мослашиш;
- Муносабатларга қартилган компетенция;
- Юқори даражада ривожланган рефлексия ва ҳоказо.

Юқорида келтирилган барча психологик сифатлар, бўлажак мутахассислар учун келгуси фаолиятининг самарадорлигини таъминловчи психологик омиллар саналиб, уларсиз амалиётда ҳеч қандай муваффақиятларга эришиб бўлмайди. Демак, барча даражалардан ўтган ва ўқув фаолиятини муваффақиятли ташкил эта олган фаол талабани, ўз

<sup>9</sup>Толочек В.А. Профессиональная успешность: от способностей к ресурсам (дополняющие парадигмы) / В.А. Толочек // Психология. Журнал Высшей школы экономики. - 2009. - № 3. - С. 27-61.

<sup>10</sup>Корепанова Н. В. Профессионально-личностное становление и развитие педагога Текст. / Н. В. Корепанова, И. М. Хакимзянова, О. И. Щербакова // Педагогика. 2003. - № 3. - С. 66 -71.

<sup>11</sup>Борцова М. В. Ответственность и факторы, определяющие ее развитие / М. В. Борцова // Информационный бюллетень Краевого учеб.-метод. центра по подготовке и повышению квалификации кадров культуры и искусства. -Краснодар, 2000. - С. 15-17.

соҳасининг мутахассиси деб ҳисоблашимиз мумкин. Бундай талабалар ҳамкасблари учун ҳар доим “намунали талаба” мақомида бўладилар. Юқори муваффақиятларга эришиш учун талабалар, ўз касбий фаолиятида ўзини кўра олиши ҳамда шу соҳа учун лозим бўлган билимларни пухта эгаллашга ҳаракат қилиши, айниқса, ўз амалий ва назарий компетенцияларини такомиллаштира боришлари мақсадга мувофиқ саналади.

Психологик талқинга кўра, ўқув фаолиятида ўзини ўзи бошқариш шахс хусусияти сифатида гомеостаз тамойили асосида намоён бўлади. Бу борада Ю.В.Ваданяннинг куйидаги фикри характерлидир: “биз доимо ўз ҳиссиётларимиз, ҳаяжонларимиз, эхтиросларимизни улар табиий равишда намоён бўлишидан қатъи назар, назорат қилиб туришимиз, жуда интенсив бўлиб кетганда қуюшқондан чиқиб кетмаслигимиз зарур ... шундай вазият бўладики, биз ўзимизни назорат қила олмаймиз ва ҳаддан ошиб кетганимизни ҳис этамиз”<sup>12</sup>. Кундалик фаолиятимиз ва турмуш тарзимизда инсонларнинг эмоцияларни қандай намоён этиши ва назорат қилишига қараб, уларни бир неча тоифаларга ажратиш мумкин. Эмоционал ҳолатларда ўзини ўзи назорат қилиш намоён бўлишининг индивидуал хусусиятлари шахснинг психологик портретини ташкил этади. Бу ҳақда Ю.П.Поваренков куйидагича, ёзади: “... агар инсон онгида рационаллик кучли бўлса, ўзига, шахсий камчилик ва ютуқларига оқилона назар ташлай олса, у ўзини ўзи назорат қила олади ёки бунинг акси, инсонда эмоциялар, аффект, ҳиссиётлар, ўзини ўзи севиш устунлик қилса, бу шахс ўзини бошқара олмайди”<sup>13</sup>. Одатда, эмоционал ҳолатларда ўзини ўзи назорат қилиши сусайган шахслар кўзгалувчанлик, майдакашлик, импульсивлик, мувозанатсизлик билан тавсифланади. Эмоционал соҳаси тез кўзгалувчан бўлганлар импульсив ҳаракатларни содир этишга ҳамда ўйламай қарор қабул қилишга мойил бўладилар. Импульсив шахслар мувозанатлашган ва ўзини ўзи бошқара оладиган шахсларнинг аксидир. А.Л.Гройсманнинг мулоҳазаларига кўра, талабанинг ижодий бўлишига тўсқинлик қиладиган баъзи ижтимоий-психологик тўсиқлар мавжуд<sup>14</sup>:

1. Шахсдаги заиф истаклар
2. Имкониятлардан этарли даражада фойдаланмаслик;
3. Ҳаддан ташқари хавотир;
4. Ҳаддан ташқари жиддийлик.

Муваффақиятга интилиш фазилати – мазкур фазилатсиз бугунги кун ёшларини тасаввур этиб бўлмайди. Яъни ўқув фаолиятидаги асосий эҳтиёжлардан бири бу инсоннинг ютуқларга бўлган интилишида ёки ўз-ўзини англаши, мақсадга эришиш каби эҳтиёжларида намоён бўлади. Таълим

<sup>12</sup>Вардарян Ю. В. Становление и развитие профессиональной компетентности педагога и психолога / Ю. В. Вардарян. М. 2003. – С.66.

<sup>13</sup>Поваренков Ю. П. Психологическое содержание профессионального становления человека / Ю.П. Поваренков, Ун-т Рос. акад. образ-я. М.: изд-во УРАО. 2002. – С.108.

<sup>14</sup>Гройсман А.Л. Личность. Творчество. Регуляция состояний /А.Л.Гройсман. М.: ИЧП «Издательство Магистр», 1998. – С.129.



муассасалари бўлажак мутахассисларга фақат касбий билим ва малакаларни берибгина қолмай, у қуйидаги функцияларга ҳам эга ҳисобланади:

– Ижтимоий функция - жамиятнинг тўлақонли ва тэнг ҳуқуқли аъзоси сифатида ижтимоий-касбий фаолиятни амалга ошириш имкониятини берадиган кадриятлар, нормалар ва билимларнинг маълум тизимини ўзлаштириш имкониятини яратиш;

– Иқтисодий функция – ўқув жараёнининг сифат таркибини такомиллаштириш, касбий фаолликни юксалтириш уни ишлаб чиқариш жараёни билан уйғунлаштириш;

– Психолог-педагогик функция - маълум касбни танлаган кишининг индивидуал хусусиятларини аниқлаш, шакллантириш ва инобатга олиш;

– Тиббий-физиологик функция - саломатлик ва алоҳида физиологик хусусиятларга нисбатан у ёки бу касбий фаолиятни амалга оширишда зарур бўладиган талабларни ҳисобга олиш ва бошқалар.

Юқоридаги фикрлардан шуни хулоса қилиш мумкинки, талабаларда касбий масъулиятни ривожлантириш ишлари қуйидаги вазифаларни мақсад қилиши лозим:

– Масъулиятлилики таъминлашга қаратилган қаратилган фаол ўқитиш усулларида фойдаланиш;

– Талабаларни университетнинг турли хил тарбиявий ишларига жалб қилиш, уларнинг турли хил ижтимоий ролларни бажаришига имкон бериш;

– Талабаларни жамоат ишлари, ҳамкорлик муносабатларига фаол иштирокини таъминлаш;

– Талабаларни таълим - тарбия жараёнига оид масалаларни ишлаб чиқиш ва уларни амалга ошириш ишларига жалб қилиш ва ҳоказо. Умуман олганда, жавобгарлик ҳиссининг шаклланиши нафақат ёшлиқдан балки, инсон вояга етганда ҳам динамик тарзда давом этаверади.

## **МАЛАКА ОШИРИШ ЖАРАЁНИДА КУРС ТИНГЛОВЧИЛАРИНИНГ КАСБИЙ КОМПЕТЕНТЛИГИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ МАСАЛАСИ**

**Ҳожибоев И.И. – Сурхондарё вилояти халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази ўқув ва илмий ишлар бўйича директор ўринбосари**

**Аннотация.** Мазкур мақола малака ошириш жараёнида курс тингловчиларининг касбий компетентлигини шакллантириш масаласи мавзусига бағишланган. Шунингдек, мақола матнида малака ошириш тизими ва унинг ҳозирги замон имкониятлари, касбий компетентлик тушунчасининг моҳият-мазмуни, касбий компетентлик шакллантиришнинг психологик жиҳатлари, касби-педагогик тайёргарлик каби масалалар ҳам кенг ёритилган.

**Калит сўзлар:** Малака ошириш, педагог, касбий компетентлик, компетенция, таълим, халқ таълими, касбий салоҳият, педагогик маҳорат, замонавий ўқитувчи.

## **ПРОБЛЕМА ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ КУРСОВ В ПРОЦЕССЕ ПОВЫШЕНИЕ КВАЛИФИКАЦИИ**

**Ходжибоев И.И. – Заместитель директора Сурхандарьинского областного центра переподготовки и повышения квалификации народного образования**

**Аннотация.** Данная статья посвящена формированию профессиональной компетентности слушателей курсов в процессе повышения квалификации. В тексте статьи также освещены система повышения квалификации и ее современные возможности, сущность понятия профессиональной компетентности, психологические аспекты формирования профессиональной компетентности, профессионально-педагогическая подготовка.

**Ключевые слова:** профессиональное развитие, педагог, профессиональная компетентность, компетентность, образование, народное образование, профессиональный потенциал, педагогические навыки, современный педагог.

## **THE PROBLEM OF FORMING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF COURSES IN THE PROCESS OF ADVANCING QUALIFICATIONS**

**Khodzhiboev I. I. – Deputy director of the Surkhandarya regional center for retraining and advanced training of public education**

**Annotation.** This article is devoted to the formation of professional competence of course trainees in the process of continuing education. The text of the article also highlights the system of advanced training and its modern capabilities, the essence of the concept of professional competence, psychological aspects of the formation of professional competence, professional and pedagogical training.

**Key words:** professional development, teacher, professional competence, competence, education, public education, professional potential, pedagogical skills, modern teacher.

Турли тоифадаги мутахассислар педагогик компетентлиги ва унга таъсир этувчи омилларни тадқиқ этишга, кейинги пайтларда қизиқиш анча кучайиб бормоқда. Бу борадаги қарашлар, фикр-мулоҳазаларнинг турли-туманлиги мазкур муаммо хусусида ҳозирча тизимлаштирилган, ягона концептуал модель яратишга имкон бермаяпти. Психологик ва педагогик адабиётларда “компетенция” ва “компетентлик” атамаларига турлича тавсифлар берилган.

А.А.Машиньян<sup>15</sup>нинг илмий изланишлари натижаларига кўра ушбу икки термига қўйиладиган изоҳ беради. Компетенция – маълум бир фаолият тури ёки аниқ бир тоифадаги вазифаларни амалга оширишдаги билим, кўникма, малакаларнинг тизимли йиғиндиси ҳисобланади. Компетенция педагогикада моҳиятига кўра олий даражада ривожланган кўникма, қобилиятлар тавсифи сифатида талқин этилади. Инсонларнинг маълум бир компетентликка эга бўлиши учун шу соҳага доир компетенцияларни эгаллаши талаб этилади. “Компетентлик” ва “компетенция” тушунчаларидан фойдаланишда дастлаб уларнинг моҳиятини ажратиш олиш лозим. Компетентлик шаклланивчи, ривожланивчи хусусият ҳисобланади, компетенция эса фаолият структураси сифатида ўзлаштирилади. Айрим ҳолларда тадқиқотчилар томонидан “компетенцияни шакллантириш, ривожлантириш” каби жумлалардан фойдаланиш ҳолатлари учрайди.<sup>16</sup> Бу маъно ва мазмун жиҳатдан хато ҳисобланади.

Компетенцияларни ўзлаштириш деганда, биринчидан фаолиятни ташқи структурасини ўзлаштириш тушунилса, иккинчи томондан фаолиятнинг туб моҳиятини ташкил этувчи элементар билим, кўникма, малакаларни чуқур эгаллаш тушунилади.

Ҳозирда замонавий ўқитувчидан таълим тизимига қўйилаётган янги-янги талабларга жавоб бериши, уларнинг мазмун-моҳиятини тўғри англаши, ўқувчиларни психологик, педагогик қўллаб-қувватлаш учун турли воситаларга (метод, методика, техникалар) эга бўлишлари лозим. Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирлигининг 2018 йил 29 декабрдаги “Халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш ишларини янада такомиллаштириш тўғрисида”ги 334-сон буйруғига кўра малака ошириш курсини тамомлаган тингловчилар келгуси фаолиятда назарий билим ва амалий кўникмаларни қўллаш олиш, фанни ўқитиш, педагогик ва ахборот коммуникация технологияларига оид компетенцияларга эга бўлиши кераклиги белгиланган.

Малака ошириш жараёнида ўқитувчилар эҳтиёжини таҳлили уларнинг ўқув жараёни ҳамда ўқувчиларни психологик ва педагогик қўллаб-қувватлаш борасида етарлича кўникмаларга эга эмасликлари, таълим-тарбия сифатини ошириш бўйича мактаб маъмурияти ҳамкасблари, психологлар ва ота-оналар жамоаси билан ҳамкорликда фаолият олиб бориш қобилиятига эга эмаслигини кўрсатди.<sup>17</sup>

Бугунги кунда инсоннинг ўз касбий салоҳиятига тўғри баҳо бера олиши жуда муҳим. Малака ошириш таълимининг ҳам бугунги кундаги энг долзарб вазифаларидан бири бу мутахассисларда ўз касбий билим ва салоҳиятига танқидий руҳни шакллантириш, ўз устида ишлашга бўлган интилишни таркиб

<sup>15</sup> Адрес статьи: [pnojournal.wordpress.com/archive/15/15-05/](http://pnojournal.wordpress.com/archive/15/15-05/) Дата публикации: 1.11.2015  
удк 373)1 С. 43-46. А. А. Машиньян, Н. В. Кочергина

<sup>16</sup> <https://journal.fledu.uz/uz/horizhij-tillarni-%D1%9E%D2%9Bitishda-badiij-adabiyotdan-fojdanish-reproduktiv-kompetencziyani-shakllantirish-omili-sifatida/>

<sup>17</sup> Морева Н.А. Основы педагогического мастерства. Практикум. М., 2006. – С.89.

топтиришдир. Ушбу жараённи қуйидаги психологик механизмлар орқали амалга ошириш мумкин:

– Мутахассисдаги мавжуд касбий кўникма, малака ва янги касбий талаблар ўртасидаги номутаносибликларни бартараф этиш;

– Ўз аҳамиятини йўқотган, замон талабларига мос бўлмаган касбий установка, дунёқарашни ўзгартириш;

– Ўз-ўзини касбий ривожлантириш, касбга доир қобилиятларини намоён этишга нисбатан мотивациянинг мавжуд бўлиши ва ҳ.к.

Ушбу механизмлар малака ошириш курсларининг энг муҳим устувор йўналишларини аниқлашга асос бўлиб хизмат қилади. Замонавий педагогика психологияда “ўқитувчининг касбий компетенцияси” ва унинг таркибий қисмлари турлича талқин этилади.

А.К.Марковага кўра касбий компетентли педагог юқори даражада педагогик фаолият, педагогик мулоқот олиб бора олади, шунингдек ўқувчилар таълим-тарбиясида ҳам аъло натижаларга эриша олади. Шу билан бирга педагогнинг компетентли эканлиги унинг касбий билим, малака даражаси ва касбга бўлган муносабати, психологик сифатларининг ўзаро уйғунлиги билан ҳам белгиланади.<sup>18</sup>

Н.В.Кузминанин<sup>19</sup> фикрича, ўқитувчи замон билан ҳамнафас бўлиб юриши учун, ундаги компетентлик сифатлари қуйидаги беш таркибий қисмдан иборат бўлиши лозим:

1) дарс берадиган ўз фани соҳасида махсус ва касбий компетенция;

2) ўқувчилар билим ва кўникмаларини шакллантиришга доир услубий компетенция;

3) мулоқотга доир ижтимоий-психологик компетенция;

4) ўқувчиларга мотив бериш, уларни қобилият ва йўналишларини бошқаришга оид дифференциал-психологик компетенция;

5) ўз касбий ва шахсий сифатларига баҳо беришга оид аутопсихологик компетенция. Шу билан бирга А.К.Маркова ўқитувчи касбий компетентлигини тўрт таркибий қисмга ажратади:

– Касбий психологик ва педагогик билимлар;

– Касбий-педагогик кўникма;

– Касбий установкалари ва ҳоказо.

Бизнингча, ўқитувчининг касбий билим ва кўникмалар эгаллашига асос бўлувчи шахсий сифатлари қуйидагиларда ўз аксини топади:

А) педагогик фаолият (технология);

Б) педагогик мулоқот (ижтимоий муҳит);

В) шахслилик (қадриятлар йўналганлиги, ички руҳий олами);

Г) ўқувчиларнинг таълим, тарбий олганлик даражаси.

<sup>18</sup> Маркова А.К. Психологический анализ профессиональной компетентности учителя // Советская педагогика. - 1990. - № 8. - С.82-88

<sup>19</sup> Кузьмина Н.В. Специалисты — субъекты изучения продуктивности своей деятельности (в свете акмеологической теории фундаментального образования) // Акмеология-2005. Методологические и методические проблемы. СПб.: Изд-во ЦСИ, 2005. - С.78.

Тадқиқотчи А.К.Маркованинг фикрича, ўқитувчи меҳнатига ўқувчиларнинг психик ривожланишига қараб баҳо бериш лозим. Ўқитувчининг болаларга психологик таъсир эта олиш имконияти бирламчи восита вазифасини бажарсагина, ижобий натижага эришиш мумкин.

Таъкид жоизки, Сурхондарё вилояти халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий марказида малака ошириш курси ишчи ўқув дастурлари юқорида келтирилган талаблар асосида мунтазам янгиланиб боради. Асосий эътибор, тингловчиларнинг нафақат хабардорлигини ошириш, балки янги методика, технологияларни амалда қўллаш олиш қобилиятларини ривожлантиришга қаратилади. Малака ошириш курси ишчи ўқув дастурлари фанга ойда, психологик, педагогик, умуммаданий тайёргарлик, ижтимоий-иқтисодий ўзгаришларга мослашувчанлик қобилиятларини шакллантириш каби узлуксиз таълим тамойилларига асосланган ҳолда ишлаб чиқилади. Марказда малака ошириш курслари ташкил этишда асосий эътибор халқ таълими ходимларининг касбий ривожланишига қаратилган.

Тадқиқотчилардан И.Я. Лернер<sup>20</sup>, В.В. Краевский<sup>21</sup>, А.В. Хуторскийлар<sup>22</sup> ўз изланишларида “педагогик компетентлик”нинг умумий тузилмаси ва унинг муҳим таркибий қисмлари таснифлашга ҳаракат қилишган. Яъни уларга :

- Когнитив (педагогик ва махсус билимларга эга бўлиш);
- Технологик (педагогик ҳамкорлик ва фанни ўқитишга доир метод, технология, қобилиятларнинг мавжудлиги);
- Шахслик (шахс, психологик, ахлоқий хусусиятлар, установкалар).

Мазкур таснифда компетенциянинг таркибий қисмлари назарий билимлар, технологиялар, кадрлар асосида ўзвара бир-бирига ўзаро боғланган саналади. Ўқитувчининг ўз педагогик ва фанга оид махсус билимларини ошириб бориши мустақил ўқиб-ўрганиш, турли шаклдаги малака ошириш курсларида иштирок этиш, конференция, давра суҳбатларида иштирок этиш орқали амалга ошади. педагогик ҳамкорлик ва фанни ўқитишга доир метод, технология, қобилиятлар эса ихтисослашга амалий машғулот, ишчанлик ўйинлари, тренингларида иштироки орқали ривожланиб боради. Методист, ўқитувчи ёки бошқа тегишли масъуллар учун энг мураккаб вазифа педагогларнинг тегишли шахс сифатларини ривожлантириш учун муносиб шарт-шароит яратишдир. Четдан туриб ўқитувчининг касбга бўлган муносабати, мотивациясини шакллантириш мумкин эмас, бунга фақатгина уни қўллаб-қувватлаш, шарт-шароит яратиш, рағбатлантириб бориш орқали эришиш мумкин.

Узлуксиз таълим тизимида асосий эътибор мутахасиснинг шахс сифатларини ривожлантиришга қаратилиши керак. Чунки касбий соҳада ўз олдига тўғри мақсад қўя олиши, ўзгаришларга онгли муносабатда бўлиши педагогнинг ривожланишдаги ҳар қандай тўсиқларни енгиб ўтишини таъминлайди. Компетенцияга оид шахсий сифатлар қуйдаги кўрсаткичлар билан ифодаланида:

<sup>20</sup> Лернер И. Я. Философия дидактики и дидактика как философия. М., 1995.– С.101.

<sup>21</sup> Краевский В. В., Бережнова Е. В. Методология педагогики: новый этап. - М., 2006. – С.91.

<sup>22</sup> Хуторской А. В. Педагогика: Учебник для вузов. Стандарт третьего поколения. - СПб.: Питер, 2019. – С.212.

– Асосий эътиборини таълим-тарбияга қаратиш ва касбий ривожланишга қизиқиш;

– Таълим технологияларини фаол ва мақсадли қўллашга нисбатан кучли мотив;

– Мустақиллик, қатъиятлилик;

– Танқидий тафаккур;


– Ижтимоий ҳамкорликка тайёрлик ва бошқалар.

Малака ошириш курси амалий машғулотларини ишлаб чиқишда, тингловчиларнинг таълим ва касбга оид муаммоли вазиятларни аниқ ва объектив баён этиш, мақсад ва вазифаларни тўғри режалаштириш, ҳар бир модул якунида ўз-ўзини бошқариш, эришган натижаларига муносиб баҳо бера олишларига алоҳида эътибор қаратилади. Бундан ташқари, малака ошириш курслари ўқув машғулотларида турли интерактив, тингловчиларни мустақил ишлаш, ташаббус кўрсатишга ундовчи методлардан фойдаланилади. Бироқ айрим тоифадаги, изини намойиш этишни истамайдиган, тайёр услубий махсулотларни маълумот учун олишни истовчи тингловчилар ҳам учрайди. Шунингдек, машғулот ўтувчи профессор-ўқитувчилар орасида ҳам тингловчиларнинг юқори даражада фаол бўлмаслиги, монологик маъруза ўқишни афзал кўрувчилари ҳам учраши мумкин.

Фикрларимизнинг исботи сифатида, Сурхондарё вилояти халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази тингловчилари касбий компетентлигини шакллантириш омилларини тадқиқ этиш учун, “Ўз-ўзини баҳолаш” сўровномаси орқали эмпирик тадқиқот ўтказилди. Ўтказилган сўровнома натижаларига кўра, 79,2 фоиз тингловчилар бугунги кунда касбий ривожланишнинг нақадар аҳамиятли эканлигини англаганликлари ҳамда ўз шахсий ва касбий сифатларига нисбатан ҳолис, танқидий муносабатда бўлишликлари кабилар аниқланди. Халқ таълими вазирлигининг 2018 йил 29 декабрдаги “Халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш ишларини янада такомиллаштириш тўғрисида”ги 334-сон буйруғига кўра, педагогларнинг амалий кўникмаларини ривожлантиришга кўпроқ эътибор қаратилиб, малака ошириш курслари ўқув режасига биноан бугунги кунда жами аудитория соатининг 82 фоизини амалий машғулот, тренинглар ташкил этади. Бу ўз навбатида қисман бўлсада, педагогларда қисқа муддатда энг зарур бўлган касбий компетенцияларни шакллантириш, ривожлантириш, уларни замонавий билим ва кўникмалар билан қуроллантириш имконини беради. Амалий машғулот ва тренингларнинг дидактик восита сифатидаги самараси реал педагогик вазиятларни моделлаштириш, педагогик тафаккурни ривожлантириш, болалар ва ўз ички дунёси, имкониятларини тўғри идрок этиш учун шарт-шароит яратиши билан белгиланади. Амалий машғулотлар ва психологик тренинглар натижасида, тингловчи педагог ходимларда ўз касбий компетенциясини ривожлантириш, ўз устида ишлаш қобилияти, касбга нисбатан кучли рағбат ҳисси каби қобилиятларни ривожлантириш табиий ҳолдир. Зеро, катталар таълимида мустақил ўқиб-ўрганишга бўлган иштиёқ муҳим аҳамиятга эгадир. Тадқиқот ишимизда малака ошириш дастурларининг қай даражада тингловчилар

мақсадига мос эканлиги, курс якунида ўтказилган сўровнома натижасида аниқланди. Тингловчилар курс бошланиши ва якунида компетенция даражаси ўзгарганлигини сўровнома орқали ўзлари белгилайдилар. Агарда мазкур масала юзасидан республикамиз малака ошириш тизимида кенг қамровли психологик тадқиқотлар олиб борилса, у ҳолда халқ таълими тизимида малака ошириш ишлари билан боғлиқ кўплаб муаммоларнинг бартараф этилиши ёки малака ошириш тизимини психологик жиҳатдан такомиллаштириш масаласи кабиларнинг ҳал этилиши эҳтимолдан ҳоли эмас.

### **Ўз-ўзини баҳолаш сўровномаси натижаларига тингловчи ходимларнинг касбий компетентлик кўрсаткичлари**



Шунингдек, сўровнома натижаларига кўра, курс якунида педагоглар касбий компетентцияси кўрсаткичлари сезиларли даражада ошган. Курс бошланишида 42% синалувчилар ўртача компетенция кўрсаткичини қайд этган бўлсалар, курс якунида бу кўрсаткич 4,5% ни ташкил этган. Умумий ҳолатда, юқори компетенция кўрсаткичи 0 % дан 28 % га ўсганлигини кўришимиз мумкин. Шунингдек, тингловчилар малака ошириш курсларининг касбий фаолият учун муҳим бўлган касбий ва шахсий фазилатларнинг қайта баҳолашга таъсир даражасини 71,2 % тингловчилар юқори ва 28,8 % тингловчилар ўртача, деб баҳоладилар.

Умуман олганда, компетентликни ривожлантириш жараёни ўзига хос динамик ҳодиса саналиб, у шахс хусусиятлари, дунёқараш, олдида қўйган мақсадлар билан бевосита боғлиқдир. Айрим кишилар мазмуний компонентларга эътиборни қаратадилар, уларни энг аввало, назарий билим, маълумотлар қизиқтиради. Бу эса, уларнинг касбий нуқтаи- назардан янада саводхон бўлишларини таъминлайди, бироқ компетентли хулқ-атворли бўлишларига етарлича имкон бермайди. Яна бир тоифадаги ўқитувчилар педагогик усул, воситаларни, ўзаро таъсир сирларини ўрганишга қаттиқ ҳаракат қиладилар, бироқ уларнинг назарий асосларига диққатларини

қаратмайдилар. Яна бир гуруҳ педагоглар ҳам борки, улар пухта эгаллаган билимларини ҳар қандай шароитда имкон қадар мақсадга мувофиқ қўллай биладилар, касбий компетентликларини доимий равишда ривожлантириб борадилар. Мазкур тадқиқотимиз юзасидан қилинган хулосаларни қуйидагилар орқали, кўрсатиб ўтишими мумкин:

1. Малака ошириш ва қайта тайёрлаш таълимида психологик-педагогик тренинг машғулотларига кўпроқ эътибор берилиши, фаол, интерактив ҳамда замонавий методлардан кенгроқ фойдаланиш, тингловчиларда касбий компетентликнинг самарали ривожланишини таъминлайди.

2. Малака ошириш ва қайта тайёрлаш жараёнида, тингловчиларда мустақил ўз устида ишлаш қобилияти, ўз-ўзини ривожлантириш кўникмаларини шакллантириш долзарб аҳамият касб этиши табиий. Чунки, олий маълумотли, кўп йиллик меҳнат фаолиятига эга педагогларда қисқа муддатда катта ҳажмдаги маълумотларни эслаб қолиш, уни ёдлаш кабилар бизга тескари натижаларни бериши мумкин.

3. Компетентлик - кенг тушунча сифатида педагог, ўқитувчининг ўз профессионал, касбий вазифаларини бажаришга бўлган назарий ва амалий тайёрлигини, субъект сифатида ташқи олам, кишилар билан муносабатларини тўғри йўлга қўйишини аниқлаш экан, демак, таълим жараёнида мазкур хусусиятни қарор топтириш олдимизда турган муҳим вазифалардан биридир.

## **OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING REPRODUKTIV SALOMATLIKKA OID BILIMLARINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI**

**Abdunazarova Z. Sh. – Toshkent davlat pedagogika universiteti  
Shahrisabz filiali o'qituvchisi**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalari talabalarining reproduktiv salomatlikka oid bilimlarini rivojlantirish omillari va ulardan foydalanishning ahamiyati va xususiyatlari haqida fikr mulohazalar yoritib berilgan

**Kalit so'zlar:** reproduktiv salomatlik, sog'lom turmush tarzi, rivojlantirish omillari, ruhiy, jismoniy va tibbiy savodxonlik, oila qurishga tayyorlash, fiziologik va aqliy rivojlanish, gigienik talablar, intellektual sog'liq, ma'naviy sog'lik, ruhiy sog'liq.

**Annotatsiya.** V statie daetsya otzyvo faktorax, a takje o vajnosti i osobennostyax razvitiya u studentov znaniy o reproduktivnom zdorove vysshey shkole

**Klyuchevye slova:** Reproduktivnoe zdorove, zdorovyy obraz jizni, faktory razvitiya, umstvennaya, fizicheskaya, meditsinskaya gramotnost, podderjka semi, fiziologicheskoe i umstvennoe razvitie.

**Abstract:**In the article Daecy as well as the importance and characterictiks of knowledge about reproductive health in higher education students



**Key words:** Reproductive health, health lifestyle mental, physical and medical literacy, physiological, and mental development, hygienic requirements, intellectual, health spiritual and mental health.

Mamlakatimizda ta'lim tizimining modernizatsiya qilinishi, uni tarkibiy jihatdan qayta qurish, ta'lim, fan, texnika va texnologiyaning, iqtisodiyot va madaniyatning jahon miqyosidagi zamonaviy yutuqlarini hisobga olgan holda ta'lim dasturlarini o'zgartirib, yangilab borishni ko'zda tutadi. Ta'limda ilg'or texnologiyalarning keng o'zlashtirilishi, uzluksiz ta'limning fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyalashuvi, talabalarning qobiliyatlari va imkoniyatlariga muvofiq ravishda ta'limga tabaqalashtirilgan yondashuvning joriy etilishi hamda ta'lim berishning ilg'or pedagogik texnologiyalari, zamonaviy o'quv-uslubiy majmualarning yaratilishi, o'quv-tarbiya jarayonining didaktik jihatdan ta'minlanishi zamonaviy ta'limni tashkil etish va talabalarda sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini, sog'lom fikrlash, innovatsion faoliyat yuritish va kasbiy kompetentlikni tarkib toptirish jarayonlarini takomillashtirish bilan belgilanadi. Ayniqsa, sog'lom avlodni shakllantirish jamiyatda sog'lom turmush tarzini qaror toptirish negizida amalga oshiriladi. Buning uchun esa jamiyatning har bir a'zosi sog'lom turmush tarzini yo'lga qo'yishi, unga bugungi kun talabi va vazifalaridan kelib chiqib ijobiy yondashish, salomatlikni madaniyatlikning bir ko'rinishi sifatida qabul qilishi maqsadga muvofiqdir. Talaba-yoshlar hayotida, yurish-turishida ham mana shunday yangicha tafakkurning shakllantirilishi bu boradagi barcha muammolarga yechim bo'lib xizmat qiladi. Talabalarda sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirish reproduktiv madaniyatni tarkib toptirishning asosiy komponentlari sifatida qaralishi o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lib u quyidagi omillari bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan:

- Talaba-yoshlarning tibbiy madaniyatlik darajasini oshirish;
- Talabalarni sog'lom oila qurishga tayyorlash, ularning bu boradagi qiziqishini oshirish;
- Talabalar bilan OITS, giyoxvandlik, kashandali va boshqa zararli odatlarga qarshi kurashuvchanlik hissini shakllantirish va profilaktika chora-tadbirlarini amalga oshirishga oid tadbirlar uyushtirish;
- Talaba-yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish;
- Talaba-yoshlar sportini ommaviy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish sifatida belgilandi.

Mazkur jarayon talaba – yoshlarning salomatligini muhofaza qilish, yoshlarda reproduktiv madaniyatni shakllantirish imkoniyatlari deklarativ jihatdan ko'rsatib berilgan. Shu nuqtai nazardan yondoshadigan bo'lsak, bizning nazarimizda talaba-yoshlardagi reproduktiv madaniyatni tarkib toptirishning asosiy komponentlari va yo'nalishlarini quyidagicha belgilash maqsadga muvofiqdir:

- Talaba-qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash orqali ularning ruhiy, jismoniy va tibbiy savodxonligini oshirish;
- talaba-yoshlarda ta'lim-tarbiya jarayonida sog'lom turmush tarzi ko'nikmalari va reproduktiv madaniyatni tarkib toptirishga erishish;

- oila, mahalla, ta'lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari va tibbiyot xodimlari hamkorligida talabalarni sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan tashviqot-targ'ibot ishlarini amalga oshirish.

Ma'lumki, sog'lom turmush tarzi tushunchasi keng ma'noli bo'lib, unumli mehnat qilish, faravon turmush kechirish, madaniy dam olish, sport bilan doimiy shug'ullanish, organizmni chiniqtirish, shahsiy kasbiy va psixogigienaga rioya qilish, to'g'ri ovqatlanish, badan tarbiyasi bilan shug'ullanish, sport bilan shug'ullanish, zararli odatlardan o'zini tiyish, har yili shifokor ko'rigidan o'tib turish orqali sog'lom oilani shakllantirishda o'z ifodasini topadi. Shuningdek, sog'lom turmush tarzi bu shaxsning sog'lom oilani shakllantirish va sog'lom farzandni dunyoga keltirish bilan bog'liq bo'lgan ko'nikmalarida ham o'z ifodasini topadi. Bugungi kunda oliy ta'limda tahsil olayotgan talaba-yoshlarni intellektual, kasbiy, ahloqiy, ma'naviy va madaniy rivojlanish talablarini qondirishda ulardagi sog'lom turmush tarzi, borasidagi bilim, ko'nikmalarni, reproduktiv madaniyatini shakllantirish ta'lim maqsadlarining asosiy qismi sifatida qaralmoqda.

Insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida, fan, texnika va texnologiya taraqqiyot yutuqlaridan keng foydalanib kelinayotgan bir paytda onalar xastalıkları, bolalar o'limi, zaif, nogiron bolalarning tug'ilishi miqdorining ortib borayotganligi, onalar va bolalar salomatligining yomonlashuvi kabi noxushliklarning ham kuzatilayotganligi bevosita oila masalalariga, onalar va bolalar salomatligiga, sog'lom onalardan sog'lom farzandlarning tug'ilishi masalasiga alohida e'tibor berishni, yoshlarni, hali oila qurib ulgurmasdanoq ularni oilaviy hayotga har tomonlama tayyorlash bilan bir qatorda ularda oilada farzandlarning dunyoga kelishi va shu bilan bog'liq masalalarga oid ilmiy asoslangan bilimlarini o'z vaqtida va yuqori saviyada berishni taqozo etadi. Ayniqsa yoshlarni oila qurishga tayyorlash maqsadida ular uchun alohida kurslar tashkil etib, shu orqali oila qurishga bo'lgan qiziqishini ortirish va eng muhimi ularni oila qurishga tayrlashni samarali yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq sanaladi. Shuningdek, onalar va otalar (qaynona va qaynotalar) bilan ham farzandlarni oila qurishga tayyorlashda qiz chiqarish va o'g'ilni uylantirishda o'z funksiyalarini bilishi va ularga amal qilishga yo'naltirilgan amaliy tayyorgarlikni ta'minlash maqsadida seminar-treninglar, amaliy-o'quv kurslarini tashkil etish ham juda muhim deb sanaladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inson sog'lig'ining 25-30% atrof-muhit ta'sirida, 25% ortiqrog'i nasliy omillar ta'sirida, qolgan 55% turli-xil sabablar, o'z sog'ligi va salomatligiga, gigienik talablarga va sog'lom turmush tarziga bo'lgan e'tibori ta'sirida shakllanar ekan. Sihat-salomatlik muammolari bo'yicha keltirilgan ushbu ma'lumotlar shaxsning sog'lom turmush tarzi borasidagi bilim darajasi, tasavvurlari, o'ziga bo'lgan e'tibori va yondashuvi shaxsning o'sib, voyaga yetishida asosiy omil ekanligini belgilaydi. Ayniqsa, hozirgi kunda juda keng tarqalgan turli yuqumli kasalliklar jumladan, kovud kasalliklarining dunyo bo'ylab tarqalganligi, yoshi kattayu kichiklarning salomatligi uchun naqadar xavf xatar tug'dirishi lozimligi xech kimga sir bo'lmay qoldi.

Sihat-salomatlik tushunchasi inson hayoti uchun muhim omil sanaladi. Shaxsning sog'lom turmush tarzidagi asosiy mativatsiya ham sihat salomatlik bilah o'lchalaniladi. Mazkur tushuncha tahliliga adabiyotlarda turlicha

yondashuvlar mavjud. Masalan, V.Dal lug'atida "Sihat-salomatlik– bu organizmning tiriklik holati, kasallikning yo'qligi" deya izohlansa, butun jahon salomatlikni saqlash tashkiloti salomatlik tushunchasining quyidagi ta'rifini taklif qiladi, ya'ni: "Salomatlik– bu nafaqat kamchiliklar va kasalliklarning barham topishi, balki uni to'liq jismoniy, ruhiy va ijtimoiy-ma'naviy, muvaffaqiyatli muhofaza qilishdan iboratdir" deb qaraladi. Yuqorida bildirib o'tilgan fikrarga to'xtaladigan bo'lsak haqiqatdan ham "Sihat-salomatlik bu insonning tom ma'noda kasalliklardan holi bo'lgan fiziologik va aqliy holatidir" desa mubolag'a bo'lmaydi.

Chunki, sihat-salomatlik tushunchasi turli adabiyotlarda, olimu mutaxassislar qarashlarida shuningdek, tibbiy entsiklopediyalarda ham uning mazmuni va mohiyati bilan bog'liq izohlar o'z ifodasini topgan. Masalan, sihat-salomatlik tushunchasi 4 ta asosiy yo'nalishga bo'lib o'rganiligi tibbiy entsiklopediyalarda qayd etib o'tilgan. Jumladan:

1. Holati bo'yicha sog'liq. Bu yo'nalish organizmning umumiy holatini belgilovchi, uning biologio'si va rivojlanish jarayonini belgilaydi.

2. Harakat bo'yicha sog'liq. Bu yo'nalish inson organizmi har xil a'zolarining harakat vazifalarini ta'minlash, o'sish darajasini belgilaydi.

3. Ruhiy sog'liq. Bu atama fanga 1979 yilda kiritilgan bo'lib, inson ruhiy xolatini aniqlaydi. Shaxsning ruhiy holati ya'ni quvonch-tashvishlari, turli o'zgarishlar, voqealarning sihat-salomatlikka bo'lgan ta'sirini tabiiy va ijtimoiy imkoniyatlaridan kelib chiqib o'rganadi.

4. Ma'naviy sog'liq. Bu shaxsning jamiyatda o'z o'rnini topishi, o'z xatti-harakatlari, ichki kechinmalarini tartibga solish, umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik va ulardan hayot tarzini yo'lga qo'yishda foydalanish, og'ir hayotiy vaziyatlarda oqilona yo'l tanlash ko'nikmalarining shakllanishi bilan belgilanadi. Bir guruh rus olimlaridan T.F.Akbashev, B.A.Klassov insonning ma'naviy salomatligini uch omil birligida ya'ni ijtimoiy, intellektual va reproduktiv sog'liq bilan bog'liq ekanligini o'z qarashlarida aks ettirib o'tganlar.

Olimlarning qarashicha, intellektual sog'liq fikrlash, axborotlarni qabul qilish va uni yetkazishda o'z aksini topsa, ijtimoiy sog'liq, insonni ijtimoiy faolligida jamiyatda o'z o'rnini topishi, kasbiy kamolotida o'z ifodasini topadi. Reproductiv sog'liq esa ota-onalar bilan bo'lgan aloqada, oilaviy munosabatlar, jinsiy madaniyat, farzand ko'rish va uni tarbiyalash bilan bog'liq bo'lgan holatlarda namoyon bo'ladi.

Salomatlik, sog'lom turmush tarzi muammosi bo'yicha shug'ullanuvchi tadqiqotchilardan biri R.Ayzman ham shaxs salomatligiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganada va ularning quyidagi darajalarini ajratib ko'rsatadi:

Birinchi, jismoniy, ya'ni genetik, biokimyoviy, metabolik, morfologik, funksional jihatlarini kshrsatib o'tsa;

Ikkinchi, shaxsning ruhiy, ya'ni hissiy, aqliy, shaxsiy jihatlarini bilan bog'liqligini ilgari suradi;

Uchinchi, esa shaxsning ijtimoiy-ma'naviy hamda ahloqiy jihatlariga alohida e'tibor qaratish lozimligini asoslab o'tadi

Shuningdek, shaxsning jismoniy salomatligining asosini esa shaxs individual taraqqiyotining biologi dasturi tashkil qiladi, deydi olim. Ruhiy salomatligini esa

inson qalban umumiy qulaylikka ega bo'lishi, xulq-atvorining mutanosib tarzda boshqarilishi, hamda ahloqiy salomatligi esa qadriyatlar tizimi, ijtimoiy muhitda individ xulq-atvorining barqarorlashuvi kabilarni qamrab oladi. Yuqorida keltirilgan tadqiqotlarda reproduktiv salomatli alohida yo'nalish sifatida o'rganilmagan bo'lsada, shaxs ma'naviy-ahloqiy salomatligining tarkibiy qismi sifatida tadqiq etilgan. Demak shaxsni kamol topishida reproduktiv salomatlikning ahamiyati cheksiz sanaladi. Reproductiv so'zi lotincha so'z bo'lib, tiklanish, takrorlanish, produco – yarataman ma'nosini anglatadi. Reproductiv-biologiyada organizmning o'ziga o'xshash organizmlarni yaritishi, ko'payishi ma'nosini bildiradi. Reproductiv salomatlik, ya'ni ayolning qachon va qanday sharoitlarda ona bo'lishini navzorat qilish, onaning ham va undan tug'ilajak bolaning ham salomatligi uchun maqbul shart-sharoitlarni yaratish degani. Reproductiv salomatlik masalasi faqat oilada tug'ilajak bolalar sonini cheklashgina emas, balki u ichiga kengroq masalalarni qamrab oladi. Bunga asosiy e'tibor oilada oilalar farovonligini ta'minlash, ularda ijobiy psixologik iqlimning huqm surishi, onalar va bolalar salomatligini saqlash, oilalarining tom ma'noda mustaqamligini ta'minlash kabilar nazarda tutiladi. Oilaning muhim bo'lgan funksiyalaridan biri-bu uning reproduktiv (jamiyatning biologik uzluksizligini ta'minlash, bolalarni dunyoga keltirish) funksiyasidir. Oilaning vazifasi faqatgina yangi avlodni dunyoga kelitiribgina qolmasdan, insoniyat paydo bo'lgan davrdan boshlab yashab kelayotgan ilmiy va madaniy yutuqlari bilan tanishtirgan holda, ularning salomatligini saqlab turishdan ham iboridir. Oilaning jamiyat oldidagi reproduktiv funksiyasi va uning bajarilishi deyilganda aholi sonining qayta tiklinishi uchun har bir oilada nechta farzand bo'lishi nazarda tutiladi.

Talabalarda reproduktiv salomatlik haqida to'xtalinda reproduktiv madaniyat tushunchasini ham tushintirib o'tishimiz muhim sanaladi. Chunki, reproduktiv madaniyat tushunchasi reproduktiv salomatlikka qaraganda kengroq tushuncha bo'lib bir qancha masalalarni qamrab oladi. Unda asosiy e'tibor shaxsning reproduktiv salomatlik haqidagi nazariy bilimlarining amaliy ifodasi, shuningdek, oilaning jamiyat oldidagi reproduktiv funksiyasining to'laqonli anglanishi bilan bog'liq kognitivlik darajasiga qaratiladi.

#### **Adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2017 yil, 6-son, 70-modda. // [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
3. «O'quvchilarni tarbiyalashda oila, maxalla, maktab xamkorligi» konsepsiyasi. –T., 1993.
4. Abu Ali ibn Sinoning sog'liqni saqlashga doir risolalari. –T.: Fan, 1978. – 132 b.
5. Agadjanyan N.A. Активный образ жизни и здоровье студента. –M.: Meditsina, 1988 g. – 91 s

## **MUDOFAA TIZIMIDAGI RAHBAR KADRLAR IMIJINI O'RGANISHNING METODOLOGIK IMKONIYATLARI**

**Ravshanov L.U. – O'zbekiston Milliy universiteti "Psixologiya" kafedrasida  
mustaqil tadqiqotchisi, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)**

**Annotatsiya.** Maqola mudofaa tizimidagi rahbar kadrlar imijini o'rganishning metodologik imkoniyatlari masalasiga bag'ishlangan. Shuningdek, maqola matnida mudofaviy boshqaruv va rahbar imkoniyatlari, harbiy rahbar shaxsiga xos imij, harbiy kasbda imij namoyon bo'lishining o'ziga xosliklari, imijni tushuntiruvchi ilmiy qarashlar, psixologik asoslar, harbiy faoliyatda ijobiy imij, harbiy rahbarlarga xos ijtimoiy-psixologik sifatlar kabi muammolarning uslubiy jihatlari ham tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** Mudofaa, harbiy faoliyat, harbiy rahbar, boshqaruv, boshqaruv uslubi, imij, shaxsiy va kasbiy imij, tashkilot imiji, axloqiy qadriyatlar, o'zini o'zi boshqara olish, boshqalarga namuna bo'la olish, muvaffaqiyatli ishlash, oliy burch, mas'uliyatlilik, kasbiy al'truizm, harbiy jamoa.

## **МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ИЗУЧЕНИЯ ИМИДЖА РУКОВОДЯЩЕГО ПЕРСОНАЛА В СИСТЕМЕ ОБОРОНЫ**

**Равшанов Л.У. - научный сотрудник кафедры «Психологии»  
Национального университета Узбекистана, доктор философских наук в  
области психологии (PhD)**

**Аннотация.** Статья посвящена вопросу о методологических возможностях изучения имиджа руководящего состава системы обороны. Также в тексте статьи рассматриваются методологические аспекты таких проблем, как управление обороной и лидерские способности, образ военачальника, особенности проявления имиджа в военной профессии, научные взгляды, объясняющие имидж, психологические основы, положительный имидж в воинской деятельности анализируются социально-психологические качества, характерные для военачальников.

**Ключевые слова:** Оборона, воинская деятельность, каждый руководитель, руководство, стиль управления, имидж, личный и профессиональный имидж, организационный имидж, нравственные ценности, самоуправление, быть примером для других, успешная работа, высший долг, ответственность, профессиональный альтруизм, военная команда.

## **METHODOLOGICAL POSSIBILITIES OF STUDYING THE IMAGE OF LEADING PERSONNEL IN THE DEFENSE SYSTEM**

**Ravshanov L.U. - Scientific Research Department "Psychology" of the  
National University of Uzbekistan, Doctor of Philosophical Sciences and  
Regional Psychology (PhD)**

**Annotation.** The article is devoted to the question of the methodological possibilities of studying the image of the leadership of the defense system. Also, the text of the article discusses the methodological aspects of such problems as defense management and leadership abilities, the image of a military leader, the features of the manifestation of the image in the military profession, scientific views that explain the image, psychological foundations, a positive image. in military activity, the socio-psychological qualities characteristic of military leaders are analyzed.

**Key words:** Defense, military activity, each leader, leadership, management style, image, personal and professional image, organizational image, moral values, self-government, being an example for others, successful work, highest duty, responsibility, professional altruism, military command.

Hozirgi vaqtda, harbiy kasb egalarining zimmasiga yuklangan mas'uliyatli vazifalarning murakkablik darajasi, juda tez suratlar o'sib bormoqda. Shuningdek, harbiy sohada faoliyat olib borayotgan xodimlar, ofitser kadrlar, qo'shin komandirlari va qo'mondonlar faoliyatiga ham o'ziga xos talablar ortib bormoqda. Bizningcha, harbiy rahbar, harbiy xizmatchilar shaxsiga tegishli bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka, qobiliyatlar, shuningdek, xarakterologik sifatleri, ularning sohadagi ijtimoiy-psixologik imkoniyatlari, boshqaruv salohiyati kabilar o'ziga xos psixologik xususiyatlar sanalib, ularni nazariy va amaliy jihatdan o'rganish "harbiy-kasbiy imij", "harbiy rahbar imiji" kabi masalalarga ilmiy oydinlik kiritish zaruratini yanada oshiradi. Chunki, harbiy rahbar kadrlarning kasbiy faoliyati bilan bog'liq mahalliy tadqiqotlar, hali aytarli darajada ko'p bo'lmasada, biroq ushbu masalada keng ko'lamlil ilmiy tadqiqotlarga zarurat juda yuqori sanaladi. Shu sababli, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa tizimida rahbar kadrlar imijini, ijtimoiy-psixologik jihatdan ilmiy asoslash hamda empirik o'rganishning dolzarbligi, quyidagi holatlar bilan belgilanadi:

– Zamonaviy harbiy boshqaruv tizimida, harbiy rahbar kadrlarning samarali boshqaruv imkoniyatlarini va shaxsiy xususiyatlarining ijtimoiy ahamiyatini oshirish;

– Psixologik adabiyotlarda muvaffaqiyatli harbiy rahbar imiji borasidagi nazariy va amaliy bilimlarni tizimlashtirish hamda ularni yangi boshqaruv amaliyotiga integratsiya qilish;

– Harbiy rahbar imijini har tomonlama ilmiy baholash, uning zamonaviy o'zgarishlar sharoitida, harbiy-ijtimoiy muhitda ijobiy imij shakllanishiga yordam beruvchi shart-sharoitlarni aniqlashtirish shuningdek, samarali boshqaruv faoliyatiga salbiy ta'sir etuvchi omillarni aniqlash;

– Harbiy rahbar imijining harbiy qismlar faoliyatiga, harbiy jamoaning yutuqlariga, harbiy vazifalar va topshiriqlarning ijrosiga ta'sirini ijtimoiy-psixologik jihatdan o'rganish zarurati;

– Davlatimiz tomonidan mudofaa tizimini qayta, to'liq modernizatsiya qilishning hozirgi bosqichida, eng ilg'or, eng jonkuyar, eng Vatanparvar, jamiyatimiz manfaatlariga sodiq, harbiy rahbar kadrlar imiji kontseptsiyasini keng qamrovli o'rganish, uni psixodiagnostik usullar baholash hamda harbiy rahbarlarda ijobiy imijni rivojlantirishga xizmat qiluvchi taklif va tavsiyalar, ilmiy modellar ishlab

chiqish ehtiyojining yuqoriligi va hokazo. A.O.Eronining so'zlariga ko'ra, garchi, rahbar imiji muammosi menejment va ijtimoiy-psixologiya sohalarida kengroq o'rganilgan bo'lsa-da, biroq imijni mudofaa tizimida faoliyat olib borayotgan rahbarlar faoliyati bilan o'rganish, zamonaviy harbiy psixologiya ma'lumotlarini mazmunan boyitishga keng xizmat qiladi. Mudofaa tizimidagi rahbar komandirlarning imijini, kasbiy va shaxsiy sifatlar bilan o'rgangan tadqiqotchi V.G.Mixaylovskiyning yozishicha, harbiy rahbar kadrlar faoliyatini ijtimoiy-psixologik jihatdan baholash ishlari quyidagi jihatlarning tahlili bilan amalga oshishi lozim:

- O'ziga berilgan topshiriqlarni to'g'ri tashkil eta olish va jamoaga tegishli boshqa ishlarni tezkor, oqilona taqsimlash olish qobiliyati;
- O'zini o'zi tarbiyalash va asrash qobiliyati, turli xavf tug'lganda, o'zi va jamoasini shu xavfdan asray olish tajribasi. Kerak bo'lsa, o'z jonini fido qilishga tayyorlik ( R.V.Markitan);
- O'z jamoasining muvaffaqiyatiga doimo ishonish, ularning ilg'or mazmundagi tashabbuslarini tezda qo'llab-quvvatlash ( I.E.Shavrova 1996);
- O'z kasbning axloqiy qadriyatlari tizimini yaxshi bilish, intizomga qattiq amal qilish, har doim milliy mentalitetdan kelib chiqib ish tutish;
- Mudofaa amaliyotida o'zini o'zi anglash qobiliyati;
- O'ziga professional shaxs sifatida qarash, o'z kasbiy va boshqaruv imkoniyatlarini yaxshi bilish va ularni to'g'ri baholay olish;
- O'z kasbiy faoliyatining individual uslubini yanada rivojlantirish;
- Amaliy faoliyatning turli darajalarida muvaffaqiyatga erishish imkoniyatidan xabardorlik ( L.G.Laptev 1996);
- Boshqaruv strategiyalarini tanlash va ularni tahlil qilish uchun, professional ahamiyatga ega bilimlarga ega bo'lish (A.M.Knyazev 2001);
- Kasbiy muammolarni nostandart, kreativ, innovatsion idrok eta olish qobiliyati;
- Rejalashtirish va rejani bosqichma-bosqich amalga oshirish qobiliyati(V.S.Ivanov 1999);
- O'z faoliyati natijalarini tahlil qilishga qodirlik, foydalana olmagan imkoniyatlari uchun javobgarlik (O.Ya.Bezushko 2000);
- Qo'l ostidagi xodimlarning ijtimoiy ehtiyojlari va shaxsiy imtiyozlarini hisobga olgan holda, yangi vazifalarni qo'ya bilish qobiliyati va boshqalar. Mazkur ajratib o'tilgan sifatlar, harbiy rahbar kadrlarning muvaffaqiyatli va mas'uliyatli faoliyati uchun, eng muhim sanalgan shaxsiy, kasbiy, ijtimoiy-psixologik sifatleri sanalib, ularsiz hech bir vazifalarni oqilona va tezkor, samarali amalga oshirib bo'lmaydi. Shuni alohida qayd etish lozimki, qo'plab fundamental harbiy psixologik tadqiqotlarda harbiy rahbar kadrlarning kasbiy va boshqaruv imkoniyatlari, ularga tegishli yutuqlarning o'ziga xosliklari masalalari imij fenomeni bilan birga emas, balki ijtimoiy ta'sirlasha olish malakasi yoki kommunikativ madaniyati darajasi bilan tadqiq etilgan. Biroq, ushbu holatlar tadqiqotchi uchun to'siqlarga sabab bo'lmaydi balki, harbiy rahbar kadrlar imijini keng qamrovli psixologik unsurlar orqali yoritishga keng imkon beradi.

A.Ya.Antsupovaning yozishicha, harbiy boshqaruv faoliyati kuchli mudofaa maqsadlarini amalga oshirishga xizmat qiluvchi kasbiy faollik, innovatsion tajriba, tashabbuskorlik va jamoaviy harakatlarni amalga oshirishning yangi samarador yo'llari va usullari qo'llay olish kabi holatlarning mazmunini ham aks ettiradi. Ya'ni ijtimoiy-psixologik jihatdan qaralganda, harbiy sohada rahbarlik faoliyati doimiy ravishda yuzaga keladigan murakkab vazifalar va topshiriqlar bilan xarakterlanadi. A.S.Ternovskiyning ta'kidicha, harbiy vazifalarni amalga oshirish, mudofaa ishlari yuzasidan hamkorlik uchrashuvlarida ishtirok etish, albatta, rahbar shaxsdan katta mas'uliyatni talab qiladi. Ya'ni ma'naviy va huquqiy, intellektual shuningdek, barcha ichki resrlarni safarbar etish kabilar shular jmlasidandir. Demak, harbiy faoliyat qurolli kurash maqsadlarini amalga oshirishga ta'sir qiluvchi harbiy xizmatchilarning faolligi, tashabbuskorligi va harakatlarning samaradorligini aks yettiradi.

Harbiy-kasbiy faoliyat doimiy ravishda yuzaga keladigan, murakkab vazifalar bilan bog'liq sanalib, ba'zan unda ayrim vazifalar darhol amalga oshirishni talab etiladi, shuningdek, jangovar faoliyat maxsus harakatlarni bajarish, tezkor qaror qabul qilish, chegaralar daxlsizligini ta'minlash, Vatanni himoya qilish kabi ulug'vor vazifalardan ham iborat hisoblanadi. Demak, yuksak ahamiyatga ega bo'lgan, harbiy operatsiyalarda ishtirok etish, albatta, insondan katta mas'uliyatni talab qiladi. S.E.Anan'evaning yozishicha, harbiy rahbar xodimlar uchun zarur bo'lgan muhim shaxsiy fazilatlar – bu sohaga oid aniq bilim, ko'nikmalar shuningdek, o'z mehnat faoliyatida orttirgan tajriba, shaxsiy kompetentsiyalar, jismoniy, texnik, harbiy, ma'naviy-madaniy, axloqiy-psixologik va boshqa o'zlashtirilgan xususiyatlar kabilar ham hisoblanadi. Muallif tomonidan qayd etilgan qobiliyat, bilim, ko'nikma, malakalar, xizmat vazifalarini bajarish paytida, turli strategiyalar, yo'l-yo'riqlar, usullar shaklida namoyon bo'ladi. Davlat xizmatidagi eng muvaffaqiyatli va samarali ish o'rniga ega bo'lgan, rahbarlar shaxslarga xos xususiyatlarni o'rgangan olim Ye.D.Bogatyrevning so'zlariga ko'ra, harbiy rahbar xodimlarning kasbiy missiyasining samarali bajarilishi uchun, quyidagi ahamiyatli, psixologik, ijtimoiy-psixologik, etnopsixologik sifatlar shart sanaladi:

– Yuqori harbiy unvonga va obro'ga ega bo'lgan rahbar kadrlarga xos bo'lgan sifatlar orasida vatanparvarlik tuyg'usi, o'rtoqlik tuyg'usi, kasbiy malaka, kasbiy dunyoqarash, boshqaruv faoliyatidagi tashkilotchilik, o'zini o'zi boshqarish, qat'iyatlilik va qoidalarga qattiq rioya qilish, intizomlilik, qat'iyatlilik, jismoniy salomatlilik kabilar, harbiy rahbar shaxslar uchun juda muhim psixologik sifatlar hisoblanadi;

– Axloqiy kurashuvchanlik bu – ishdagi qat'iyat, o'ziga ishonch, stressga chidamlilik, jasorat, o'zini tuta bilish, chidamlilik, jasorat, jasorat, qat'iyatlilik, topqirlik, chidamlilik, kollektivizm, jasoratlilik, kuch va faollikni kabilarni o'z ichiga oladi (V.M.Markin 1998);

– Harbiy ixtisoslikka oid ilg'or tajriba – vazifalar, yangi islohotlarga bo'lgan qat'iylilik, hayotiy xotirjamlik, sabr-toqat, kuzatuvchanlik, diqqatlilik, tezkorlik, aniqlik, diqqatni jamlash, barqaror xotira, operativ xotira, kasbga sodiqlik, kasbiy ijodkorlik hamda professional optimizm (E.V.Dmitrieva 1999);

– Xizmat sharoitida namoyon bo'luvchi shaxslararo munosabatlarga samarali xizmat qiluvchi xushmuomalalik, bilimdonlik, mehnatsevarlik, tavakkal qila olish,



kar'era qilish istagi va yuksak burchga egalik hissi va boshqalar (L. A. Kandybovich);

– Harbiy rahbar o'z qo'l ostidagi xodimlarining, bir-birlari bilan o'zaro aloqalarini samarali tarzda ta'minlashi mumkin. Ya'ni bunday xususiyatlarga:

– Samarali muloqot hamda ijobiy munosabat o'rnatish malakasi;

– Guruhiy empatiyaning namoyon bo'lishi, maqsadga erishishdagi qat'iyatlilik va qat'iyatlilik;

– Muvaffaqiyatga va ijtimoiy yetuklikka yo'nalganlik, o'z xatti-harakatlarini to'g'rilay olish qobiliyati;

– Muammolarni hal qilishda, qo'yilgan vazifalarga erishishning aniq yo'llarini topishga xizmat qiluvchi amaliy aql (V.M.Anisimov 2011);

– Murakkab ishlarni rejalashtira olish, vaqt kamligini hisobga olgan holda, ustuvor vazifalarni to'g'ri taqsimlay bilish qobiliyati;

– Jamoaning madaniyati, an'analari, me'yorlari, qoidalariga tez moslasha olish, hamkasblar va rahbariyat a'zolari bilan iliq munosabatlarda bo'la olish malakasi;

– Boshqaruv faoliyatiga mos va xos bo'lgan ijtimoiy-psixologik sifatlarni namoyon eta olish, boshqalarni natijalarga erishishga undash, qo'l ostidagi xodimlarni yutuqli holatlarda ilhomlantira olish. Yuqorida sanab o'tilgan sifatlarni innovatsion boshqaruv faoliyatiga xos bo'lgan imkoniyatlar sanalib, ular orqali harbiy boshliqlarning faoliyati adekvat baholanadi. Ijobiy imij – bu barcha insonlarga tegishli, ayniqsa davlat xizmatchilarining vazifalariga yakun yasaydi, shuning uchun rahbarlar, hokimlar, boshliqlar o'z lavozimini saqlashga va boshqaruv sohasida astoyidil harakat qilishi lozim. O'z imkoniyatini shakllantirishda va muvaffaqiyatlarga erishish uchun, boshqa kishilardan farqli o'laroq, har qanday tanlovlarda g'olib chiqadi. Psixologiyada “ijtimoiy-psixologik qiyofa” tushunchasining ham paydo bo'lishiga keng zamin yaratdi. Bir guruh tadqiqotchilar yetakchi va ilg'or menejerlarning ijobiy qiyofasini aniqladilar. Ayni shu holat, shaxs imiji va psixologik qiyofasi o'rtasidagi uyg'unlik mavjudligini nazarda tutadi. G.G. Pocheptsov fikricha quyidagilarni qamrab olishi kerak:

– Kuch-quvvat;

– Raqobat;

– Innovatsiyalar;

– Ishonch;

– Yuqori muloqot qobiliyati (N.B.Rujentseva 2004 );

– Fidoiylilik va hokazo.

Demak, innovatsion boshqaruv sohasidagi ilg'or amaliyotlardan biri bu, yuqori malakali ijtimoiy-psixologik sifatlarga va kreativlikka javob beruvchi, imijni takomillashtirish bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirishdir. Rus psixologlaridan N.V.Ushakova esa, o'z ishlarida muvaffaqiyatli rahbar “imiji”ning ijobiy xususiyatlari sifatida, quyidagi o'ziga xosliklarni taqdim etadi:

– Komunikativlik;

– Yangilik yaratish qobiliyati (kreativlik);

– Yetuklik (E.P.Titova 2002);

– Siyosatdan, yangiliklardan yuksak xabardorlik;

– Sabrlilik;

- Amaliylik;
- Halollik.

Keltirib o'tilgan yuqoridagi har bir sifatlar shaxs ijobiy imijning psixologik komponentlari bo'lib, ular insonni buyuk ishlarga yetaklaydi. Qayd etilgan mezonlar bilan birga zamonaviy rahbarning ijobiy qiyofasi o'ziga xos, milliy xususiyatlar bilan ham shakllangan bo'lishi shart. Yu.A.Baxrushin o'zining "Samarali boshqaruv:Shaxsiy imijni yaratish" nomli monografiyasida, muvaffaqiyatli boshqaruv asoslari va boshqaruvda ideal rahbar qiyofasi kabi masalalarga alohida to'xtalib o'tib, ideal rahbar imijida quyidagi xususiyatlar mavjud deb ta'kidlab o'tadi:

- Qa'tiylik;
- Izchillik;
- Kompitentlik;
- Alruizm;
- Rejalilik;
- Tolerantlilik;
- Rivojlanish va maqsadlarni aniq ko'ra olish qobiliyati va hokazolar

Yuqoridagi tasniflardan farqli o'laroq, imijeolog L.Braun muvaffaqiyatli professional qiyofaning beshta mukammal komponentini ajratib o'tadi:

- Muvaffaqiyatlilik;
- O'ziga ishonchning yuqoriligi ( I.P.Volkov 2002);
- Sobit qadamlilik;

– Sub'ektiv nazoratning kuchligi.Ushbu tasniflashga muvofiq, har qanday sohada faoliyat olib borayotgan rahbar shaxslar imiji faqatgina tashqi sifatlariga emas, balki shaxsning individual psixologik xususiyatlari, kasbiy ko'nikma va malakalari, kasbiy kiyofa, shaxsning ma'naviy - axloqiy qiyofasi, kasbdagi fidoiylik, kasb etikasi, kasbiy mas'uliyat kabi tushunchalariga ham aloqador sanaladi. Bundan tashqari, ayrim tadqiqotlarda "Armiya imiji" haqida ham so'z borib, unda zamonaviy armiyaga xos ayrim ijtimoiy, siyosiy, ijtimoiy-psixologik mezonlar to'g'risida fikr yuritiladi.

Xotima qilib aytganda, armiyaning imiji bir qisqa vaqt davomida yaratib bo'lmaydigan, balki yetarli darajada tarixiy asoslarga ega va doimiy rivojlanib borilayotgan holatdir. Shuning uchun, mazkur masala toki Qurolli Kuchlarning to'liq imiji yetarli darajada yaratilmaguncha, ushbu jarayonni muntazam tarzda tadqiq etishni talab etadi. Shuni alohida aytib o'tish joizki, mudofaa imiji uni alohida okrug, qo'shilmalar, harbiy qismlar va bo'linmalarni hamda barcha turdagi komandirlar, rahbar ofitserlar, shartnoma asosidagi harbiy xizmat serjantlari va oddiy askarlar toifasi hamda muddatli harbiy xizmatchi (askarlar) faoliyatini targ'ib etish asosida shakllanadi. Qurolli Kuchlarning imijini to'g'ri shakllantirish va maqsadli chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun ilmiy ahamiyat kasb etadi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Еронин А.О, «Социально-психологические компоненты позитивного имиджа среднего профессионального образования» // Ученые записки Российского государственного социального университета. -2013. -№1 (ИЗ)-С.156 –158.

2. Михайловский В.Г. Социально-психологические основы профессионального становления офицерских кадров (Монография).- М.: РАГС, В А им. Ф.Э.Дзержинского, 1995. – С.85.
3. Маркитан Р.В. Основы управления повседневной деятельностью войск. Учеб. пособие, 2-е издание. М.: ВАД -1997. – С.49.
4. Анцупов А .Я., Помогайбин В.П., Пошивалкин О. А Методологические проблемы военно-психологических исследований: обзор диссертации XX век. М.: Современный Гуманитарный Институт, 2000. – С.162.
5. Терновский А. С. Социально-психологические факторы развития управленческих способностей офицеров в ходе службы на надводных кораблях ВМФ : дис. ... канд. психол. наук : 19.00.05 / Терновский Александр Сергеевич. - М., 2005. – С.31.
6. Ананьева С. Е. Формирование имиджа руководителя в государственной-службе : автореф. на.соиск. учен. ст. канд. социол; наук. -М., 1996. – С.12.
7. Богатырев Е. Д, Социальные факторы формирования духовного потенциала Вооруженных Сил // Государственно-патриотическая идеология и духовный потенциал Российской Армии, Материалы научно-теоретической конференции М.: ВУ 1998. – С.42.
8. Почепцов Г. Г. Имиджелогия / Г.Г. Почепцов. - М.: Рефл-бук, Ваклер, 2001. – С.321.
9. Ушакова Н. В. Имиджелогия / Н.В. Ушакова, А.Ф. Стрижова. - М.: Дашков и Ко, 2011. – С.96.
10. Бахрушин Ю. А. Эффективное управление. Создание собственного имиджа / Ю. А. Бахрушин. – М. : Академия, 2005. – С.74.

## **MANTIQIY FIKRLASH SHAKLLANISHINI O'RGANISHNING ILMIY – AMALIY IMKONIYATLARI**

**Rasulov J.S. – Navoiy davlat pedagogika instituti “Umumiy psixologiya va pedagogika” kafedrasida katta o'qituvchisi**

**Annotatsiya.** Mazkur maqola mantiqiy fikrlash shakllanishini o'rganishning ilmiy-amaliy imkoniyatlariga bag'ishlangan. Shuningdek, maqola mazmunida mantiqiy fikrlash tushunchasini ilmiy asoslashga doir pedagogik-psixologik yondoshuvlar, mantiqiy fikrlashni tavsiflashga oid ilmiy ta'riflar hamda qator pedagog va psixolog olimlarning muammo yuzasidan bildirgan fikr-mulohazalari, taklif va tavsiyalari, mantiqiy fikrlash shakllanishini qo'llab-quvvatlashga doir ilmiy xulosalari kabilar ham batafsil yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Mantiqiy fikrlash, tushuncha, hukm, xulosa, qoidalar, ta'lim, o'zlashtirish, pedagogik jarayon, muammo, qaror, talaba, mantiqiy tafakkur, ichki nutq, aqliy jarayonlar, sabab-oqibat.

## **НАУЧНО - ПРАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ИЗУЧЕНИЯ ФОРМИРОВАНИЯ ЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ**

**Расулов Ж.С. – Старший преподаватель кафедры «Общая психология и педагогика» Навоийского государственного педагогического института**

**Аннотация.** Данная статья посвящена научно-практической возможности изучения формирования логического мышления. Также в содержании статьи педагогико-психологические подходы к научному обоснованию понятия логического мышления, научные определения для описания логического мышления, а также мнения, предложения и рекомендации ряда педагогов и психологов по проблеме, а также научные выводы по поддержке формирования логического мышления, подробно освещены.

**Ключевые слова:** логическое мышление, понятие, суждение, вывод, правила, образование, овладение, педагогический процесс, проблема, решение, ученик, логическое мышление, внутренняя речь, психические процессы, причинность.

## **SCIENTIFIC AND PRACTICAL ISSUES OF STUDYING THE FORMATION OF LOGICAL THINKING**

**Rasulov J.S. - Senior teacher of the Department of "General Psychology and Pedagogy" of the Navoi State Pedagogical Institute**

**Annotation.** This article is devoted to scientific and practical issues of studying the formation of logical thinking. Also in the content of the article, pedagogical and psychological approaches to the scientific substantiation of the concept of logical thinking, scientific definitions for describing logical thinking, as well as opinions, suggestions and recommendations of a number of teachers and psychologists on the problem, as well as scientific conclusions to support the formation of logical thinking, are covered in detail.

**Key words:** logical thinking, concept, judgment, conclusion, rules, education, mastery, pedagogical process, problem, solution, student, logical thinking, inner speech, mental processes, causality.

Ma'lumki, atrof -muhit ma'lumotlarini aks ettirish barcha tirik organizmlarga xos xususiyat hisoblansada, ammo ular orasida insoniyatgina bilishning, fikrlashning yuqori shakliga qodir mavjudot sanaladi. Ya'ni inson shunchaki aks ettirishga emas, balki mantiqiy, ijodiy, kreativ, samarali fikrlash, vaziyatlarni tahlil qilish, qarama-qarshi holatlarda mantiqiy hukmlar chiqarish, sabab-oqibatlarini anglay olish, muammoli vaziyatlarda oqilona qaror qabul qilish kabi ko'nikmalariga ega buyuk zot hisoblanadi. Ushbu qobiliyatlar insonga tug'ilgandan berilmaydi balki, u o'qish, o'zlashtirish, ta'lim olish kabi pedagogik jarayonlar orqali shakllantiriladi. Mantiqiy fikrlash – bu fikrlashning bir turi bo'lib, uning mohiyati mantiq qonunlariga asoslangan tushunchalar, xulosalar, ularni solishtirish va muammoni o'ziga xos

harakatlar bilan taqqoslashdan iborat jarayondir. Misol uchun, bola atrof-muhitga qarab, ko'rishni, taxmin qilishni o'zida rivojlantiradi. Ya'ni u o'ylamasdan, atrofdagi dunyoni bilish mumkin emas. Shu bois ham, tafakkur qilish, mantiqiy fikrlash va uning shakllanishi masalalari, pedagogika va psixologiya fanlari uchun eng qiziqarli hamda muhim mavzulardan biri sanaladi. Hozirga qadar, fanda mantiqiy fikrlash masalalariga doir o'ziga xos nazariy asoslar mavjud bo'lib, ularning aksariyati pedagogik -psixologik mazmundagi tadqiqotlar sanaladi. Mazkur tadqiqotlar turkumiga pedagog olimlardan A.Ya.Komenskiy, I.A.Galkina, P.G.Lubochnikov, N.S.Omelchenko, A.Z.Zak, Yu.M.Kolyagin, L.M.Lixarnikov, L.G.Peterson, D.Poya, G.I.Sarantsev, L.M. Fridmanlarning ilmiy izlanishlari tan olinsa, psixolog tadqiqotchilardan esa, L.S. Vigotskiy, P.Ya. Gal'perin, V.V. Davыdov, L.V. Zankov, N.B. Istomina, R.S. Nemov, L. Yu. Ogerchuk, N.F.Talizina, O.K.Tixomirov, Yu.N. Kulyutkina, N.V. Kuz'mina, A.M. Matyushkina kabilarning izlanishlari ko'proq e'tirof etiladi. Shuning uchun ham, aksariyat tadqiqotlarda "mantiqiy fikrlash" muammosi, ikkala fan uchun muhim sanalgan yondoshuvlar tizimida keng tadqiq etiladi.

Mashhur rus psixologi S.L. Rubinshteyn ta'kidlagandek: "Inson tafakkur qilish orqali vaziyatlarni taqqoslaydi, o'zaro munosabatlarni farqlaydi, hodisalar o'rtasidagi bog'liqliklarni anglaydi va shu orqali atrof -muhit hodisalarining mohiyatini chuqurroq anglash imkoniga ega bo'ladi<sup>23</sup>. Demak, fikrlash jarayoni uzluksizdir. U inson muammoga duch kelganda, ilgari duch kelmagan vazifa shug'ullanganda yuzaga keldi. Y.V.Evanovanning yozishicha, inson vazifalarni hal qilishda yetarlicha tajribaga ega bo'lmasa, ilgari qo'llanilgan vositalar va usullar yuzaga kelgan muammoni hal qilish uchun mos bo'lmasa, avvalgilariga o'xshamaydigan boshqa usullarni izlash, qo'llash kerakligini tushunib yetadi<sup>24</sup>. Mazkur yondoshuvga muvofiq, tajriba, o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalar mantiqiy fikrlashni ta'minlovchi shartlardan biridir.

Tadqiqotchi J.Dyuiga ko'ra, xulosaga olib keladigan har qanday fikrlash jarayoni - mantiqiydir. Muallifning so'zlariga ko'ra, xulosa bu shunchaki jarayon emas, xulosaga kelish uchun tushuncha aniqlanadi, uning xususiyatlari va o'ziga xosliklari hukm asosida tasdiqlanadi va nihoyat xulosaga kelinadi<sup>25</sup>. Ushbu yoshdashuvga muvofiq, mantiqiy fikrlash - bu ongli ravishda ishlab chiqilgan va uning yordami bilan amalga oshiriladigan qoida va qonunlarga muvofiq tushunchalar, hukmlar va xulosalar ko'rinishidagi fikrlash shaklidir. Boshqalar qatorida, P.G.Lyubochnikov ham mantiqiy fikrlashni mantiqiy qonunlarga asoslangan tushunchalar, mulohazalar, xulosalar sifatida ta'riflaydi<sup>26</sup>. Ya'ni qayta ishlash, solishtirish va ularni harakatlar bilan bog'lash yoki sabab qonuniyatlari bilan bog'liq bo'lgan aqliy jarayonlar mantiqiy, ishonchli harakatlar yoki fikrlash operatsiyalari

<sup>23</sup>Рубенштейн С.Л. Основы общей психологии : учебное пособие / С.Л. Рубинштейн. – Санкт-Петербург : Питер, 2007. – 713 с.

<sup>24</sup> Иванова Е.В. Развитие логического мышления младших школьников на уроках математики /Е.В. Иванова // Начальная школа + До и после. - 2006. – №6 – С.59 - 60.

<sup>25</sup> Дьюи Дж. Психология и педагогика мышления (Как мы мыслим) : перевод с англ. Н.М. Никольский. - М.: Лабиринт, 1999. – 192 с.

<sup>26</sup> Лубочников П. Г. Развитие образно-логического мышления субъекта в процессе когнитивной деятельности : монография / П. Г. Лубочников, В. С. Нургалеев. Красноярск : СибГТУ, 2006. – 176 с.

majmuidan sifatida tan olinadi. Xuddi shunday ta'riflashni M.Yu. Oleshkov va V.M.Uvarovlar tomonidan chop etilgan "Zamonaviy ta'lim jarayoni: asosiy tushunchalar va atamalar" nomli lug'at kitobida uchratish mumkin. Mualliflarning ta'rifiga ko'ra, mantiqiy tafakkur fikrlashning bir turi bo'lib, u tushunchalar, mulohazalar va xulosalar bilan ishlashni o'z ichiga oladi va u faqat odamlarga xos bo'lgan eng qiyin bilish jarayoni sanaladi. Mantiqiy fikrlash yoshlikdan asta-sekin rivojlanadi. Muammoni yechishda har bir inson, mulohazalar yordamida predmet yoki hodisa haqidagi ma'lumotlarga asoslanib xulosa qiladi. Shuningdek, muallif muammoni hal qilish yo'lini to'rt bosqichga ajratdi<sup>27</sup>:

- Qiyinchilik, qarama-qarshilik, savol yoki muammoning paydo bo'lishi;
- Muammoni hal qilish uchun faraz, taklif yoki loyiha yaratish;
- Muammoning yechimini amalga oshirish;

Qarorning muvaffaqiyatini tajriba orqali tekshirib ko'rish, keyin esa, uni baholash va hokazo. Psixolog J.Piaje boshqa olimlardan qarqli o'laroq, "sotsializatsiya" jarayonini inson tafakkurini rivojlantirish ilk manbai deb ta'riflaydi. Ya'ni sotsializatsiya jarayoni – bola tomonidan egotsentrizmni yengishi va o'z tafakkurini boshqalarning fikrlashiga moslashtira holatidir<sup>28</sup>. Mantiqiy fikrlash o'quvchi uchun keng imkoniyatlar ya'ni va o'zini o'zi rivojlantirish, o'zaro munosabatlarni tartibga solish, fikr almashish, bahslashish kabi imkoniyatlarni in'om etadi. L.S.Vygotskiy esa, mantiqiy fikrlash rivojlanishini nutqning rivojlanish darajasiga bog'liq ekanligini alohida ta'kidlab o'tadi. Muallif mantiqiy fikrlash shakllanishining uch bosqichini ajratadi<sup>29</sup>:

- Bir so'z bilan belgilangan ko'p ob'ektlarning sinkretik birikmasi;
- Murakkab tushunchalar;

Aniq tushunchalar. Ya'ni yoshlikdan so'zlarning ma'no va umumiy darajasini o'rgatish, rivojlantirish orqali ongning rivojlanishini nazorat qilish mumkinligini aytib o'tadi. Boshqalar qatorida A.A.Lublinskaya ham mantiqiy fikrlash jarayonini o'rganar ekan, unda o'zini o'zi rivojlantirish jarayoni kechishini alohida qayd etadi. Muallif bolalarning nutqida ikki shaklni farqlashga muvaffaq bo'ldi<sup>30</sup>:

- Vaziyatga hissiy munosabatni ko'rsatadigan nutq – "nutq-o'yin";

– Hali ongli bo'lmagan aloqalar va munosabatlarni o'rnatish yoki yo'naltirilgan nutq – "nutq-savol" shaklida. Qoidaga muvofiq, maktabgacha yoshdagi bolalarning harakatlarga va narsalarga qaratilgan so'zlarning ma'nolarini o'rganishga harakat qildilar. Maktabda o'qishning boshlanishi bilan bolalar munosabatlarni ifodalovchi, tushunchalar tizimini o'zlashtiradilar va mantiqiy fikrlash qoidalarini o'rganadilar. P.Ya. Gal'perin va uning hamkasblari, aqliy harakatlarni bosqichma-

<sup>27</sup> Олешков М.Ю., Уваров В.М. Современный образовательный процесс: основные понятия и термины. М. : Компания Спутник, 2006. – 191 с.

<sup>28</sup> Пиаже Жан. Речь и мышление ребенка / Жан Пиаже. - Москва: ИЛ, 2008. – 416 с.

<sup>29</sup> Выготский Л.С. К вопросу о психологии и педологии. // Культурно-историческая психология. – 2007. – №4. – С. 101 - 112.

<sup>30</sup> Люблинская А.А. Учителю о психологии младшего школьника. / А.А.Люблинская. - Москва: 1993. – С.182 – 203.

bosqich shakllantirish kontsepsiyasini ishlab chiqdilar. Ushbu kontsepsiyaga ko'ra, bola besh bosqichdan o'tadi<sup>31</sup>:

- Faoliyat va uni amalga oshirish shartlari bilan oldindan tanishish;
- Muammoni hal qilish uchun tashqi moddiy harakatlardan foydalanish;
- Harakatni aytib berish;
- Ichki nutq aktini shakllantirish;

– Tashqi ob'ektiv harakatning ichki harakatlarga o'tishi. O'quv faoliyati jarayonida o'quvchilar doimiy ravishda o'z nuqtai-nazarini bildirib, holatni isbotlaydi, taqqoslaydi, mulohazalar qiladi, xulosalar, natijalar bayon etadi. Biroq, bunday vaziyatlarni yechish jarayonida o'quvchi, mantiqiy fikrlashning turli komponentlaridan foydala bili lozim. N.B.Istominaning yozishicha, o'quvchilarning analitik-sintez faoliyati bu nafaqat belgilarni farqlash va elementlarni bir butunga birlashtirish, balki ularni yangi bog'lanishlarga kiritish, ularning yangi funksiyalarini rivojlantirish qobiliyati hamdir<sup>32</sup>. Ko'plab tadqiqotlarning natijalari shuni ko'rsatadiki, ko'pchilik o'quvchilar mantiqiy taqqoslash operatsiyasini bajarib, uni oddiy oddiy yondashuv bilan almashtiradilar. Avval bir mavzu, keyin boshqa mavzu haqida gapiradilar. A.V.Beloshestyaning ta'kidicha, taqqoslash jarayonida ko'p o'quvchilar faqat farqlarni yoki o'xshashliklarni topa oladilar. Shuningdek, mantiqiy fikrlashda bilimlarni umumlashtirish algoritmi quyidagicha<sup>33</sup>:

- Ob'ekt yoki hodisaning muhim xususiyatini ajratib ko'rsatish;
- Narsa yoki hodisaning ahamiyatsiz belgilarini farqlay olish;
- Muhim belgini aniqlashda predmet yoki hodisaning muhim va ahamiyatsiz belgilari orasidagi farqni tushuntirish;

– Muhim belgilarga e'tibor berish va ob'ekt yoki hodisani umumiy toifaga ajrata olish va hokazo. V.A.Suxomlinskiyning ta'kidicha, bolani bilim bilan ortiqcha yuklashning hojati yo'q, ularni o'qitish qiziqarli va oson bo'lishi kerak, shunda o'quvchilarning o'zlari darsga intiladilar. Buning uchun, ta'lim jarayoni o'quvchilarning yoshiga mos keladigan turli xil didaktik vositalar, shakllar, usullar va o'qitish vositalarini o'z ichiga olishi lozim. Psixologik-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish va taniqli o'qituvchilarning pedagogik tajribasini o'rganish asosida, yosh mutaxassislarining mantiqiy fikrlashini ya'nada rivojlantirish quyidagicha amalga oshiriladi<sup>34</sup>:

– Auditoriyada talabalarning o'zini namoyon qilishi va tashabbuskorligi uchun, qulay bo'lgan do'stona muhit yaratish. Talaba o'zini erkin his qilishi kerak, bosim ostida emas;

– Talabalarning qiziqishlarini saqlab qolish uchun, turli didaktik usul va vositalardan foydalanish kerak. Bir martalik ish vaqtida talabalar tez charchaydilar, bilish faolligi susayadi, natijada darslar samarasiz bo'ladi;

---

<sup>31</sup>Гальперин П.Я. Психология как объективная наука: Избр. психол. тр. /Под ред. А.И. Подольского. - М., Воронеж: МОДЭК, 1998. – 480 с.

<sup>32</sup>Истомина Н. Б. Математика, 2 класс/ Н. Б. Истомина. – Смоленск // Ассоциация XXI век, Изд. 13. - 2003. - ч.1. - С.70 - 71.

<sup>33</sup>Белошистая А. В. Вопросы обучения решению задач / А. В. Белошистая // Начальная школа Плюс До и После. - 2002. - № 10.

<sup>34</sup> Сухомлинский В.А. О воспитании. - М.: Школьная пресса, 2003 – С.49.

– Talabalarni xato qilishdan qoʻrqmasdan oʻz fikrini aytishga va oʻz nuqtai-nazarini himoya qilishga undash lozim. Har bir oʻquvchi oʻz fikrini muhimligini his qilishi, shu bilan birga, sinfda kimningdir taklifiga, javob variantlariga nisbatan qattiq tanqid boʻlmasligi kerak. Barcha munozarali vaziyatlar muhokama qilinib, kelishuvlar asosida hal qilinishi maqsadga muvofiq sanaladi;

– Talablar faoliyati natijalarinigina emas, balki ishni bajarish jarayonini ham baholashi kerak. Umuman olganda, professor-oʻqituvchilar talabalarning muammoni hal qilish darajasiga qarab, ularni mukofotlab turishi lozim;

– Talabalarni yangi yechimlarni izlashga va guruhdoshlarining muammolarini tahlil qilishga undash. Bunday yondashuv nafaqat mantiqiy tafakkurni rivojlantirishga, balki talabalarning innovatsion va kognitiv qobiliyatlari sifatini oshirishga ham keng xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, boʻlajak soha egalarida mantiqiy fikrlashni shakllantirishning pedagogik shartlaridan biri bu, ularni qarama-qarshiliklar bilan ishlashga jalb qilishdir. Buning uchun, oʻquv jarayonida talabalarning tafakkuri - qarama-qarshiliklarga duch keladigan vaziyatlarni yaratish kerak. Zamonaviy pedagogik amaliyot shuni koʻrsatadiki, mantiqiy fikrlash quyidagi taʼlim vaziyatlarida samarali shakllanadi:

- 1) Muloqot orqali muammoni hal qilish;
- 2) Qarama-qarshiliklar oʻrtasida aloqa oʻrnatish;
- 3) Inkor orqali tasdiqlash (paradoks);
- 4) Qarama-qarshilikning namoyon boʻlishi va hokazo.

## **VIRTUAL OLAM TAʼSIRINI OʻRGANISHNING PSIXOLOGIK MASALALARI**

**Doʻsanov E.A. – Navoiy davlat pedagogika instituti “Umumiy psixologiya va pedagogika” kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi**

**Annotatsiya.** Mazkur maqola virtual olam taʼsirini oʻrganishning psixologik masalalari mavzusiga bagʻishlangan. Shuningdek, maqolada virtual olam tushunchasi va uning mohiyati, interner va inson munosabatlari, axborotlar va ularning inson ongiga taʼsiri, internetga tobelik va uni keltirib chiqaruvchi omillar, oʻsmirlik yoshida virtual olam taʼsiriga berilishning psixologik oʻziga xosliklari, virtual olam taʼsiridan himoyalashning psixologik yoʻllari kabi masalalar ham keng yoritilgan.

**Kalit soʻzlar:** Virtual olam, axborot, yoshlar, oʻsmir yoshlar, psixologik himoyalalanish, internet tarmogʻi, media olam, kompyuter, kiberxavflar, psixologik baholash, shaxslararo munosabatlar, yoshlgʻizlik, axborot texnologiyalari, axborot jamiyati.



## **ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ВОПРОСЫ ИЗУЧЕНИЯ ВОЗДЕЙСТВИЯ ВИРТУАЛЬНОГО МИРА**

**Дусанов Э.А. - научный сотрудник кафедры «Общая психология и педагогика» Навоийского государственного педагогического института**

**Аннотация.** Данная статья посвящена теме психологических проблем изучения эффектов виртуального мира. Также в статье рассматриваются понятие виртуального мира и его сущность, внутренние и человеческие отношения, информация и ее влияние на сознание человека, зависимость от Интернета и факторы, ее вызывающие, психологические особенности воздействия виртуального мира в подростковом возрасте. и психологические способы защиты от влияния виртуального мира.

**Ключевые слова:** Виртуальный мир, информация, молодежь, подростковая молодежь, психологическая защита, сеть Интернет, медиамир, компьютер, киберриски, психологическая оценка, межличностные отношения, молодежь, информационные технологии, информационное общество.

## **PSYCHOLOGICAL ISSUES IN STUDYING THE IMPACT OF THE VIRTUAL WORLD**

**Dusanov E.A. - Researcher at the Department of "General Psychology and Pedagogy" of the Navoi State Pedagogical Institute**

**Annotation.** This article is devoted to the topic of psychological problems of studying the effects of the virtual world. The article also discusses the concept of the virtual world and its essence, internal and human relations, information and its impact on human consciousness, dependence on the Internet and the factors that cause it, the psychological characteristics of the impact of the virtual world in adolescence. and psychological ways of protection from the influence of the virtual world.

**Key words:** Virtual world, information, youth, adolescent youth, psychological protection, Internet, media world, computer, cyber risks, psychological assessment, interpersonal relations, youth, information technologies, information society.

O'tgan asrning eng katta kashfiyotlaridan biri bu - virtual tarmoq, ya'ni internet tarmog'ining yaratilishi bo'ldi. Mazkur tarmoq qisqa vaqt oralig'ida televidenie, radio, gazeta va ko'plab ilmiy va ommabop jurnallarni orqada qoldirdi. Hozirgi vaqtga kelib, dunyo miqyosida, son-sanoqsiz odamlar internet tarmog'i xizmatlaridan keng ko'lamda foydalanmoqdalar, o'zaro axborotlar almashib, o'z bilimlarini oshirishmoqdalar shu bilan birga, turli hayotiy, kasbiy, masalalarni zudlik bilan hal kilmokdalar. Bir so'z bilan aytganda, yoshidan, qaysi ijtimoiy guruh yoki qatlamga mansubligidan qat'iy-nazar, internetdan foydalanuvchilarning soni kun-sayin ortib bormoqda. Ayniqsa, voyaga yetmagan yoshlar guruhi sonining ortib borayotganligi bunga yaqqol misoldir. Shu bois ham, virtual olam ta'siridan yoshlarni himoyalash, ularning zamonaviy axborotlar bilan ishlash ko'nikmalarini takomillashtirish, inson

ongiga ta'sir etuvchi salbiy axborot oqimining o'ziga xosliklarini ilmiy o'rganish, virtual olamga tobe bo'lishning psixologik, pedagogik sabab va oqibatlarini aniqlashtirish shuningdek, virtual olamga bog'lanib qolishning salbiy oqibatlari yuzasidan, ta'lim muassasalarida keng qamrovli tashviqot ishlarini olib borish, jamiyatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar turkumidan biridir. N.A.Nosovaning tarificha, virtual olam vositalari – bu yangi axborot texnologiyalari, axborot qidiruv va uzatish tizimlari shubhasiz, yaqin kelajakda mutlaq erkinlik darajasiga yetadi. Ushbu keng ko'lamli axborot tuzilmalari bilan bir qatorda, unga aloqador yana bir tizim – virtual olam ta'siri ham yanada ortadi<sup>35</sup>. Virtual olam – bu insonga ko'rish, eshitish, hidlash, teginish va boshqa hislar orqali taqdim etilgan texnik vositalar yordamida yaratilgan dunyodir deb ta'kidlaydi E.D.Nevesenko<sup>36</sup>. Virtual olamning ta'siri o'smirlar xulqida “simulyatsiya” reaksiyasi sifatida namoyon bo'ladi, ya'ni bu o'smirning virtual olam hodisalariga taqlid qilishi yoki ularni o'zlashtirish bilan yakun topadi. Ayrim ilmiy manbalarda yozilishicha, virtual olam – bu axborot texnologiyalari orqali, insonlarning xohishiga ko'ra, vaqt-makon muhitini o'zgartirish orqali shakllanadigan, yangi sun'iy illyuziyali olamdir. I.A.Nikolaevning yozishicha, mazkur “olam” mazmunida inson o'z haqiqiy dunyosiga o'xshash yoki undan juda farq qiluvchi ko'plab taqlid qilinadigan tajribalarni boshdan kechirishi mumkin. Virtual olam vositalari o'yin-kulgi (ayniqsa, video o'yinlar), ta'lim va o'qitish (til o'rganish, ta'lim olish) va biznes masalalari (masalan, virtual uchrashuvlar, yangi loyihalar) kabilarni o'z ichiga olgan texnologik majmuallar to'plamidir<sup>37</sup>.

I.A.Lipkovning asarlarida keltirilishicha, insoniyat sivilizatsiyasining rivojlanish bosqichida bir qancha axborot yutuqlari qo'lga kiritilgan yani: Ulardan birinchisi, axborotni yozish orqali avloddan-avlodga yetkazishdir. Ikkinchisi esa, nashriyotlarning paydo bo'lishidir. Uchinchi yutuq – bu elektr energiyasining paydo bo'lishi natijasida hosil bo'lgan telefon, televizor, radio va boshqalar. 20 asr oxiridan paydo bo'lgan to'rtinchi yutuq esa, kompyuter texnikasining tarmoq texnologiyasi bilan integratsiyalashuvi oqibatida shakllangan va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari nomi bilan mashhur bo'lgan, yangi axborot yutug'idir<sup>38</sup>. Demak, hozirgi kunda ushbu axborot yutug'i – hayratlanarli o'zgarishlar ortida turgan asosiy kuchga aylanib ulgurdi. Tadqiqotchi A.B.Sorokinaning tahliliga ko'ra, “Axborot jamiyati” tushunchasi o'tgan asrning 70-yillarida yapon olimlari tomonidan taklif qilingan. Hozirda ushbu ilg'or g'oya insoniyat sivilizatsiyasi, ilm-fan va ta'limning yuksalishiga, davlat ijtimoiy-siyosiy tuzilishining taraqqiyotiga va barqaror rivojlanishga katta ta'sir ko'rsatib, ko'plab mamlakatlar e'tiborini o'ziga torta oldi<sup>39</sup>. G'oyaning asosini esa, virtual olamda mujassam bo'lgan axborot texnologiyalari

<sup>35</sup>Виртуальная реальность: философские и психологические проблемы Текст. / Под. ред. Н. А. Носова. М.: Центр виртуалистики ИЧ РАН, 1997. – С.38.

<sup>36</sup>Невесенко Е. Д. Влияние виртуальных сетевых сообществ и сети интернет на развитие социальной активности молодежи : Автореф. дис. ... канд. фи-лос. наук / Е. Д. Невесенко. - СПб., 2014. – С.15.

<sup>37</sup>Николаев И. А. Виртуальность как естественнонаучный, технический и культурный феномен: дис. ... канд. филос. наук / И. А. Николаев. - Саратов, 2004. – С.52.

<sup>38</sup>Липков А. И. Ящик Пандоры: феномен компьютерных игр в мире и в России / А. И. Липков. - М.: Изд-во ЛКИ, 2008. – С.43.

<sup>39</sup>Сорокина А. Б. Интернет в жизни современных детей и подростков: проблема и ресурс / А. Б. Сорокина // Современная зарубежная психология. -2015. - Т. 4. - 1. - С.45-64.

tashkil etadi. Va u hozirgi kunda butun dunyoda favqulodda sur'atlar bilan tez rivojlanib bormoqda.

Virtual olamga qaram bo'lgan o'smir yoshlar birinchi navbatda, kognitiv, motivatsion va xulq-atvor sohalarida o'zgarishlarga uchraydi. Shu bilan birga, motivatsion vaziyatda qaram ob'ektga haddan tashqari, hissiy munosabat paydo bo'ladi, boshqa ob'ektlarga nisbatan, qaram ob'ekt haqidagi fikrlar ustuvorlik qiladi, o'smir xulq-atvorida himoya mexanizmi bo'lgan, tajovuzkor xatti-harakatlar kuchayadi. Demak, "virtual" so'zining birinchi lug'aviy ma'nosiga qaraydigan bo'lsak, u «ko'rinmas» degan ma'noni bildiradi. Bu so'zni yanada soddalashtirsak, insonning internetdagi axborotlarga mukkasidan ketishi oqibatida real hayotdan uzilishi, odamlarga ko'rinmay, o'zi bilan o'zi qolishdir. Ikkinchi lug'aviy ma'nosiga e'tibor beradigan bo'lsak, internetdagi voqealar bizga voqeiy (real) bo'lib ko'ringan, lekin vazifalari boshqa moslamalar orqali bajarilgani uchun xam, u virtual, ya'ni butunlay boshqa olamdir. Bundan tashqari, tadqiqot doirasidagi ma'lumotlarni yanada kengroq yoritishish maqsadida, "virtual olam" iborasi bilan birga "kibermakon" atamasiga ham e'tibor qaratishimiz maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Kibermakon (ingl: cyberspace) tushunchasi kanadalik yozuvchi Uilyam Gibson tomonidan 1984 yili "Cyberspace" (Kibermakon) deb nomlangan trilogiyasi, birinchi romanining "Neuromancer" chop etilishi bilan bog'liq<sup>40</sup>. U dunyoning barcha kompyuterlaridagi elektron ma'lumotlar aylanib yuradigan virtual makonni ta'riflaydi. Demak, hayotda hamma narsa paydo bo'lishining asosiy sabablari bor. Hech bir narsa besabab vujudga kelmaydi. Insonlarning eng asosiy kamchiliklarimizdan biri bu, agar jamiyatda jinoyat sodir bo'lsa, birinchi navbatda jinoyatchini jazolaymiz. Ya'ni ko'pincha jinoyatning oqibati bilan ko'proq kurashamiz. To'g'ri, jinoyatga jazo muqarrar. Lekin jinoyatning paydo bo'lish sabablari bir chekkada qolib ketadi. Jinoyatning sodir bo'lish sabablari, omillari, ya'ni ildizini topsak, ko'plab turdagi jinoyatlarni oldini olgan bo'lamiz. Bundan tashqari, o'smir yoshlarning virtual olamga bog'lanib qolishining qator ijtimoiy – psixologik sabablari ham ajratib o'tiladi. Tadqiqotchi L.P.Shipovskayaning so'zlariga ko'ra, mazkur sabab va oqibatlar quyidagilarda o'z aksini topadi<sup>41</sup>:

– Oilada sog'lom psixologik muhitning yo'qligi, ya'ni farzand tarbiyasidagi bo'shliqning mavjudligi;

– Ota onalarning o'z farzandlariga e'tiborsizligi, farzandiga yetarli darajada mehr bermasligi, ularning qiziqishlari bilan umuman qiziqmasligi oqibatida, o'smir yoshlar ko'pincha, o'zlariga darddosh, sirdosh bo'ladigan insonni virtual olamdan qidirib topishga majbur bo'lish holati;

– Virtual olam – bu avlodlar o'rtasidagi ya'ni kattalar va yoshlar o'rtasidagi munosabat muhitining buzilish nuqtasi ekanligi;

– Yoshlarning qarashlarida yer yuzini virtual olam qamrab olgan yoki unda real hayotdan farq qiluvchi qoidalar, maqsadlar, yangi virtual munosabatlar majumi aks etganligi holati. Demak, o'smir yoshlar ushbu yangi muhit qoidalarida, ular o'zlari uchun muhim sanalgan eng qiziqarli, eng munosib xatti – harakatlar shakllari

<sup>40</sup>Гибсон У. Нейромант. М.: ООО «Издательство АСТ»; СПб.: Terra Fantastica, 2000. – С.66.

<sup>41</sup>Шиповская Л.П. Виртуальная реальность. Потребность в новых информационных технологиях // Сервис PLUS. – 2010. – № 4. – С.36 – 45.

tanlaydilar. Har qanday faoliyat kabi, u ham o'ziga xos motivatsion asosga egadir. Insonning virtual tarmoqqa bog'lanishining motivatsiyasi o'rgangan tadqiqotchilar orasida A. Ye. Voyskunskiy va O. V. Mitina, A.A. Arestovalarning ishlarini alohida e'tirof etish mumkin. Mualliflarga ko'ra, virtual olam bog'lanishning quyidagi motivlarini ajratishga harakat qiladilar<sup>42</sup>:

– Biznes motivi. Ko'pchilik iste'molchilar uchun internetda ishlash – bu aniq maqsadga, ya'ni natijaga erishishga qaratilgan professional xizmatning tuzilgan qismidir. Bu ma'lum bir ma'lumotni izlash, ma'lum bir shaxs bilan o'zaro munosabat o'rnatish va aloqa qilish, ma'lum bir bo'lim ishini tashkil etish va boshqalar. Bunda muayyan biznes natijalariga yo'naltirilgan biznes, motivatsiyasining ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi;

– Muloqot motivi (kommunikativ motiv). Bu yangi tanishlar, o'z qiziqishlarga yaqin insonlarni izlash, fikr almashish bilan tavsiflanadi. Bunday motivlar insonning tabiiy ehtiyoji bilan uzviy bog'liq bo'lgan - bilim, fikr, his-tuyg'ularning o'ziga xos shakllaridan iboratdir;

– Hamkorlik qilish motivi. Odamlarga xizmat ko'rsatishning eng ko'p turi yoki tuzilishidan qat'i-nazar, ijtimoiy xususiyatga ega xizmatlardir. Internetda ishlash jarayonida, mijozlarning boshqalar bilan hamkorlik qilishga bo'lgan munosabati, hamkorlik motivlarining ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi;

– O'z-o'zini kashf qilish motivi. Bunday motivlar chuqur psixologik hodisalar va fenomenologik tarkiblarga asoslanadi. Ya'ni o'zini o'zi qadrlash, davogarlik darajasi, muvaffaqiyat motivatsiyasi va boshqalar. Inson faoliyati juda tez-tez muvaffaqiyatli bo'ladi, lekin inson o'z qadr-qimmatini o'ziga va boshqalarga isbotlay olishi lozim. Mazkur motivlar guruhi sub'ektning shaxsiy qadriyatlari turiga qarab, turli xil faoliyat turlarida amalga oshiriladi;

– Dam olish motivi va o'yin motivi. Qoidaga muvofiq, o'yin va dam olish har bir inson hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. O'yinlar va dam olish motivlari, mehnat qilishga qaratilgan imkoniyatni me'yorlashdan tashqari, faoliyatning yangi turlarini o'zlashtirish, o'qitish va o'z qobiliyatlarini sinab ko'rish, raqobatlashish kabi holatlarga ham uzviy aloqador sanaladi. Virtual makonda har bir kishi, o'ziga eng ma'qul va qiziqarli bo'lgan o'yin turini topishi mumkin;

– Qo'shilish motivi. Mazkur motivlar inson faoliyati va uning xulq-atvorining ijtimoiy mazmunini aks ettiradi. Bunda shaxsning ma'lum bir guruhga mansub bo'lishi, uning qadriyatlarini qabul qilishi va ularga rioya qilishi, guruh tarkibida o'z o'rnini egallash kabi holatlarda o'z aksini topadi.

Umuman olganda, virtual olam ta'siri muammosi fanlararo tadqiqotlarning predmeti sanalib, unda axborotlarning inson ongiga ta'sir etishining psixologik, pedagogik, biologik, etnomadaniy jihatlari kabilar alohida hisobga olinadi. Shu bois ham, bu borada kengroq psixologik tadqiqotlar olib borish, yoshlarni virtual olam ta'sirlaridan himoyalash yuzasidan, psixologik taklif va tavsiyalar ishlab chiqish ishlari o'ta muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

---

<sup>42</sup>Войскунский А. Е., Митина, О. В., Аветисова, А. А. Общение и «опыт потока» в групповых Интернет-играх / А. Е. Войскунский, О. В. Митина, А. А. Аветисова // Психол. журн. - 2005. - Т. 17. - № 5. - С. 47 - 63.

## **DINIY BAG'RIKENGLIK IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK FENOMEN SIFATIDA**

**Xolmatov M.A. – Toshkent xalqaro islom akademiyasi doktoranti**

**Annotatsiya.** Mazkur maqola diniy bag'rikenglik ijtimoiy-psixologik fenomen sifatida mavzusiga bag'ishlangan, shuningdek, maqola mazmunida diniy bag'rikenglik tushunchasini o'rganishning ilmiy an'analari, uнинг shaxslilik sifatлари bilan o'zaro aloqasi hamda diniy bag'rikenglikda ijtimoiy-psixologik xususiyatlarning roli kabi masalalar, o'ziga xos tarzda ilmiy asoslar bilan yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Bag'rikenglik, diniy bag'rikenglik, shaxs, psixologik ta'sir, ijtimoiy-psixologik fenomen, xulq-atvor, affektiv soha, konitiv soha, emotsional soha, o'zgalarga munosabat, emotsional munosabat, tolarant fikrlash.

## **РЕЛИГИОЗНАЯ ТОЛЕРАНТНОСТЬ КАК СОЦИАЛЬНО- ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ ФЕНОМЕН**

**Холматов М.А. - докторант Ташкентской Международной Исламской Академии**

**Аннотация.** Данная статья посвящена теме веротерпимости как социально-психологического феномена, а также научным традициям изучения понятия веротерпимости, ее взаимосвязи с качествами личности, роли социально-психологических характеристик в религиозной толерантности, в уникальным способом, с научным обоснованием.

**Ключевые слова:** Толерантность, веротерпимость, личность, психологическое воздействие, социально-психологический феномен, поведение, аффективная сфера, волевая сфера, эмоциональная сфера, отношение к другим, эмоциональное отношение, толерантное мышление.

## **RELIGIOUS TOLERANCE AS A SOCIAL-PSYCHOLOGICAL PHENOMENON**

**Kholmatov M.A. - Doctoral student of Tashkent International Islamic Academy**

**Annotation.** This article is devoted to the topic of religious tolerance as a socio-psychological phenomenon, as well as the scientific traditions of studying the concept of religious tolerance, its interaction with personality qualities, and the role of socio-psychological characteristics in religious tolerance, in a unique way, with scientific foundations. explained.

**Key words:** Tolerance, religious tolerance, personality, psychological influence, socio-psychological phenomenon, behavior, affective sphere, conative sphere, emotional sphere, attitude towards others, emotional attitude, tolerant thinking.

Tolerantlik fenomenining murakkabligi va ko'p o'lchovlilikgi bir necha yo'nalishlarda namoyon bo'ladi. Eng avvalo bu tolerantlik turlari va ko'rinishlarining turli-tumanligidadir. Bu komponent eng yaqqol ko'rinuvchi va ko'p jihatdan tadqiq etilgan bo'lgani uchun, diniy bag'rikenglik ko'pincha, kognitiv "transkriptsiya" da tasvirlanadi. Bu erdagi asosiy jihatlar murakkablik, ko'p o'lchamlilik, olamni oldindan bashorat qilib bo'lmasligi, u haqdagi individual fikrlar tabiatini tan olishdir. Shuning uchun ham u haqdagi fikrlarni yagona haqiqatga birlashtirishning imkoni yo'q. Yuqoridagi aspektlar tolerantlik tamoyillari Deklaratsiyasida ham ta'kidlab o'tilgan, unda tolerantlik – bu «eng avvalo bizning olamni, insonni individualligining namoyish bo'lish shakllari turlichaligi, boyligini to'g'ri anglashimizdir» deyiladi. Tolerantlikning kognitiv komponenti inson tomonidan murakkablik va ko'p o'lchamlilikni qabul qilish va tushunishdan iborat bo'lib, bular hayotiy haqiqat bilan bir qatorda uni qabul qilish variantlarining turlichaligi, ularni turli insonlar tomonidan turlicha baholanishi va tushunilishi, nisbiy va to'liq emasligi, sub'ektivligidir.

B.S. Alishevning yozishicha, tolerantlik kognitiv o'lchamda aynan qarama-qarshilik holatlarida namoyon bo'ladi: fikrlarning to'qnash kelishi, qarashlarning mos kelmasligi va hakazo. Bu mos kelmaslik plyuralizmni qabul qilish, interpretatsiyalarning boyligidan dalolat beradi. Kognitiv intolerantlik tolerantlikning aksi bo'lib, me'yor mavjudligi poztsiyasidan kelib chiqadi, shuning uchun u fikrlarning ko'p bo'lish imkoniyatini rad etadi va har qanday fikrlar plyuralizmi, insonlarning turlicha nuqtai-nazarlarini xatolik, adashish va xatto atayin qarshi chiqish deb baholaydi. Tolerantlik shuningdek shaxsning suhbatdoshi bilan ma'lum vaziyat ustidan turlicha fikrlar bildirish imkoniyatini ham anglatadi, kognitiv «nizo» shaxslararo nizoga olib kelmaydi<sup>43</sup>. Tolerantlikda empatiyaning ahamiyati beqiyos va bu fikrni deyarli barcha tadqiqotchilar ma'qullagan. Tolerantlikning emotsional tashkil etuvchisining ahamiyati shundaki, aynan shu o'lchov kommunikativ jarayonda suhbatdoshlarni o'zaro umumiylikka erishishlari, uzilgan insoniy aloqalarni tiklashlari imkonini beradi. Bundan tashqari empatiya suhbatdoshlar o'rtasidagi kognitiv yoki xulq-atvor tekisligida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qarama-qarshiliklarni bartaraf etish yoki yumshatish imkonini beradi. To'liq empatiya bebeho va bu ma'noda mazmunan tolerantdir. Emotsional komponentning alohida tashkil etuvchisi sifatida emotsional barqarorlikning o'ziga xos ko'rinishi – «affektiv tolerantlikni» aytish mumkin. Uning mazmuni emotsional tolerantlikni, og'riqli hislarni sabr bilan yengish va hakazo. Tolerantlikni ushbu ko'rinishining boshqa bir aspekti o'zga kishining turli emotsional ko'rinishlariga sabrli munosabatda bo'lish bilan bog'liq. Rivojlangan affektiv tolerantlik insonga shaxsiy emotsional jarayonlari bilan bir qatorda boshqa insonlarning his hayajonlarini yaxshiroq anglashga, asabiylashmay va ulardan yomon ma'no izlamay qabul qilishga yordam beradi.

Ushbu o'lchov "tolerantlik aysbergi" ning eng ko'zga ko'ringan qismini tashkil etadi va odatda o'ziga e'tiborni jalb qiladi. Xulq-atvor tolerantligiga ko'plab

---

<sup>43</sup>Алишев Б.С. Вера как психологический феномен // Современная психология: многообразие научного поиска / Под ред. Р.А. Ахмерова, С.П. Дырина, А.Л. Журавлева. М.: Изд-во «ИП РАН» Набережные Челны: Изд-во института управления, 2007. – С.23 – 37.

ko'nikma va qobilyatlarni kiritish mumkin, V.I. Obren'kovga ko'ra, ular quyidagilardan iborat<sup>44</sup>:

1). Tolerant fikr bildirish va o'z nuqtai-nazarini shaxsiy mulohaza sifatida himoya eta olish qobilyati;

2). Boshqalarning fikrlariga tolerant munosabatda bo'la olish (o'zining shaxsiy fikridan qanchalik farq qilmasin boshqalarning fikri ham yashash huquqiga ega ekanligini tan olish) qobilyati;

3). Nizoli vaziyatlarda (qarama-qarshi nuqtai-nazar, fikrlar to'qnashuvi yuz berganda) tolerant bo'la olish qobilyati;

Oxirgisi alohida e'tiborni talab etadi, nafaqat xulq-atvor o'lchamida balki boshqa o'lchamlarda ham. Tolerantlikning ushbu aspekrlarini tadqiq etishda B.I.Xasanning konflikt va konflikt kompetentligi konsertsiyasi asos bo'lib xizmat qiladi. Kognitiv komponent tolerantlik prinsirlarini qabul qilish, tushunish, fikrlash, interpretatsiyalashni nazarda tutsa, verbal komponent "ilmiy tashkil etuvchilar" bilan chegaralanadi.

Bag'rikenglik bo'yicha xorijiy va mahalliy ishlar shundan dalolat beryaptiki, bag'rikenglik tushunchasiga umumma'noli ta'rif berish mushkul bo'layapti. Shuning uchun bu masalada diversifikatsion yondoshuvga rioya qilinmoqda. Mazkur yondoshuvni muhokama qila turib, I. Pettay bag'rikenglikni ma'lum bir rivojlanish dinamikasi haqida gapiradi va bag'rikenglik shakllanishining bir necha davrlarini ajratib ko'rsatishga harakat qiladi. Binobarin, bag'rikenglikning yuksakroq darajasi doim afzalroq deyish to'g'ri emas. N.L.Ivanovanning aytishicha, bag'rikenglikning chegaralari haqidagi fikrlariga qo'shilgan holda shuni ta'kidlash lozimki, bag'rikenglikning sharoitlarga mos bo'lmagan haddan ziyod ko'tarilishi insonning qarshilik ko'rsata olishi va uni nochorligining o'sishiga, uning differentsiallashtirilgan ta'sirchanligining pasayishi hamda individulligi va aynanligiga xavf-xatarni vujudga kelishiga sabab bo'lishi mumkin<sup>45</sup>.

S.L. Bratchenkoning fikricha, diversifikatsiyaning yana bir muhim jihati bu – bag'rikenglikning psixologik mazmunining ko'pqirrali va xilma-xillik holatidir. Bu shunday dalolat beradiki, bag'rikenglikni faqat bir tushuncha va bitta o'lchovga tayanib batafsil izohlash mumkin emas. Murakkab psixologik jarayonlar va hodisalarni izohlashda odatda komponentlarning uchligi: kognitiv, emotsional i hulq-atvorlilikdan foydalaniladi. Bag'rikenglik muammosi tahlili uchun ham mazkur sxemadan foydalanish harakatlari paydo bo'la boshladi. Bag'rikenglikning kognitiv komponenti olamning murakkabligi, ko'p o'lchovlikligi, va ko'pqirraligini va uni bir qolipdalikka mos emasligini e'tirof etish orqali tushuniladi. Aynan shu jihatlar bag'rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasida ta'kidlanadi. Chunki, bag'rikenglik bu - «... bizning olam boy madaniyatining ko'pqirraligini, o'zligimizni namoyon etish shakllari va inson individualligini namoyon qilish vositalarini to'g'ri tushunish» deb

<sup>44</sup>Добренъков В.И. Методологические вопросы исследования религии: учебное пособие. /В.И. Добренъков, А.А. Радугин. - М.: Гаудемаус, 2002. – С.85.

<sup>45</sup>Иванова Н.Л. Идентичность и толерантность: соотношение этнических и профессиональных стереотипов//Вопросы психологии, 2003, №5. – С.77.

e'tirof qilishdir<sup>46</sup>. Bag'rikenglikning emotsional komponenti empatiyani bag'rikenglik munosabatlarini tashkil qiluvchi sifatida ifodalaydi. Emotsional komponenting aohida tashkil etuvchi sifatida ayrim olimlar, emotsional mustahkamlikning alohida turi – “affektiv bag'rikenglik” ni alohida ajratib ko'rsatadi. Uning mohiyati shundan iboratki, bunda emotsional tig'izlikni jilovlash, achchiq kechinmalarga chidalilik bilan munosabatlarda bo'lish taqazo etiladi. Bag'rikenglikning bunday turini boshqa jihati S.L. Bratchenko fikricha boshqa kishilarning turli emotsional ko'rinishlariga chidamlilik asosida munosabatda bo'lish bilan bog'liqdir. Rivojlangan «affektiv bag'rikenglik» insonga nafaqat o'zining emotsional jarayonlarini, balki boshqalarning kechinmalarini ularni asabiylashtirmasdan va ularga salbiy ma'no kasb etmasdan yaxshi anglashga imkoniyat yaratadi.

Bag'rikenglikning hulq-atvor komponenti odatda tadqiqotchilarni ham diagnostika, ham o'qitish jarayonida o'ziga ko'proq jalb etadi. Hulq-atvorli bag'rikenglikka katta hajmdagi konkret mohirlik va qobiliyat taalluqlidir. Yu. A. Gayurova ularning orasidan quyidagilarni alohida ajratib ko'rsatadi<sup>47</sup>:

– O'z pozitsiyasini nuqtai nazar sifatida, bag'rikenglik asosida bayon eta olish qobiliyati;

– Boshqalarning fikrlariga bag'rikenglik bilan quloq sola olish va kelishuvga kela olishga tayyorlik;

– Murakkab va tahlikali vaziyatlarda bag'rikenglik hulq-atvorini namoyon qilish. Shuningdek, ushbu muallif yana bir shartli «bag'rikenglik komponenti» – verbalni alohida ajratishni taklif qiladi. Agarda kognitiv komponent bag'rikenglik tamoyillarini amalga oshirish yo'nalishida idrok qilish, tushunish, tafakkur, talqin qilishni aniq o'lchashni nazarda tutsa, verbal komponent esa bilimlarni tashkil qilish bilan cheklanadi.

V.N. Nedorezovaning so'zlariga ko'ra, bag'rikenglik juda oddiy va yuzaki o'lchovi bo'lib, u kishining bag'rikenglik g'oyalari bilan tanishligi va bu haqda u yoki bir sayoz fikrni bildirishi mumkinligi, lekin bu mavzuda konkret jiddiy mulohaza qila olmasligi haqida dalolat beradi. Shuningdek, bag'rikenglikni qadriyatli-ma'noliy yondoshuv tarzida mustahkam poztsiya sifatida o'rganish jarayonida bu muammo shaxsiy ustanovkalar, qadriyatlar va ma'nolar muammosi sifatida gavdalanadi, zero aynan ular bir tomondan shaxsning ichki dunyosi, uning xissiyotlari va kechinmalarini belgilasa, ikkinchi tomondan esa shaxs hulq-atvorni belgilab beradigan motivatsion-muvofiqlashtirish tushuncha sifatida namoyon bo'ladi<sup>48</sup>.

Ekzistentsial-gumanistik yondoshuvga muvofiq, insonni o'zi va atrofida qilarga munosabati mustahkam tarzda bog'liqdir. Bag'rikenglikni shaxsni tashkil etuvchi sifatida tasavvur qiladiga boshqa an'ana esa T. Adorning «avtoritar shaxs»

<sup>46</sup> Братченко С.Л. Гуманистическая психология как одно из направлений движения за ненасилие. Спб., 1999. – С.68.

<sup>47</sup> Гаюрова Ю.А. Культурные ценности как детерминанты межэтнической толерантности-интолерантности // Идентичность и толерантность.- М., 2002. – С.45-47.

<sup>48</sup> Недорезова Н.В. Толерантность в межличностном общении старшеклассников. Дисс. к. псих.н. -М. 2005. – С.39.



kontsepsiyasida ishlab chiqilgan, shuningdek, E. Fromma, M. Xorkxaymera, M. Rokicha va G. Markuze nazariyalari ham mazkur an'ana xususiyatiga tayanib ilgari surilgandir. Mazkur yo'nalishlardagi ishlarda avtoritarlikni intolerantlik bilan aloqasi ochib berilgan. Binobarin, ushbu yo'nalishlarda shaxslararo bag'rikenglikning asosiy o'lchovi bo'lib: shaxsiyatli, kognitiv, emotsional, hulq-atvorli va verballik namoyon bo'lishadi. I.G.Arsibashevning xulosalariga ko'ra, bag'rikenglik diologik yondoshuv nuqtai nazardan turib ko'riladi, bu esa bag'rikenglik muammosining barcha asosiy jihatlarini ifodalaydi. Bu o'lchovda deb, ta'kidlaydi. Asosiysi bag'rikenglikning «shaxs ichki sharoitlari»dir, ya'ni kishilar orasidagi farqning tabiiyligi va muqarrarligini tushunish hamda ushbu farqlarni xurmat qilishga tayyor turishdir<sup>49</sup>. Shuningdek, har bir kishining huquq va erkinliklarini tan olish, boshqalar bilan birga yashay olishlik, ular bilan zulm dan yirioq bo'lgan o'zarohamkorlikka kirishish, ya'ni dialogga kirishishga tayyor bo'lish.

Dialog kontsepsiyasida shaxslararo bag'rikenglik shuningdek «shaxsning kommunikativ huquqi» konstruktiv yordamida ochib berilishi va tadqiq etilishi mumkin. Uning yordamida muloqotning psixologik-huquqiy tizimi izohlanib, u suxbatdoshlar erkinliklari chegarasini shunday belgilab beradiki, bu hol ularning o'zarohamkorligini bir-birlarini e'tirof etishlari va zulm qilmasliklarini ta'minlaydi. Shaxs kommunikativ huquqining asosiy, bazaviysi - o'zining qadriyatlar tizimi, g'ururga ega bo'lish huquqi va uni xurmat qilish, individuallik va o'zigaxoslik, suxbatdoshdan farqlilik va h.z. dir. Umuman olganda biz, tolerantlik fenomenining differentsiyallashgan tushunchasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- Tabiiy (natural) tolerantlik – kichik bolaga xos bo'lgan va uning shaxsiy “Men” sifatleri assotsiatsiyalashmagan - ochiqlik, mehribonlik, ishonuvchanlik (“A” tipli tolerantlik);

- Ma'naviy tolerantlik – insonning tashqi “Men”i bilan assotsiatsiyalashgan sabr, sabrlilik (“B” tipli tolerantlik);

- Ahloqiy tolerantlik – ichki “Men” bilan assotsiatsiyalashgan qabul qilish va ishonch tuyg'ulari (“V” tipli tolerantlik). Endi esa, ushbu tolerantlik tiplari ta'rifiga to'xtalib o'tamiz:

“A” tipdagi tolerantlik – bu boshqa bir insonni so'zsiz tabiiy ravishda, boricha qabul qilish, unga nisbatan qadrlil va aziz mavjudot sifatida munosabatda bo'lishdir. Bunday tolerantlik yosh bola hayotida katta o'rin egallaydi, chunki uning shaxs bo'lib shakllanish jarayoni hali individual va ijtimoiy tajribalarni his yetishga yetib bormagan.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy psixologiyada tolerantlik ko'pgina ko'rinishlar, bo'g'inlar, tiplar, variantlar turlarga bo'linib, o'rganilib boradi. Tolerantlik bo'yicha psixologik tadqiqotlarni tizimlashtirishga urinishlar murakkabliklarga duch keladi va “tolerantlik” atamasi deyarli har qanday psixologik fenomenga yaqin kategoriya bo'lib qoladi.

---

<sup>49</sup>Арцыбашев И.Г. О некоторых аспектах проблемы толерантности в отношениях средств массовой информации и профессиональной сферы // К 40- летию философского факультета: Труды аспирантов и докторантов. – Екатеринбург: Уральский государственный университет, 2005. – С.3-9;

**Bosh muharrir:**

Umarov Alisher Yusbjanovich

**Bosh muharrir o‘rinbosari:**

Abdullayeva Barno Sayfutdinovna

**Tahrir hay’ati:**

Asqarov A.A., Djurayev R.X., Begimqulov U.Sh., Muslimov N.A.,  
Xaliqov A.A., Djamilova N.N., Sadikova A.V., Mamarajabova Z.N.,  
Masharipova U.A., Ishquvvatov V.T., Xalilova N.I., Nurullayev M.E.,  
Axmedova N.M., Xo‘janazarov O‘., Abdug‘aniyev O.T.

**Tahriryat manzili:**

Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi 27-uy

**e-mail: [tdpuia@mail.ru](mailto:tdpuia@mail.ru)**

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti “Tahrir va nashr”  
bo‘limida chop etildi. Adadi 10 nusxa. Hajmi 15 b/t. Bichimi 60x84 <sup>1</sup>/<sub>8</sub>

Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi 27-uy